

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MAXMUDOV N.M., ESHOV M.P.,  
BO'STONOV M.M., TAVAKKALOV J.T.**

**JAHON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif  
vazirligi**

**oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar  
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan  
oliy o'quv yurtlarining  
iqtisodiy ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun o'quv  
qo'llanma  
sifatida tavsiya etilgan**

## **TOSHKENT - 2011**

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**TASHKENT STATE ECONOMIC UNIVERSITY**

**MAXMUDOV N.M., ESHOV M.P.,  
BO'STONOV M.M., TAVAKKALOV J.T.**

**INTEGRATION INTO THE WORLD ECONOMY**

This manual is recommended by the group of “controlling scientific organizations activities of higher education” of the Ministry of higher and secondary special education, for the students of higher education establishments majoring in economy

**TASHKENT- 2011**

**Maxmudov N.M., Eshov M.P., Bo'stonov M.M., Tavakkalov J.T.**  
**Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. - (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2011 – 215 bet.**

Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda so'ngi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar natijalari hamda jahon iqtisodiyotiga sobitqadamlik bilan kirib borayotgan mustaqil davlatlarning tajribalari, rivojlangan mamlakatlarning amaliy yondashuvlari, shuningdek, mualliflar tomonidan o'qilgan ma'ruzalar asos qilib olingan.

Talabalar kursni o'rganish natijasida olingan bilim va tajribalarini kelgusidagi iqtisodiy tartibga solish amaliyotlarida qo'llay olishlari lozim.

Qo'llanma iqtisodiy ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir: i.f.d., professor Jumaev N.X.

Taqrizchilar: i.f.d., professor Ishmuhamedov A.E.;  
i.f.d., professor Juraev T.T.  
katta o`qituvchi Sattarov S.A.

**Maxmudov N.M., Eshov M.P., Bo'stonov M.M., Tavakkalov J.T.**  
Integration into the world economy. (manual) – T.: TSEU, 2011 – 215 pages.

The manual is based on the economic experience of developed countries, experience of Uzbekistan , especially during current years in the direction of market development, and the lectures read by the author.

The students should be able to use the acquired knowledge in practice after studying manual.

The manual is for the students majoring in “Economics”.

Responsible editor:doctor of economic science, professor Jumayev N.X.

References: doctor of economic science, professor Ishmuhamedov A.E.;

doctor of economic science, professor Juraev T.T.

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH</b>	<b>6</b>
<b>I - BOB</b>	<b>TRANSFORMATSIYA DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTI</b>	<b>9</b>
1.1.	Iqtisodiyot modellari	9
1.2.	Jahon iqtisodiyotining hozirgi ahvoli	13
1.3.	O'tkinchi iqtisodli mamlakatlarda TIF rivojlanishi	14
	<b>Qisqacha xulosalar</b>	<b>18</b>
	<b>Nazorat va muhokama uchun savollar</b>	<b>18</b>
	<b>Asosiy adabiyotlar</b>	<b>18</b>
<b>II- BOB</b>	<b>«JAHON IQTISODIYOTIGA FANINING INTEGRATSIYA» TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLARI</b>	<b>19</b>
2.1.	Tashqi iqtisodiy munosabatlar haqida tushuncha	19
2.2.	Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni belgilovchi omillar	24
2.3.	Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda ishlab chiqarish hamkorligi	25
2.4.	Tashqi iqtisodiy faoliyatda fan-texnika hamkorligi	28
2.5.	Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda tashqi savdoni tartiblashning notarif usullari	30
	<b>Qisqacha xulosalar</b>	<b>33</b>
	<b>Nazorat va muhokama uchun savollar</b>	<b>33</b>
	<b>Asosiy adabiyotlar</b>	<b>34</b>
<b>III- BOB</b>	<b>JAHONNING ASOSIY INTEGRATSION GURUHLARI</b>	<b>35</b>
3.1.	Hududiy integratsion komplekslarni shakllantirish	35
3.2.	Evropa Hamjamiyati – jahon iqtisodiyotiga integratsiyada etuk iktegratsion guruh	39
3.3.	Evropa Valyuta Ittifoqi	43
3.4.	Shimoliy Amerika mamlakatlari va Tinchokean Hamjamiyatining jahon iqtisodiyotiga integratsiya xususiyatlari	46
	<b>Qisqacha xulosalar</b>	<b>48</b>

	<b>Nazorat va muhokama uchun savollar</b>	48
	<b>Asosiy adabiyotlar</b>	49
<b>IV- BOB</b>	<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON XO'JALIK TIZIMIDAGI INTEGRATSIYASI - TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING ASOSI</b>	51
4.1.	Tashqi iqtisodiy faoliyat shart sharoitlari	51
4.2.	O'zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning rivojlanishi	55
4.3.	Tashqi iqtisodiy faoliyatning investitsiyaviy, va huquqiy bazasi	61
4.4.	O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari	64
	<b>Qisqacha xulosalar</b>	66
	<b>Nazorat va muhokama uchun savollar</b>	66
	<b>Asosiy adabiyotlar</b>	67
<b>V-BOB</b>	<b>EVROPA IQTISODIY HAMJAMIYATI</b>	69
5.1.	Bojxona Ittifoqi va Savdo	69
5.2	Evropada yagona ichki bozorning shakllanish asoslari	77
5.3	Evropa Ittifoqida yagona valyuta hududining shakllanishi bilan bogliq muammolar	89
	<b>Qisqacha xulosalar</b>	102
	<b>Nazorat va muhokama uchun savollar</b>	102
	<b>Asosiy adabiyotlar</b>	102
<b>VI - BOB</b>	<b>JAHONDAGI GLOBALIZATSIYA VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARIDA EVROPA ITTIFOQINING TUTGAN O'RNI</b>	104
6.1.	Evropadagi iqtisodiy integratsiya saboqlari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim tajriba sifatida	104
6.2.	Iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarida EIning ahamiyati	113
6.3.	O'zbekistonning Evropa Ittifoqi bilan iqtisodiy hamkorlik istiqbollari	120
	<b>Qisqacha xulosalar</b>	132
	<b>Nazorat va muhokama uchun savollar</b>	132
	<b>Asosiy adabiyotlar</b>	132
<b>VII - BOB</b>	<b>ERKIN IQTISODIY ZONALAR</b>	134

	<b>SHAKLLANISHINING USLUBIY ASOSLARI</b>	
7.1.	EIZ mazmuni va ularning shakllanish printsiplari	<b>134</b>
7.2.	EIZlar iqtisodiy muammolarni hal qilish mexanizmi sifatida	<b>144</b>
7.3.	EIZ faoliyati yo'ritishi uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlar	<b>147</b>
	<b>Qisqacha xulosalar</b>	<b>154</b>
	<b>Nazorat va muhokama uchun savollar</b>	<b>154</b>
	<b>Asosiy adabiyotlar</b>	<b>154</b>
<b>VIII- BOB</b>	<b>XALQARO AMALIYOTDA EIZ TASHKIL QILISH VA UNING FAOLIYAT YURITISHI</b>	<b>156</b>
8.1.	Markaziy va Sharqiy Evropa davlatlarida erkin iqtisodiy zonalar	<b>156</b>
8.2	Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari va Xitoy tajribasi	<b>162</b>
	<b>Qisqacha xulosalar</b>	<b>177</b>
	<b>Nazorat va muhokama uchun savollar</b>	<b>177</b>
	<b>Asosiy adabiyotlar</b>	<b>177</b>
<b>IX - BOB</b>	<b>O'ZBEKISTONDAGI ERKIN IQTISODIY ZONANING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHIDA AMALIY CHORALAR</b>	<b>178</b>
9.1	O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishida ustuvor yo'nalishlar va EIZ ni tashkil qilish omillari	<b>178</b>
9.2.	O'zbekistonda EIZ tashkil qilishning iqtisodiy geografik sharoitlari (Navoiy Erkin industrial iqtisodiy zona misolida)	<b>184</b>
9.3	EIZga tegishli iqtisodiy siyosat mexanizmlar	<b>191</b>
	<b>Qisqacha xulosalar</b>	<b>195</b>
	<b>Nazorat va muhokama uchun savollar</b>	<b>195</b>
	<b>Asosiy adabiyotlar</b>	<b>195</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI</b>	<b>197</b>
	<b>ILOVALAR</b>	<b>206</b>

## KIRISH

Jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnnini topib borayotgan O'zbekiston hozirgi kunga kelib dunyo hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda фаол ishtirok eta boshladi. SHu bilan birga mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni dunyo standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan qila olish bugungi kunning asosiy maqsadiga aylandi. Buning uchun esa, mamlakatimiz hududlarida zamonaviy юқори texnologiyali ishlab chiqarish asbob uskunalarini o'rnatish, qolaversa, hududlarga xorijiy investisiyalarini, birinchi galda to'fridan-to'fri investisiyalarini jalb etish, transport va ijtimoiy inforatuzilmasini rivojlantirish hukumatimizning oldida turgan asosiy vazifalaridandir.

Zamonaviy globallashuv jarayonida iqtisodiy taraqqiyot va mintaqaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda va bu jarayonlarda mamlakatimiz singari boshqa davlatlar ham birday manfaatdordirlar. Shunday ekan, eksport import operaçiyalarini rivojlantirish va ularning salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz Islom Karimov uzelarining ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek: "2010 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizaçiya qilish, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning юқори va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun alohida belgilangan hududlar tashkil etishi lozim. Bu hududlar esa mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy hududlar yoki zonalar (EHZ)tuziladi.

Iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatining asosi bozor mexanizmining yaxshi ishlashidir. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti – faqat maqsad emas, boylik ketidan quvish ishtiyogi ham emas, balki keyingi yillarda butunlay izdan chiqqan iqtisodiy tizimni tartibga solish, bu jarayondagi

<sup>1</sup>Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonlirini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakynlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng myhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.

qiyinchiliklarni bartaraf etish, rivojlangan davlatlar tanlagan yo'ldan borib, tarraqqiyot sari odimlashdir. Albatta, bozor iqtisodini bartaraf etish - qiyin, uning rivojlanish yo'li esa mashaqqatli, chaqir toshlari mo'l ko'p so'qmoqlidir.

«Hamon davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida eksportning umumiy hajmi 10,8 foiz, tashqi savdo balansining ijobiliy saldosi esa 1,8 barobar oshdi va 4 milliard 200 million dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizning oltin-valuta zaxirasi ham shunga muvofiq ravishda ko'paydi»<sup>2</sup>.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar alohida e'tiborga loyiqidir.

Binobarin, iqtisod sohasida yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lган mutaxassislar, yuqori saviyadagi o'quv kurslari, darslik-qo'llanmalarga ehtiyoj, albatta, katta.

Tavsiya etilayotgan o'quv qo'llanmasi tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari - umumjahon iqtisodini yaratish (integratsiyalash) masalalarini qisqa bo'lsada, izchil bayon qilishdagi dastlabki urinishdir. Mazkur kursga xorijda va ona yurtimizda xalqaro iqtisodiy integratsiya sohasidagi masalalar bilan shug'ullanayotgan olimlar va mutaxassislarning ijodiy qarashlari hamda makroiqtisodiyot kafedrasi o'qituvchilarining ma'ruzalari, tavsiyalari, shu bilan birga etakchi tashkilotlarning ish rejaliри asos qilib olindi.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiya muammolari sobiq Ittifoqdan ajralib chiqib, mustaqillikka erishgan va birmuncha qulay sharoitlarga ega bo'lган O'zbekiston hamda boshqa respublikalar, shuningdek, jahon iqtisodiyotida muhim o'rinni tutgan SHarqiy Evropa mamlakatlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan Markaziy va SHarqiy Evropa mamlakatlarining yangi, mustaqil hamda, eng avvalo, Evropa Ittifoqiga mansub davlatlarning ish tajribalaridan foydalanish mumkin.

---

<sup>2</sup>Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljalangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi 22.01.2011

«Jahon iqtisodiyotiga integratsiya» (JII) o'quv qo'llanmasining maqsadi o'quvchilarga turli mamlakatlar, qit'alar va dunyodagi iqtisodiy jihatdan uyushgan davlatlar jahon iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlari hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlar haqida muayyan bilimlar berishdir. Bunda asosiy e'tibor xalqaro iqtisodiy faoliyatning rivojlanib borayotgan dolzarb muammolari va ularni hal etish masalalariga, bozor iqtisodiyotiga o'tgan turli mamlakatlarning keng miqyosdagi xalqaro iqtisodiy faoliyat yo'nalishlaridagi tajribalarni yoritishga qaratildi. Mazkur o'quv qo'llanmada O'zbekistonning boshqa mamlakatlar, xususan, o'z tarraqqiyotida bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanlagan davlatlar bilan olib borayotgan xalqaro iqtisodiy faoliyatiga alohida e'tibor beriladi.

Ushbu kursning vazifasiga tashqi iqtisodiy faoliyatning tub mohiyatini o'quvchilarga singdirish kiradi. Bunda:

 xalqaro hayot tajribasida tan olingan jahon miqyosidagi tashqi iqtisodiy faoliyatning o'z vaqtida amalga oshirilishi mamlakatlararo integratsion (bir maqsad yo'lida birlashish) jarayonlarini kuchaytirish;

 xorijiy investitsiyalar (sarmoyalar) milliy iqtisodiyotga samarali jalb etilishi;

 tashqi iqtisodiy faoliyatning investitsiyaviy, qonuniy va me'yoriy-huquqiy tayanchi mustahkamlanishi haqida muayyan bilimlar berilishi nazarda tutiladi.

O'quvchilar ushu kurs bo'yicha egallagan bilim va tajribalarini kelgusida xalq xo'jaligi sohasidagi amaliy faoliyatlarida tatbiq eta olishlari lozim.

# I - BOB. TRANSFORMATSIYA DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTI

## REJA:

- 1.1. Iqtisodiyot modellari**
- 1.2. Jalon iqtisodiyotining hozirgi ahvoli**
- 1.3. O'tkinchi iqtisodli mamlakatlarda TIF rivojlanishi**

### **1.1. Iqtisodiyot modellari**

Jahon xo'jaligida integratsiya har qanday milliy iqtisodiyot jarayonini ta'minlashning muhim qurolidir. Integratsiyaning bir-biridan farqli bo'lgan ikki xil modeli mavjud. Birinchisi, eksport tarmog'ini afzal ko'rgan holda dunyo bozoriga birlashuvchi ochiq iqtisodiyotni yaratishni mo'ljallaydi. Ikkinchisi, mahsulot ayriboshlashni birinchi o'ringa qo'ygan holda yuqori bojaxona to'siqlariga ega bo'lgan yopiq xo'jalikni afzal deb biladi.

O'zbekistonda barqaror sharoitlar hisobga olingan ochiq iqtisodiyot modeli asos qilib olingan. Boshqarishdagi tub islohotlar, bozor munosabatlariga o'tish, chinakam mustaqillikka erishish omillari O'zbekistonning ochiq iqtisodiyotini amalga oshirish yo'li bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning jahon xo'jalik aloqalariga faol kirishuvini belgilamoqda. Buning natijasida O'zbekiston jahon hamjamiyatiga uyushgan holda xalqaro mehnat taqsimotida oqilona siyosat yuritish orqali teng huquqli a'zo (respublika) sifatida o'z o'rnnini topmoqda.

Ochiq jahon bozori iqtisodiyotini shakllantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatda tarraqqiyotga olib boruvchi bu to'g'ri siyosiy yo'lni yanada rivojlantirish O'zbekiston huquqiy davlatining mustaqilligini kafolatlaydi, uning xalq xo'jaligini barqarorlashtirish omili bo'ladi.

Iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash "faqat o'z kuchiga suyanish" g'oyasi mualliflari ilgari surgan fikrga ziddir. Hozirgi zamon sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida yakkalanib qolish mumkin emas.

O'z kuchiga amal qilish davri allaqachon o'tib ketdi. O'zini o'zi ta'minlash yo'li hozirgi sharoitlarda iqtisodiy va ijtimoiy tarraqqiyotga g'ov bo'lmoqda.

U mavjud boyliklardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini yaratmaydi, bozor iqtisodiyotiga o'tishni murakkablashtiradi.

Jahon tajribasidan shu narsa ma'lumki, ichki bozorni faqat o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar bilan to'ldirishga urinish muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Hozirgi zamон kishisining ehtiyojlari shu darajada ko'p va xilma-xildirki, ularni faqat ichki bozor mahsulotlari bilan qondirib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, mamlakatni jahon bozoridan ajratib, "tabiiy xo'jalik" doirasida ish yuritish mumkin emas.

Ichki yopiq iqtisodiyotni shakllantirish muqarrar ravishda yuz minglab tovarlarni bo'lib-bo'lib tashlangan ko'plab tarmoqlarda hamda milliy monopolist korxonalarda ishlab chiqarishga olib keladi. Bunday sharoitlarda sifatli hamda arzon mahsulotlarning mo'l-ko'lligi va xizmati bilan vujudga keladigan bozor raqobati to'g'risida gapirishga hojat qolmaydi.

Anarxiya (o'zboshimchalik), ayniqa, o'rtahol mamlakatda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda farovonlik uchun hech qachon samarali bo'limgan.

Ixtisoslikni chuqurlashtirish va xalqaro raqobatni kuchaytirish evaziga mollarni tanlash imkoniyati va xizmat keng miqyosda yo'lga qo'yilsa, narxlarni arzonlashtirishga erishiladiki, bundan iste'molchilar manfaat ko'radilar.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ochiq iqtisodiyot hatto noqulay ta'sirlarga ham moslashishda ko'pgina imkoniyatlarga ega bo'lib, tabiat boyliklaridan samarasiz va unumsiz foydalanishga barham beradi. Bundan tashqari, shu narsa muhimdirki, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, iqtisodiy kenglikning ortishi tufayli ichki bozorning nisbatan torayishi muammosi bartaraf etiladi va o'zidan ortib qolgan mahsulotlarning sarmoya oqimini boshqa mamlakatlarga ham chiqarish imkoni tug'iladi.

XX asrning keyingi o'n yilligida ilmiy-texnika inqilobining tarraqqiyoti va xo'jalik hayotining tobora

chuqurlashuvi natijasida tashqi iqtisodiyot omillari doimiy o'sib bormoqda. Bunga yaqqol dalil keyingi o'n yil davomida dunyo miqyosida iqtisodiy tarraqqiyotning asosiy g'oyasi – murosasozlikning xukm surishidir.

Binobarin, bu g'oya faqatgina sotsialistik mamlakatlar uchungina xos emas, balki rivojlanayotgan va taraqqiy etgan mamlakatlar ham e'tirof etgan aniq-ravshan g'oya hamda tabiiy hisoblanadi.

Iqtisodiy siyosat sohasidagi murosasozlik ayrim mamlakatlarning ichki doirasida ham, xalqaro iqtisodiy munosabatlar miqyosida ham namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro savdo ishlari, sarmoya va kapitallar oqimida barcha e'tirof qilgan murosasozlik iqtisodiyot darajasini oshirish va jadal rivojlantirishning muhim omili sifatida yuzaga chiqmoqda.

Jahon iqtisodiyot makoni hozirgi davrda savdo-sotiq va sarmoya oqimlari bilan bog'liq milliy iqtisodiyot tarmog'i sifatida emas, balki mintaqaviy va milliy kichik sektorlardan (bo'limlardan) iborat yagona sarmoyali, ishlab chiqarish va savdo maydoniga aylanmoqda.

Turli mamlakatlar, mintaqalar turlicha iqtisodiy rivojlanish darajasida va turli xil iqtisodiy manfaatlarga ega bo'lsalarda, murosasozlik va integratsiya – bosh g'oya bo'lib xizmat qilmoqda hamda u uzoq muddat davomida amalga oshiriladi.

Milliy iqtisodiyotda tashqi iqtisodiy aloqalar qanday rol' o'ynaydi?

Bu to'g'rida fikr yuritganimizda, avvalo, xuddi shu yo'l bilan bizda mavjud bo'Imagan yoki etishmagan mashinalar, asbob-uskunalar, komplektlashtiruvchi qismlar, agregatlar, ehtiyyot qismlar va detallar, shuningdek, qayta ishlash uchun xomashyo mahsulotlari, ishlab chiqarishda foydalilaniladigan konstruktiv materiallar etkazib berilishini alohida qayd qilmoq zarur.

Boshqa mamlakatlardan yuqori darajada tayyorlangan asbob-uskunalarni, ayniqsa, ularning komplektlarini qator korxonalarga, tsexlarga va uchastkalarga etkazib berish har tomonlama qulayliklar yaratadi: ob'ektlarni qurish va jihozlash, ishga tushirishiga ketadigan vaqt tejaladi, katta

quvvatni ishga solgan holda kerakli mahsulotlarni olish imkoniyatlari yaratiladi. Binobarin, mamlakatda bunday ishni loyihalash va zarur mahsulotni ishlab chiqarish uchun ortiqcha vaqt sarflanmaydi. Masalan, atigi ikki yarim yil ichida Asaka shahrida avtomobilsozlik majmuasi barpo etildi. Bunda zamonaviy xorij asbob-uskunalari va texnologiyalari hamda xorijiy sarmoyalardan samarali foydalanildi.

Boshqa mamlakatlardan yangi mashinalar, asbob-uskunalar, shuningdek, boshqa texnika hujjatlariga litsenziya hamda ilg'or texnologiya sotib olish, ilmiy-texnika ishlari yutuqlarini ishlab chiqarishga tezlik bilan joriy etish, yuqori darajadagi ilg'or texnologik jarayonlarni va yangiliklarni amaliyatga tatbiq etish ishlab chiqarish mehnati samaradorligini oshirish, mahsulotlar sifatini yaxshilash, pirovard natijada ichki va tashqi bozor uchun xaridorbop mahsulotlarni yanada ko'paytirishga xizmat qiladi.

SHuni ham unutmaslik kerakki, chet mamlakatlardan sotib olinadigan texnika va texnologiya eng yuqori darajada zamonaviy bo'lishi, ishlab chiqarishga tezlik bilan joriy etiladigan darajada qulay bo'lgan mashinalar va asbob-uskunalar o'zini har tomonlama oqlashi zarur, aks holda, minglab yashiklardagi xorijiy uskunalar yaroqsizligi tufayli bazalarni va omborlarni behuda to'ldirib yotadi.

O'zbekistonga keltirilgan xorijiy materiallar xalq xo'jaligi ehtiyojlarini to'liq qondirish bilan ahamiyatli bo'lishi zarur. Xususan, qora metall, truba, yuqori darajadagi bosimga chidamli polietilen va boshqalar ana shunday kerakli materiallar qatoriga kiradi. Bunda ishlab chiqarish uchun suv-havodek zarur xomashyo mahsulotlarini ham tashqi bozordan xarid qilish foydadan xoli emas. Xorijdan mahsulotlar olinmagan taqdirda ishlab chiqarish mahsulotlarini kamaytirish, hatto ulardan voz kechishga ham to'g'ri kelar edi.

O'z navbatida, chet davlatlarga mollar chiqarishning (eksport) ham ishlab chiqarishga ta'siri katta. Eksport chet el bozoriga chiqariladigan mahsulotlar hajmini kengaytirish imkoniyatini yaratish orqali mahsulotning tannarxini

tushiradi, samaradorlikni oshiradi. Tashqi bozorga mahsulot chiqarish ishlab chiqarishni qayta qurishga chorlaydi, xalqaro mehnat taqsimotini hisobga olgan holda samaradorlikni yanada ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishda ko'pgina qulay sharoitlardan foydalanishda asqotadigan "ochiq" iqtisodiyot boshqa modellarga nisbatan tashqi bozorga mahsulotlar chiqarishda talaygina iqtisodiy samaralar keltirishi bilan ajralib turadi.

## **1.2. Jahon iqtisodiyotining hozirgi ahvoli**

Jahon bozori yanada birlashib, unga o'tkinchi iqtisodga ega bo'lган mamlakatlar ham qaytib kelmoqda. Oxirgi o'n besh yil ichida jahon savdo-sotig'i ishlab chiqarishdan ko'ra, ancha tez rivojlandi. Jumladan, xorijiy sarmoyalarning rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lган oqimi o'n yil ichida olti marotaba ortgan.

Integratsiyaga yordam ko'rsatish hamda yuzaga kelgan muammolarni hal etish maqsadida umumiy qoidalar ishlab chiqilgan va ularga aloqador bo'lган institutlar tashkil etilgan. Ayniqsa, bu borada Jahon savdo uyushmasi (JSU) alohida o'ringa ega bo'lib, unga 110 mamlakat a'zodir.

Rivojlangan mamlakatlardan ko'pchiligi keyingi vaqtda ochiq iqtisodiyot yo'liga o'tganligi sababli, jahon xo'jaligi tizimida faol rol' o'ynamoqdalar. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning eksport va import hissasi yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotning 43 foizini tashkil etadi, vaholanki, o'n yil ilgari bu ko'rsatkich 33 foiz edi.

O'tkinchi iqtisodiyotdagи mamlakatlar ko'p yillik yakkalanishdan so'ng jahon bozoriga chiqib, birlashishdan manfaat ko'rmoqdalar, islohot yo'nalishida turgan boshqa mamlakatlardan ko'ra, ko'proq yutuqqa erishmoqdalar.

Umumjahon savdosining foydasi ichki bozor murosasozligi bilan bog'liq iqtisodiy ustunlikdan ham ancha ko'proqdir. Mamlakatlararo kapital, tovar va g'oyalar harakati yagona markaziy rahbariyat tomonidan emas, ehtiyoj va takliflar asosida boshqarilmoqda. Bu esa ishlab

chiqarish mehnatini, savdo ko'lamini va milliy daromadni tobora o'stirishga yo'llaydi. Boshqa tomondan olganda, o'zaro birlashish mamlakatlar ochiq savdo yo'lida turishiga yordam beradi, xalqaro tashkilotlar a'zo bo'lishi esa mamlakat ichida tegishli institutlar barpo etilishiga sababchi bo'ladi.

Ochiq savdo siyosatini va chet el sarmoyalarining jalb etilishini muntazam ravishda muhokama qilish g'oyatda muhimdir. Asosiy gap tashqi dunyo bilan o'zaro hamkorlik o'rnatish, ya'ni tijorat oqimlari va ularning jahon savdosiga ta'siri, tezkorlik bilan JSU ga kirish va uning xaqqoniy a'zosi bo'lish, mintaqaviy savdo bitimlari tuzish, yangi iqtisodiyot yo'liga o'tgan mamlakatlardan kapitalning oqib kelishi va ularning boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga ta'siri haqida bormoqda.

Dunyo aholisining uchdan bir qismini tashkil etuvchi mamlakatlarning o'zaro muvaffaqiyatli uyushmasi (integratsiyasi) butun jahondagi iqtisodiy tizimga o'zining samarali ta'sirini o'tkazmoqda. SHu bilan bir qatorda, avvalgi iqtisodiy yo'nalishda bo'lgan mamlakatlar umumjahon bozoriga o'tishi natijasida ayrim mamlakatlarning manfaatlari cheklanib qolmasmikan, degan havotir ko'pchilikda yo'q emas, bu havotirlanishda jon bor.

Jahon xo'jaligi tizimiga birlashish, shubhasiz, yangi imkoniyatlar yaratibgina qolmay, o'tish jarayonida kelib chiqadigan xavf-xatarlardan ham xoli emas. ko'pgina mamlakatlar balki, o'tish davridagi chiqimlardan qochib qutulmaslar, lekin dalillar shuni ko'rsatadiki, keng va raqobatli jahon bozorida ishtirok etish barcha sarf-xarajatlarning hissasini ortig'i bilan qaytaradi.

Shuni ta'kidlash zarurki, iqtisodiy o'tish davrini boshdan kechirgan mamlakatlarning tashqi savdoda o'z o'rni bor. Masalan, Xitoy 1978-1994 yillar mobaynida yirik eksportyor mamlakatlar ro'yxatidagi o'ttiz ikkinchi o'rindan uchinchi o'ringa chiqib oldi. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari hamda Yangi Mustaqil Davlatlar (YaMD) bugungi kunda eksport va importdan teng ravishda

manfaatdordirlar. Biroq ularning savdo hajmi qanday bo'ladi-yu, kimlar bilan savdo olib boriladi?

Iqtisodiy modellarga asoslangan qator baholar va taxminiy ma'lumotlar (prognozlar), shuningdek, anchagina ishonchli rasmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, agar Yangi Mustaqil Davlatlar bozor tamoyillariga amal qilish yo'lidan borsalar, ehtimol savdo-sotiqlar qurilishida umumiy yo'nalishdagi barqarorlikka erishishlari mumkin.

### **1.3. O'tkinchi iqtisodli mamlakatlarda TIF rivojlanishi**

Bozor tomon yo'l olgan mamlakatlar jahon iqtisodiyoti oldida ulkan imkoniyatlarni ochadilar. Ishlab chiqaruvchilar yangi bozorlarga, iste'molchilar tovarlarga yo'l topadilar.

Iqtisodiy samaradorlikning ortishi va resurslarning jalb etilishi o'tkinchi iqtisodiyotli mamlakatlarda taklif qilingan tovar va xizmatchilarning umumiy jahon ko'lami ortishini ta'minlaydi. Integratsiya tufayli kam tarmoqli va ichki tarmoqli savdoning o'sishi, Markaziy va Sharqiy Evropa (MShE) mamlakatlarida kuzatilganidek, tovarlar xilining ko'payishi va ishlab chiqarishning ratsionalizatsiya qilinishi, ishlab chiqarishdagi masshtablar asosida tarmoqlarda tejamga erishilishi tufayli dunyoda farovonlikning oshishiga olib keladi. Oxirgi besh yil ichida jahon bozorida import va eksport hajmi ikki baravarga ko'paydi, shu vaqt ichida MDH mamlakatlarida MShE mamlakatlariiga import miqdori 216 foizga, eksport miqdori esa 159 foizga oshdi (2001 yil).

Bozor iqtisodiyoti, xususan, sanoati rivojlangan mamlakatlar, o'tkinchi iqtisodiyotli mamlakatlar savdoning o'sishidan manfaatdor va ular uchun o'z bozorlarini ohib berishga tayyordirlar.

Albatta, integratsiya ortidan birmuncha chiqimlarga yo'l qo'yiladi. Ular yangi iqtisodiy holatlarga bog'liq, ayniqsa, ko'p mehnat talab qilib tovarlar ishlab chiqaruvchi rivojlangan mamlakatlar kuchli raqobatga duch keladilar. Sanoati rivojlangan mamlakatlar esa o'z imkoniyatlarini to'la ishga solib, boshqa tarmoqlarda ustunliklarini namoyish qiladilar. Biroq qilingan chiqimlar to'g'ri baholansa, ularning mo'tadilligi ko'riniib turadi.

O'tkinchi iqtisodiyotli mamlakatlar jahon bozorining butun talablarini qondirmaydilar, lekin ishlab chiqaruvchilardan ko'proq yangi tovarlarni kashf etish, kishilar farovonligi uchun ko'plab xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqarish va zaruriy xizmatlarni bajarish talab etiladi.

O'tkinchi iqtisodiyotli mamlakatlarning savdo integratsiyasi natijasi tufayli Evropa Birligiga xavf bormi?

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda Evropa Ittifoqi (EI) mamlakatlari Markaziy va Sharqiy Evropa (MShE) mamlakatlarining asosiy savdo sheriklaridir. 1989 yildan beri ular o'rtasidagi savdo oboroti salkam ikki baravarga oshdi. MShE mamlakatlari EI uchun juda qulay eksport bozori bo'ldi. MShE mamlakatlari va EI o'rtasidagi Evropa bitimi bozorlarni har xil tovarlar bilan to'ldirishga yo'l ochdi. Biroq hali ham "ta'sirchan" mahsulot importida ayrim cheklanish mavjud. Qishloq xo'jaligida avvalgidek protektsionistik siyosat olib borilmoqda, antideping va protektsionistik choralarining xavfi metallurgiya va kimyo tovarlari eksportining samarali murosasozliliginin yuklab qo'yamoqda. Ammo ochiq savdo haqida Evropa bitimi MShE dagi ishlab chiqarilgan savdo islohotlarini mustahkamlashga yordam beradi. Ikki mintaqa o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanish jarayonida ichki tarmoqdagi savdo hamda MSHE mamlakatlari korxonalarining ishlov berish va yig'ish sohalaridagi faoliyat hajmi o'smoqda. EI tashqaridagi pudratchilar bilan EI kompaniyalarining shartnoma tuzishlarini Evropa bitimi rag'batlantiradi. O'z navbatida, kompaniyalar loyiha-konstrukturlik ishlab chiqarishini, materiallarni, sifat nazorati va marketingni ta'minlaydi. Bunday yondashish Evropa Ittifoqi korxonalarida malakali va arzon ishchi kuchidan foydalanishga imkon yaratib beradi. Bunda yo'qotish va tavakkalchilik kam. MShE mamlakatlari sheriklari bilan yangi tashqi bozorga chiqib, o'zaro to'qnashmoqdalar.

"Ta'sirchan" mahsulotlar savdosini yanada kengaytirish Evropa Ittifoqidagi ishlab chiqaruvchilarni tashvishlarga solib keldi. Ammo dalillar shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur mollar bilan to'la murosasozlik savdosи importga, ishlab chiqarish va EI bandlik darajasiga

kam miqdorda ta'sir qiladi. Chunki, MShE mamlakatlari asosiy tovar bilan ta'minlovchi emaslar. Haqiqatdan ham Mustaqil Davlatlarning (YaMD) uzoq muddatli savdo integratsiyasi savdo oqimining ma'lum darajada oshishiga olib keladi. Shunday bo'lsa ham, gap ko'proq YaMD dan tashiladigan yoqilg'ilar (asosan, neft', tabiiy gaz) bilan ta'minlashning oshishi va ularni G'arbiy Evropaga katta hajmdagi kapital va yuqori texnologik mollarga (stanok, uskunalar) va yuqori sifatli, uzoq muddat ishlatiladigan ko'p iste'molollariga almashtirishi to'g'risida boryapti.

Evropa Ittifoqida hozirgi paytda savdoda ishtirok etayotgan O'rta Dengiz va Afrika mamlakatlari EI va MShE mamlakatlari o'rtasidagi savdo murosasozligi natijasida yuzaga keladigan chiqimdan tashvishdadirlar. Ammo bir qator O'rta Dengiz mamlakatlari 1970 yildan EI sanoat mollari bozorida boj solig'isiz va qishloq xo'jalik mollari bozoriga esa imtiyozli kirish huquqlariga ega. Binobarin, bu afzalliklar MShE va EI savdo hamkorligi rivojlanishi natijasida saqlanib qolishi shubhasizdir. Shuni tan olish kerakki, bu mamlakatlarning iqtisodiy jahon arenasida paydo bo'lishi, o'z navbatida, Evropa Ittifoqi bozorlarida O'rta Dengiz mamlakatlari eksportyorlarining geografik afzalliklardan maxrum bo'lishiga olib kelishi mumkin. Lekin O'rta Dengiz mamlakatlarining Evropa Ittifoqi bozorida eksport qismi (neft' eksportidan tashqari) hanuzgacha bir xil bo'lib qolyapti. O'rta Dengiz hamda Markaziy va SHarqiy Evropa mamlakatlari jahon savdosida o'ziga xos afzalliklarga ega, haqiqatdan, bu ikki mintaqaning eksport tuzilishi hech bir-birini kesib o'tmaydi. EI bozorida qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportining chetlanib qolishi qator O'rta Dengiz mamlakatlari uchun katta ahamiyatga ega. Chunki, ular bu sohada o'z eksport kuch-quvvatini to'liq ko'rsatishga qodirdirlar.

Lomoysk konvensiyasiga imzo qo'ygan Afrika mamlakatlari ham hanuzgacha EI bozoriga kirish imtiyozlaridan foydalanmoqda. Ularning ko'pchiligidida MShE mamlakatlari bilan qishloq xo'jaligidagi raqobat bir-ikki xildagi mahsulotlar bilan cheklanadi, kelib chiqadigan noxush natijalar kompensatsiya qilinadi. Chunki, tez

rivojlanayotgan MShE mamlakatlari O'rta Dengiz va Afrika mamlakatlaridan keladigan eksport uchun o'zlari potentsial bozor bo'la oladilar.

MShE mamlakatlari nisbatan yuqori malakali ishchi kuchiga ega bo'lib, xalqaro sahnaga chiqadilar. Ular ta'lim tuzilmalariga birmuncha yangilik va o'zgartirishlar olib kirishlariga to'g'ri keladi. Bu esa, ilmiy-tadqiqot institutlarining (ITI) tarraqqiyotini belgilaydi. Chunki, ITI faqatgina moliyaviy vosita va uskunalar manbai bo'lib qolmay, balki boshqarish va savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishiga olib keladi. Kelajakda MShE mamlakatlari oddiy, lekin ko'p mehnat talab qiladigan mahsulot o'rniga o'rta va yuqori darajali malaka talab qiladigan tovarlar ishlab chiqarib, haqiqiy ravishda raqobatchi bo'ladilar. Bu tuzilmalardagi o'zgarishlar MShE mamlakatlari va kam daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bo'ladigan raqobatlilikni qisqartiradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ochiq jahon bozori iqtisodiyotini shakllantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatda taraqqiyotga olib boruvchi bu to'g'ri siyosiy yo'lni yanada rivojlantirish O'zbekiston huquqiy davlatining mustaqilligini kafolatlaydi.

Jahon bozori yanada birlashib, unga o'tkinchi iqtisodga ega bo'lgan mamlakatlar ham birlashmoqda.

Iqtisodiy integratsiya TIFning rivojlanishidir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiyot modeli nima?
2. Iqtisodiyot modellarini aytib bering.
3. Ochiq iqtisodiyot modelining asosiy qoidalarini aytib bering.
4. Ochiq iqtisodiyot yopiq turidan nimasi bilan farqlanadi?
5. Qanday sharoitlarda yopiq iqtisodiyot mavjud bo'ladi?
6. O'zbekiston iqtisodiyoti qaysi modelni qo'llash bilan rivojlanadi?

7. Jahon bozori deganda nimalar tushuniladi?
8. Jahon savdo uyushmasining roli nimalardan iborat?
9. MDH mamlakatlarining jahon bozoridagi raqobati qanday qechmoqda?
10. Yaqin va uzoq chet el mamlakatlari iborasining ma'nosini tushuntirib bering.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.
2. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/
3. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.
4. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. Т.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.
5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. Т.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.

## **II - BOB. «JAHON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA» FANINING TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLARI**

### **REJA:**

- 2.1.Tashqi iqtisodiy munosabatlar haqida tushuncha**
- 2.2.Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni  
belgilovchi omillar**
- 2.3.Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda ishlab  
chiqarish hamkorligi**
- 2.4.Tashqi iqtisodiy faoliyatda fan-texnika  
hamkorligi**
- 2.5.Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda tashqi  
savdoni tartiblashning notarif usullari**

### **2.1.Tashqi iqtisodiy munosabatlar haqida tushuncha**

Tashqi iqtisodiy munosabatlar - milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur barqarorlashgan o'zaro hamkorlikning rivojlanishi va mehnat taqsimoti, turli darajada hamda turli shakllarda yuzaga kelgan o'zaro aloqalar asosida mamlakatlarning xo'jalik-siyosiy jihatdan birlashish jarayonidir. Kichik darajada bu jarayon bir-biriga yaqin mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy bitim tizimini shakllantirish yo'li bilan tashkil etilgan ayrim xo'jalik sub'ektlari (korxonalar, firmalar) jamg'armalarini ishga solish, xorijda filiallar (bo'limlar) barpo etish orqali sodir bo'ladi. Davlatlararo miqyosdagi integratsiya (birlashish) davlatlarning iqtisodiy birligini shakllantirish va milliy siyosat kelishuvi asosida yuzaga keladi.

Firmalar o'rtasidagi aloqalarning jadal rivojlanishi davlatlararo (ayrim hollarda davlatlar ustidan) boshqarish zaruratini keltirib chiqaradi va o'z navbatida, bu boshqarish mamlakatlar o'rtasida muayyan mintaqalar miqyosida ishchi kuchi vositasida tovarlar, xizmat ko'rsatish, kapitallar erkin harakatni ta'minlashga; iqtisodiy hamkorlik asosida ilmiy-texnikaviy, moliyaviy hamda valyutali, ijtimoiy, tashqi va harbiy siyosatni o'tkazishga qaratiladi. Buning natijasida umumiyl iqtisodiy taqsimot, moliyaviy jamg'armalar; umumiyl miqyosdagi milliy yoki davlatlararo boshqarish tashkilotlari vositasida yagona valyutali infratuzilma

asosida bus-butun mintaqaviy xo'jalik komplekslarini yaratishga erishiladi.

Eng oddiy shakl - Bojxona Ittifoqi amaldagi erkin savdo zonasi bilan bir qatorda, yagona tarzdagi tashqi savdo tarifini o'rnatish va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini o'tkazish chorasini ko'rmoqda.

Xalqaro ayriboshlashning o'tgan asr 90-yillarigacha bo'lgan rivojlanishi davomida, shuningdek, qadim zamonlardan buyon mamlakatlar moddiy noz-ne'matlarni tayyor mahsulotlar va turli xil resurslar ko'rinishida o'zaro ayriboshlab kelishgan, ya'ni bir-birlari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishishgan. O'z navbatida, ayriboshlashning hajmi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga va tovar ishlab chiqarishning hajmiga bevosita bog'liq bo'lgan. Chunki, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, bir tomonidan, mamlakatlar o'rtasida xo'jalik aloqalarining kengayishiga imkon yaratса, ikkinchi tomonidan, turli xil xomashyolar, materiallar va boshqa resurslarga bo'lgan talabning oshib borishi ayriboshlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xalqaro ayriboshlash, ayniqsa, XIX asrda keng rivojlandi. Uning hajmi 1800 yildan 1913 yilgacha 20 martagacha oshdi yoki 1800 yilda jahon ishlab chiqarishining 3% ini tashkil etgan bo'lsa, 1913 yilda 33%ini tashkil etdi. XX asrda xalqaro iqtisodiy munosabatlar o'zining notejis rivojlanishi bilan ajralib turadi. Masalan , 1913-1950 yillarda xalqaro savdo va ishlab chiqarish juda sekin sur'atlar bilan o'sdi. Chunki, jahon xo'jaligi shu yillar davomida bo'lib o'tgan I va II jahon urushlari natijasida hamda rivojlangan kapitalistik malakatlarda chuzilib ketgan iqtisodiy inqirozlar sababli juda katta moddiy yo'qotishlarga uchradi. Ammo keyingi davr, ya'ni 1950 -1973 yillar jahon ishlab chiqarishida va savdosida «oltin davr» hisoblanadi. Bu davrda o'rtacha o'sish sanoat ishlab chiqarishda 6 % ni, jahon savdosida 10 % ni tashkil etdi. Bunday yuksalish 1974 yilga kelib, xalqaro bozorda neft' bahosining keskin ko'tarilib ketishi natijasida uzilib qoldi. Masalan, 1973 yilning oxirlarida uning bahosi 14 dollargacha ko'tarildi, Eron, Iroq mojarosi

sababli 1 barrel' neftning bahosi yanada oshdi va 35 AQSh dollarini tashkil etdi.

Dunyoda boshlangan «neft' inqirozi» rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar boshlanishiga olib keldi. Bu mamlakatlarda 70 - 80 - yillar mobaynida energiya resurslarini kam iste'mol qiluvchi hamda intellektual imkoniyatlardan mumkin qadar to'liq foydalanishga mo'ljallangan yangi ishlab chiqarishlar barpo etildi. SHu sababli 1983 - 1990 yillar jahon iqtisodiyotining eng davomli yuksalish davri bo'ldi.

Yangidan paydo bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlar, o'z navbatida, turli xil xomashyolar va tabiiy resurslarning ma'lum qismini ko'proq chetdan tashib keltirishni hamda tayyor mahsulotlarni milliy chegaralardan tashqarida sotishni kengaytirishni boshladi.

Masalan, 90-yillarning boshida rivojlangan Evropa mamlakatlari neftga bo'lgan ehtiyojlarining 75 - 80 foizini, AQSh H marganets rudasi, nikel' va boksitga bo'lgan ehtiyojining 75-100 foizini import his biga qondirdi. Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanishi esa, asosan turli xil yoqilg'ilar va xomashyolarni tashib keltirilishiga bog'liq. SHu bilan bir vaqtda ushbu mamlakatlar fan va texnika yutuqlariga asoslangan mahsulotlarni dunyo bozoriga juda katta miqdorda etkazib beruvchi mamlakatlar hisoblanadi. Er yuzining barcha mamlakatlarida xarid qilinayotgan avtomobillar, komp'yuterlar, murakkab dastgohlar va asbob-uskunalar, maishiy uy-ro'zg'or jihozlari asosan G'arbiy Evropa mamlakatlari , AQSh yoxud Yaponiya mahsulotlaridir.

Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy iste'mol tovarlari, sanoat texnologiyalari, axborot tizimlarining keng tarqalishi, ularga ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarishga va turli xil resurslardan tejamli foydalanishga keng imkon yaratdi. Hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlarining asosiy xususiyatlari XX asrning so'nggi yillarida etakchi jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining tub sifat o'zgarishlari hamda jahon xo'jaligi tuzilishida va o'sish sur'atlarida bo'lgan o'zgarishlarning

kuchayib borishi xalqaro munosabatlarning hozirgi bosqichidagi xususiyatlarini belgilab beradi.

Birinchidan, xalqaro ayriboshlashning tarkibiy tuzilishi sezilarli darajada o'zgardi, mamlakatlar mahsulotlar ayriboshlashdan tashqari turli xil xizmatlar, moliya kapitali, ishchi kuchi, fan-texnika axborotlari, yangi texnologiyalar, boshqaruv usullari va boshqalar bilan faol savdo-sotiqlar olib borishga o'tdilar. Masalan, jahon eksportida xizmatlar ulushi 60-yillarning oxiridan 80-yillarning oxirigacha 27 -30 foiz ko'tarildi, dunyoning sanoatlashgan 13 etakchi mamlakatida kapitalning eksporti 1990 yillarning boshida 1970 yilda giga nisbatan 8 baravar oshgan.

Ikkinchidan, kapitalning chetga chiqarilishi kuchayishi va mamlakatlar o'rtasida ayriboshlashning kengayishi zamonaviy xalqaro iqtisodiy aloqalarning mamlakatlararo uyg'unlashuviga olib keldi. Bunday xususiyat o'z faoliyatini bir qancha davlatlar hududida amalga oshiradigan transmilliy korporatsiyalar (TMK) va banklar (TMB) sonining oshib borishida o'z aksini topdi.

Hozirgi vaqtida jahonda 20 mingdan ortiq TMK lar mavjud bo'lib, ular jahon sanoat ishlab chiqarishining to'rtdan uch qismidan ko'prog'ini, tashqi savdoning esa yarmidan ko'prog'ini nazorat qilib turadi. Misol uchun, «Jeneral Motors», «Royl Datch shell», «Ekson» kabi yirik TMKlar oboroti hajmi O'zbekistonda yaratilgan yalpi milliy mahsulot miqdoridan ikki martadan ham ortiq. O'z ixtiyorida bexisob moddiy va moliyaviy qudratni jamlagan bunday korporatsiyalar va banklar ko'pchilik mamlakatlarning iqtisodiy siyosatiga va xalqaro iqtisodiy aloqalarning umumrivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadilar.

Uchinchidan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy bosqichida yana bir muhim xususiyat nomoyon bo'ladi, ya'ni ayriboshlashda mamlakatlar tutgan o'rinning qayta taqsimlanish jarayoni kechmoqda. Ma'lumki, sobiq Ittifoq mamlakatlarida o'tkazilgan chuqr siyosiy va iqtisodiy islohotlar 9 mustaqil davlatni birlashtirgan yirik xalqaro iqtisodiy tashkilot - O'zaro Iqtisodiy Yordam kengashining tarqalib ketishiga olib keldi.

Ta'kidlash lozimki, yuqoridagi mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari asosan mana shu tashkilot doirasida amalga oshirilar edi. Masalan, sobiq Ittifoq tashqi savdosining 67 foizi Ittifoq mamlakatlarining, 22 foizi rivojlangan mamlakatlarning va 11 foizi rivojlanayotgan malakatlar ulushiga to'g'ri kelar edi.

90-yillarning boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar SHarqi Evropa mamlakatlari va sobiq Ittifoqda tashqi iqtisodiy siyosatning tub burilishi bilan kuzatildi. Shu bilan birga mamlakatlarning jahon xo'jaligi aloqalarida faol qatnashuvlariga halakit beruvchi mafkuraviy va siyosiy to'siqlari olib tashlanishi, har bir mamlakatga xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklaridan mafaatdor bo'lishi uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Ammo bu imkoniyatlardan foydalanish uchun sobiq sotsialistik mamlakatlarga ma'lum muddat kerak.

Hozirda esa, jahon xo'jaligi va xalqaro ayriboshlashning umumiyo yo'nalishlari va o'sish sur'atlarini dunyoning rivojlangan 26 ta kapitalistik mamlakati belgilab beradi. Bu mamlakatlar er yuzidagi davlatlarning 15 foizini tashkil etadi hamda ularda jahon aholisining 25 foizi istiqomat qiladi. Ammo bu mamlakatlar dunyoda hosil qilinayotgan elektir quvvatlarining 75 foizini, yoqilg'inining 79 foizini, yog'ochsozlik mahsulotlarining 85 foizini va po'latning 70 foizini iste'mol qilishadi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarning o'zaro savdosi jahon savdosining 70 foizini tashkil etadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan va xalqaro ayriboshlashda yuqori o'rinda turgan mamlakatlarning hududiy joylashuviga qarab ularni shartli ravishda uch blokga ajratish mumkin:

Shimoliy Amerika bloki - AQSh , Kanada va Meksika davlatlari (AQSh va Kanadaning hissasiga butun jahonda ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulotning 29 foizi to'g'ri kelmoqda).

G'arbiy Evropa bloki - bozor iqtisodiyoti rivojlangan Evropa mamlakatlari (Ularda dunyo yalpi milliy mahsulotining 32 foizi ishlab chiqariladi.).

Yaponiya bloki – Yaponiya va tez rivojlanayotgan Janubiy -SHarqiy Osiyo mamlakatlari (Birgina Yaponiya hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotining 15 foizi to'g'ri keladi.).

Ta'kidlab o'tish kerakki, bu uch blokga kiruvchi mamlakatlar o'rtasidagi jahon bozorida o'z ta'sir doirasini kengaytirish va ishtirokini oshirishga qaratilgan kuchli raqobat hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlarining mohiyatini ochib beradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir mamlakat o'z ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga qarab jahon bozoriga turli xil tovar va xizmatlar etkazib berishga ixtisoslashadi. CHunonchi, iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar xalqaro ayriboshlashda asosan tayyor mahsulotlar, xizmatlar va kapitalni xorijga etkazib berib, bir vaqtning o'zida o'ziga kerakli turli xil xomashyolar, arzon ishchi kuchini chetdan olib kiradi.

Iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar aksincha, xorijga asosan iqtisodiy resurslarni etkazib berib, o'ziga tayyor mahsulotlar, investitsiyalar, fan-texnika axborotlarini xarid etadi.

Nima sababdan davlatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada kengaytirishga alohida ahamiyat beradilar?.

Chunki, har qanday ayriboshlashning ahamiyati, uning samaradorligi, shu jumladan, xalqaro miqyosda ham kelishilgan bitimlardan tomonlar oladigan afzalliklar bilan belgilanadi. Bu erda iqtisodiy nazariya, xoh tovar va xizmatlar savdosi bo'lsin, ayriboshlashdan olinadigan afzallikka har bir qatnashuvchi mamlakat ega bo'ladi va natijada butun jahon xo'jaligi yutadi deb, tushuntirishga va isbotlashga harakat qiladi. Adam Smit birinchi bo'lib, qaysi mamlakat o'z mahsulotini boshqa mamlakatlarga qaraganda kamroq harajatlar bilan ishlab chiqarsa, shu mamlakat xalqaro ayriboshlashda qatnashishi mumkin deb, tushuntiradi.

## **2.2. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni belgilovchi omillar**

Birlashish jarayonlari barqaror iqtisodiy o'zaro aloqalarning o'sishi jarayonini (birinchi navbatda xalqaro mehnat taqsimoti asosidagi) hamda ishlab chiqarishning milliy xo'jalik doirasidan chiqishini taqozo etadi.

Birlashish jarayonining rivojlanishida transmilliy korporatsiyalar (TMK) faol ravishda xizmat ko'rsatmoqdalar.

Integratsion jarayonlarning o'sishiga sabab bo'luvchi boshqa omillar xalqaro mehnat taqsimoti tuzilishining chuqurroq silib borishidir (birinchi navbatda, ilmiy-texnika tarraqqiyoti ta'sirida). "Xalqaro mehnat taqsimoti" atamasi, bir tarafdan, odatdagidek, millatlararo ishlab chiqarish majburiyatlariga ko'ra, ayrim mamlakatlarning belgilangan turdag'i mahsulotni chiqarishga ixtisoslashishini, taqsimlash jarayonini nazarda tutadi. Boshqa tarafdan esa, ishlab chiqarish majburiyatları rejali tarzda ichkarida va firmalar o'rtaida taqsim qilinadi. Ichki soha ixtisosligi keng ko'lam topmoqda.


Ilmiy-texnik tarraqqiyotning hozirgi bosqichi integratsion jarayonlarni turli mamlakatlarda ITT tarqalishi notejis bo'lgan taqdirda ham bozorni, ham ishlab chiqarishni sifatli yangi darajaga olib kelmoqda, turli mamlakatlarda ITT mustaqil omil bo'lib, hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarishidagi tashqi iqtisodiy aloqalarda katta rol' o'ynaydi. U yoki bu mamlakatdagi fan va texnikaning rivojlanish muvaffaqiyatlarini davlatlararo aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Turli mamlakatlarning firmalari o'rtaida kooperatsiya asosida tashkil etilishning shiddat bilan rivojlanishi ulkan xalqaro ishlab chiqarish-investitsiya komplekslarini barpo etishga olib keladi, bularni tashkil etishga ko'pincha TNK boshchilik qiladi. Ular uchun firma ichidagi mehnat taqsimoti milliy chegaradan chiqib, xalqaro miqyosga aylangan. Xuddi shu asosda ochiq milliy iqtisodiyot darajasi oshadi. Ochiq iqtisodiyot mamlakatlarning xo'jaliklararo aloqalariga to'la kirib borishi asosida shakllanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ochiq iqtisodiyotni barpo etishda mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi katta rol' o'yagan holda, eksport ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, kooperatsiyalarning chet el firmalari bilan ishlashiga ko'maklashadi va huquqiy asos tashkil etib, chetdan mablag', texnologiya, malakali kadrlar kirib kelishiga yo'l ochib beradi.

### **2.3. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda ishlab chiqarish hamkorligi**

Hozirgi jahon rivojining xususiyatli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo, tashqi savdoning tez o'sishi hisoblanadi. Tashqi savdo xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish, ilmiy-texnika va boshqa shakllari (kadrlarni tayyorlash, turizm va h.k.) bilan bir qatordagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim shakli hisoblanadi.

Mamlakat tashqi savdosining holatini uning savdo balansi orqali baholash mumkin. Tashqi savdo balansi tovarlarning barcha – eksport, import va reeksport operatsiyalari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlarining nisbatini ifodalaydi. Savdo balansi, o'z navbatida, mamlakat to'lov balansining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. To'lov balansi xorijiy hamkorlar bilan amalga oshiriluvchi nafaqat tovar, balki barcha pul operatsiyalarini ham aks ettiradi (1-rasm).



**Ijobiy tushumlari** Capital xarakati va kreditlar bo'yicha tushumlari va to'lovlar manfiy sal'do (pul to'lovleri pul tushumlaridan ko'p bo'lgan holat)ga ega bo'lganlar passiv balans deb ataladi. Har bir mamlakat aktiv balansga ega bo'lishga intiladi, Chunki manfiy sal'do davlatning oltin-valyuta zaxirasi yoki davlat qarzi hisobiga qoplanadi.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish borasida amalga oshirilgan ahamiyatli chora-tadbirlar natijasida 2010 yilda tashqi savdo va to'lov balanslari ham sezilarli darajada mustahkamlandi.

Hamon davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida eksportning umumiyligi hajmi 10,8 foiz, tashqi savdo balansining ijobjiy sal'dosi esa 1,8 barobar oshdi va 4 milliard 200 million dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizning oltin-valyuta zaxirasi ham shunga muvofiq ravishda ko'paydi<sup>3</sup>.

Ishlab chiqarish sohasida xalqaro munosabatlarning jadal sur'atdagi yo'nalishi va xarakteri muayyan darajada integratsion jarayonning mazmuni va rivojlanishini belgilaydi. Umuman, ishlab chiqarish bilan birga aloqa

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga barishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiqtini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. –32 bet.

o'rnatish sohalarini qamrab oladi. Savdo munosabatlari ko'pincha ikkinchi darajaga surilib, xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining yakunlovchi bosqichiga aylanmoqda.

Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligida bir necha bosqichni belgilash mumkin:

Birinchi bosqich - mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashganligiga suyanadi, ya'ni bunda bir ishlab chiqarish sohasining (masalan, sanoat) mahsulotini boshqa soha (masalan, qishloq xo'jaligi) mahsulotiga ayriboshlash rivojlanadi;

Ikkinchi bosqich - qisman mehnat taqsimoti bazasi asosida shiddat bilan rivojlanayotgan tarmoqlararo ixtisoslashtirish bilan xarakterlanadi, avvalambor bu ishlab chiqarishning moddiy tarafdan soha tuzilishini murakkablashtirish, ya'ni sanoat sohalarini differentsiallashtirishdir;

Uchinchi bosqich - umumiyl va xususiy mehnat taqsimotiga asoslanib, xalqaro tarmoqlar o'rtasidagi ixtisoslashtirishning rivojlanishi, xalqaro sohalar ichidagi ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish jarayoni bilan boshlanadi, bu xususiy hamda yakka mehnat taqsimotiga asoslangandir.

Ayrim mahsulotlar qismlarini (agregatlar, detallar) ishlab chiqarish nazarda tutilmoqda, maqsad - yangi texnika va texnologiya bazasini ommaviy ishlab chiqarish, mehnat unumdorligini oshirish, sarf-xarajatlarni kamaytirish va h.k. Tabiiyki, bu ixtisoslashtirish asosida yakunlovchi mahsulot (mashinalar, agregatlar, ishlab chiqarish ob'ektlari) chiqarish uchun keng miqyosdagi muvofiqlashgan (kooperatsion) aloqalarni yuzaga keltirish talab etiladi.

Ishlab chiqarish hamkorligi, tushunchasi asosida xalqaro ixtisoslashtirish bilan kooperatsiya ishlab chiqarishi o'zaro bog'liqligi yotadi.

Xalqaro ishlab chiqarish koopersiyasi-turli mamlakatlarning bir xil yoki boshqa (turli) ishlab chiqarishdagi kundalik bir-biriga bog'liq ish jarayonlarida sub'ektlar va huquqiy shaxslarning birlashmasidir.

Shunday qilib, xalqaro ishlab chiqarish koopersiyasi-aniq ishlab chiqarish maqsadi asosida birlashib, faoliyat ko'rsatuvchi huquqiy shaxslar uyushmasidir.

Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining shakllarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin: ixtisoslashtirish va koopersiya asosidagi ishlab chiqarish hamda savdo ishlarini muvofiqlashtiruvchi hamkorlik; ilmiy-texnika hamkorligi, pudrat (pay) asosida qurilish sohalarida faoliyat yuritish (qo'shma korxonalarga ega bo'lish).

Hamkorlikning bu shakllari "sof holda" bo'lmasligi mumkin. Biroq amaliyotda ko'pincha firmalar muayyan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarini tashkil etadilar yoki sohalararo va ichki ixtisoslashtirilgan sohalar asosida ishlab chiqarish xizmatlarini o'taydilar. Bunda ilmiy ishlab chiqarish va savdo-sotiqligini uyg'unlashtirgan bir-biriga uzviy bog'liq qo'shma korxonalar yaratish maqsadi ham turadi.

Xalqaro ixtisoslik asosdagi ishlab chiqarish hamkorligi, odatda, xalqaro integratsion jarayonlarning yuksak darajadagi tarraqqiyotini aks ettiradi va bu ko'rsatkich turli mamlakatlarning firmalari o'rtasidagi aloqalarda ham namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish hamkorligining o'ziga xos belgilari quyidagilardir:

- sheriklar o'rtasidagi uzoq muddatli, barqaror va doimiy iqtisodiy hamkorlik;

- turli mamlakatlardagi ishlab chiqarish koopersiyasi va sanoat korperatsiyasiga aloqador sanoat korxonalari (firmalari) bevosita sub'ektlarining mavjudligi;

- o'zaro kelishilgan holda tegishli texnologiyalardagi tayyor mahsulotlar, qismlar (komponentlar), boshqa ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha asosiy koopersiya sub'ektlarini belgilangan tartibda mustahkamlab qo'yish;

- birgalikda tuzilgan dasturlar doirasida vazifalarni taqsimlash; ishlab chiqarishda bevosita qatnashuvchi hamkorlarning asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda biriktirib qo'yish;

- xalqaro hamkorlik doirasida sheriklar o'rtasida ishlab chiqarish dasturlarida belgilangan mollarni o'zaro yoki bir

yoqlama etkazib berish yoxud odatdagidek, shartnomalar bajarilgan taqdirda oldi-sotdi ishlarini bajarish.

## **2.4. Tashqi iqtisodiy faoliyatda fan-texnika hamkorligi**

Ilmiy, moliyaviy va moddiy resurslarni birlashtirish yo'li bilan ilmiy-tadqiqot hamda loyihalash ishlarining dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hamkorlik qilish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar guruhlari yoki tashkilotlari hamkorligini tuzish g'oyatda muhimdir.

Bunday hamkorlikning eng unumli va samarali shakllari quyidagilardir:

- eng yangi ilmiy-texnik g'oyalardan, loyihalash ishlaridan, firmaning marketing sohasidagi tadqiqotlari va texnikaviy-iqtisodiy ish ko'rsatkichlaridan foydalanish uchun umumiyo yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot markazlari, byurolari, laboratoriyalari barpo etish;

- firmaning texnikaviy-iqtisodiy ish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida amaldagi texnika va texnologiyani takomillashtirish sohasida birgalikda tajriba ishlari o'tkazish;

- ishlab chiqarish mehnatini tashkil etish sohasida birgalikda izlanishlar olib borish va chet el tajribasini o'rorganish;

- ilmiy-texnika siyosati masalalari bo'yicha koordinatsiya (muvoifiqlashtirish) va konsul'tatsiyalar o'tkazish;

- tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchi malakali xodimlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.

Ilmiy-tadqiqot ishlaridagi hamkorlik faoliyatida eng muhimi -sohadagi samaradorlikni tahlil qilishdir.

Olingen ilmiy natijalarning samaradorligi bir necha aspektlarda qarab chiqiladi.

Tadqiqot ishining nazariy qiymati texnikaviy daraja tafsilotlari (ishonchliligi, uzoq muddatliligi, ishlab chiqarishdagi samaradorligi va hokazolar) bilan belgilanadi, bunda boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik olib borishdagi

ahamiyat, raqobatga bardosh bera olish xususiyatlari hisobga olinadi.

Tadqiqot ishlarining amaliy qiymati ularning natijalarini xalq xo'jaligida yoki yordamchi tarzda firmada tatbiq etish orqali aniqlanadi.

O'tkazilgan tadbirlarning istiqbollik natijalari muayyan vaqt ichida qay daraja samara bera olishini aniqlash bilan baholanadi.

Tadqiqot tadbirlarining qiymatini aniqlovchi ishlanmalarda ilmiy ishlarni tashkil etish, o'tkazish, tajriba olib borish, mutaxassislar tayyorlash, zarur asbob-uskunalar sotib olish va jihozlash, axborotlar bilan ta'minlash kabilar hisobga olinadi. Tadqiqotlarni rejalashtirish va amalga oshirishga oid ishlanmalarni tayyorlashda ilmiy ishlarni bajarish muddati, keltiradigan natijalari va ularning tatbiq etilishiga qarab moddiy-texnika bazasi hozirlanadi.

Rejalar va natijalarni amalga oshirish ehtimolligini oldindan hisobga oluvchi ishlanmalarda ko'zda tutilayotgan ilmiy ishlardagi muammolarning maqsadga muvofiqligi, hamkorlik o'rnatish shaklining qay darajada to'g'riliqi bilan bog'liq masalalar qayd etilgan bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini tatbiq etishning iqtisodiy samaradorligi, keltiradigan foydasi milliy va jahon iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha sarflangan xarajatlarni qoplash muddati, raqobatga bardoshliligi bilan aniqlanadi.

## **2.5. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda tashqi savdoni tartiblashning notarif usullari**

Ma'lumki, tashqi savdoni tartibga solishda davlat ikki xil usuldan foydalanadi, bular tarif va notarif usullardir. Tariixa nazar tashlasak, davlatlar tashqi savdoni tartibga solishda asosan tarif usullaridan foydalanganliklarini ko'rishimiz mumkin. XX asrning II yarmidan boshlab turli notarif usullaridaan foydalaniylmoqda.

Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usuli mohiyatiga ko'ra ma'muriy vosita bo'lib, amaliyotda miqdoriy yashirin va moliyaviy ko'rinishlarda uchraydi. Ko'pincha hukumatlar oldida kaysi usulda aniq bir vaziyatlarda foydalanish kerak, degan muqobil holat vujudga keladi va ko'pchilik hollarda notarif usullar ma'qul ko'rildi. Ular siyosiy nuqtai nazardan ham ma'qul, Chunki tariflardan farqli o'laroq, aholi uchun qo'shimcha yuk bo'lmaydi.

Bundan tashqari notarif usullar orqali belgilangan maqsadga erishish oson. Masalan: po'lat importini 3 mln. t. gacha qisqartirishga 3 mln. t.li miqdoriy chegarani belgilash bilangina erishish mumkin. Ana shu 3 mln. t.li darajaga importni kamaytirish uchun boj stavkasini qancha miqdorda belgilashni hisoblash va joriy etish murakkabroq jarayon.

Shu nuqtai nazardan notarif usullar orqali bu po'lat importini tartibga solish tarif usulidan ko'ra qulayroq hisoblanadi.

Bular quyidagilar:

**Miqdoriy chegaralar** - tashqi savdoni tartibga solishning ma'muriy usuli bo'lib, u eksport va import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdorini va nomenklaturasini belgilash bilan amalga oshiriladi.

Miqdoriy chegaralarga: kvotalash, litsenziyalash va eksportni "ixtiyoriy" cheklashlar kiradi.

Kvota - bu ma'lum bir vaqt davomida import yoki eksport qilinayotgan tovari miqdoriy yoki ma'lum bir summa doirasida cheklashdir.

Litsenziyalash - tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlatning vakolatli idralari orqali beriladigan

ruxsatnoma.U ma'lum bir vaqt davomida yoki belgilangan miqdorda eksport yoki import qilish imkonini beradi.

Eksportni "ixtiyoriy" cheklash - kvotalashning bir shaklidir. Importer mamlakat hukumati iltimosiga binoan eksportyor mamlakat hukumati tomonidan o'z eksport tovarlarining ma'lum chegarasini (kvotasini) belgilaydi. Agar importer mamlakatning iltimosi qondirilmasa, u tomonidan turli sanktsiyalar ko'llanishiga sabab bo'ladi.

### **Savdo siyosatining yashirin usullari yoki yashirin protektsionizm.**

Taxminlarga ko'ra, yashirin protektsionizmning yuzlab shakllari mavjud. Davlatlar ular orqali eksport va importni bir tomonlama tartibda cheklaydilar.

Bularga quyidagilar kiradi:

Texnik bar'erlar - savdo siyosatining yashirin shakli bo'lib, unga ko'ra milliy, texnik, ma'muriy hamda boshqa norma va qoidalar shunday tuziladiki, bunda u tovarlarning xorijdan kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Bu texnik xarakterdagi keng tarqalgan to'siqlardir.Ular o'z ichga quyidagilarni oladi:

- milliy standartlarga riosa etish;
- import mahsulotining sifat sertifikati;
- spetsifik ustanovka va markirovka;
- ma'lum sanitar-gigienik normalarga riosa qilish;
- murakkablashtirilgan bojxona rasmiyatichiligi;
- iste'molchilarni himoya qiluvchi qonunlarni bajarishni talab qilish va hokazolar.

Ichki soliq va yig'imlar - yashirin savdo siyosati usulidir.Bunda import qilinayotgan tovarlarning ichki bahosini oshirish va bu bilan uning raqobatdoshligini pasaytirish mo'ljallangan. Bu usul ham markaziy, ham mahalliy hukumat idoralari tomonidan joriy etilishi mumkin.

Masalan: qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, savdo solig'i, bojxonada rasmiylashtirish, ro'yxatdan o'tkazish va boshqa rasmiyatichiliklar uchun yig'imlar, to'lovlar.

Davlat xaridi - yashirin savdo siyosatining bir usuli.Bunda davlat organlari va korxonalaridan ma'lum bir tovarlarni faqat milliy ishlab chiqaruvchilardangina sotib olish talab qilinadi (import tovaridan qimmat bo'lsa ham).

Bu siyosat asosan milliy xafsizlik maqsadida amalga oshiriladi.

Mahalliy komponentlar bo'lishini talab qilish - ichki bozorda sotiladigan tovarlarning qancha qismi (kamida) milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilishi kerakligini qonun yo'li bilan belgilab ko'yishdir.

Savdo siyosatining moliyaviy usullari ham mavjud.

Eng keng tarqalgan moliyaviy usullar subsidiyalash, kreditlash va demping sanaladi. Agar hukumat milliy ishlab chiqaruvchilarning eksportini rag'batlantirmoqchi bo'lsa, ularga byudjetdan har xil shaklda subsidiyalar berishi mumkin.

Subsidiyalar xarakteriga ko'ra bevosita va bilvositadir:

Bevosita subsidiyalar - ma'lum bir miqdordagi pul summasi ko'rinishida eksportyorga dotatsiya berishdir.

Bilvositay subsidiyalar - eksportyorlarga soliq imtiyozlari, sug'urta imtiyozlari, bozor stavkasidan past stavkada zayom berish, import to'lojni qoplash kabi usullar bilan amalga oshiriladi.

Demping - savdo siyosatining moliyaviy shaklidir. Utashqi bozorga chiqariladigan tovarlarni ichki bozordagi mavjud normal baholardan past bahoda sotish bilan amalga oshiriladi. Demping yangi bozorlarni o'zlashtirish, bozordagi ulushni oshirish maqsadida yoki ishlab chiqarilgan tovarlar ko'p to'planib qolgan sharoitda qo'llaniladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Birlashish jarayonlari barqaror iqtisodiy o'zaro aloqalarning o'sishi jarayonini hamda ishlab chiqarishning milliy xo'jalik doirasidagi chiqishni taqozo etadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni belgilovchi asosiy omildir.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda xalqaro ishlab chiqarish hamkorligi ixtisoslashadi.

TIF da fan-texnika hamkorligi iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda tashqi savdoni tartiblashning notarif usullaridan foydalaniadi.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyaning ob'ektiv omillari nimalarni ko'zda tutadi?
2. Xalqaro mehnat taqsimoti tuzilishidagi siljishlari nimalardan iborat?
3. Turli mamlakatlardagi firmalarning o'zaro birlashishining asosi maqsadi nima?
4. Davlatning tashqi iqtisodiy strategiyasi nimalardan iborat?
5. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi nimani anglatadi?
6. O'z xususiyatlariga ko'ra, umumjahon miqyosidagi ilmiy-texnika tarraqqiyoti qanday ahamiyatga ega?
7. Ochiq tarzdagi milliy iqtisodiyotning yuksalish darajasi nimaga bog'liq?
8. Mamlakat strategiyasini qanday tushunasiz?
9. Mamlakatlararo ishlab chiqarish hamkorligi nima?
10. Ishlab chiqarishdagi hamkorlik bosqichlarini aytib bering.
11. Ishlab chiqarish hamkorligi uchun nimalar baza (asos) bo'la oladi?
12. Xalqaro koopertsiya nima?
13. Fan-texnika hamkorligining eng muhim, unumli va samarali shakllari nimalardan iborat?
14. G'oyalarning nazariy qiymati nimada?
15. Texnika qiymati nimada?
16. Amaliy qiymatchi
17. Iqtisodiy samaradorlik nima?

## **Asosiy adabiyotlar**

6. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'rzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 257 bet.

7. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» xamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzalarini o’rganish bo'yicha O’quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

8. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.

9. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/

10. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.

11. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. Т.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.

12. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. Т.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.

### **III - BOB. JAHONNING ASOSIY INTEGRATSION GURUHLARI**

#### **REJA:**

- 3.1. Hududiy integratsion komplekslarni shakllantirish**
- 3.2. Evropa Hamjamiyati - jahon iqtisodiyotiga integratsiyada etuk iktegratsion guruh**
- 3.3. Evropa Valyuta Ittifoqi**
- 3.4. Shimoliy Amerika mamlakatlari va Tinchokean Hamjamiyatining jahon iqtisodiyotiga integratsiya xususiyatlari**

#### **3.1. Hududiy integratsion komplekslarni shakllantirish**

Iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv xususiyatlari (xarakteri) davlat va davlatlararo tashkilotlar tomonidan milliy iqtisodiyoti chetdan stixiyali tarzda boshqariladi, degan ma'noni anglatmaydi. Hududiy integratsion komplekslarni shakllantirish shartnomali-huquqiy bazaga ega. Qator mamlakatlar guruhi o'zaro kelishgan holda mintaqaviy davlatlararo kompleksga birlashadilar hamda o'zaro hamkorlikda ijtimoiy-siyosiy va xo'jalik hayotida teng ravishda hududiy siyosat yuritadilar. Jumladan, G'arbiy Evropada EH va EAST (EAFT) – European Association of Free Trade.

Shimoliy Amerikada – NAFTA.

(NAFTA)- North American Free Trade Agreement.

Osiyo-Tinchokean hududida – Tinchokean hamjamiyati mavjuddir.

Tarixan ancha barqarorlashgan integratsion jarayonlar G'arbiy Evropada yuzaga kelgan bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida butun bir hududda yagona xo'jalik makoni tashkil etildiki, uning doirasida qayta tiklanishning umumiyligi shart-sharoitlari shakllandidi va uni boshqarish mexanizmi yaratildi. Bu erda integratsiya ancha etuk shaklga etdi.

G'arbiy Evropa integratsiyasi mexanizmining muhim qismlaridan biri – strukturali, tarmoqli va regional siyosatni birlashib o'tkazishdir. Shuni

aytish kerakki, milliy boshqarish uncha raqobatga bardoshli bo'Imagan tarmoqlarda va qoloq hududlarda ishlataladi.

Hozirgi zamon agrar siyosatini o'tkazishda katta yutuqlarga erishilgan. Uning mablag' bilan ta'minlanishi sobiq Ittifoq byudjetida yirik chiqim moddasi bilan belgilangan. Umumiylagrar siyosat negizida ichki va eksport narxlarini subsidiyalash yotadi. Natijada Evropa Hamjamiyati AQSh dan keyin ikkinchi bo'lib, jahon qishloq xo'jalik eksportyoriga aylandi.

Evropa Hamjamiyatining agrar bozori baland bojxona to'siqlari bilan to'silganki, ular resurslari oshib-toshib ketgan jahon agrar bozoridan mollarning o'tishiga yo'l qo'yaydilar. Bu tizim qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining daromadi barqarorligini ta'minlaydi, ularni iqtisodning boshqa soha ishchilariga mos ijtimoiy kafolatlaydi. Kelajakda EH birlashgan qishloq xo'jalik siyosatining bosh yo'nalishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining jahon miqyosidagi sharoitiga moslashuvi, samarali siyosat o'tkazish yo'li bilan raqobatsiz xo'jaliklarni bartaraf etish va ular o'rniqa imkoniyat bilan bandlikni ta'minlashdir.

EH rivojlanishining boshlang'ich davrida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari sohasida hamkorlikdagi harakat bilan ko'mir, metallurgiya sanoati va yadro energetikasining rivojlanishiga katta e'tibor qaratildi. O'tgan asrning 80-yillari boshida fan-texnika faoliyatini muvofiqlashtirish kuchaydi.

"Romli" kompleks dasturining qabul qilinishi (1984-1987 yillar) bu boradaki dastlabki qadam edi. U EH fan-texnikasi faoliyatiga o'rta-miyona va tez rejalashtirish jarayonini kiritdi. Biroq, dasturilamal bo'ladigan, yagona fan-texnika strategiyasi ishlab chiqilgan dastur ikkinchi dastur edi. Keyin uchinchi kompleks dasturi qabul qilindiki, u hozir amalga tatbiq etilmoqda. O'z navbatida, bu hujjatlar, avvalo, AQSh va Yaponiya tomonidan ilgari surilgan yangi texnologiya asosidagi raqobatbardosh sanoatni tarkib toptirish va kuchaytirish maqsadida tuzildi.

Evropa Hamjamiyatining hozirgi davrdagi ilmiy-texnika siyosati bosh maqsadlari quyidagilardir:

-mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar, fan va sanoat o'rtasida muvofiqlik hamda hamkorlikni o'rnatish;

- ko'pchilik kompaniyalarda o'rta darajadagi kadrlar hamda mablag'lar etishmasligini hisobga olib, ular tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy-texnika tarraqqiyotining asosiy yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlarga yordam berish.

1985 yildan o'z faoliyatini boshlagan yirik miqyosdagi mustaqil, ko'p maqsadli Evropa mamlakatining hamkorlik dasturi – "Evrika" katta ahamiyatga ega bo'ldi va u boshqa mamlakatlarning firmalari uchun ham ochildi.

Evropa Hamjamiyatining rivojlanishida 1987 yil 1 iyulda kuchga kirgan va EHning barcha a'zolari tomonidan ma'qullanib, rasmiylashtirilgan Yagona Evropa qaydnomasi (akti) muhim voqeа bo'ldi. Mazkur hujjat asosida EHning vujudga kelishi to'g'risidagi shartnomaga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi va yuridik jihatdan mustahkamlandi.

Birinchidan, EHning iqtisodiy integratsiya sohasidagi faoliyati Evropa siyosiy hamkorligi bilan birlashib, yagona jarayonga aylandi. Evropa Ittifoqini tuzish maqsadi, o'z navbatida, unga a'zo bo'lgan qatnashchilarning faqatgina iqtisodiy, valyutali-moliyaviy, gumanitar munosabatlari darajasini shakllantirib qolmasdan, balki, xavfsizlikni ta'minlash borasidagi tashqi siyosatni ham qo'llab-quvvatlashni nazarda tutar edi.

Ikkinchidan, Yagona Evropa qaydnomasida (aktida) EH miqyosida "tovar, kapital, xizmat va fuqarolarning erkin harakatini ta'minlovchi chegarasiz makon" bo'lgan ichki bozorni yaratish vazifasi qo'yilgan ediki, bunga erishildi. Amalda mavjud bo'lgan EH mamlakatlarining umumiy bozori o'zaro savdo-sotiqdagi barcha to'siqlarni bartaraf etishni, faqatgina milliy-iqtisodiy hududlarda tovarlarning keng miqyosdagi erkin harakatinip ko'zda tutadi.

"Yagona bozor" g'oyasini amalga oshirish uchun EH komissiyasi taxminan 300 ta dastur ishlab chiqdi. Bu dasturlarda Evropa Hamjamiyati mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiyotni ayriboshlashdagi to'siqlarni olib tashlash maqsadlari ilgari surildi. O'tgan asrning 90-yillar o'rtalariga kelib, bu to'siqlar asosan bartaraf etildi. 1991

yilning dekabrida va 1992 yilning fevralida iqtisodiy hamda valyutali Ittifoq (Maastirixt bitimi) tuzish shartnomasiga imzo cheqildi. Natijada XX asrning oxiriga kelib, Evropa Hamjamiyati mamlakatlarida yagona pul birligi (EKYu) hamda valyutali va pul-kredit siyosatini shakllantirish markazi - AQSh Federal rezervi tizimi tipidagi Markaziy bank va Markaziy banklar Evropa tizimi barpo etish mo'ljallanmoqda. Yagona Evropa qaydnomasini amalga oshirish, o'z navbatida, Evropa Ittifoqi tuzilmasini yaratishga imkon berdi.

EHDan tashqari Evropada yana bir tashkilot - Evropa erkin savdo uyushmasi (EESU) mavjuddir. Bu uyushma 1960 yilda Stokgol'mda imzolangan tegishli konventsiya asosida yuzaga keldi. Hozirgi vaqtda EESUga Avstraliya, Finlandiya, Islandiya, Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya mamlakatlari a'zodir. EESU shartnomasi Shveytsariya bojaxona ittifoqi bilan kelishilgan holda Lixteyshteynga tarqatiladi.

EESU erkin savdo makonini yaratishga asoslangan. Binobarin, EESU doirasida erkin, boj solig'isiz tovar ayriboshlash tartibi sanoat mollariga aloqador bo'lib, qishloq xo'jalik mahsulotlari bundan mustasnonodir. EHdan farqli ravishda, EESUga a'zo bo'lган har bir mamlakat tashqi savdo avtonomiyasiga hamda uchinchi mamlakat bilan savdo-sotiq olib borishda boj solig'i o'rnatish huquqiga ega. Bu mamlakatlarda yagona bojaxona bahosiga amal qilinmaydi.

EESUga a'zo bo'lган mamlakatlarning barchasini birlashtirgan maxsus kengash milliy tashkilot hisoblanmaydi, u faqat umumiyoq ovoz berish yo'li bilangina qarorlar qabul qila oladi.

Evropada ikki xildagi integratsion guruhlarni birlashtiruvchi mazkur tashkilotlar o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga monelik kilmaydi. Ular o'rtasida o'zaro hamkorlik va aloqalar o'rnatish g'oyalari (tendentsiyalari) 70-yillardayoq vujudga kelgan edi. 1977 yilga kelib, EH va EESUga a'zo mamlakatlar o'rtasida sanoat mollarining erkin savdo-sotig'i yuzaga keltirildi. Bunda bojaxona soliqlari

bekor qilindi hamda o'zaro savdodagi tarifsiz chegaralar qisqardi.

1991 yilda mazkur mamlakatlar o'rtasida yagona Evropa iqtisodiy makonini saqlash haqida bitim imzolandi. Ana shu bitimga ko'ra, EESUga a'zo bo'lgan mamlakatlar 1993 yildan boshlab o'z qonunlariga yuzlab qaydnomalarni kiritdilar. Bu hujjatlarda tovarlar, kapitallar, xizmatlarning erkin harakati, shuningdek, raqobat sohasidagi siyosat joriy etildi. 2000 yillarga kelib, yagona valyuta (EKYU) joriy etish, tashqi siyosatni barqarorlashtirish, Evroparlamentning rolini oshirish, yagona fuqarolik huquqini berish, xavfsizlikni ta'minlash sohasida hamkorlik o'rnatish kabi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorlarini birlashtirish (integratsiyalash) rejalashtirilmagan.

1995 yilda EH roziligi bilan Avstriya, Norvegiya, Shvetsiya va Finlandiya unga a'zo bo'ldilar (Buyukbritaniya, Daniya, Portugaliya mamlakatlari 70-yillardayoq EHga a'zo bo'lib kirgan edi).

Boshqa mamlakatlarning EHga a'zo bo'lish siyosatida Sharqiy Evropaga hamon yon bosilmoqda. 1991 yilda bu mamlakatlar bilan EH o'rtasida uyushma (assotsiatsiya) tuzish haqida bitim imzolangan edi. Sharqiy Evropa mamlakatlari G'arbiy Evropa integratsion jarayoniga qo'shilishlari mumkinmi? Hozircha bu borada iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarga yalpi tarzda zarurat yo'q. Bu erda bozor tamoyillariga tayangan holda, G'arbiy Evropa mamlakatlari bilan hamkorlikdagi iqtisodiyot tizimi yaratilmoqda. Shuningdek, xususiy lashtirish, barqarorlashgan narxlarni joriy etish, bank tizimini shakllantirish, qisman konventatsiyalangan valyutalarni kiritish jarayonlari bormoqda. Chuqur iqtisodiy tanazzul ruy berayotgan davrda islohotlarni amalga oshirish qiyin kechmoqda.

MDH mamlakatlariga kelganda esa, ularning munosabatlari o'zaro aloqalar o'rnatish haqida odatdag'i bitimlar tuzish bilan cheklanmoqda. Bu mamlakatlarning EHga yaqinlashish jarayoni shoshilinch ham, oson ham emas. Chunki, aksariyat sobiq Sho'ro respublikalari G'arbiy

Evropa bilan emas, bir-birlari bilan munosabat o'rnatishga majburdirlar.

Hozirgi davrda MDH mamlakatlari o'rtasida Bojxona Ittifoqi o'rnatilmoqda. Chunonchi, 1997 yilda Rossiya, Beloruss, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida bojxona Ittifoqi tuzildi.

### **3.2. Evropa Hamjamiyati - jahon iqtisodiyotiga integratsiyada etuk iktegratsion guruh**

1993 yil 1 noyabrgacha rasmiy ravishda etakchi G'arbiy Evropa mamlakatlarining birlashgan guruhi Evropa Hamjamiyati deb atalardi. Chunki u 1967 yildan so'ng mustaqil bo'lgan uch mintaqaviy tashkilot organlarining birlashishidan paydo bo'lgan:

- Evropa Ko'mir va Po'lat Birlashmasi - EOS (ECSO): mavjud bitim 1952 yilda kuchga kirgan;

- Evropa Iqtisod Uyushmasi - EAS (EEC): Evropa uyushmasini tashkil qilish bitimi Rimda 1957 yilda qabul qilingan va 1958 yili kuchga kirgan;

- Evropa Atom Energiyasi bo'yicha uyushma - Evraatom (EVRATOM): bitim 1958 yilda kuchga kirgan.

U rasmiy nomlanish bilan bir qatorda, boshqacharoq deb ham atalar edi: Evropa Hamjamiyati (EH) yoki faqat Hamjamiyat.

1993 yil 1 noyabrda Maastrix bitimi kuchga kirgandan keyin, bu guruhning nomi rasmiy ravishda Evropa Ittifoqi bo'ldi:

1. Evropa Erkin Savdo Assotsiyasi (Uyushmasi) - European security of Trade.

2. «Erkin savdo to'g'risidagi Shimoliy Amerika bitimi». North American of free Trade.

3. European Economic Community.

Evropa hamjamiyati doirasidagi birlashmaning rivojlanishida bir qator bosqichlar bo'lib o'tdi, faqat ular quyi shakldan o'tib, chuqurlashib bordi (erkin savdo zonasи, bojxona Ittifoqi umumiy bozor), yuqoriga - iqtisodiy va valyuta birligiga o'tishi bilan a'zolar soni ko'payishiga ham olib keldi.

Hozirgi vaqtida Evropa Hamjamiyatining negizini barpo etish jarayoni yagona bozor, davlatlararo boshqarish tizimi amaliy yakunlandi va mamlakatlarning iqtisodiy, valyuta va siyosiy birligi shakllanishi yakunida ular bevosita yaqinlashdilar.

Evropa Hamjamiyatiga to'liq huquqqa ega bo'lgan 12 mamlakat kiradi: Bel'giya, Buyuk Britaniya, Albaniya, Gretsya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Frantsiya.

Evropa Hamjamiyati mexanizmining harakati, avvalambor, siyosiy-huquqiy boshqarish tizimiga asoslanadi. Ular umumiyligi milliy yoki mamlakatlardan hamda milliy davlat boshqaruvidan iborat.

Evropa Hamjamiyatining asosiy hokimiyat tuzilishini izohlab beramiz. Vazirlar Maxkamasi (kengashi) qonuniy organ bo'lib, boshqaruv tizimida asosiy rol' uynaydi. Unga yuqori darajadagi malaka bilan qabul qilinadi (amalda esa teng ovoz olishga harakat qilinadi).

Evropa kengashi (Evrosovet) - yuqori organ bo'lib uning tarkibiga davlatlarning rahbarlari va Evropa Uyushmasiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning hukumat boshliqlari kiradi. Bu erda printsipial masalalar muhokama qilinadi hamda qarorlar qabul qilinadi.

Evropa Hamjamiyatining komissiyasi (komissiya, EHK) - ijro etuvchi organdir. U Vazirlar Mahkamasiga qonunlar loyihasini tasdiqlash uchun tavsiya etish huquqiga ega. Uning faoliyati juda keng va rang-barangdir

Masalan, komissiya bojxona tarkibiga rioya qilinishini, agrar bozor faoliyatini, soliq va bojxona siyosatini yuritish ishini nazorat qilishni amalga oshiradi va h.k.. U bir qator vazifalarni bajaradi, shu jumladan, ixtiyoridagi ijtimoiy mintaqaviy agrar fondlar asosida mablag' bilan ta'minlash vazifasini utaydi.

Komissiya mustaqil ravishda uchinchi mamlakatlar bilan muzokaralar olib boradi, shuningdek, unga umumiyligi byudjetni boshqarish huquqi berilgan. Faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri milliy qonunchilik, standart va normalarni tartibga keltirishdir.

Evropa Parlamenti (Evroparlament) – nazoratchi organ. Komissiya faoliyatini nazorat qiladi va byudjetni tasdiqlaydi. Vazirlar Maxkamasi va Evropa Hamjamiyati komissiyasining faoliyati o'zaro bog'liqdir.

Evropa Hamjamiyati Sudi - yuqori organ. U bitimlarning bajarilishini va Evropa Hamjamiyati asosiy printsiplarining amalga oshishini ta'minlaydi.

Bulardan tashqari, boshqa boshqaruv va konsul'tativ organlar, yana turli yordamchi tashkilotlar – tur kumitalar, komissiyalar, yordamchi komissiyalar, moliyani tartibga solish fondlari mavjud.

Evropa Hamjamiyati boshqaruv huquqida eng yuqori o'rinni EH ni tuzish va kengaytirish to'g'risidagi xalqaro bitim, shuningdek, Hamjamiyat faoliyatini yuritishga oid boshqa bitimlar egallaydi.

Bu dastlabki qonunchilik EH konstitutsiyasini hosil etadi.

Ikkinchi qonunchilik reglamentlar, direktivalar (ko'rsatmalar), qarorlar, tavsiyalar va mulohazalar tarzida taqdim qilingan.

Reglamentlar (ish tartibi) o'zining statusiga ko'ra, EH ga a'zo bo'lган mamlakatlarning milliy qonunchiligidan ustun turadi va har kaysi mamlakat hududida qonun kuchini egallaydi.

Direktivalar qonunlashtirilgan hujjat bo'lib, ular umumiyligi qoidalarni belgilaydi va EHga a'zo bo'lган mamlakatlarning maxsus qarorlarini aniqlashtiriladi..

Qarorlar tub mohiyati bilan individual tarzida bo'ladi. Ular shaklan majburiy kuchga ega bo'lmasada, ma'lum darajada huquqiy ahamiyatga ega.

Tavsiyalar va muloxazalar ijro etish uchun majburiy emas.

G'arbiy Evropa iqtisodiyotini birlashtirish jarayonida huquq markazdan uzoqlashish g'oyalariga ta'sir etishda faol rol' uynaydi. EH doirasida yagona huquqiy maydon yuzaga keltirilgan.

Tashqi savdo, agrar siyosat sohasida, tijorat va fuqarolik huquqi (raqobat erkinligi, monopoliya va shartnoma), soliq huquqlarida (soliq tizimining daromadga

yaqinlashuvi, mablag'ning aylanib turishiga qarab soliq rejasini belgilash, EH mablag'iga bevosita badallar tushumi) Evropa qonunchilik hujjatlari milliy qonunlarni almashtira oladi.

Biroq, tashqi bosqichda tashqi iqtisodiy siyosatda milliy hukumat quyidagi imkoniyatlarga ega:

- uchinchi bir mamlakatning mollariga import ulushini kiritish;

- birinchi navbatda to'qimachilik va elektron mahsulotlar tannarxi ancha arzon bo'lgan mamlakatlar (masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya) bilan «ixtiyoriy cheklangan eksport» shartnomalari tuzish;

- sobiq mustamlaka mamlakatlar bilan alohida savdo munosabatlarini saqlab qolish.

Evropa Hamjamiyatinig komissiyasi yagona bozor manfaatlarini himoya qilishga harakat qiladi. Qandaydir milliy normativ aktlari EH huquqiga zid bo'lishiga yo'l quyilmaydi. Yana bir xususiyati - sub'ektlar tizimi faqat EH davlatlari - a'zolari bo'libgina qolmay, ularning fuqarolari hamdir.

Evropa Ittifoqi unga a'zo bo'lган mamlakatlarning mablag'laridan (byudjetlaridan) xoli ravishda o'zining mustaqil moliyaviy vositalariga ega. EH mablag'larining hajmi bu Hamjamiyatning kengashi va Parlamenti tomonidan aniqlanadi va tasdiqlanadi.

Moliyaviy faoliyatda Hisob Palatasi muhim rol' o'ynaydi. U umumiyligi boshqaruvini amalga oshiradi. EH institutlarining (masalan, agrar yo'nalish va kafolatlanish Evropa Fondi, mintaqaviy rivojlanish Evropa Fondi, Evropa Ijtimoiy Fondi) turli xildagi jamg'armalar va mablag'lari sarf-xarajatlari ustidan nazorat o'rnatadi. Mazkur fondlar hisobidan EH siyosiy tuzumining turlicha yo'nalishlari: agrar, ijtimoiy, mintaqaviy siyosat, energetika va shu kabilar tegishli mablag'lar bilan ta'minlanadi. Evropa investitsion banki avtanom tashkilot sifatida EH ning kapital jamg'armasini qoplaydi, ular hisobidan esa mintaqaviy dasturlarga, energetikani rivojlantirishga, infratuzilmalarga uzoq muddatli qarzlar berish va kafolatlash shartlari bilan tegishli mablag'lar ajratiladi.

### **3.3. Evropa Valyuta Ittifoqi**

Evropa Valyuta Ittifoqining shakllanishida uning bosqichlari hamda Yagona Valyutaga o'tish tartibi, shuningdek, "Evropa zona" siga kirish uchun "konvergentsiya shartlari" to'g'risida chuqurroq tuxtalib o'tish talab etiladi.

**Evropa va Valyuta Ittifoqi shakllanishining birinchi bosqichi** 1990 yil 1 iyuldan 1993 yil 31 dekabrgacha davom etdi va hozirda to'liq yakunlangan. Uning doirasida Evropa Ittifoqi haqidagi Maastricht shartnomasidagi bandlar ruyobga chiqishi uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik ishlari olib borildi. Xususan, Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va Evropa Ittifoqi hamda uchinchi davlatlar o'rtasida kapital migratsiyasi yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlandi. Evropa Ittifoqi ichidagi davlatlardagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni bir-biriga yaqinlashtirishga katta e'tibor berildi va a'zo davlatlar bir necha yilga mo'ljallangan shu maqsaddagi shartnomalar imzolashdi, ularda antiflyatsion, byudjet siyosatining konkret maqsadlari va ko'rsatkichlari ko'rsatildi.. Evroni kiritishga tayyorgarlik sifatida bu dasturlar Evropa Ittifoqining iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi (EKOFIN) ga taqdim etilib va Maastricht shartnomasida ko'rsatib o'tilgan, inflyatsiyaning past sur'atlarini davlat moliyasini sog'lomlashtirishga va a'zo-davlatlar valyutalari o'rtasidagi almashinuv barqarorligini saqlab qolishga qaratilgan edi.

#### **Ikkinci bosqich**

Evropa Valyuta Ittifoqini shakllantirishning **ikkinchi bosqichi** 1994 yil 1 yanvaridan boshlanib, 1998 yil 31 dekabrda tugadi. U a'zo davlatlar evroning kiritilishiga yanada konkret va chuqurroq tayyorgarlik ko'rishiga mo'ljallandi. Uning asosiy tashkiliy voqeasi Evropa Markaziy Bankining avvalgi sifatida Evropa Valyuta instituti tuzilmasi bo'ldi. Asosiy vazifasi esa euro kiritilishining 3-bosqichidan Evropa Markaziy Banki o'z funktsiyalarini bajara olishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik shart-sharoitlarni shakllantirish edi. U

bundan tashqari, EVI tuzilishi jarayonida Evropa Ittifoqining a'zo davlatlari olib boradigan milliy pul siyosatlari muvofiqlashuining kuchayishiga javob berar va shu doirasda milliy davlatlar Milliy Banklariga tavsiyanomalar bera olar edi.

Bu bosqichning boshqa asosiy voqealari quyidagilar hisoblanadi:

1. Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar ichida davlat sektoridagi korxona va tashkilotlarni Markaziy Banklar tomonidan kreditlash orqali moliyalashni va Markaziy Banklar davlat qarzlarini sotib olishini taqiqlovchi qonunchilikning qabul etilishi. Bu ta'qiq 3-bosqichda EMBga ham tarqatildi;

2. Davlat sektori korxonalari moliyaviy institutlar mablag'idan imtiyozli foydalanishini taqiqlovchi qonun qabul etilishi. Bu narsa 3-bosqichda EMB ga ham tarqatildi;

3. Biron a'zo davlatning davlat sektorlari qarzlarini boshqa a'zo davlat va EVI sotib olishini ta'qiqlash;

4. Barcha a'zo davlatlar byudjet defitsitining haddan tashqari oshib ketmasligiga hamma kuchlarni safarbar etishlariga kat'iy talab (Yalm ning 3 % difitsit, ya'ni Yalm 60 % gacha davlat qarzi). Bu EI kengashi tomonidan nazorat protsedurasiga kiritildi va bunaqa defitsit bo'lgan taqdirda sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlar haqida takliflar kiritish bilan mustahkamlandi;

5. Sharoiti bor davlatlarda milliy Markaziy Banklar ustav mustaqilligini ta'minlovchi milliy qonunchilikning qabul etilishi va bu bilan ularning huquqiy statusini EMB bilan tenglashtirish.

Nihoyat, 1998 yil 2 mayda davlat boshliqlari va hukumat raislaridan iborat EI ning kengashi sessiyasida ko'pchilik ovoz bilan EVI shakllanishining 3-bosqichida qaysi davlatlar Evroga o'tishini belgilandi. Bu qaror EKOFIN tavsiyasi bilan qabul etildi. Tavsiya esa Maastricht shartnomasi bo'lib, bunga tegishli protokol bilan o'rnatilgan evroga o'tishda bajarilishi lozim bo'lgan davlat moliyasini stabillashtirish bo'yicha "o'tish" me'zonlaridan kelib chiqqan. Bu mavzuda Evro Parlament bilan konsultatsiyalar o'tkazildi va tegishli xulosalar EI kengashiga yuborildi. 3-

bosqichdan evroga o'ta olmaydigan davlatlar ayrim shartlarni vaqtincha bajarmaslik huquqini oldi (ri ins)

**Uchinchi bosqich va yagona valyutaga** o'tish tartibi.

Uchinchi bosqich 1999 yil 1 yanvardan boshlandi. Shundan boshlab evroning milliy valyutalarga nisbatan qat'iy almashuv kurslari o'rnatildi, Evro esa ularning umumiyligi valyutasi bo'lib qoldi. U EKYU ni 1:1 nisbatda almashtirdi. Evropa Markaziy Banklari tizimi o'z ishini boshladi, EMV esa a'zo-davlatlar uchun pul siyosatini olib borish maqsadida evrodan foydalana boshladi.

EMVT evroni xalqaro valyuta bozorlariga sig'dira boshladi. Uning ushbu bozorlardagi operatsiyalarini o'tkazish va hisobga olishda evrodan foydalinnila boshladi. Pul siyosati mexanizmlari orqali tijorat banklari va yirik korxonalar o'z operatsiyalarini evroga o'tkazishni rag'barlantiradi. A'zo-davlatlar obligatsiyalarini evroda hisoblanadi. Xullas, yirik operatsiyalar evroda o'tkazila boshlangan bu bosqichda evro a'zo davlatlarning asosiy pul birligi bo'lib qolishi kerak.

Evro banknotlari va tangalari 2002 yil 1 yanvardan muomilaga chiqarildi boshlanadi va milliy valyutalarni muomiladan chiqarish jarayoni boshlandi. Bu bosqich 2002 yil 1 iyuligacha davom ettirilib, evroni yagona qonuniy to'lov va muomila vositasiga aylantirdi.

To'rtinchidan, "Evro zonasida qatnashish uchun "konvergentsiya kriteriyalari" El doirasida iqtisodiy va Valyuta Ittifoqi samarali faoliyat olib borishi uchun a'zo davlatlar barqaror konvergentsianing yuqori darajasiga erishishi zarur. Shu maqsadda yagona valyutaga o'tishdan manfaatdor davlatlar uchun Maastricht shartnomasida va 6-pratokolda ko'zda tutilgan barcha «konvergentsiya kreteriyalari»ga rivoja etish talab qilinadi. Bular quyidagilardir:

- baholar barqarorligining yuqori darajasiga erishish;
- hukumatning barqaror moliyaviy holati;
- kurs tebranishining o'rnatilgan me'yorlariga rivoja etish;
- "yaqinlashish" dinamikasi.

### **3.4. Shimoliy Amerika mamlakatlari va Tinchokean Hamjamiyatining jahon iqtisodiyotiga integratsiya xususiyatlari**

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Tsentr integratsion g'oyalar (tendentsiyalari) faqatgina G'arbiy Evropada rivojlanmadi. O'xshash jarayonlar Shimoliy Amerikada ham kuzatildi. Shimoliy Amerikaning barcha hududi erkin savdo (NAFTA) to'g'risidagi Shimoliy Amerika bitimlari bilan qamralgan edi. Binobarin, davlatlar miqyosidagi Amerika-Kanada erkin savdo bitimi faqat 1988 yilda tuzilgandi, Meksika esa unga 1992 yilda qo'shildi. Shimoliy Amerika iqtisodiyotining o'zaro hamkorlik va birlashganlik darajasi G'arbiy Evropa iqtisodiyotidan qolishmaydi.

Uzoq vaqtlargacha integratsion loyihalar korporatsion tarmoqlar darajasida nufuzli oqimda bo'lib, davlatlararo (davlatlar ustidan) boshqaruv bilan bog'lanmagan edi.

Mazkur mamlakatlarning savdo-sotiqa sohasidagi o'zaro aloqalar, kapitallari harakati va ishlab chiqarishdagi hamkorligi haqida quyidagi ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish mumkin:

1990 yillarning boshlarida AQSh ga Kanadaning 75-80% (yoki Kanadaning VNP 20%) eksporti safarbar etildi. AQSh uchun Kanada bozori chet elda yuqori o'rinda turadi. Bevosita xorijiy sarmoyalalar ulushi Amerikada Kanadaga nisbatan 75%, Kanadaning Amerikaga nisbatan ulushi esa 9%ni tashkil etadi. Meksika davlati uchun AQSh bilan iqtisodiy aloqa o'rnatish hayotiy zaruratdir.

1990 yillarning boshlarida AQSh ga Meksikaning 70% eksporti yuborildi, u erdan esa 65% Meksika importi kelib tushdi. Ayni vaqtida Meksika va Kanada o'rtasida aloqalar taboro rivojlanib, savdo-sotiqa, moliya va boshqa sohalarda o'zaro hamkorlik kuchaydi.

Savdo erkinligi to'g'risidagi bitim o'zaro savdo-sotiqa va kapital jamg'armalarni engillashtiradigan tadbirlar o'tkazish borasida tarifli va notarifli cheklanmalarni asta-sekin bartaraf eta boradi. Bundan tashqari, mazkur bitim orqali savdo-sotiqni boshqarishda uning qatnashchilari o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etish mo'ljallangan.

Tinchokean Hamjamiyati, Yaponiya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zellandiya kabi rivojlangan mamlakatlarni hamda Sharqiy va Osiyodagi Janubiy - Sharqiy hududda joylashgan ko'pgina mamlakatlarni (shu jumladan, ASEAN mintaqaviy guruhidagi ishtirokchilarni), shuningdek, Xitoy va Okeaniyani birlashtiradi.

Tinchokean Hamjamiyati mintaqaviy guruhni rasmiylashtirish sifatida endigina barqarorlashmoqda, shu sababli unda o'zaro hamkorlik sxemasini yaratish uchun samarali izlanishlar olib borilmoqda, mintaqaviy guruh esa turli bloklardan tashkil topgan. Chunonchi, Indoneziya, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiyasiyasi, Malayziya, Flippin, Singapur, Tayland, Bruney davlatlarini birlashtirgan.

ASEAN 1967 yilda qaror topdi, faqat 1992 yilda uning qatnashchilari yaqin 15 yil mobaynida asta-sekin mahsulotlar tannarxini bosqichma-bosqich kamaytira borishga erishiladigan mintaqaviy savdo erkinligi zonasini yaratishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ydilar. ASEAN mamlakatlarining xo'jalik sohasida bir-biriga yaqinlashuvi masalasiga kelganda, ularning iqtisodiyotini o'zaro to'ldirib borish, ichki mintaqaviy savdo-sotiqni tashkil etish borasidagi faoliyat jarayonlari hali keng ravishda rivojlanish yo'liga o'tganicha yo'q.

Haqiqatdan ham ASEAN mamlakatlarining har biri Yaponiya, AQSh , hamda Osiyoning yangi sanoat mamlakatlari (Gongkong, Janubiy Koreya, Tayvand) iqtisodiyoti bilan to'liq bog'langan.

Osiyo-Tinchokean savdosining asosiy qismi (shu jumladan, ASEAN ichida) Yaponiya, AQSh , Kanada, Tayvand va Janubiy Koreya karporatsiyalarining joylardagi mahalliy filiallari o'rtaсидаги тijoratga to'g'ri keladi. Xitoyning bu boradagi hisob-kitobi, ayniqsa, konfutsiya madaniyatiga uyg'unlashgan mamlakatlarga qaratilgandir. Yaponiya - AQSh , Kanada, Avstraliya o'zaro aloqalari muhim ahamiyatga ega.

Shimoliy Amerika va Osiyo-Tinchokean birlashmalarining modeli G'arbiy Evropanikidan farqlanadi. Agar G'arbiy Evropada iqtisodiy, valyutali siyosiy

hamjihatlikka, milliy tuzilmalarni shakllantirish va mustahkamlashga asoslangan yagona bozorni yaratish yo'lidan borilgan bo'lsa, Shimoliy Amerika va Osiyo-Tinchokean mintaqasida birlashish jarayonlari transnatsional korporatsiyalar faoliyati asosida anchagina mustahkam mikrodarajani qamraydi.

### **Qisqacha xulosalar**

Hududiy iqtisodiy komplekslarni shakllantirish shartnomali huquqiy bazaga ega.

Evropa Hamjamiyati - jahon iqtisodiyotiga integratsiyada etuk integratsion guruh.

Evropa Valyuta Ittifoqi - jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirishda etuk strategik guruh.

Shimoliy Amerika va Tinch Okean Hamjamiyati mintaqaviy integratsion guruhlari mustaqil davlatlar siyosatini birlashtiradi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Mintaqaviy integratsion kompleks qanday shakllantiriladi?
2. Jahonning asosiy integratsion guruhlarini sanab ko'rsating. MDH tarkibidagi qaysi mamlakatlar bojxona Ittifoqiga kirgan?
3. Qaysi mamlakatlar Shimoliy Amerika Hamjamiyatiga kiradi?
4. Tinchokean Hamjamiyatiga kaysi tashkilot ba'zasida asos solindi?
5. Meksika Shimoliy Amerika Hamjamiyatiga qachon qo'shildi?
6. AQSh ning Shimoliy Amerika va Tinch Okean Hamjamiyatidagi roli qanday?
7. Shimoliy Amerika va Tinch Okean modeli tashqi iqtisodiy faoliyatda G'arbiy Evropanikidan qanday farqlanadi?
8. Evropa Hamjamiyati nima?
9. EH qachon va qaysi tashkilotlar bazasida tashkil topgan?
10. EH qanday va kim tomonidan boshqariladi?

11. EH qaramog’ida qanday ma’muriy va boshqaruv organlari mavjud?
12. Evropa Parlamenti va sudi nima?
13. EHning qonunchilik va huquqchilik asoslari nimalardan iorat?
14. Milliy davlatlar qanday tashqi iqtisodiy huquqlarga ega?
15. EHning moliyaviy asosini nimalar tashkil etadi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O’zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan eng muxim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha O’quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 257 bet.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» xamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzalarini o’rganish bo’yicha O’quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.
3. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.
4. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/
5. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.
6. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. T.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.
7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlар. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. T.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.
8. Shodiyev R.X. “Jahon iqtisodiyoti”. – T.: “G’ofur G’ulom”, 2005.- 215 b.

## **IV - BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON XO'JALIK TIZIMIDAGI INTEGRATSIYASI - TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING ASOSI REJA:**

- 4.1.Tashqi iqtisodiy faoliyat shart sharoitlari**
- 4.2.O'zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning rivojlanishi**
- 4.3.Tashqi iqtisodiy faoliyatning investitsiyaviy, va huquqiy bazasi**
- 4.4.O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari**

### **4.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat shart sharoitlari**

O'zbekistonning ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan o'z bozor iqtisodiyoti modelida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo'jalik aloqalariga birlashish yo'llarini belgilash, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va respublika integratsiyasi yo'nalishlarining jahon xo'jalik aloqalarida mustahkamlanishi asosiy o'rinni egallaydi.

«Ochiq» turdag'i iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalar tizimida bo'lgan har bir davlatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rniga, dunyo xo'jalik tizimida o'z «javoniga» ega bo'lishi muhimdir. Chunki, faqat o'z kuchiga ishonish davri o'tmishga ketmoqda. Bunday kurs provard natijada milliy va ijtimoiy rivojlanish tormoziga aylanadi, resurslarni noratsional ishlataladigan aloqalar bozor iqtisodiyotiga o'tish harakatini qiyinlashtiradi.

Hatto, katta hududga, ko'p millionli aholiga, xilma-xil resurslarga ega bo'lgan mamlakatni bugungi kunda boshqa mamlakatlar bilan doimiy va keng iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ham bundan mustasno emas. Davlat o'z suverenligiga ega bo'lgan paytdan boshlab, o'zi tanlagan tashqi iqtisodiyot siyosatini mustaqil xalqaro huquqiy sub'ekt sifatida olib bormoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi - O'zbekistonning haqiqiy ochiq

iqtisodiyotini va jahon iqtisodiyoti tizimi integratsiyasini izchil ruyobga chiqarishdir.

Respublikaning xalqaro hamkorlikda va jahon mehnat taqsimotida ishtirok etishi uning tabiiy-iqtisodiy, transport, geografik va madaniy-tarixiy merosga xos bo'lgan imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

O'zbekiston ulkan tabiiy resurslar potentsialiga ega bo'lib, birinchi navbatda, mineral xomashyo resurslariga, iqtisodiy ishlab chiqarish va aholi potentsialiga, geopolitik yondashish jihatidan faqat Evroosiyo qit'asi emas, hozirgi kunda tiklanayotgan Buyuk Ipak yo'lida ham muhim strategik o'rinni tutadi.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish rolini ham aynan shu pozitsiyalardan ko'rib chiqish zarur. O'zbekiston oltin ishlab chiqarish umumiyligi hajmi bo'yicha dunyoda sakkizinchisi va uning aholi jon boshiga belgilangan ishlab chiqarishi bo'yicha beshinchisi o'rinni egallaydi; respublikada oltini bor 30 ta qazilma topilgan bo'lib, hozircha ularning faqat o'ntasi ishga tushirilgan. O'zbekiston oltinining sifati jahon oliy standartlariga to'liq javob beradi, oxirgi 20 yil davomida reklamatsiyalar olmagan, oxirgi yillarda uch marotaba xalqaro sifat mukofotlariga erishdi.

Muruntovdagi (Navoiy viloyati) oltini bor qazilmalarning (olinayotgan miqdori va sifati jihatidan) jahoning eng katta oltin konlari Klondayk (AQSh), Vitvaterrand (YuAR), Kolar (Hindiston) lar bilan bir qatorga quyish mumkin. Yuqori probali qimmatbaho metall bu erda chorak asrdan beri qazib olinmoqda. Uni qazib olish arzon, ochiq yo'l bilan borayapti. Shunday qilib, davlat suverenteti sharoitida respublika o'z oltiniga o'zi xo'jayin bo'lib, jahon oltin bozorida teng huquqli hamkor bo'lishi mumkin. Lekin oxirgi paytda jahon bozorining oltin bilan o'ta tuyintirilishi tendentsiyalari ruyobga chiqishi munosabati bilan qimmatbaho metallning sifatiga bo'lgan talab ancha-muncha yuqori bo'ldi.

Masalan, 1991 yilda Juhon bankining ko'rsatkichlariga ko'ra, bu farq 220-320 tonnaga etdi. Bunday sharoitlarda oltiniga bo'lgan narx-navoni barqaror ushlab turish mushkul

bo'lib qoldi. Chunki sobiq Ittifoq parchalanib, uning o'rniغا yangi, mustaqil davlatlarning tashkil topishi G'arb mamlakatlarini va Yaponiyani juda bezovta qilib kuydi. Binobarin, ular dunyoda eng katta oltin importyori va iste'molchisi edilar. Shuning uchun jahon bozorida O'zbekiston oltinini sotishda g'oyatda omilkorlik zarur.

O'zbekistonda 370 ta kon ishlab turibdi. Ulardan har yili 200 mln. tonna turli mineral xomashyolar kazib olinadi, yiliga 80 ming tonna mis ishlab chiqarayotgan O'zbekiston ulkan zahiralarga boy, yana ko'plab qo'rg'oshin, rux, volfram, litiy va boshqa noyob metallarning katta-katta konlari mavjud.

Respublika rivojlangan qudratli yoqilg'i-energetika bazasiga ega. Tabiiy gaz topilmalari taxminan 2 trillion kub, ko'mir 2 mlrd. tonnadan ortiq, neft' 350 mln. tonnani tashkil qiladi. Oxirgi ikki yilda ochilgan yangi neft' va gaz konlari nafaqat o'z ehtiyojlarimiz qondirishga, balki energiya beruvchilarning eksporti haqida ham gap yuritishga imkon beradi.

O'zbekiston neft' konlaridagi qora oltinni qayta tayyorlash to'g'risida «El'fakiten» frantsuz kompaniyasi bilan bitim tuzilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo va MDHda asosiy paxta etishtiruvchi va bu borada jahonda to'rtinchi o'rinda. Endilikda jahon va MDH davlatlari bilan asosiy hamkorlik yo'nalishlaridan - respublikada paxtani chuqurroq qayta ishlab, tashqi bozorga yakunlangan qimmatbaho mahsulot sifatida chiqarish mo'ljallangan.

Respublikada har yili 1,7 mln. tonna paxta tolasi tayyorlanadi. Buni jahonda chiqarilayotgan paxta bilan solishtirish mumkin: MDHda umumiy 2,75 mln. tonna, Xitoyda 4,2 mln. tonna, AQSh da 3,4 mln. tonna paxta ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish hajmiga ko'ra, O'zbekiston jahon paxta bozorida teng huquqli hamkor bo'lishi mumkin, lekin bizning paxtamiz sifati chet el paxtasi sifatidan ancha past. Uning sifatini yaxshilash uchun ancha-muncha ishlar olib borish va fursat darkor. Xuddi shunday vaziyat qorako'l terilari va ipak xomashyosi bo'yicha ham hukm surmoqda.

Meva va sabzavotlar etishtirishda Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston Respublikasi asosiy ta'minlovchi bo'lgan, Ittifoqda har yili etishtiriladigan yalpi meva-sabzavotning 60% ini etkazip berishni o'z zimmasiga olgan edi. Bugungi kunda ham respublikada har yili 5 mln. tonnagacha meva va sabzavot etishtiriladi, ularning ko'pi noyob tamga ega. O'zbekiston bu borada bo'yicha hamkorlikka tayyor. Respublikaning bu tarmoqka bo'lgan asosiy e'tibori - mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, jo'natish; qadoqlash korxonalarini barpo etishga qaratilgan.

O'zbekiston o'zida va xorijda turizm, turizm sanoatini rivojlantirish uchun ham ko'pgina imkoniyatlarga ega. Uning hududida dunyo miqyosida tanilgan tarixiy va arxitektura markazlari - Samarkand, Buxoro, Xiva shaharlari joylashgan, bulardan tashqari 4000 dan ortiq - maxobatli memorlik obidalar bor, ularning ko'plari YuNESKO himoyasida.

O'zbekistonning potentsial imkoniyatlari kafolatli bo'lib, bir tomondan, bozor iqtisodiyoti islohotlashtirish, boshqa tomondan esa, sobiq Ittifoq o'rnidagi shakllangan yangi iqtisodiy makon integratsiyasi, teng huquqli hamkorlik asosida xalqaro mehnat taqsimotida va jahon xo'jalik aloqalarida bab-baravar ishtirok etish hisoblanadi.

O'zbekistonda xalqaro bozorga chiqish yo'li va rivojlanish uchun ko'plab imkoniyatlari mavjud (**1-jadval**). Respublika tashqi iqtisodiy aloqalari intensifikatsiyasining kelib chiqish shart-sharoitlari quyidagilardir:

- er boyliklari, mineral xomashyo va o'simliklar resurslari, shuningdek, ajoyib tuproq-iqlim sharoitlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda uning mahsulotlarini qayta tayyorlaydigan sanoat ishlab chiqarish kompleksi bazasini yaratish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjudligi;

### **1-jadval**

### **O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi tovar tarkibi**

**(umumiylajmga nisbatan foiz hisobida)**

Ko'rsatkichlar	2000 yil	2005 yil	2008 yil	2009 yil
Eksport jami (mln.AQSh)	3267,6	4853,0	11493,3	11771,3

doll.)				
Eksport jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Paxta tolasi	27,5	19,1	9,3	8,6
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va undan yasalgan buyumlar	2,9	5,3	5,6	5,0
Qora va rangli metallar	6,6	9,2	7,0	5,0
Mashina va asbob-uskunalar	3,4	8,4	7,6	2,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	3,8	4,5	6,0
Energiya resurlari	10,3	11,1	24,7	34,2
Xizmatlar	13,7	12,2	10,4	8,8
boshqalar	30,2	30,5	30,9	29,5

- milliy xalq xo'jaligi majmui infratuzilmasining yuzaga kelishi, respublikani jahon xo'jaligi aloqalariga keng miqyosda jalb eta oladigan yirik ilmiy potentsial mavjudligi;

- eksport potentsialining yuqori darajada ekanligi;

- tegishli koooperatsiya va hamkorlikdagi sarmoyalar yordamida raqobat bardosh mahsulotlarni yuqori darajada tayyorlay oladigan ishlab chiqarishni qisqa vaqt ichida yaratish potentsialining mavjudligi ;

- nisbatan olganda (jahon miqyosida baholaganda) arzon ishchi kuchiga ega bo'lish mumkinligi;

- xorijiy kapital sarmoyasi va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik o'rnatish uchun respublikada barqaror siyosiy muhitning yaratilganligi.

## 4.2. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning rivojlanishi

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixi o'rta asrlardan boshlanadi. G'arb va Sharq o'rtasidagi savdo, katta bozor uchun kurash va mehnat resurslari hamma vaqt O'zbekistonning hozirgi hududiga daxildor bo'lган.

Chunki, uning geografik jihatdan savdo-iqtisodiy potentsiali ko'plab mamlakatlarning qiziqishiga sabab bo'lган.

Mustaqillikdan qo'lga o'n yillikda oldingi O'zbekistonda asosan agrotexnika xomashyosi (paxta, ipak, qorako'l), mashinasozlik va asbobsozlik tarmoqlari uchun komplektlash mahsulotlari, oltin, uran ishlab chiqarish mo'ljallangan. Ikkinci jahon urushi davrida ko'pgina zavodlar O'zbekistonga evakuatsiya qilingani tufayli respublikada konchilik, samolyotsozlik, traktorsozlik, elekrotexnika, kimyo, to'qimachilik, og'ir sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi. Biroq texnik, texnologik va tarif standartlari O'zbekistondan tashqarida (asosan Rossiyada) ishlab chiqarilardi, respublikada sanoatning rivojlanishi muayyan darajada tashqi qaramlikka bog'liq edi.

1991 yil 1 sentyabrdan boshlab O'zbekiston mustaqil davlat bo'ldi. Iqtisodiy va davlatchilik tarraqqiyotining birinchi bosqichida (1991-1995y.) iqtisodni boshqaradigan o'z infratuzilmasini yaratish va jahon hamjamiyatida savdo aloqalarini intensiv rivojlantirishga bog'liq edi. Shu bois bu borada muayyan tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, yagona iqtisodiy siyosatni o'tkazish va shakllantirish, tarraqqiyot strategiyasini belgilash, ichki va tashqi bozorlarda umumdavlat manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, fan-texnik, savdo, madaniy va sport sohalarida hamkorlik o'rnatish, turizmni rivojlantirish va boshqa aloqalarni samarali boshqaradigan Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi (MVES) barpo etildi. 1992 yil 26 martda qabul qilingan hukumat qaroriga ko'ra, vazirlik davlat organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasini uning tashqarisida namoyish etadi; barcha tashqi iqtisodiy masalalar bo'yicha

davlat manfaatlarini hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini mamlakat nomidan himoya qiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi o'z faoliyatida halqaro huquqiy normalarga, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan bitimlariga, qonunlariga va normativ aktlariga amal qiladi.

O'z tarraqqiyotidagi I-bosqichning yakuniy davrida (1995 yilning oxiri) O'zbekiston davlat boshqaruvida, iqtisodiyotda, tashqi savdo aloqalarida hamda ishlab chiqarish doirasida barqarorligi bilan ko'zga tashlandi. 1995 yilda MDH orasida savdoda ijobiy sal'do olgan ikki davlatning biri bo'ldi.

Oltin qazib olish, energetika, qurilish, to'qimachilik sanoati va neft' ishlab chiqarish sohalarida dastlabki sanoat investitsiyalarning loyihalari tugallandi. Hissadorlik asosida, shu jumladan, xorijiy kapitalning qatnashuvi bilan agrar hamda sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish uchun qonuniy va amaliy sharoitlar yaratildi.


EH iqtisodiy komissiyasi ko'rsatmalariga ko'ra, milliy mahsulotning salmog'i 1991 yilda nisbatan 1995 yilda O'zbekistonda 82,21 %ni, Rossiyada 49%ni, Qozog'istonda 43%ni, Belorusda 41%ni tashkil etdi.

Iqtisodiy rivojlanishning ikkinchi bosqichi (1995-1998y) negizlaridan biri - mamlakatning o'z sanoatiga asoslanib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, makroiqtisodiy investitsiyaviy infratuzilmasini ta'minlaydigan bir qator institutlar barpo etishdir.

Bu bosqichda tashqi bozorni ta'minlash, bir tomondan, ichki (import o'rni) va tashqi bozorlar uchun (eksportga) raqobatbardosh mollar ishlab chiqarish bo'lsa, ikkinchi tomondan- O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlariga ko'plab xorijiy texnologik sarmoyalar kirishi bilan chambarchas bog'liqdir:

- aviatsiya mashinasozligi va avtomobilsozligi;
- kon qazilmalari va kimyo sanoati;
- qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash va qadoqlash;

- qurilish materiallari ishlab chiqarish;
- to'qimachilik sanoati;
- telekomunikatsiya va aloqa;
- transport va uning xizmati.



### **1-rasm. O'zbekisto tashqi savdo aylanmasi dinamikasi, mln.AQsh doll.**

Shuning uchun asosiy e'tibor O'zbekistonning aviatsion portlarini kompleks ravishda qayta ko'rishga; energetika, transport, aloqa va mashinasozlik sohalarida yirik sanoat komplekslarini barpo etishga qaratildi.

O'zbekiston respublikasining eksport-importi tarkibi shuni ko'rsatdiki, 1998 yil natijalariga ko'ra, tashqi savdo oboroti 6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Tashqi savdoda 216 mln. AQSh dollari miqdorida qo'shimcha sal'do ta'minlandi. MDH davlatlarining tovar oboroti 24%ga tushib ketdi. Bu parallel ravishda erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta vositasidagi savdo hajmining ortishiga olib keldi.

1998 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkori Shveytsariya bo'ldi. Shuningdek, tashqi savdo olib borilgan birinchi besh mamlakat qatorida Janubiy Koreya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Turkiya bo'ldiki, bu borada ancha salohiyatga erishildi.

O'zbekistonning asosiy tovar oboroti Evropa iqtisodiy Hamjamiyatining sanoati rivojlangan mamlakatlariga 30,6%, Janubiy Koreyaga 16,2%, Turkiyaga 6,2%,

Birlashgan Arab amirliklariga 2,2%, Xitoyga, 8%, AQSh ga 1,2%. MDH mamlakatlari bilan tovar oborotida Rossiyaga 49,1%, Qozog'istonga 18%, Tojikistonga 8,9%, Ukrainaga 4,0%, Qirg'izistonga 3,9% to'g'ri keldi.

### **3-jadval**

#### **1996-1998 yilarda O'zbekiston Respublikasi eksportining tarkibi**

(AQSh mln. dollari hisobida, xizmatlarsiz)

<b>Asosiy mahsulot turlarining eksport tarkibi</b>	<b>1996</b>	<b>1998</b>
Jami	694.062	1677.2
Paxta tolasi	550.281	1415.3
Mashinalar, asbob-uskunalar va transport	0.865	3
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	68.168	110.1
Mineral o'g'itlar	14.005	35.5
Paxta gazlamalari	19.949	27.5
Qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5.497	10.4
Shoyi	6.03	8.8
Paxta chiqindilari	2.937	5.2
O'simlik yog'i	-	5.5
CHarm xomashyosi	0.557	1
Neft' va neft' mahsulotlari	0.307	0.3
Elektroenergiya	7.556	11.6
Paxta linti	1.642	11.3
To'qimachilik va trikotaj kiyim-kechaklar	-	0.6
Toza paxta	1.633	1.6
Boshqa mahsulotlar	14.635	29.5

2001 yilda eksport tovarlari va xizmatlari 3,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi (3-jadval). Shu bilan birga, yaqin xorijiy mamlakatalarga eksport kamaydi. Uzoq xorijiy mamlakatlarga etkazib beriladigan mahsulotning ko'payishiga eksport tovarlarini sotish bozorining geografik kengayishi hamda tabiiy ko'laming o'sishi, shuningdek, xomashyoga mahsulotlariga, birinchi navbatda, paxta tolasi va misga jahon kon'yunktura baholarining yaxshilanishi sabab bo'ldi.

O'zbekistonning 1996-1998 yillardagi asosiy mahsulotlari eksporti tarkibiga oid ma'lumotlar 3-jadvalda berilgan.

Erkin konvertatsiyalanadigan valyutaning eksport hajmi yaqin xorijiy mamlakatlar bilan 27,2 marta, dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan esa 2 baravar o'sdi. 1998 yilda eksport tuzilishi baholangan narxga ko'ra, xomashyo tovarlari, avvalo, paxta tolasi qisman darajada salmoqli 57,8% o'rinni tutdi. Energiya etkazkichlar ulushiga 14%, qora va rangli metallarga 5,4% to'g'ri keladi. 1998 yilda umumiyligi import hajmi 2,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. MDH va Boltiq bo'yli mamlakatlaridan keltiriladigan import tovarlar oqimi 8,8%ga qisqardi va 1,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Natijada mazkur mamlakatlarning umumiyligi importdagi ulushi kamayib, 44,7%ga tushdi. Yaqin xorijiy mamlakatlardan keltiriladigan import esa ancha ko'payib, 1994 yildagiga nisbatan 2,1 marta o'sdi.

Uzoq xorijiy mamlakatlardan import tovarlarini keltirish 1,6 mlrd. AQSh dollari tashkil etdi. Natijada bu mamlakatlarning salmog'i baholangan narxga ko'ra, import hajmining 1996 yildagi 45,7%idan 55,3%ga ko'paydi. O'zbekiston uchun importdagi salmoqli o'rinni Janubiy Koreya (27%), Germaniya (22,9%), Vengriya (9,2%), Shveytsariya 7,5(%), Turkiya (5,7%), Yaponiya (4,4%)ni egalladi. Ularning importdagi ulushi 80%ga to'g'ri keldi.

1998 yilda import tarkibida keskin o'zgarishlar yuz berdi(4-jadval).

Yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlardan import qilinadigan tovarlar orasida mashinalar va asbob-uskunalar salmog'i

ortib bormoqda. Ular yalpi import tovarlarining 37,5% ini tashkil etadi.

Vatanimizda yoqilg'i-energetika majmui jadal sur'atlar bilan rivojlanganligi tufayli respublikamizga chet mamlakatlardan keltiriladigan neft' va neft' mahsulotlari umumiy salmog'ida ancha qisqardi.

Import tarkining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonga bozorda tezda sotilib ketadigan iste'mol tovarlarini ko'plab keltirish davom etmoqda.

**4-jadval**  
**O'zbekiston Respublikasining 1996-1998 yillardagi  
import tarkibi**

(AQSh dollari hisobida, xizmatlarsiz)

		1996		1998	
		Bahosi	Foiz	Bahosi	Foiz
Jami		1187.3 4	100	1809.2 9	100
Bug'doy	mln. tonn	241.41	20.3 3	129.93	7.10
Go'sht va sut mahsulotlari	mln. tonn	71690. 50	6.04	46354. 40	2.58
Sut va sut mahsulotlari	mln. tonn	13.91	1.17	12.55	0.69
Sariyog'	mln. tonn	4952.3 0	0.42	9082.7 0	0.59
O'simlik yogi (paxta yog'idan tashqari)	mln. tonn	0.16	0.01	362.30	20.00
Shakar	mln. tonn	64955. 30	5.47	93653. 50	5.10
Farmatsevtika mahsulotlari, shu jumladan, dori- dormonlar	mln. tonn	5.85		65.09	3.60
Tukimachilik, trikotaj kiyim- kechaklar	mln. tonn	27.57	2.32	39.11	2.10

Optik, jarrohlik, tibbiy asboblar va apparatlar	mln. tonn	3.18	0.27	52.21	2.80
Tele va videoapparatlar	mln. tonn	12.36	1.04	78.51	4.30
Mashinalar, asbob-uskunalar va mexanizmlar	mln. tonn	158.98	13.39	498.22	27.50
Boshqa tovarlar	mln. tonn	252.98	21.31	221.32	23.64

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport aloqalari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning yirik xalqaro temir yo'l, dengiz va avtomobil' portlaridan yiroq joylashganligi import va eksport tovarlarini etkazishda transport xizmati bahosiga jiddiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Yuklarning 90% foizi temir yo'l transporti orqali tashilmoqda. O'zbekiston ichkarisida temir yo'l aloqalari tizimi etarli darajada rivojlanmagan va zinch joylashgan (50 km. dan 100 kv. km. gacha), ular orqali Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'izistonga chiqish mumkin. 180 ta stantsiyadan 11 tasi yirik gabaritli konteynerlarni qayta ishlash uchun zaruriy vositalar bilan jihozlangan. Har kuni O'zbekistonda 8000 vagon qayta ishlanadi.

Yuk tashishda tovarlarning anchagini qismi avtomobil' transporti orqali etkaziladi. Tezkor yo'llar 42 ming km ni, mahalliy yo'llar 90 ming km ni tashkil etadi.

«O'zbekiston havo yo'llari» hamda yonma-yon bo'lgan xalqaro aviatsiya kompaniyasi xizmatidagi tranzitmagistrali g'oyatda katta ahamiyatga egadir. MDH mamlakatlari va uzoq xorijiy yurtlardan 15 tasiga samolyotlar to'g'ridan-to'g'ri parvoz qilmoqda. Toshkent, Samarkand, Termiz va Farg'ona shaharlari xalqaro aeroportlar maqomiga ega.

#### **4.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatning investitsiyaviy, va huquqiy bazasi**

O'zbekiston Respublikasida hozirgi davrda iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga aloqador qonunlar va

normativ huquqiy aktlarga har tomonlama asoslangan tizim vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo munosabatlaridagi huquqiy baza xalqaro huquqlar hamda me'yorlar darajasida asoslab berildi. Chunonchi, Respublika Prezidentining "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi farmonga ko'ra, keng iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar xorijiy valyuta topshirish va uni Markaziy Bankka majburiy sotish bo'yicha besh yil muddat davomida soliq to'lashdan ozod qilish.

Shu farmonga ko'ra, eksport mahsulotining hajmi 30%dan oshgan korxonalar belgilangan normalardan ikki baravar kam miqdordagi stavkalar bo'yicha soliq to'lash huquqiga ega. Shu bilan birga, respublikada xorijiy sarmoyalarni jalg etish uchun imtiyozlarning keng tizimi vujudga keltirilgan, xorijiy sarmoyadorlar uchun imtiyozli soliq joriy etilgan. "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi farmonga binoan xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalarini ruyxatga olingan paytdan boshlab besh yil muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to'lashdan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilish ko'zda tutilgan.

"Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "gi farmonga ko'ra, korxonalar ishlab chiqargan mahsuloti tarkibida eksportga ishlab chiqarilgan mahsulot bo'lса, ular muayyan imtiyozlarga ega.

Amaldagi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari tizimi quyidagilardir:

-ishlab chiqarilgan tovarlarning (ishlar, xizmatlar) eksporti kamida 30%ni tashkil etadigan korxonalarga , mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalardan ikki baravar kamroq to'lash huquqini berish;

-respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish;

-o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz bemalol chetga olib ketish;

-O'zbekiston hududida qo'shma korxonalarning va faqat xorijiy sarmoya bilan ishlaydigan korxonalarning Ustav fondiga hissa qo'shish uchun mol-mulkni chetdan boj solig'isiz olib kirish;

-investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun er uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish ko'zda tutilgan.

«Xorijiy sarmoyalar to'g'risida»gi qonunga muvofiq chet ellik sheriklar uchun ularning mol-mulkini davlat ixtiyoriga olish va musodara qilishdan ozod etish uchun kafolatlar belgilab qo'yilgan. Ularning o'z faoliyati natijasida olgan foydasi va boshqa pullarni chet elga o'tkazishga, olingan foydani respublika hududida qayta sarmoya tarzida ishlatalish, respublika banklarida hisob raqamiga va unda cheklanmagan miqdorda har qanday valyuta mablag'iiga ega bo'lish kafolatlanadi.

Xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan investitsiyalar amalga oshirilgan paytda amalda bo'lган qonun me'yorlari (normalari) 10 yil mobaynida qo'llanishi ko'zda tutilgan qonun hujjatlari o'zgartirilmasligiga kafolat mavjud.

Shunday qilib, vujudga keltirilgan huquqiy normalar (me'yorlar) xorijiy sheriklarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay imkoniyatlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan sarmoyasini himoya qiladi.

## 5-jadval

### O'zbekistonda 2001 yilda chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni

(1yanvar holatiga; birlik)

	Ro'yxatga olanganlar i, jami	Shu jumladan, ishlab turgan yuridik korxonalar	Ro'yxatga olanganlar sonidan ishlab turganlari

O'zbekiston Respublikasi	3301	1958	59,3
Qorqalpog'iston Respublikasi	28	18	64,3
Viloyatlar:			
Andijon	89	78	87,6
Buxoro	53	40	75,5
Jizzax	41	19	46,3
Qashqadaryo	52	29	55,8
Navoiy	28	23	82,1
Namangan	76	66	86,8
Samarqand	115	96	83,5
Surxondaryo	51	25	49,0
Sirdaryo	22	21	95,5
Toshkent	196	160	81,6
Farg'ona	74	47	63,5
Xorazm	34	24	70,6
Toshkent shahri	2224	1312	53,7

O'zbekiston sarmoyalarni o'zaro himoya qilish to'g'risida Germaniya, Turkiya, Misr, Indoneziya, Malayziya, Pokiston, Finlyandiya, Koreya, AQSh , Frantsiya bilan bitimlar imzoladi, boshqa bir qancha mamlakatlar bilan ham mana shunday bitimlar tuzish davom ettirilmoqda.

Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, Shveytsariyaning banklari va firmalari bilan 3,3 mlrd. AQSh dollariga yaqin miqdorda hukumatlararo 32 ta yirik kredit bitimi tuzildi va hozir bu bitimlar amalda qo'llanilmoqda. O'zbekiston 30 dan ortiq savdo va iqtisodiy bitimlar tuzgan, ulardan 20 tasi uzoq xorij mamlakatlari bilan tuzilgan. Birgina 2001 yilda respublikada chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 9001, shu jumladan ishlab turgan yuridik korxonalar soni 11958 ga etdi (5-jadval). Umuman, mustaqillikka erishilgandan so'ng respublikaga 5 mlrd. AQSh dollari kirib keldi.

#### **4.4. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari**

Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi Respublikaning TIF Milliy banki va O'zbekistonning boshqa tashqi iqtisodiyot institutlari bilan birgalikda tashqi savdo siyosatini ishlab chiqadi va milliy investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirishni amaliy hal etadi. Yuqorida kayd qilinganidek, iqtisodiy tarraqqiyotning ikkinchi bosqichida asosiy dikkat-e'tibor ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratildi. Shu sababli ham yuqori sifatli tovarlarni yaratishga yo'naltirilgan va raqobatli bahodagi sarmoyalar keyingi me'yoriy-huquqiy aklarda ko'zda tutilgan afzalliklar hamda imtiyozlardan foydalanishga imkon beradi.

O'zbekiston hukumati tomonidan iqtisodiyotning har xil sohalari bo'yicha va mamlakatning turli hududlari uchun afzal bo'lган investitsiya loyihalari tizimi ishlab chiqilgan. Xususan, Tashqi iqtisodiy aloqalar Vazirligi va Tashqi ikt'isodiy faoliyat Milliy banki (MB) ixtiyorida mukammal analitik bazaga ega bo'lган 177 loyiha mavjud. Ulardan ayrimlari hozirdanoq joriy qilinmoqda. Masalan, yagona zamonaviy navigatsiya tizimini yaratish ikkinchi bosqichda amalga oshirilmoqda; traktorlar, samolyotlar, avtomobillar ishlab chiqarish uchun mashinasozlik bazasini yaratishga ham allaqachon kirishilgan.

O'zaro foyda keltiradigan savdo va pragmatik printsiplarga rioya qilgan holda, O'zbekiston sheriklari bilan hamkorlikni yanada kengaytirib bormoqda va ular taklif qilgan zamonaviy yuqori sifatli texnologiya o'zlashtirilib, o'zimizning sanoatimizda qo'shma korxonalarining yakuniy mahsuloti ishlab chiqarilmoqda. Bunday yondashish o'zaro foydali hamkorlik va savdoning adekvat printsipi bo'ladi. Juhon bozori bilan bunday hamkorlikni jadal rivojlantirish sharoitlari O'zbekiston Respublikasining barqaror va izchillik siyosati bilan kafolatlanadi: islohot yo'llarida ularning amalga oshishi qator ijobjiy natijalar bermoqda.

Birinchidan, jami tashqi savdo oboroti 2001 yilda birmuncha oshib, 6001,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shu jumladan, yaqin xorij (MDH) mamlakatlari bilan savdo - 2609,0 mln. AQSh dollariga va uzoq xorij mamlakatlari bilan savdo 3392,7 mln. AQSh dollariga etdi. Jami tashqi

savdo oborotida xorijiy mamlakatlar bilan savdo- sotiqning salmog'i anchagina ko'paydi.

Respublikaning erkin konvertatsiya qilingan valyutada eksport operatsiyalari hajmi ortdi: 1998 yilgi 51,2%dan 2001 yil 91,9%ga oshdi. Barter operatsiyalari 1996 yilgi 48,8%dan 2001 yilda 8,1 %ga kamaydi.

Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasining TIABni qayta tuzish haqidagi qaroridan keyin ko'pgina xo'jalik sub'ektlarining tashqi bozorga chiqishi ortdi. Bu esa respublikada iqtisod elementlarining jahon xo'jalik munosabatlari tizimiga moslashishiga oldib keldi va bozor iqtisodiyotining shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni respublika mustaqilligi sharoitida olib borish ko'pgina yangi boshqaruv va tashkiliy-xo'jalik tuzulmalarini yaratishga imkon beradi: huquqiy va normativ bazalar ishlab chiqarilmoqda, ular respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishda muhim rol' o'yndaydi, tashqi iqtisodiy kopmleks infratuzulmaning keng tarmog'i shakllanmoqda hamda tashqi savdo, elchixona, xalqaro iqtisodchilikda kasbiy mahoratga ega bo'lgan kadrlar tayyorlanmoqda.

Biroq, tashqi aloqalarda salmoqli yutuqlarga erishgan bo'lsakda, bozor iqtisodiyotiga o'tish, iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish jarayonida uchrayotgan muhim va dolzarb muammolar hali echimini topgani yo'q. Bunga bir necha sabablar bor:

-birinchidan, tashqi tuzilmalardagi eksport ishlab chiqarishida tubdan o'zgarishlar ruy bermaguncha, xomashyo mahsulotlari, avvalo, paxta salmoqli o'rinda turaveradi, shuningdek, boy turistik imkoniyatlardan ham etarli darajada foydalanilayotgani yo'q;

-ikkinchidan, qoloq (jahon standartlariga nisbatan olganda) texnologiyadan va past darajada ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish davom etmoqda, ayniqsa, respublikaning xomashyo mahsulotlarini qayta tayyorlaydigan sohalari bo'yicha ishlab chiqarish yaxshi yo'lga quyilmagan. Raqobatbardosh mahsulotlar kam ishlab chiqarilayotganligi eksport bazasining tarraqqiyotini cheklab qo'yishda asosiy to'siq bo'immoqda;

-uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga oid qarorlar ma'muriy-tashkiliy tadbirlar miqyosida o'z ijrosini topmayapti hamda iqtisodiy va amaliy choralarini hal etishda qat'iyatlilik etishmayapti;

-to'rtinchidan, vazirliklar, idoralar, kontsernlar, hissadorlik jamiyatlari, barcha xususiy korxonalar hamda matlubot tashkilotlari respublika qonunchiligi asosida o'z zimmalariga yuklangan tashqi iqtisodiy faoliyatdagi vazifalarini mukammal bajarmayaptilar, bunga qisman iqtisodiy rag'batlantirish choralaridan samarali foydalana olmaslik ham sabab bo'lmoqda. Juhon bozori qonunlariva talablarini yaxshi bilmaslik, tegishli chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirmaslik, munosib kadrlar tayyorlash ishida mas'uliyatsizlik holatlari namoyon bo'lmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

Respublikamizning xalqaro hamkorlikda va jahon mehnat taqsimotida ishtirok etishi uning tabiiy-iqtisodiy, transport, geografik va madaniy-tarixiy merosga xos bo'lgan imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixi o'rta asrlardan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga aloqador qonunlar, huquqiy aktlar majmui yaratilgan.

O'zbekiston Respublika TIFning asosiy yo'nalishlari ko'p islohotlarda mujassamdir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Tashqi iqtisodiyot balansi nima?
2. Nima sababdan «uzoq xorij» oboroti «yaqin xorij» oborotiga nisbatan tez rivojlanadi?
3. Tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi nimalar bilan shug'ullanadi?
4. Ixtiroli loyihalar deganda nimalar tushuniladi?
5. Tarmoqlarni isloh qilishdagi yutuqlarga qanday erishiladi?
6. Respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning qaysi yo'nalishi mo'ljallanmoqda?

7. O'zbek modeli asosidagi iqtisodiy tarraqqiyotni qanday tushunish mumkin?

8. Xalqaro mehnat taqsimoti deganda nimalarni tushunasiz?

9. O'zbekiston Respublikasi qanday xomashyo resurslariga ega?

10. Yoqilg'i va don mustaqilligiga erishish O'zbekiston uchun qanday ahamiyatga ega?

11. O'zbekiston oltin qazib olish, paxta mahsulotlari etishtirishda dunyoda qaysi o'rinda turadi?

12. Tashqi iqtisodiy potentsial qanday ko'rsatkichlar bilan baholanadi?

## **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 257 bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» xamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

3. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.

4. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/

5. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.

6. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. T.: MChJ "RAM-S", 2007 yil.

7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlар. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. T.: MChJ "RAM-S", 2007 yil.

8. Shodiyev R.X. "Jahon iqtisodiyoti". – T.: "G'ofur G'ulom", 2005.- 215 b.

## **V-BOB. EVROPA IQTISODIY HAMJAMIYATI**

### **REJA:**

#### **5.1. Bojxona Ittifoqi va Savdo**

#### **5.2 Evropada yagona ichki bozorning shakllanish asoslari**

#### **5.3 Evropa Ittifoqida yagona valyuta hududining shakllanishi bilan bogliq muammolar**

#### **5.1. Bojxona Ittifoqi va Savdo**

Bizga ma'lumki, BI dastavval mamlakatlar unga a'zo davlatlar urtasidagi savdodagi barcha cheklanishlarni olib tashlash uchun birgalikda qo'shilishlari bilan, ayni paytning o'zida Ittifoqqa kirib kelayotgan importga umumiylashni tashqi tarifni kiritgan holda yuzaga keladi. Albatta, BIning shakllanishi umumjahon erkin savdo tamoyilini zid deyish mumkin, Chunki u amaliyotda a'zo bo'lмаган davlatlarga nisbatan kamsitish tabiatiga ega. Shunday bo'lsa ham, u BI a'zolari o'rtasidagi savdo to'siqlarini kamaytiradi va odatda blokaro savdoni rag'batlantiradi. Shu bois, BI o'z a'zolari iqtisodiy integratsiyasiga ko'mak hisoblanadi, biroq, ma'lum darajada turli xil shartnoma va kelishuvlar asosida muvofiqlashtirishlarsiz savdoning global darajada erkinlashishiga zararli bo'lishi mumkin. Keng ma'noda, bojxona ittifoqi iqtisodiy suverenitetning ko'proq boy berilishini o'z ichiga oladi. Bu erkin savdo hududi holatidagi kabi tadbirdir, ya'ni mamlakatlar barcha ichki tarif va boshqa to'siqlardan voz kechishni kelishadilar. Biroq bunga qo'shimcha ravishda dunyoning qolgan qismiga nisbatan umumiylashni va muvofiqlashgan savdo siyosatini qo'llash ham kelishib olinadi. Evropa Hamjamiyatida u barcha a'zo bo'lмаган davlatlardan kirib kelayotgan importlarga Umumiylashni tashqi Tarif shaklini oladi.

Bojxona ittifoqini va uning EH miqyosidagi savdoga ta'sirini tahlil qilish uchun, avvalombor bojxona ittifoqini tashkil qilishning effektlarini baholash bilan bir qatorda uning nazariy tomonini ochib berish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi argument ko'pincha statik va dinamik nazariya deb yuritiluvchi ikki kategoriyaga bo'linishi mumkin.

Statik nazariya bojxona ittifoqining savdoda, iqtisodiy farovonlik, va ishlab chiqarishning xalqaro taqsimotidagi «bir bor va umrbod» effektlarini tadqiq etish yo'llarini izlaydi. U ittifoqning shakllanishidan "oldingi" va "keyingi" holatlarni taqqoslash orqali ushbu vazifaning uddasidan chiqadi. SHuning uchun u odatda "solishtiruvchi Vtatik" tahlil deb ham murojat qilinishi mumkin. Bojxona ittifoqi nazariyasining rivojlanish davri Yakob Vayner va Richard Lipsey ishlari orqali 1950

yillarga to'g'ri keladi. Bojxona ittifoqi borasidagi avvalgi qarashlar asosan erkin savdo tomon qilinadigan qadamga urg'u berar edi va shuning uchun ular ichki tariflarning olib tashlanishi evaziga keltiradigan o'z effektlari bilan maqbul hisoblanardi. (Ma'lum sharoitlar ostida erkin savdo ham iqtisodiy farovonlikni optimallashtirishi mumkin).

Vaynerning [Viner J. 1950] tahlillariga binoan, bu kabi yondashish va qarash soddalashtirilgan va yuzakidir, Chunki bojxona ittifoqi o'zining kamsituvchi tarif o'zgartirishlari bilan erkin savdo (ichki savdo to'siqlarini olib tashlash) hamda sezilarli potentsial protektsionizm (umumiylashchi savdo siyosati) sari harakatlarni ham aks ettiradi. Bu kontseptsiya quyidagi ikki alohida effektga olib keladi: savdoni yaratuvchi va savdoni rad etuvchi. Bularning birinchisi resurslarning xalqaro taqsimotini yaxshilaydi va iqtisodiy farovonlikni oshishiga olib kelsa boshkasi qarama-qarshi effektga egadir. Shu bois bojxona ittifoqining savdodagi ta'siri sifatini aniqlash va baholash ushbu ikki bir-biriga zid holatlarni taqqoslashdan kelib chiqadi.

Savdoni yaratish bojxona ittifoqining shakllanishi natijasi o'laroq tariflar va boshqa savdodagi to'siqlarning o'zgartirilishi bilan yuz beradi. Bu o'z navbatida iste'molchilarning ichki sharoitlarda kamroq samara bilan ishlab chiqilgan va qimmat mahsulotlar o'rniqa ittifoqning boshqa a'zolari tomonidan ta'minlanadigan nisbatan samaraliroq va Iarzonroq ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olishiga imkon yaratadi. Buni quyidagi oddiy raqamli misol bilan izohlash mumkin. 1-Jadval uchta mamlakatdagi, Frantsiya, Germaniya va AQSh, televizorlarning taxminiy ishlab chiqarish harajatlari va Frantsiyadagi televizorlarga tariflarning turli darajalarining iste'mol narxlariga ta'siri ko'rsatilgan.

### 1-Jadval

Savdoni yaratish va savdoni qaytarish effektlari

	Ittifoq tuzilishidan oldin			Ittifoq tuzilgandan keyin		
	Frantsiya	Germaniya	AQSh	Frantsiya	Germaniya	AQSh
(A) Ishlab chiqarish harajati (fr.Frankda)	400	250	220	400	250	220
(V) 100% tarif	400	500	440	400	250	440

hisobida Frantsiyad agi narx (Ax2)						
(S) 50% tarif hisobida Frantsiyad agi narx Ax1.5)	400	375	330	400	250	330

Frantsiya va Germaniya AQSh ni tashqarida qoldirgan holda o'zaro bojxona ittifoqi tashkil etadi. Ko'rishimiz mumkinki, absolyut sharoitlarda Qo'shma Shtatlari eng samarali va arzon televizor ishlab chiqaruvchi mamlakat hisoblanadi, undan keyin Germaniya va so'ngra Franiya keladi. Juhon savdo munosabatlari vaziyati bo'lган taqdirda AQSh televizorlarni ishlab chiqarishda ixtisoslashgan va har ikki davlat Germaniya hamda Frantsiyaga eksport qilgan bo'lar edi. Tariflar esa bularning barchasini o'zgartiradi, agar biz birinchi navbatda A va V qatorlarda aks ettirilgan holatga qaraydigan bo'lsak, shuni ko'rishimiz mumkinki ittifoq tashkil qilinmasdan avval Frantsiyaga kirib kelayotgan barcha import mahsulotlariga 100 foiz tarifning mavjud bo'lishi Frantsiya iste'molchilariga mahalliy ishlab chiqarilgan televizorlarning eng arzon bo'lishini ta'minlar edi. Agar narxni iste'molni belgilab beruvchi yagona omil deb faraz qilsak, ular faqat Frantsiyada ishlangan mahsulotni sotib oladilar va tabiiyki hech qanday import bo'lmaydi. Ittifoq tuzilgandan so'ng AQSh ga nisbatan 100 foiz tarifni saqlab qolgan holda Germaniya televizorlari Frantsiyaga tarifdan ozod qilingan mahsulot sifatida kirib keladi. Natijada Germaniya televizorlari Frantsiya bozorlarida eng arzon bo'ladi va Frantsyaning ratsional iste'molchilarini ularni Frantsiya televizorlari o'rniga sotib oladilar. Ushbu holat savdoni yaratuvchi - bojxona ittifoqini tashkil etishning ijobiy savdo va farovonlik effekti hisoblanadi. U ishlab chiqarish effektidan tashkil topadi, ya'ni televizorlar miqdorining ishlab chiqarishi Frantsiyadan Germaniyadagi samaraliroq manbalarga o'tadi va shu tariqa resurslarni tejashga olib keladi. Ushbu xalqaro ixtisoslashuvning ratsional tajribasi tomon o'zgarish iqtisodiy farovonlikni oshiradi, Chunki endilikda ayrim televizorlar arzonroq va samaraliroq ishlab chiqarilmoqda. Shuningdek, Frantsiya iste'molchilarning xarid qilish quvvatining oshishiga ham olib keladi,

Chunki ular televizorlarni arzonroq sotib olishlari mumkin (400 frank o'rniga 250 frankga).

Ikkinchisi tomondan esa savdoni qaytarish, bojaxona ittifoqini tashkil etish bilan tariflarning o'zgarishi narxlarda o'z aksini topadi va shu tariqa iste'molchilarni boshqa a'zo bo'limgan davlatlar tomonidan samaraliroq va arzonroq mahsulotlar o'rniga hamkor davlatlarda kamroq samara bilan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sotib olishga undaydi. Buni ham raqamli asosida tuzilgan Jadvaldagi misolga murojat etish orqali tushuntirish mumkin.

Agar biz jadvalning A va S qatorlarida yoritilgan holatni tahlil qiladigan bo'lsak, ittifoq tuzilishidan oldin Frantsiyadagi iste'molchilarning AQSh dan import qilingan televizorlarni sotib olishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin, Chunki ular 50 foizlik tarifga qaramay bozorda eng arzon hisoblanardi. Ehtimol, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tarifning bunday darajasida import bilan raqobatlasha olmasdi. Ittifoq tashkil etilgandan keyin, AQSh mahsulotiga nisbatan 50 foiz tarifni saqlab qolgan holda Germaniya televizorlari Frantsiyaga hech qanday boj to'lovlarisiz kirib keladi. Natijada, Germaniya televizorlari Frantsiya bozorlaridagi eng arzoniga aylanadi va Frantsiya iste'molchilari ularni AQSh televizorlari o'rniga sotib oladilar. Shu tariqa import samaraliroq manbadan kamroq samarali tomonga ko'chiriladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu holat savdoni qaytarishdir-bojaxona ittifoqining salbiy savdo va farovonlik effekti.

Bojaxona ittifoqini tahlil qilishdagi boshqa bir kategoriya bu dinamik bojaxona ittifoqi nazariyasi. U asosiy e'tiborni avvalgi, ya'ni yuqorida yoritilgan bir marotaba va umrbod effektlaridan farqli ravishda bojaxona ittifoqining vaqt o'tib borishi bilan yuzaga keladigan effektlari, xususan, iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish omillari narxlarining tenglashuviga, qaratadi. Biroq iqtisodchilar o'rtasida haqiqiy dinamik effekt aynan nimadan iborat ekanligi borasida ayrim bahslar mavjud. Shunday bo'lsa ham ushbu savol yuzasidan amaliy jihatdan quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

Keng ko'lamli xo'jaliklar. Bojaxona ittifoqi shakllanishi atijasida ichki ixtisoslashuvning oshganligi ittifoqdagi firma va anoatlarning samarador bo'lishiga olib keladi. Chunki BI tuzilishi bilan firmalarning, yirikroq bozorlarda xizmat ko'rsata boshlashi atijasida, o'z ishlab chiqarishlarini kengaytirish hamda ko'lam jihatdan o'sishga (ishlab chiqarish

birliklarining yiriklashuvi) bo'lgan moyilligi kuzatyladi. Ko'pgina hollarda 6u kabi natija bir birlik ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish imkonini beradi va shu tariqa past narxlardan baxramand bo'lувchi iste'molchilarning farovonligini oshishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon quyidagilarning oqibatida yuz beradi:

1. Ichki xo'jaliklar firmalarning yiriklashuvi orqali ustunliklarga ega bo'ladilar. Yirik ishlab chiqarish korxonalarining mashina uskunalaridan yanada samaraliroq foydalanishi va mehnat taqsimoti qamroving oshishi bunga misol bo'la oladi.

2. Umumiy sanoat tarmoqlarining o'sishi natijasida yuzaga keluvchi tashqi xo'jaliklar. Masalan, sanoat tarmoqlari mutaxassis va o'mponentlarning samarali ishlab chiqaruvchilari tomonidan xizmat ko'rsatilishi mumkin. Amaliyotda, keng ko'lamli xo'jaliklarning miriqdorini aniqlash murakkabdir, biroq EH Komissiyasi BIning ijobiy ta'sirini hisoblab chiqdi, ya'ni Hamjamiyat doirasidagi keng ko'lamli xo'jaliklarning to'liq ekspluatatsiyasidan ko'rildigan potentsial farovonlik 61 mld. EKYu, yoki Hamjamiyat YaIMning 2.1 foiziga teng bo'lishi ko'zda tutilgan ("Sechini hisoboti", 1988Y.). Keng ko'lamli xo'jaliklarga bo'lgan intilish, 1992 yil bo'sag'asida yuz bergen chegaralar uzra firma va sanoat korxonalarining birikishlarga ta'sir etgan omillardan biri hisoblanadi.<sup>4</sup>

Izchil raqobat. Bojxona ittifoqining tashkil topishi natijasida ichki bozorlarning ochilishi firmalarni hamkor davlatlardagi raqobatchilar tomonidan izchil raqobatga yuzlashtiradi-milliy monopoliyalar Hamjamiyat oligapoliyalariga aylanishi mumkin. Bu esa o'z navbatida firmalarni texnikalarni takomillashtirish, harajatlarni qisqartirish va umuman raqobatbardosh bo'lish yoki mavjud raqobatbardoshlikni saqlash maqsadida samaradorlikni oshirishga majbur etadi. Ushbu jarayon uzoq muddatda farovonlikni oshirishi va barchaga foyda keltirishi mumkin. Ko'p iqtisodchilar bu holatni oshib boruvchi "X-samaradorlik" deb ataydilar.

Savdo masalasidagi yaxshilanish, mamlakat yoki hududning savdo sharoitlarini keng ma'noda uning o'z importlarini sotib olish narxi bilan eksport uchun oladigan narx o'rtasidagi munosabati sifatida ko'rish

---

<sup>4</sup> Allan M. Williams: *The Eiroreap Sottipity. Second Edition.* Oxford. UK: Vlaskwell Publishers, 1994.

mumkin. Agar bojxona ittifoqining tashkil topishi dunyoning qolgan qismidan keladigan importlarga bo'lgan talabni, savdoni qaytarish effekti natijasida, kamayishiga olib kelsa, u holda ushbu importlarning xalqaro narxi pasayishga moyil bo'ladi va ittifoq savdo sharoitlari yaxshilanadi. Bunday holat savdoni qaytarishning salbiy effektlarini yumshatishi yoki bo'lmasa foydalilik jihatidan ustunroq bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki yuqorida fikr yuritgan statik va dinamik foydalar va umuman bojxona ittifoqining ta'siri o'sha tegishli hududlardagi iqtisodiy o'sish suratini oshirishdan iborat bo'lishi kerak.

Ushbu qo'shimcha o'sish o'z navbatida investitsiya qo'yilmalarini jadallashtirishi va yanada o'sishni rag'batlantiradi. EIning shakllanishi va so'nggi o'rinda kengayishi jarayoni dunyoning qolgan qismiga nisbatan o'zaro a'zo mamlakatlar o'rtasida savdodagi ulushining oshishi bilan xamohangdir. Shu tariqa, 1958 yildan 1972 yilga qadar dastlabki EH a'zo davlatlariaro savdo 15 foiz hisobida o'sdi, a'zo bo'lмаган davlatlar bilan esa 8.5 foizni tashkil etdi. EHni tuzishning savdodagi effektlarini hisoblash yuzasidan qilingan harakatlar 1970 yilga qadar hamjamiyat ichra savdo 8-15 mlrd. AQSh dollariga kengayganini [ko'rsatadi](#).<sup>5</sup> Bu ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan savdoning o'rtacha 15-30 foizga oshganini aks ettiradi. Shuningdek, [Robson](#)<sup>6</sup> o'z ishida sanoat ishlab chiqarishidagi savdoni yaratish, savdoni qaytarishga nisbatan bir necha barobar ko'p edi deb ta'kidlasa, bunga qarshi [Balassa](#)<sup>7</sup> qishloq xo'jaligidagi savdoni qaytarish 1.3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etganini ko'rsatish mumkin. Shunday bo'lsa ham, umumiylis hisobda a'zo bo'lмаган davlatlar bilan savdoda, savdoni qaytarishdan ko'ra tashqi savdoni yaratilishi, ijobjiy ta'sirga ega bo'lgan. 1980 yilga qadar savdoni yaratish effekti natijasida keng ko'lamlı iqtisodiyotlardan kelgan foyda umumiylis YAIMning 3-6 foizini [tashkil etgan](#).<sup>8</sup>

## 2-jadval

### **EI 15 a'zo mamlakatlari o'zaro eksport va import oqimlarining qo'rsatkichlari**

A'zo davlat	EIga eksportning umumiylis eksportdagisi ulushi	EIdan importning umumiylis importdagisi ulushi (%da)

<sup>5</sup> Maues D. 1978. *The effect of economic integration on trade. Journal of Common Market Studies*, 17. 1-25 pp.

<sup>6</sup> Robson P. 1987. *The economics of international integration*, 3<sup>rd</sup> end. London: Allen & Urwin.

<sup>7</sup> Balassa B. 1975. *European economic integration*. Amsterdam: North-Holland.

<sup>8</sup> Owen N. 1983. *Economics of scale, competitiveness and trade patterns within the European Community*. Oxford: Clarendon.

	(%)da)			
	1958	1999	1958	1999
Belgiya	55.4	76.0	55.5	71.0
Lyuksemburg	55.4	85.4	55.5	81.7
Daniya	59.3	66.9	60.0	69.8
Germaniya	37.9	56.9	36.3	56.9
Gretsiya	50.9	51.6	53.7	66.2
Ispaniya	46.8	71.2	31.8	68.7
Fransiya	30.9	62.4	28.3	66.6
Irlandiya	82.4	66.0	68.9	62.1
Italiya	34.5	57.3	30.2	60.8
Niderlandiya	58.3	79.5	50.7	55.1
Portugaliya	38.9	82.8	53.4	77.4
Buyuk Britaniya	21.7	58.6	21.8	53.2
Avstriya	-	62.9	-	72.3
Finlyandiya	-	57.7	-	65.4
Shvetsiya	-	58.4	-	67.6

Manba: 51agl\$glsa1 Appex og" Eigoreap Esopotu, Dipe 1996;

1958 - 99 yillar oralig'ida keng qamrovli integratsiyaga erishish maqsadida EI mamlakatlari o'zaro savdoda to'siqlarni (keng ma'noda) olib tashlashi natijalarini shu yillardagi tovar ayriboshlash ko'rsatkichlarini taqqoslash bilan izohlash mumkin (**2-jadval**). EIning umumiy eksport va import operatsiyalarining a'zo davlatlarga to'g'ri keladigan ulushi o'rta hisobda 63 foizni tashkil etadi, o'zaro savdo oboroti o'rtacha 15-20 foizga oshgan. Bu o'z navbatida mamlakat bozorlarining keng va chuqur integratsiyasidan dalolat beradi.

1968 yilning iyuliga qadar dastlabki oltita a'zo davlat o'zaro tarif va kvota cheklanishlarini olib tashlash bo'yicha tadbirlarni oxiriga etkazdilar va shu bilan birga Umumiy Tashqi Tarifning o'rnatilishini ham amalga oshirdilar. (UTT-ittifoq tuzilishidan oldin ichki iqtisodiyot tomonidan qo'llaniladigan tarifga teng va odatda a'zo bo'lмаган mamlakatlarga nisbatan qabul qilinadi).

Shuni ta'kidlash joizki, ittifoq doirasidagi iqtisodiy jihatdan barqarorlashish, rivojlanish va o'z aholisining yashash darajasini oshirishga bo'lgan ishtiyoq shunchalik katta ediki, Rim Shartnomasida aytib o'tilgan BIga belgilangan muddatdan bir yarim yil oldin erishildi. 1973 yili Buyuk Britaniya, Irlandiya va Daniyaning hamjamiyatga kirishi natijasida a'zo mamlakatlar soni oltitadan to'qqistaga etdi va taraqqiyotda

teng ravishda siljish yuz berdi, ichki tarif va kvotalarning olib tashlanishi va UTTning qabul qilinishi, bularning barchasi 1977 yilning iyuligacha yuz berdi. O'z ichiga Gretsya (1981y), Ispaniya va Portugaliyani (1986y) oluvchi janubiy kengayish yuz berishi bilan tarif va kvotalarning muvofiqlashuvi ham avvalgi tadbirlar singari qoniqarli bo'ldi. Shundan kelib chiqqan holda Evropadagi birinchi-bosqich integratsiya

1980 yillarning o'rtalariga kelib yakunlangan edi degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu tarif va kvota o'zgarishlari o'zining ayrim yorqin ta'sirlarini ko'rsatdi. Jumladan, 1972 yilda Evropa iqtisodiy integratsiya jarayoni natijasida Hamjamiyat YaIM 2.2 foizga oshdi, va 1981 yilga kelib kengaygan Hamjamiyatning YaIM integratsiya yuz bermagan holda bo'lishi mumkin ko'rsatkichga nisbatan 6.9 foiz [yuqori edi](#).<sup>9</sup>

Shunday bo'lsa ham, EH bojxona ittifoqining iqtisodiy oqibatlarini empirik tadqiq etish va tahlil qilish juda murakab va muammolidir. Chunki EHda bojxona ittifoqi jarayoni izchil tadqiq qilish mumkin bo'lgan darajada alohida, ajralgan holda yuz bermadi. Bundan tashqari, faktik jihatdan Hamjamiyatning ta'sirini juda ko'p boshqa, savdo oqimiga ta'sir etuvchi omillardan ajratib olish mumkin emas. Shuningdek, bojxona ittifoqining savdo oqimiga ta'sirini hisoblashning hech bir to'liq qoniqtiruvchi yo'li yo'qligini ham ta'kidlab o'tish muhimdir. Ya'ni, xalqaro transaktsiyalar amaliyotda ko'p omillar tomonidan boshqariladi va hududiy integratsiya tomonidan amalga oshirilgan ta'sirlarni butunlay ajratib qo'yish ham murakkab ham maqsadga muvofiq emas.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, olib borilgan ko'pgina izlanishlar (xususan, Truman 1969y, 1975y; Vilkyamson va Botril 1971y, 1982y; Aytkin 1973y; Balassa 1975y; tomonidan), EH bojxona ittifoqi sezilarli darajada savdo oqimlarini o'zgartirgani va umuman savdoni tashkil etuvchi tabiatga ega bo'lidanini ta'kidlab o'tadi. Savdoni tashkil etishning eng yuqori darajasi ishlab chiqarishda sodir bo'ldi va qishloq xo'jaligida yuz bergen savdoni qaytarishning salbiy oqibatlariga nisbatan ustuvorligini ko'rsatdi.

Eng to'liq hisobotlarga ko'ra, sof savdoni tashkil etish Evropa Hamjamiyatidagi milliy daromadni 0.1 foizga oshirganini aytish mumkin. Shu bilan birga bir necha kengayishlar oqibatida EHning BI dunyodagi eng yirik hududiy savdo blokiga aylandi. Bu ayni vaqtning o'zida EHning yanada chuqurroq integratsiyaga erishish maqsadida qo'llanilgan

---

<sup>9</sup> Dennis Swann: European Economics Integration-The Common Market. European Union and beyond. Edward Elgar. 1996.

strategiyaki, u shu tariqa YaEB va IMI yaratish sari harakatlar uchun eng zaruriy asosni ta'minlash garovi bo'lib xizmat qiladi.

## 5.2 Evropada yagona ichki bozorning shakllanish asoslari

Evropa iqtisodiy integratsiya jarayonini o'rganib, uni tahlil qilganda umumiylar bozor Evropa Hamjamiyatining yadrosi ekanligini yaqqol ko'rish mumkin. Chunki Hamjamiyatni tashkil etuvchi shartnomaning markaziylari, qolaversa asosiy maqsadi, a'zo davlatlar iqtisodiyotlarining o'z qismlari yig'indisiga nisbatan yuksakroq bo'lgan xo'jalik doirasidagi integratsiyasidir. Maqsad, ko'proq tovarlar va xizmatlar arzon narxlarda ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan yuksakroq iqtisodiy samaradorlik uchun sharoitlarni yuzaga keltirish. Bu esa amaliyotda rentabillik va raqobatning oshishi natijasida erishilishi mumkin. Shunday ekan EH shartnomalari "erkin raqobatga ega ochiq bozor iqtisodiyoti" degan tushunchani Hamjamiyat siyosatlari uchun asos sifatida bir necha bor takrorlaydi.

Hamjamiyat umumiylar bozorining huquqiy poydevori bo'lib EH shartnomasida o'z aksini topgan "to'rt erkinlik"-tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalning erkin harakati hisoblanadi. Ushbu erkinliklarni amalga oshirish va bozor kuchlarining erkin ishslashini ta'minlash maqsadida Hamjamiyat qoidalar to'plamini ishlab chiqdi. U o'z ichiga mahsulot va xizmatlar uchun spetsifikatsiyalar, davlat xaridi bo'yicha qoidalari va bilvosita soliqlarning eng kam darajalarini qamrab oladi.

Yagona bozor sharoitida iste'molchilar milliy chegaralar uzra xaridlar qilishda erkinlikka egadirlar va turli xil kompaniyalar (qandaydir muhim chekhanishlar qo'llanilmagan taqdirda) mahsulotlarni bir a'zo mamlakatdan sotib olgan holda boshqasida sotish orqali arbitraj" funktsiyalarini amalga oshirishlari mumkin. "Parallel importlar" nomi bilan ma'lum bo'lgan ushbu transaktsiyalar mamlakatlar o'rtasidagi yagona bozorning tarqoqligiga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. UB EI doirasida tovarlar, xizmatlar, kapital va insonlarning erkin harakatini natijasida ittifoq YaIM 5 foizga usishini ko'zda tutgan edi. Haqiqatda esa, bu ko'rsatkich (1990 yil bozor narxlarida) 1992 yilda 1 foizni, 1993 yil -0.6, 1994 yil 2.8, 1995 yil 2.5 va 1996 yil 1.5 foizni tashkil etdi.<sup>10</sup> Eiga oid ishlar o'rganilganda 6u borada bir qator omillar ko'rsatilganligi aniqlandi. Bizning o'ylashimizcha, ularga ba'zi qo'shimchalar kiritish o'rinni va shu asosda quyidagi **3-chizmani** keltiramiz.

<sup>10</sup> Statistical Annex of European Economy, June 1996.

Milliy iqtisodiyotlarning yagona bozorga integratsiyasi og'ir kechishi mumkin bo'lgan tartibga solish va muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. Chunki kuchaygan raqobatga javoban amalga oshiriluvchi iqtisodiy restrukturizatsiya ishsizlikka olib kelishi mumkin. Yagona bozor dasturining bir qismi sifatida muvofiqlashtirishni engilashtirish va iqtisodiy hijatdan ustunlikka ega bo'limgan hududlarning raqobatchilik o'rinalarini yaxshilash maqsadida Hamjamiyat moliyaviy resurslar bilan ta'minlashni yo'lga qo'ydi.

Ko'p hijatdan umumiylar yaratish Evropa Hamjamiyatining ustuvor yo'naliш va maqsadi hisoblanadi va u yuksalishga erishishda asosiy kalit sifatida talqin qilinadi. Dastlabki 1957 yildagi EIH shartnomasida 12 - 15 yil oraliqni o'z ichiga oluvchi o'tish davri ta'kidlanadi va umumiylar bozor aynan ana shu davr ichida progressiv ravishda o'rnatilishi ko'rsatiladi.

Shunday bo'lsa ham, 1980 yillardagi iqtisodiy holatning yaxshilanishi iqtisodiy integratsiya jarayonini qaytadan jonlantirdi. 1985 yili Jak Delor prezidentligi ostidagi yangi Komissiya ishga tushdi va Yagona Bozorga erishish uchun zarur bo'lgan dasturni ishlab chiqishga kirishdi. Buning natijasida bozorning unifikatsiyasi 1992 yilda oxiriga etishi va bunga erishish uchun talab qilinadigan 282 siyosiy choralarни aniqlab bergen holda Rasmiy dastur ishlab chiqildi. Bu Rim shartnomasi imzolanganidan uttiz yil keyin yuz berdi. Chunki yagona bozorning yaratilishi uchun ikki asosiy element zarurdir. Bular, (a) tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillari bilan savdo qilishdagi to'siqlarning olib tashlanishi va (b) raqobatning umumiylar qoidalari tizimi. Biroq birinchi navbatda Yagona Evropa Akti qabul qilinmasdan oldin yagona bozor sari amalga oshirilgan siljish va rivojlanishlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi tizimidagi savdo cheklanishlari turli xil qoidalari va tartibotlarda yarim yashiringan xoldagi choralar turkumi sifatida xarakterlanadi. Ushbu turkum o'z ichiga texnik va savdo standartlari, bojxona rasmiyatichiliklari, xarid qilish talablari, sotish va reklamadagi cheklanishlar, moliyaviy nazoratlar va subsidiyalarni oladi. Bularning barchasi importga qarshi chora sifatida yoki eksportlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun qo'llaniladi. Ma'lumki, savdo cheklanishlari, xaridorlarga boshqa davlatlardagi taklif etuvchilardan erkin holda sotib olish imkonini yaratish uchun, ma'lum darajada talabni tashkil etuvchi tomondagi choralar orqali yumshatilishi mumkin. Evropa Kamjamiyatida esa ushbu erkinlik o'zaro tan olish tamoyili bilan ta'minlangan (6u tamoyil mazkur bo'limda o'rganiladi) va unga ko'ra

Iamjamiyat mamlakatlarining birida qonuniy ravishda savdo qilinayotgan tovar va xizmatlar Hamjamiyatning boshqa istagan joyida sotilishi mumkin.

Shunday bo'lishiga qaramay, milliy hokimiyatlarning boshqa a'zo davlatlardan kirib kelayotgan importlarga qarshi cheklanishlarni qo'yishining oldini olish uchun taklifni yuzaga keltiruvchi tomondan ham qandaydir bir harakat talab qilinadi. Amaliyatda importga qarshi chora-tadbirlar bilan kurashish juda murakkab kechadi, Chunki ular odatda (texnik va xavfsizlik standartlari, sifat nazoratlari, sog'liq va atrof-muhitni saqlash bo'yicha standartlar va iste'molchilarni himoyalash standartlari) kabi texnik qiyinchiliklar ortida yashiringanligi sababli savdoda diskriminatsiya to'g'ridan-to'g'ri yuz bermaydi. Bu choralarni talab qiluvchi hukumat esa, ular aholining farovonligi va yashash sifatini himoya qilish uchun zarurligini ta'kidlaydi. Bunday vaziyatlarda Hamjamiyat savdoni cheklash elementlarini olib tashlash bilan birga qonuniy himoyaning saqlab qolinishini ta'minlash orqali amal qilishga majbur edi. Ushbu ko'rsatkich va maqsad uyg'unlashtirish tamoyilini qo'llash usuli bilan erishiladi.

1992 yillarning oxiriga kelib EI yagona bozori uchun huquqiy tarkibning asosiy qismi ishlab chiqilgan edi. Raqobatbardoshlikning oshishi va iqtisodiy o'sish sharoitlari bo'yicha taxminlarning ro'yobga chiqishi keyingi yillar mobaynida aynan shu qonun va qoidalarga nisbatan itoatkorlik va hurmatning qanchalik darajada bo'lishiga bog'liq. Bu erdag'i mantiqiy davomiyligini quyidagicha talqin etish mumkin, ya'ni yagona bozorning rivojlanishi iqtisodiy o'sishning jadallashishiga va buning natijasi o'laroq Hamjamiyat aholisi farovonligining oshishga olib keladi.

Shunday bo'lsa ham, EHda faqatgina a'zo davlatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlarni sotishda erkinlik bo'lsagina yagona bozor bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan esa, tamomila erkin va tartibga solinmaydigan bozor mexanizmi ham bo'lishi mumkin emas: tovarlar va xizmatlarning ta'minlanishi har doim turli xil maqsadlarda tartibga solinib gurilishi shartmisol tariqasida, texnik jihatdan standartlashtirishga erishish uchun, mulkchilik huquqlarini ta'minlash va iste'molchilar hamda atrof-muhitni himoyalash kabilarni keltirishimiz mumkin. Shu bois Hamjamiyat yagona bozoriga tartibotlarni olib tashlash orqali emas, balki ularning noto'g'ri ishlatilishining oldini olish orqali erishiladi. Bu erda asosiy muammo mavjud, u ham bo'lsa a'zo davlatlarning qonuniy maqsadlar sari harakatlarining Hamjamiyat doirasidagi savdoga to'sqinlik va noto'g'ri ma'no bermaydigan yo'l bilan amalga oshirilishini ta'minlash. Echim esa

ko'p hollarda a'zo davlatlardan bir-birlarining tartibotlarini tan olishni talab etishdir, ya'ni masalan, bir mamlakatdagi barcha xavfsizlik standartlariga javob beradi deb qabul rilingan tovar boshqa a'zo davlatlarda talab qilinuvchi standartlarga ham mos deb tan olinadi. Ushbu qoida o'zaro tan olish tamoyili va shuningdek, kelib chiqish mamlakati tamoyili deb ham yuritiladi, Chunki a'zo davlatlar mahsulot ishlab chiqilgan mamlakatdagi mahsulot standartlarining amal qilishini ham tan olishlari kerak. Bu kabi o'zaro tan olish albatta o'zaro ishonchga bo'lган zaruriyatni taqozo etadi; va zarur bo'lган vaziyatlarda bu Hamjamiyat standartlarining qabul qilinishi orqali mustahkamlanishi mumkin.

O'zaro tan olish doktrinasiga asos bo'lib, EHning 30 Moddasi hisoblanadi. Unga ko'ra importlarga qo'yiladigan barcha cheklanishlar va boshqa shunga teng kuchli ta'sirga ega bo'lган hamma choralar man qilinishi kerak.

Shunga mos ravishda, bir a'zo davlatda qonuniy holda sotilgan mahsulot xuddi shuningdek Hamjamiyat bo'ylab ham sotilishi mumkinligi borasida umumiyl taxmin mavjud edi. Bu esa o'z navbatida, masalan Germaniya o'z hududida Frantsuz likyorining faqatgina uning tarkibidagi alkogolk quvvati Nemis likyorlariga nisbatan o'rnatilgan minimumdan past bo'lganligi uchun sotilishini taqiqlay olmasligini o'zida aks ettirgan Adliya Sudining "Sassis de Dijon" ishi bo'yicha qarori (120-78 Ish) orqali tasdiqlandi.

Sassis de Dijon doktrinasida yoritilishicha, o'zaro tan olish Hamjamiyat ichidagi notarif to'siqlarning yorqin shakllariga qarshi turishda samarali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga agar bu ma'lum ko'rsatilgan maqsadlar bilan bog'liq milliy siyosatlarni amalga oshirish yoki umumiyl manfaat uchun zarur bo'lsa, a'zo davlatlar qonuniylashtirgan tarzda import va eksportlarni cheklashi mumkin. Shu o'rinda EH shartnomasi (36 Modda) ushbu maqsadlarni quyidagicha belgilab beradi: ijtimoiy qadriyatlar, siyosat yoki xavfsizlik; inson, hayvon yoki o'simlik sog'lig'ini himoyalash; madaniy merosni saqlash; va sanoat yoki tijorat mulkini himoyalash.

Shu bois, ayrim hollarda Sud boshqa a'zo davlatlardan kelayotgan importlarga qo'yilgan milliy darajadagi cheklashlarni qo'llab-quvvatladidi. Bunga misol tariqasida "Daniya shisha idishlari" bo'yicha ishni keltirish mumkin (302-86 Ish sifatida ma'lum).

Evropa integratsiyasi jarayonidagi bunday mohiyatga ega bir qancha misollarni keltirish mumkin. Amaliyotda EIH shartnomasidan keyingi o'n yilliklar mobaynida yagona bozorning amalga oshirilishi, a'zo davlatlar

o'rtasidagi harakat erkinligi cheklanishlariga qarshi kurashishdagi ijobiy choralarga bog'liqligi yorqin sezila boshladi. Bunday vaziyatlarda shu narsa ayonki "hayotiy muhim" manfaatlar bo'yicha masalalarda birgina o'zaro tan olishning o'zi etarli emas: ya'ni, a'zo davlatlar ma'naviy, xavfsizlik, sog'liq va atrof-muhitni himoyalash kabi bir qator asoslarga tayanib savdo cheklanishlarini (EHning 36 Moddasi asosida) oqlab chiqishlari mumkin. Undan tashqari milliy ma'muriy rasmiyatçiliklar, texnik spetsifikatsiyalar, sotib olish cheklanishlari bilan bir qatorda bir-biridan farq qiluvchi soliq rejimlarining ta'sirlari keng tarqalishi oqibatida yagona bozor sari rivojlanishi birmuncha sust kechdi.

O'zaro tan olish yoki deregulyatsiya tadbirlari etarli bo'lмаган hollarda harakat erkinligini ta'minlash uchun Hamjamiyat darajasida biron chora ko'rish zarur. Bunday chora qonunchilik shakliga ega bo'lishi mumkin yoki ma'lum maqsadga bevosita ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasida o'zaro kelishuv orqali ham erishish mumkin. Umuman olganda bu kabi jarayon dastlabki davrda milliy shart-sharoitlarning uyg'unlashishini keltirib chiqaradi. Tizimlarni bir-biriga muvofiqlashtirish ko'pincha turli xil va odatda muammolarsiz bo'lmaydi. Shu bois zarur bo'lgan choralarning ishlab chiqilishi tez-tez ekspertlarning chuqur o'rganishlari va keng qamrovli konsultatsiyalarini amalga oshirilishini taqozo etadi.

Uyg'unlashtirish Hamjamiyat qonunchiligi orqali erishilgan taqdirda, Hamjamiyat tegishli sohalardagi siyosatlarni ishlab chiqish va tadbiq etishda muhim o'rinni egallaydi. (Ayrim hollarda uni ishlab chiqishi uchun javobgar hamdir). Buning sababi shuki, muhim siyosiy instrumentlar faqatgina Hamjamiyat darajasida ishlashi mumkin; masalan, yagona bozor barcha turdag'i transport vositalari uchun atrof-muhit va xavfsizlik standartlarining uyg'unlashishiga erishdi va endilikda ushbu standartlarga kiritiladigan har qanday o'zgarishlar Hamjamiyatning tegishli qonunchiligini qayta ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli biz yagona bozorni Hamjamiyat siyosiy majburiyatlarini kengaytirishdagi qudratli kuch bo'lgan desak bo'ladi.

1987 yilda kuchga kirgan Yagona Evropa Akti yagona bozorning rivojlanishida yuksak siljish va EH shartnomasiga bir qator tegishli o'zgartirishlar qilinishiga sabab bo'ldi. Hamjamiyat qonunchilik jarayonlari Kengashda avvalgi ovoz berishning o'rniga ko'pchilik ovoz yo'li bilan aniqlash usulining kiritilishi natijasida jadallahshdi. Qayta ko'rib chiqilgan EH shartnomasi (yuqorida ta'kidlangan ovoz berish usuli bilan) Kooperatsiya Protsedurasining ichki bozorni tashkil etilishi va ishlangi

uchun zarur bo'lgan qonunchilikka tadbiq qilinishini ta'minladi. Buning birdan-bir sababi shuki, ko'pchilik a'zo davlatlar o'rtasida va Evropa Parlamenti tomonidan sezilarli qo'llashga ega bo'lgan qonuniy Takliflarga bir yoki ikki mamlakatlarning to'sqinlik qilishlarini oldini olishdir. Biroq bu usulning ham ijobjiy ham salbiy tomonlari mavjud. Ijobjiy oqibati shundan iboratki, Hamjamiyat umumiyligiga manfaatiga tegishli va zarur hisoblangan qonunlar va tartibotlarni qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Uning salbiy tomoni esa ayrim aholi soni kichik bo'lgan a'zo davlatlarning u yoki bu Hamjamiyat miqyosidagi qarorlar yuzasidan bildiradigan fikrlarini inobatga olmasligini aytish mumkin.

Umumiy Evropa bozorini tashkil etish tajribasidan, mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan to'siqlarning uchta turini belgilash mumkin, ya'ni, fizik, texnik va fiskal to'siqlar. Bu sanab o'tilgan to'siqlarning olib tashlanishi yagona bozorga erishishdagi asosiy shart sifatida qaraladi. Ushbu to'siqlarning integratsiya jarayoni hamda tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatini ta'minlash sari yo'lida ta'sirini bilish uchun biz ularning har birini alohida tahlil qilish bilan birga ularning olib tashlanishi borasida qanday amaliy choralar ko'rish mumkinligi ko'rib chiqamiz.

### Fizik to'siqlar

Bojxona postlari, immigratsiya nazorati, pasportlar tekshiruvi, vaqtiga vaqtiga bilan yuz berib turadigan shaxsiy yukni tintuv qilish kabilalar oddiy fuqaroga bularning hammasi Hamjamiyatning hamon bir-biridan ajralganligini yorqin namoyishidir. Chegaralardagi nazorat shuningdek, ortiqcha rasmiyatatchilik va turli xil to'lovlar natijasida qo'shimcha harajatni keltirib chiqarish bilan birga raqobatbardoshlikka putur etkazish orqali sanoatning zimmasiga kerak bo'limgan, ortiqcha yuklaydi.

1992 yilgacha, a'zo davlatlar o'rtasidagi chegara nazoratlari asosan ikki xil maqsadga xizmat qilar edi: soliq yig'ish, va aholi, tovarlar va pul harakatlarini nazorat qilish bo'yicha tartibotlarni tadbiq etish uchun "siyosat yuritish" funktsiyasini bajarish. O'z navbatida bojxona nazoratlarining muhim funktsiyalariga quyidagilar kirgan:

- milliy import cheklanishlarini qo'llash;
- EHdan tashqaridagi mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga nisbatan milliy import kvotalarini tadbiq etish;
- soliq va qishloq xo'jaligi bo'yicha yig'implarni yig'ish (va kompensatsiyalash);
- yo'l transport litsenziyalari va xavfli yuk transporti yuzasidan mavjud tartibotlarga mosligini tekshirish;

-savdo bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish.

Ichki chegaralarsiz hududga erishish bo'yicha so'nggi muddatga muvofiq, yuqorida keltirilgan barcha bojxona nazoratlari 1992 yilning oxiriga qadar to'xtatilgan edi. Ushbu ko'rinishdagi vazifalar hozirgi kunda chegaralarda amalga oshirilmayapti va ularning maqsadlari ayni paytda boshqa vositalar orqali erishilmoqda. Vaziyat shunday ediki, Komissiya chegaralardagi fizik nazoratlarning to'liq olib tashlanishining (ya'ni, faqatgina yumshatish yoki soddalashtirishgina emas) ahamiyatli ekanligiga juda kuchli urg'u berdi. SHu o'rinda, Hamjamiyatning umumiyo bozoriga tegishdi bo'lgan qonunchiligi 1985 yildagi (Komissiya tomonidan ishlab chiqilgan) ichki bozor to'g'risidagi Asosiy Dasturda (White Rareg) quyidagi fikrlar ta'kidlab o'tilgan "har qanday chegara nazoratlarining saqlab qolinishi, tarqoq bozorning harajatlari va kamchiliklarini abadiylashtiradi". (Evropa Komissiyasi 1985: 9).

Shundan kelib chiqib, biz belgilangan maqsadlar sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

1. Ma'muriy tekshiruvlarni soddalashtirish va ularni chegaralardan yo'qotish. Ushbu chora milliy kvota cheklanishlarining ishlashini kamaytirishda qo'shimcha ta'sirga ega.

2. 1992 yilgacha aholi va kapital, shuningdek, tovarlar va xizmatlarga barcha ichki chegaralar va nazoratlarni olib tashlash. SHuni ta'kidlash mumkinki, bunday choralarining amalga oshirilishi natijasi o'laroq dastlabki vaqtida savdo oqimi, milliy-davlatlarning to'lov balansi va milliy daromadi bo'yicha statistik ma'lumotlardagi aniqlikning kamayishi yuzaga kelishi mumkin.

3. Pul kompensatsiyasi miqdorlarini asta-sekin qisqartirish va qishloq xo'jaligi savdosida inson salomatligi uchun xafsizlik bo'yicha o'zaro tan olingan sertifikatlarni joriy etish.

4. Umumi transport siyosatini ishlab chiqish. Bu tadbir transport "kvota"lariga chek qo'yish bilan birga chegara tekshiruvlarini olib tashlash uchun kelishilgan xavfsizlik standartlarini kiritadi va uzoq masofalarga yuruvchilarga Hamjamiyat bo'ylab erkin faoliyat ko'rsatish imkonini beradi.

Bularning natijasida shu masalalar yuzasidan barcha majburiyatlar Hamjamiyat darajasiga ko'chirilishi va endilikda dastlabki tekshiruv, Hamjamiyat standartlariga mosligini tasdiqlash maqsadida, mahsulot qaerda ishlab chiqarilsa o'sha erda o'tkazilishidan dalolat berar edi. Bunday sertifikatsiyalash keyinchalik hamma a'zo davlatlarda tan olinadi.

### Texnik to'siqlar

Yagona bozorga erishish ko'p jihatdan bir-biridan farq qiluvchi hamda bozorlarning tarqoqligiga olib keluvchi milliy tartibotlar, standartlar va spetsifikatsiyalarni muvofiqlashtirishga bog'liqdir.

Texnik to'siqlar ishchi kuchi va kapitalning mobilligiga ta'minlashga halaqit beradi: masalan, ishchilar o'z mamlakatlarida olgan malakalari boshqa joylarda tan olinmasligiga duch keladilar. Kapitalning harakati esa moliyaviy bozorlar va valyuta almashtirish transaktsiyalarini boshqarib turuvchi milliy tartibotlar orqali jilovlangan. Shu bois, texnik to'siqlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: qonunchilik, standartlashtirish va sinov, tekshirish talablari. EHdagi butun integratsion jarayonga to'sqinlik qiluvchi mazkur to'siqlarni olib tashlash muhim edi. Ushbu masalaning echimi uyg'unlashtirish tamoyilini tadbiq etish hisoblanadi. Odatda bu Hamjamiyat miqyosida kuchga ega kelishilgan standartlarning ishlab chiqilishini o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan, yagona bozor jarayonini jadallashtirish uchun taklif qilingan choralar borasida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Hamjamiyat uzra sog'liq va xavfsizlik standartlarini qabul qilish. Masalan, oziq-ovqat, farmatsevtik va elektrik tovarlar uchun.

2. Korxonalar tomonidan chegara-uzra faoliyatlarini, qo'shma loyihalarni rag'batlantirish (Evropa iqtisodiy manfaatlari yuzasidan guruhlarga kirish) uchun umumiyluq huquqiy tizimni yaratish va Hamjamiyat miqyosida patentlar, savdo belgilari va mualliflik huquqlari bo'yicha butun bir sxemani tashkil etish orqali intellektual va sanoat mulki qonunchiligini isloq qilish.

3. Umumiy qoidalarni qabul qilish va xizmat ko'rsatuvchi kompaniya joylashgan mamlakat hukumatining vazifasi sifatida ushbu kompaniyani kuzatib turishni yuklash orqali xizmatlarning umumiyluq bozorini yaratish. Asosan quyidagilar ko'zda tutiladi:

a) Sug'urtalash, bank ishi va boshqa moliyaviy xizmatlarni deregulyatsiya qilish. (Deregulyatsiya-iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari faoliyatini nazorat qilib turuvchi hukumat dastaklarini, xususan kirish to'siqlarini (iqtisodiy va texnik omillar) yaratish ta'siriga ega bo'lgan, kamaytirish orqali jadallashtirish. Deregulyatsiyani amalga oshirish tashabbusidan maqsad, asosan dastlab tabiiy monopoliya hisoblangan sohalarda raqobatni rag'batlantirish yoki vaqt o'tishi bilan avval ratsional hisoblangan tartibotlar eskirgan sohalarda islohotlar o'tkazishdir);

b) birlashgan Evropa qimmatbaho qog'ozlar bozori, erkin va o'zaro bog'langan fond birjalarini yaratish;

s) transportning barcha turlari, xususan havo yo'llari orqali sayohatni deregulyatsiya qilish;

d) Hamjamiyat darajasida texnologiyalar tarmog'ining o'sishiga ko'maklashish maqsadida "yangi texnologiyalar" bo'yicha umumiy standartlarni ishlab chiqish; va

e) Televidenie va radio dasturlari bilan birga sputnik antennalari orqali ko'rsatuvarlarini uzatish va qabul qilish umumiy standartlarga ega "Evropa bo'ylab audio-vizual hudud"ni yaratish.

4. Valyuta almashtirishdagi nazoratlarni olib tashlash.

5. Malakalarning ekvivalentligini tashkil etish va shu orqali ishchi kuchining erkin harakatini jadallashtirish.

#### Fiskal to'siqlar

Hamjamiyatning barcha a'zo davlatlari aktsiz soliqlari va qo'shimcha rymat solig'ini (QQS) yig'adilar. QQSnинг qabul qilinishi va uning tadbiq etilishi 1967 yildan boshlab, EHning 99 Moddasiga muvofiq, amaliyotda qo'llanilayotgan Direktivalar to'plami orqali boshqariladi. Ular bilvosita soliqlarni yagona bozorning ishlashi uchun yaqinlashtirish va mos, lashtirishni ta'minlashda muhimdir.

Yagona bozorni tashkil etishda yuzaga kelgan muammo bu a'zo davlatlardagi soliq foizlaridagi farqning mavjudligi edi. Shu bois 1993 yili, chegara nazoratlari olib tashlanganidan keyin, QQS uchun "o'tish mexanizmi" tadbiq etildi va dastlab QQS va aktsiz foizlarini moslashtirishi maqsadi ko'zlandi. Ular a'zo davlatlararo savdoga noto'g'ri ma'no berish, savdoni qaytarish va raqobatga ta'sirining oldini olish uchun etarli darajada yaqin bo'lishi kerak edi.

Turli xil to'siqlarning mavjudligiga qaramay, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tomonidan yangi imkoniyatlarga nisbatan tegishli munosabatlarning yuzaga kelishi oqibatida yagona bozor g'oyasi iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishini yo'lga qo'yib yubordi.

Buning natijasida, o'zaro savdo va iqtisodiy o'sishning jadallahishi va yangi texnologiyalarning keng tarqalishi orqali barqaror, uzoq muddatli iqtisodiy foydalar ko'zlanadi. A'zo davlatlar o'rtasidagi to'siqlarning olib tashlanishi shuningdek, uzoq muddatni talab etuvchi Hamjamiyat miqyosidagi iqtisodiy o'zgarishlarni ham harakatga keltirdi.

Yirik hajmdagi yagona bozorda iste'molchi, sotuvchilar orasidagi yuqori raqobat va ishlab chiqaruvchi kuchlarni kontsentratsiyalashgan holda hududlarga joylashtirish orqali keng ko'lamli xo'jaliklarning tashkil etilishi evaziga foyda ko'radi. Ayrim ishlab chiqaruvchilar yuqori

darajadagi raqobatbardoshlikdan foyda ko'rsalar, boshqalari esa murakkab axvolga tushadilar. Bunday bo'lishiga asosiy sabab yagona bozorning qattiq talablaridir va faqat raqobatchilik ustunligi va bozor qoidalarini xis etish qobiliyatigina unda qolish imkonini beradi. Raqobatga dosh bera olmaydigan xo'jaliklar mavjud bo'lganlari qayta tarkibiy tashkil etishni boshdan kechiradi va uzoq muddatda foyda olish uchun barcha sharoitlarga ega bo'ladi. Kam rivojlangan (EI jon boshiga YaIMnin 75 foizidan kam bo'lgan) a'zo davlatlar yagona bozor sharoitida raqobatlashish uchun odatda Hamjamiyat ko'magini talab qiladilar va Hamjamiyat tomonidan keng foydauganiladigan struktura hamda birlashish fondlaridan turli xil shaklda yordam oladilar. Shu orqali hozirgi davrda etarli darajada rivojlangan infrastruktura va raqobatbardosh xo'jaliklar kamligi sababli ustunlikka ega bo'lмаган mamlakatlar ushbu to'siqlarga barxam berilganda, foyda olish uchun eng ko'p imkoniyatga ega bo'ladi. Iqtisodiy integratsiyani harakatga keltiruvchi albatta, yagona bozorning Hamjamiyat uchun keltiradigan iqtisodiy foydasidir. Xususan, iste'mol va investitsiyaning ko'payishi bilan, resurslar asosan quyidagi effektlar orqali ishlab chiqarish jarayonida yanada samaraliroq ishlatiladi:

1. Keng ko'lamli xo'jaliklarni ekspluatatsiya qilish natijasida harajatlarning kamayishi.
2. Yuqori iqtisodiy samaradorlikka olib keluvchi raqobatning kuchayishi.

3. A'zo davlatlarning nisbiy afzalliklarini to'liq ishlatish maqsadida sanoatni qayta tashkil etishdan yuzaga keluvchi harajatlardagi kamayish.

4. Yagona bozor orqali rag'batlantiriluvchi innovatsiyalar, yangi jarayonlar va mahsulotlar oqimi.

A'zo davlatlar o'rtasidagi savdoda to'siqlarning olib tashlanishi bilan, ishlab chiqarish kuchlarini bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari kamroq bo'lgan hududlardab joylashtirish tendentsiyasi kuzatiladi va bu ichki bozordagi investitsiyalarning yuqori mobilligi orqali samarali kechadi.

Yagona bozorning yaratilishi iqtisodiyotda taklif tomonining samaradorligini oshiruvchi manba sifatida qaraladi. Taklif tomonidagi yaxshilanish a'zo davlatlardagi pul birliklarining haqiqiy sotib olish quvvati va shu tariqa investitsiyalarning hajmini oshirish orqali yalpi talabning oshishiga va EHni jahonning qolgan qismiga nisbatan raqobatbardoshligini yaxshilashga olib keladi.

Shu bois eng asosiy va belgilovchi maqsad bu ishlab chiqarish rentabilligini oshirishdir: to'siqlardan xoli bo'lgan katta bozorning mavjud

bo'lishi yangi texnologiyalarning rivojlanishi va tadbiq etishlishi va ularning Hamjamiyat miqyosida keng tarqalishini rag'batlantiradi; standartlar va tartibotlarning uyg'unlashuvi shuningdek, yangi mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish jarayonidagi harajatlarni ham kamaytiradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, yagona bozorning amalga oshirilishi bu asosan iqtisodiy maqsad, ya'ni aholi va firmalarga sotib olish yoki sotish, qarz berish yoki qarz olish, ishlab chiqarish yoki iste'mol qilishni hozirgi vaqtgacha ular o'z mamlakatlari ichida qilgani kabi Hamjamiyat uzra amalga oshirish imkonini berish hisoblanadi.

### **5.3 Evropa Ittifoqida yagona valyuta hududining shakllanishi bilan bogliq muammolar**

Mazkur bo'limning boshidanoq quyidagi argumentni oldinga qo'yish maqsadga muvofiq: iqtisodiy va monetar ittifoq va uning asl mohiyati hamda asosini tashkil qiluvchi yagona valyuta bu - Hududiy Iqtisodiy Uyushmalarning so'nggi bosqichiga erishish uchun qo'yiladigan talabdir. Kapital, tovar va xizmatlarning erkin harakati natijasi o'laroq erishilgan umumiy bozor mavjud vaziyati keyingi darajaga o'tish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yagona bozorning samarali ishlashi va rivojlanishi valyutalarning almashuv kursi tebranishlarini olib tashlanishini taqozo etadi, Chunki u bir qator sabablarga ko'ra a'zo davlatlar o'rtasidagi savdoni samarasizligiga olib keladi.

Hozirgi davrga kelib, Hamjamiyat tashkil topgan sanadan boshlab, Evropa mamlakatlari o'rtasida bosqichma-bosqich etuk iqtisodiy integratsiyani yuzaga keltirishdek bir ustuvor maqsadni o'z oldiga qo'ygan edi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu jarayon asrimizning oxiriga kelib Evropada iqtisodiy va monetar ittifoqni tuzish, yagona pul birligini muomalaga kiritish kabi tadbirlarni keltirib chiqardi. Chunki, ko'p jihatdan yagona pul birligiga ega bo'lмаган Evropa umumiy bozori Paradoks sifatida qaralishi mumkin.

Iqtisodiy va monetar ittifoq (IMI) masalasi bo'yicha duch kelish mumkin bo'lgan qiyinchiliklar bilan bir qatorda ularning integratsion jarayonga bog'liqligi doimiy ravishda muhokama etib boriladi. "Albatta, IMI Evropa Ittifoqidagi qaror qabul qilishning kundalik, tipik "keys stadi"si (ya'ni, kundalik ishda ko'rib chiqiladigan masala) emas, Chunki u juda ko'p boshqa siyosatlarga bevosita tadbiq etilish xususiyatiga ega.

Umuman, to'liq IMIning tashkil etilishi butun Evropa integratsiyasini tubdan o'zgartiradi".<sup>11</sup>

Har bir integratsion birlashma oxir oqibatda o'zaro bog'liqlikka olib dadi. Ittifoq miqyosida esa valyuta ittifoqi yuqori darajadagi kapital obilligi va moliyaviy sektorning to'liq integratsiyalashuvi ta'minlangan olda mavjud bo'la oladi. Ushbu maqsadga erishish odatda ittifoq o'zra uyidagi tadbirlarni keltirib chiqaradi:

1. Almashuv kurslaridagi tebranishlarning cheklanishi yoki olib tashlanishi.
2. Paritet stavkalarini qat'iy belgilab qo'yish.
3. Valyutalarning to'liq konvertatsiyasini ta'minlash va bu shartdan ortga qaytmaslik.
4. A'zo davlatlar o'rtasida kapital harakatlarini erkinlashtirishni yakuniga etkazish.

Bu tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ishtirok etuvchi «amlakatlarning moliyaviy va monetar sektorlarning integratsiyasini taqozo etadi va ularning pullarini bir-biriga a'lo darajadagi o'rinosar rradi. Bunday vaziyatning yuzaga kelishi natijasida markaziy bank va iuningdek, umumiyl pul birligining tashkil qilinishi va umumiyl monetar siyosatning amal qilishi keladi.

Monetar integratsiya iqtisodiy ittifoq hududi miqyosida resurslarning optimal taqsimlanishiga erishish uchun dastlabki shart ham hisoblanadi. A'zo mamlakatlarning tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillari bozorlarining jadal sur'atlar bilan yutegratsiyalashuvi o'zaro iqtisodiy bog'liqlikni oshiradi va monetar integratsiyani muhim zaruriyat sifatida ko'rsatadi. Ittifoqqa a'zo davlatlarning milliy iqtisodiyotlari savdo va ishlab chiqarish omillarining harakati orqali kundan-kunga yanada ochiq va yanada o'zaro bog'liqligi oshib borar ekan, ikkita muammo yuzaga kelishi mumkin:

1. A'zo davlat tomonidan o'z iqtisodiy faoliyatini tartibga solish uchun ko'rildigan monetar va fiskal choralar boshqa mamlakatlarda spillover effektiga ega. Bu esa integratsiya jarayoniga halaqit berishi mumkin.
2. A'zo davlatlar iqtisodiy muammolarni o'zлari echishi murakkablashib borayotganiga iqror bo'ladilar, ularning ayrimlari ittifoqda ishtirok etishdan yuzaga keladi biroq endilikda milliy iqtisodiy siyosatning traditsion dastaklari orqali davolash imkon bo'lmaydi.

---

<sup>11</sup> Helen Wallace and William Wallace: Policy-making in the European Union. Third Edition. Oxford University Press. 1996.

Ko'rish mumkinki, monetar integratsiya foydalar olib kelishi bilan harajatlarni ham keltirib chiqaradi. SHunga mos ravishda Iqtisodiy Ittifoqdagi monetar birlashuvining maqbul darajasi avvalombor yagona valyutaning foydasi va zararini taqqoslash asosida aniqlanishi maqsadga muvofiq.

Birinchi navbatda yagona valyuta o'z ishtirokchilariga keltiradigan foydalari quyidagilardan iborat:

- Bozor integratsiyasi va raqobatning kengayishini keltirib chiqaruvchi chegaralar o'zra narx tiniqligi, ya'ni, barcha mahsulotlarning narxlari bir xil umumiy pul birligida ifoda etilishi (ing. price transparency). Turli xil firmalar va sanoat korxonalari ittifoq miqyosida keng ishlab chiqarish omillaridan foydalanish imkoniga ega bo'ladi;

- Yagona valyutaning hisob birligi va jamg'arish vositasi sifatidagi vazifalarining samaradorligi. Barcha majburiyat va avtivlarning yagona valyutaga o'tkazilishi ishtirok etuvchi mamlakatlarda valyuta zaxiralari miqdorini kamaytiradi. Iqtisodiy oborotga qo'shimcha mablag'lar qo'shilishi kreditni arzonlashtiradi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishiga olib keladi.

- Davlatlararo savdoda valyutani almashtirishdagi transaktsion harajatlarning yo'qotilishi;

- Oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgaruvchan almashuv kurslari oqibatidagi aniqsizlikning kamayishi, o'z navbatida resurslarning yaxshiroq taqsimlanishiga olib kelishi;

- ittifoqdagi raqobatchilik kuchlarini rivojlantiradi. Almashuv kurslarining aniqsizligi kichik va o'tra xajmdagi firmalarning xalqaro darajadagi faoliyatini murakkab moliyaviy ahvolga tushirib qo'yadi. Valyuta ittifoqining tuzilishi hozirgi davrgacha faqatgina o'zlarining ichki iste'molchilariga xizmat ko'rsatayotgan kichik va o'rta xajmdagi firmalarga Evropa umumiy bozorini ochib beradi;

- Barqaror bozor miqyosida savdo va investitsiyalarning ko'payishini keltirib chiqaruvchi, foiz stavkalarining kamaytirilishi va standartlashtiri lishi;

- Devalkvatsiyaning yo'qotilishi oqibatida siyosatga nisbatan bo'lgan ishonchning oshishi.

Ushbu sanab o'tilgan barcha foydalar mamlakatning tashqi savdoga ochiqligi bilan ijobjiy bog'langan, ya'ni ittifoq-ichra savdo va YaIM proportsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik kutilaetgan potentsial foya ko'proq bo'ladi.

Yuqoridagiga teskari ravishda, monetar ittifoqqa qo'shilayotgan mamlakat ko'rishi mumkin bo'lgan zararlar quyidagilardan iborat:

■ Siyosiy dastak sifatidagi almashuv kursi va foiz stavkasining yo'qotilishi;

- Milliy monetar siyosatdagi avtonomiyadan mahrum bo'lism;
- Boshqa milliy siyosatlarga qo'llanilgan majburiylik.

O'z navbatida monetar integratsiyaning zararlari mamlakatning tashqi savdoga ochiqligi bilan salbiy bog'langan, ya'ni ittifoq-ichra savdo va YAIM proportsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik mamlakatning ittifoq iqtisodiyotidan bog'liqligi yuqori va milliy siyosatlarning samaradorligi, hamda avtonomiyasi kamroq bo'ladi.

IMIning amal qilishidan ko'rish mumkin bo'lgan iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda bunday yagona valyuta ittifoqining iqtisodiy jihatdan o'zini oqlashi borasida ham fikr yuritish maqsadga muvofiq.

Masalan, yagona - tarifsiz bozor holatida millatlar odatda o'zlarini nisbiy afzallikka ega bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi kuzatiladi. Lekin bunday ixtisoslashuv mamlakatni bozor sharoitidagi talablarning vaqtinchalik o'zgarishi sababli yuzaga keladigan talab muvozanatining siljishiga nisbatan ta'sirchan va kuchsiz qilib quyadi. Agar mamlakat o'zining pul birligiga ega bo'lsa, ichki mustaqil monetar siyosat bunday o'zgarishlarni qoplashi mumkin. SHu boisdan valyuta ittifoqining bir qator afzalliklariga kamchilik sifatida mustaqil milliy monetar siyosatning qo'ldan boy berilishini aytish mumkin. Bir holatni ko'rib chiqaylik, agar mamlakatda tovarlarga talab kamaysa, narxlar va ish haqi tez suratlarda tushmagunga qadar u bandlilik va ishlab chiqarish darajasining pasayishiga yuz tutadi. Amaliyotda ish xaqi va narxrlar faqat asta-sekinlik bilan moslashadi, shuning uchun ishlab chiqarish va bandlilik birinchi bo'lib zarar ko'radi. Bunday holatda ichki protsent stavkalarini kamaytirish orqali pasayishning oldini olish mumkin, lekin yagona valyuta ittifoqi doirasida bir mamlakat doirasida bunday qilish imkon bo'lmaydi. Undan tashkari, almashuv kurslarining erkin harakati holatida past ichki protsent stavkalarining iqtisodiy kengatsishga qulay sharoit yaratib beruvchi xususiyati milliy pul birligini qiymatining tushishini keltirib chiqarishi bilan mustahkamlanadi. Yagona valyuta ittifoqi sharoitida bu kabi iqtisodiy dastaklarni mamlakat ichida mustaqil ravishda qo'llash imkon bo'lmaydi.

Ko'rib turganimizdek monetar ittifoqqa kirish ham foyda ham zararni bir vaqtning o'zida taklif qilmoqda. Mamlakatlar bunday qarorga kelishi va ittifoq tuzishga rozi bo'lishi faqatgina monetar ittifoq keltiradigan foyda

mamlakatlar duch keladigan harajatlardan yuqori bo'lgandagina yuz berishi mumkin. Eng muhimi, iqtisodiy rivojlanish darjasini o'xshash, monetar siyosati va almashuv kursi barqaror bo'lgan mamlakatlarga ehtimol iqtisodiy va monetar ittifoqini tuzishi mumkin.

Avvalambor, yagona pul birligining joriy etilishi Ittifoq yagona bozor dasturini davom ettirish borasidagi o'ziga xos bir texnik chora bo'lsa, ikkinchi tomondan, bunday monetar ittifoq o'z-o'zidan Hamjamiyatning iqtisodiy siyosatdagi o'rnini, ahamiyatini oshirgan holda, a'zo davlatlarning milliy iqtisodiy mustaqilligining kamayishiga olib keladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya borasidagi nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy ittifoq darajasida, valyutalarning konvertatsiyasi chegaralararo bo'ladigan savdoda, kapitalning oqib o'tishi va aholining erkin harakatini susaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bois keng ko'ladi integratsion jarayonda har xil pul birliklarining harakatda bo'lishi notarif to'siqlarning mavjudligidan dalolat beradi. Bundan tashqari pulalmashtirish jarayonida bo'ladigan sarf-harajatlar bilan birga, konvertatsion kurslarining barqarorsizligi tufayli yuzaga keladigan tavakkalchilik davlatlararo moliyaviy operatsiyalarga ham ziyon keltirishi mumkin. Yagona bozorming to'la shakllanib, amal qilishida bunday to'siqlarning kelishilgan holda olib tashlanishi, uning afzalliklaridan to'la baxramand bo'lish imkonini yaratadi.

Shu bois Evropa Ittifoqida birinchi navbatda bunday tavakkalchiliklarni yumshatish va shu yo'l orqali xalqaro savdo va yuvestitsiyalarni rivojlantirish maqsadida, a'zo davlatlarning xukumatlari Evropa Monetar Tizimi doirasida o'zlarining iqtisodiy va monetar siyosatlarini yulga solib turish evaziga almashuv kurslarining barqarorligiga erishdilar.

Tarixiy ma'lumotlarga murojat etadigan bo'lsak, monetar integratsiya masalasi Evropa integratsion jarayoni buyicha dasturlarda 1960 yillardan buyon bir necha bor muhokama qilingan va bu borada ko'pgina o'ziga xos o'tish tadbirlari ishlab chiqilgan. Lekin o'sha davrda ketma-ket yuz bergen tangliklar, shu bilan birga ushbu ittifoqqa a'zo davlatlarning iqtisodiyotni boshqarishdagi farqlari, moliyaviy siyosatlarining turli xilligi, shuningdek, ayrim milliy va siyosiy xususiyatlarning mavjudligi natijasida siyosatlarning supranatsional institutlar tomonidan boshqarilish g'oyasi etarlicha ovoz ololmagan edi. Nihoyat, 1985 yildagi Yagona Evropa Akti (YaEA) Evropa Ittifoqida Yagona Evropa Bozorining to'liq ishlashiga olib keluvchi keyingi qadam sifatida IMIni tashkil etishga undadi va shu tariqa

iqtisodiy va monetar siyosatlarning yaqinlashishini ta'minlash uchun dastlabki Rim shartnomasiga yangi chora-tadbirlar kiritdi.

Evropa Komissiyasi prezidenti Jak Delor, 1988 yil iyunk oyidagi Xanover Sammiti talabiga binoan, Evropa mamlakatlari Markaziy Banklari boshqaruvchilari bilan birgalikda IMI ga o'tish buyicha o'z rejasini ishlab chiqdi va 1989 yil iyunk oyida Evropa Kengashining Madridda bo'lib o'tgan yig'ilishiga taqdim etdi. O'z navbatida, yig'ilish ishtirokchilari uning takliflarini tasdiqlagan holda, "Delor rejası"ning birinchi bosqichi 1990 yilning 1 iyulidan boshlanishi va 6u borada Hukumatlararo Konferentsiyasini iloji boricha tezroq chaqirishga qaror qildi. 1991 yilning 10 dekabrida Evropa Hamjamiyatining 12ta a'zo Davlatlari Evropa Ittifoqi shartnomasini qabul-qilish bilan rasmiy ravishda to'liq monetar va iqtisodiy birlashuv tomon boshlang'ich yulni ochdilar. Ushbu Kelishuvga muvofiq Iqtisodiy va Monetar Ittifoq 1999 yildan kechiktirilmagan holda tashkil qilinishi ko'zda tutildi.

Biroq, ma'lum darajada iqtisodiy va sotsial birlashishni o'z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan bir nuqtaga yaqinlashishga erishmasdan turib umumiyligi pul birligini joriy etish mumkin emas. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaqinlashuvi yagona valyuta qabul qilish uchun zarur bo'lgan fundamental shartlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy yaqinlashuv tushunchasi ikki xil mazmunga ega. Birinchi, almashuv kursiga to'g'ridan-to'g'ri o'z ta'sirini ko'rsatuvchi - inflyatsiya, byudjet kamomadi va protsent stavkasi ko'rsatkichlarining yaqinlashuvi, ya'ni makroiqtisodiy o'zgaruvchilarning yaqinlashuvidan iborat. bdatda bu nominal yaqinlashuv deb ataladi. Real yaqinlashuv esa, bu Ittifoq miqyosidagi iqtisodiy va sotsial sharoitlar, ya'ni yashash darajasi, ishsizlik darajasi kabilarning bir biriga yaqinlashuvi hisoblanadi. Amaliyotda nominal va real yaqinlashuv o'zaro aloqador. Shu bilan birga, nominal yaqinlashuv bir butun Ittifoqning iqtisodiy o'sishiga qulay shart-sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga asoslanib aytish mumkinki, Iqtisodiy va Monetar Ittifoqka kirish huquqiga ega bo'lish uchun a'zo davlatlar aniq nominal yaqinlashuv talablariga javob berishlari kerak bo'ladi.

Evropa Ittifoqining Iqtisodiy va Monetar Ittifoqka erishish jarayoni uch asosiy bosqichga bo'lib o'rganiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1-bosqich (1990y. iyul' – 1994y. 31 dekabr'): Tovar, xizmat va ishlab chiqarish omillarini erkin xarakatining ta'minlanishini hisobga olgan holda, ichki bozor maqsadiga erishilishi; A'zo davlatlarning iqtisodiy yaqinlashuv dasturlarining boshlanishi. Barcha mamlakatlarning Evropa Monetar Tizimi Almashuv Kurs Mexanizmining tor kesimiga (2,25%)

kirishi kutiladi, ya'ni, o'z pul birliklarini aniq belgilangan pul birlig'i kiymatiga moslashtirish.

2-bosqich (1994y. yanvar – 1997y. va 1999y. oralig'i): Ko'p-yillik yaqinlashuv dasturlarini qabul qilish; Monetar siyosatni koordinatsiya kiluvchi Evropa Monetar Institutini tashkil etish va 3 bosqichda EMB tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish. A'zo davlatlardan, o'z markaziy banklarining mustaqilligiga olib keluvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishni boshlash talab qilinadi.

3-bosqich (1997y. va 1999y. yillar orasida); Evropa markaziy banki (EMB) va Evropa markaziy banklar tizimi (EMBT)ni tashkil etish; Iqtisodiy va Monetar Ittifoqqa kirishga tanlangan A'zo Davlatlarning milliy pul birliklarining yagona pul birligi bilan almashtirish. EMBT EMBi va ushbu bank tomonidan belgilangan monetar siyosatni amalga oshirish majburiyati yuklatilgan, Milliy Markaziy Banklarni o'z ichiga oladi.

Ushbu amalga oshirilishi kerak bo'lgan barcha say-harakatlarni hisobga olgan holda, Maastricht shartnomasi (1992y.), zarur shart-sharoitlarni ta'minlagan vaziyatda A'zo Davlatlarning 3-bosqich sari xarakat qilishdek bir o'zgarmas majburiyatni ko'zda tutadi. Ushbu shart-sharoitlar biz yuqorida ta'kidlab o'tgan nominal yaqinlashuvning quyidagi o'ziga xos beshta mezonini o'z ichiga oladi:

1. Narx barqarorligi (Rrice stability). Inflyatsiya darajasi, eng kam narx ko'tarilishi 1,5%dan ortiqroqqa ega uchta davlat inflyatsiya darajasining o'rtachasidan yuqori bo'lmasligi lozim.

2. Valyuta barqarorligi (Surrincy stability). Almashuv kursi, kamida ikki yil davomida Evropa Monetar Tizimi (EMT) Almashuv Kurs Mexanizmining (AKM) "normal" kesimi doirasida devalkvatsiyaga uchramagan bo'lishi kerak. EMT Almashuv Kurs Mexanizmi doirasida, iqtisodiyotlarning rivojlanish darajalarini e'tiborga olib, valyutalarga markaziy kurs chegarasi doirasida, faqatgina 2,25% (tor kesimida) va 6% (keng kesimida) oraliqda tebranishga yul quyilgan. Markaziy kurs esa Evropa Valyuta Birligi (EKYu) asosida hisoblab chiqilgan, ya'ni barcha EI valyutalarining qayd qilingan qiymatlaridan tashkil topgan savatdan iborat. Ushbu savatdagi har qaysi valyutaning qiymati mamlakatning EI savdosida tutgan o'rni va YaIM sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

3. Byudjet kamomadi (Budget deficit). Davlatning byudjet kamomadi YAIMning 3%dan oshmasligi zarur.

4. Milliy qarz (Public debt). Mamlakatning umumiyl qarzi YaIMning 60%dan kam bo'lishi shart yoki shu nuqtaga erishish yulida

"barqaror o'sish"ni ko'rsatishi kerak.

5. Foiz stavkalari (Interest rate). O'zoq muddatli nominal foiz stavkalari, uchta eng past inflyatsiya darajasiga ega mamlakatlarning uzoq uddatli foiz stavkalari o'rtachasiga nisbatan 2%dan yuqori bo'lmasligi lozim<sup>12</sup>.

Ushbu shartlarning mamlakatlар bo'yicha bajarilish darajasi **4-Jadvalda** berilgan.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, IMI zarur bo'lgan muxim iqtisodiy shartlarni aniqlab olgan holda, 1995 yili Madrid shahrida Evropa Kengashi tomonidan IMI 1999 yilning yanvar oyidan boshlab amal qilishi va yagona pul birligi "Evro" deb atalishini qabul qilingan. Shuningdek, IMIga o'tishning 3-bosqichiga quyidagicha dastur ishlab chiqildi:

- 1998 yilning birinchi qismi: 1996-97 yil ko'rsatkichlari asosida Evropa Kengashi IMI talablariga to'g'ri keladigan mamlakatlarni belgilaydi;
- 1 yanvar 1999y: IMI o'z faoliyatini boshlaydi. Qatnashuvchi davlatlarning milliy pul birliklari bevosita Evroga bog'lanadi. Evro faqat hukumatlar, banklar va valyuta bozorlari doirasida naqd pul bo'limgan ko'rinishda ishlatiladi;
- 1 yanvar 2002y.: Evro kog'oz pullari va tangalarini muomalaga chiqarish va chakana to'lov tizimini o'zgartirish;
- 31 iyul 2002y: Evro eski milliy pul birliklarini almashtirib, yagona qonuniy pul birligiga aylanadi.

1998 yilning 25 martida Evropa IMIda ishtirok etish uchun iqtisodiy konvergentsiya talablariga javob beruvchi 11 a'zo davlat Evropa Kengashi tomonidan e'lon qilindi. Unga faqat Shvetsiya, Daniya va Buyuk Britaniya mamlakatlari ba'zi sabablarga ko'ra ishtirok etishdan voz kechdilar, Gretsya esa yuqorida keltirilgan talablarga javob bermaganligi sababli dastlab ishtirok etmagan bo'lsa, 2001 yilning yanvaridan boshlab uning to'liq ishtirokchisiga aylandi. Xususan, Shvetsiyaning IMI ishida qatmashmasligiga asosiy sabab ushbu mamlakatda ijtimoiy institutlari ta'sirining kuchayib ketganligi, Daniya aholisi esa 1998 yili 28 fevralda bo'lib o'tgan umumxalq referendumida IMIga kirish taklifini qo'llamagani va Buyuk Britaniya iqtisodiy tushuncha hisoblanmish kuchli va qudratli valyutasi funt sterlingning Evroga kirish natijasida qiymati tushib ketishi xavfining oldini olish maqsadida ishtirok etmaganligi bilan

---

<sup>12</sup> Frans Somers.: European Union Economics. A. Comparanve Study. Third Edition. New York: Addison Wesley Longman. 1998, p.18

izohlanadi. Biroq 2002-2004 yilga kelib 6u davlatlarning ham IMIga to'liq kirishi prognoz qilinmoqda.

Evro pul birligining ta'sir doirasi amaliyotda keng bo'lishi va ko'pgina davlatlar uni zahira valyutasi sifatida foydalana boshlashini aytish mumkin. Bunday fikr yuritishimizga sabab, birinchidan, Frantsianing evro hududida ishtirok etishining o'zida Afrika qit'asida frank muomalada yuradigan davlatlari yagona Evropa valyutasini ijobiy kutib olishadi. Ikkinchidan esa o'z navbatida Eermaniyaning IMIga i'zoligi nemis markasiga yo'naltirilgan Boltiqbo'yi, Markaziy va Sharqiy Evropa davlatlarini evroga jalg etadi.

Bunday amaliy jihatdan yuz berishi mumkin bo'lgan jarayonlarni hisobga olib, quyidagi xulosani qat'iy aytish mumkin, ya'ni Evropa davlatlaridagi valyutalar imkoniyatlarining birlashtirilishi kelajakda evroga AQSH dollari bilan bir qatorda xalqaro miqyosda amalga oshiriladigan to'lovlardan uchun asosiy valyuta bo'lishga da'vogarlik qilish imkonini beradi. Shunga qaramay buning natijasida moliyaviy bozorlarda sodir bo'ladigan o'zgarishlar juda muhim hodisa bo'lishi mumkin. Bunga sabab, moliyaviy bozorlar iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishida xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Oxirgi o'n yilliklar mobaynida EI doirasida moliyaviy tartibga solishning turli xil usullarining kamaytirilishi va ayrimlarining esa olib tashlanishi investitsiya imkoniyatlarining bir muncha o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bu o'z navbatida Evropa qimmatbaho qog'ozlar bozorini yanada birlashtirdi va uning likvidligini oshirdi.<sup>13</sup>

#### 4- Jadval

#### **Iqtisodiy va monetar ittifoqqa o'tishning ikkinchi bosqichidagi konvergentsiya (iqtisodiy yaqinlashuv) darajasi**

№	Davlatlar	Inflyatsiya, %da	Hukumat moliyalari, YaIMga nisbatan foizda				Yillik foiz stavkalari			
			Balans		Qarz					
			1996	1997	1996	1997	1996	1997	1996	1997
	Daniya	2.1	2.4	-1.6	0.2	70.2	67.8	7.2	6.7	
	Belgiya	2.0	2.1	-3.3	-2.9	130.6	127.0	6.5	6.2	
	Buyuk Britaniya	2.3	2.4	-4.6	-3.5	56.2	57.0	7.8	7.7	
	Finlyandiya	0.7	1.6	-3.3	-2.2	61.3	61.5	7.1	6.7	

<sup>13</sup> "Finance and development". What impact will EMU have on European Securities Markets? Alessandro Proti and Garry J. Schimasi. September 1997, Quarterly publication of the IMF and the World Bank.

	Frantsiya	2.0	1.4	-4.0	-3.0	56.4	58.1	6.4	6.2
	Gretsiya	8.5	6.9	-7.9	-6.5	110.6	109.3	14.0	11.3
	Niderlandiya	2.1	2.2	-2.6	-2.5	78.7	76.8	6.2	6.1
	Irlandiya	1.7	2.3	-1.6	-0.9	74.7	70.0	7.4	7.1
	Italiya	3.9	2.9	-6.6	-3.3	123.4	122.3	9.3	7.7
	Lyuksemburg	1.7	2.1	0.9	0.5	7.8	8.8	-	-
	Portugaliya	3.2	2.9	-4.0	-2.9	71.1	69.0	8.7	7.6
	Ispaniya	3.6	2.9	-4.4	-3.0	67.8	67.1	8.8	7.6
	Shvetsiya	1.1	2.2	-3.9	-2.9	78.1	77.6	8.1	7.2
	Germaniya	1.5	1.7	-4.0	-2.9	60.8	61.9	6.3	6.1
	Avstriya	1.8	1.7	-4.3	-3.0	71.7	72.2	6.3	6.2
	Norma	2.6	3.1		-3.0		60,0	9.2	8.3

[Manba: Evropa Komissiyasi, 1998.](#)

Bizga ma'lumki, asosan qimmatbaho kog'ozlar bozorini o'z ichiga oluvchi moliyaviy bozorlar rivojlangan bozor iqtisodiyotining ajralmas qismidir. Shuning uchun, kutilayotgan tarkibiy o'zgarishlar natijasida bu institutlarning amal qilishidagi ayrim o'zgarishlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Yagona valyutaning muomalaga kiritilishi bilan moliyaviy bozorlarning kengayishi, narxlar tiniqligi ta'minlanishiga olib kelishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida Evropa kompaniyalariga ko'proq moliyaviy resurslarga ega bo'lish uchun sharoit yaratish bilan birga, ular o'rtasidagi raqobatning yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. Kompaniyalar cheklashlarning oz bo'lishi va valyuta to'siqlarisiz sharoitda o'zaro raqobat qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Amaliyotda, IMI moliyaviy bozorlarning mijozlar tomonidan banklarga qaraganda ko'proq ishlatalishiga sabab bo'lishi mumkin. Chunki, bir qancha mamlakatlar uchun yagona valyuta muomalada bo'lishi barqaror yagona protsent stavkasining qabul qilinishini taqozo etadi. Raqobatning kuchayishi bilan kompaniyalar keng ko'lamli iqtisodiyotdan baxramand bo'la oladilar va qarzlarini, ya'ni obligatsiyalarini chiqarish imkonini kengayadi. Bu o'z navbatida alohida shaxslarning o'zları kreditor sifatida faoliyatlarini amalga oshirish imkonini beradi<sup>14</sup>. Aynan shu hodisa moliyaviy bozorlarning banklarga qaraganda ko'proq mijozlarni jalb etish qobiliyatini kuchaytiradi.

Shunga qaramay, hozirgi vaqtgacha Evropa banklari iqtisodiy sub'ektlarga kreditlar berish sohasida milliy iqtisodiyotlarning asosiy bo'lagi bo'lib kelgan. Ular asosan protsent stavkalari va turli

<sup>14</sup> "Euro money". How EMU will change the bond market? Gavin Grey's report, December 1997.

valyutalarning almashuv kurslaridagi marjalar orqali o'z foydalarini olganlar. Bundan shuni ko'rish mumkinki, banklar IMI o'tishdan zarar ko'radilar. Chunki, ular asosiy daromad olish manbalaridan maxrum bo'lib, fondlar jalb etishda moliyaviy bozorlar bilan raqobat qilishlari kerak bo'ladi. Barcha elementlar, ya'ni barqaror valyuta, kutilayotgan past inflyatsiya darajasi va narxlar tiniqligi moliyaviy bozorlarni qulay fond manbaiga aylantirishi mumkin. IMI chegaralararo bank to'lovlari bilan bog'liq kechiktirishlar va xarajatlarni qisqartirishga ham xissa qo'shishi muqarrar.

Alohida Evropa valyutalarining harakat qilishidan yagona valyuta, ya'ni Evroga o'tishda, bu jarayonning moliyaviy bozorlarda yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan uzilishlarni ham albatta inobatga olish zarur. Bu o'z navbatida IMI amal qilishidan avval moliyaviy bozorlarda imzo chekilgan shartnomalarni o'z vaqtida denominatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chunki bu shartnomalarning noqobil ravishda to'lanishi oqibatida noroziliklar vujudga kelishi aniq va bu IMI *g'oyasining* amalgalashirishida bir qancha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Bu muammoni echish borasida EI banklari va qimmatbaho qog'ozlar bozori vakillari ishtirokidagi 1996 yil Dublin sammiti umumiyligi kelishuv qabul qilishga imkon yaratdi. Unga ko'ra EI mamlakatlari yagona valyutani muomalaga kiritishda ular EKYuning maxsus almashuv kursini qabul qilish orqali shartnomalarning davomiyligini saqlab qolishga va moliyaviy bozorlarga salbiy ta'sirini oldini olishga erishadilar.<sup>15</sup>

IMI amal qilishi bilan vujudga keladigan ayrim asosiy xususiyatlar haqida xulosa qilib aytadigan bo'lsak, haqiqatan ayrim Evropa Ittifoqi davlatlari valyutalari Evro bilan almashtiriladi va ayrim hozirgi davrda muomalada bo'lgan valyutalarda o'z izoxini topgan qimmatbaho qog'ozlar, valyuta almashuvlari yo'q bo'lgan sharoitda, qulay investitsiya dastaklari bo'lish uchun bir-birlari bilan birlashishi kuzatiladi. Kredit reytingi deb ataluvchi ko'rsatkichlarini yaxshilash va kam xarajatli manbalardan qarz olish orqali qarz oluvchilar o'zlarining moliyaviy xarajatlarini qisqartirishga harakat qiladilar. Bu esa o'z navbatida ittifoq miqyosida tovar va xizmatharning narxlari tushishiga va oxir-oqibat iste'molchilarning arzon narxlardan naf ko'rishlariga olib keladi.

IMIga o'tish natijasida yuz beradigan Evropa moliyaviy bozorlaridagi tarkibiy o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etishi va kapital oqimini nafaqat uning doirasida, balki xalqaro mazmunini ham o'zgartirishi mumkin. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yagona valyuta, ya'ni

<sup>15</sup> EMU and Capital Markets, "Pros and Cons of EMU" research report by David Currie (1997).

Evroning muomalaga kiritilishi bilan EI moliyaviy bozorlarining tarqoqligi darajasi kamayadi. Bu esa o'z navbatida Evro muhitidan tashqariga va ichiga kapital oqimining ko'payishiga olib keladi.

Kapital oqimining ko'payishi va ularni taqsimlash usullarining ko'p jihatdan birlashishi, ularning yanada samarali taqsimlanishi va buning natijasida iqtisodiy o'sishga va Evropa mamlakatlarining rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida fikrlarni umumlashtirib shuni qat'iy aytish mumkin, valyuta ittifoqi tuzilishi orqali erishiladigan yutuqlar (davlarlararo savdo operatsiyalardagi xarajatlarning kamayishi, kengaygan moliyaviy bozor va b.) davlatlar tomonidan boy beriladigan (ichki protsent stavkasi va nominal almashuv kursi) asosiy siyosiy dastaklarning o'rnini etarli darajada qoplagan taqdirdagina Iqtisodiy va Monetar Ittifoq iqtisodiy jihatdan o'zini oqlagan hisoblanadi.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'rzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 257 bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» xamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

3. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.

4. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/

5. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.

6. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. T.: MChJ "RAM-S", 2007 yil.

7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. T.: MChJ "RAM-S", 2007 yil.

8. Shodiyev R.X. “Jahon iqtisodiyoti”. – T.: “G’ofur G’ulom”, 2005.-  
215 b.

# **VI - BOB. JAHONDAGI GLOBALIZATSIYA VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARIDA EVROPA ITTIFOQINING TUTGAN O'RNI**

## **REJA:**

- 6.1. Evropadagi iqtisodiy integratsiya saboqlari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim tajriba sifatida**
- 6.2. Iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarida EIning ahamiyati**
- 6.3. O'zbekistonning Evropa Ittifoqi bilan iqtisodiy hamkorlik istiqbollari**

### **6.1. Evropadagi iqtisodiy integratsiya saboqlari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim tajriba sifatida**

Evropada yuz bergan va hozirda ham o'zining yangi qirralari bilan davom etayotgan integratsiya jarayonini tahlil qilish orqali bu borada quyidagi fikrlarni ta'kidlash ilmiy-amaliy jihatdan maqsadga muvofiq.

1. Integratsion tajriba nafaqat ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasidagi bojxona tariflari, soliq imtiyozlari va huquqiy aklarning uyg'unlashuvini, balki mamlakatlar orasida kapital, ishlab chiqarish vositalari va xizmatlarning erkin oqib o'tishiga olib keluvchi, kerak bo'lsa ta'minlovchi, o'zaro manfaatli mexanizmlarning amalga oshirilishini o'z ichiga oladi. a) ya'ni, bu bilan biz aytmoqchimizki, agar davlatlar o'zaro iqtisodiy munosabatlarni ikki tomonlama savdo kelishuvi asosida rivojlantirsa, bu hali integratsiyani anglatmaydi; v) u biron-bir davlat o'z hududining bir qismini, aytaylik, elektroenergiya bilan ta'minlash maqsadida boshqa bir aynan shu mahsulotni ishlab chiqarishda ixtisoslashgan mamlakatning energetika sohasiga o'z investitsiyalarini yo'naltirgan va buning oqibatida etarli ijobiy natijaga erishgan tarzdagina vujudga keladi.


2. Pirovard maqsadga erishish yo'lida ishlab chiqilgan qoidalar integratsion jarayon qatnashchilarining barchasi tomonidan birdek qabul qilinadi.

3. Har bir davlat tomonidan o'z oldiga qo'yilgan iqtisodiy manfaatlariga erishish uchun bunday xarakterdagi hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va siyosii sohada o'zaro qaramaqarshiliklarga barxam berishga to'g'ri keladi. 4. Integratsiyaning ixtisoslashuvi o'zaro to'ldiruvchilik xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

Integratsion jarayon tarkibida eng asosiy shu xususiyatlar kuzatilgan taqdirdagina iqtisodiyotlarning haqiqiy yaqinlashuvi haqida so'z yuritsa bo'ladi.

Integratsion jarayonni tahlil qilishda, barcha xususiyatlarni umumlashtirgan holda, quyidagi sxemani keltirish mumkin (1-Chizma). Unga ko'ra Evropa integratsiyasi avval yuzaki integratsiyani amalga oshirish orqali, keyinchalik ushbu jarayonni chuqurlashtirishga erishdi.


Chizmadan ko'rish mumkinki, dastlabki bosqichda o'zaro iqtisodiy munosabat ma'lum mahsulot bozorlarining ochiq raqobat sharoitida ishlashini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Bu erda oddiydan murakkabga tomon harakat yuz beradi. Butun jarayon doimiy ravishda muvofiqlashtirib turuvchi institutlar tomonidan nazorat ostida amalga oshiriladi.



### **1-Chizma. Evrota Ittifoqining integratsion rivojlchanishi**

Iqtisodiy munosabatlar ko'lami kengayib borgan sari davlatlar o'rtaсидаги молиявӣ ва iqtisodiy operatsiyalar salmog'i ham oshib boradi. Bu esa o'z navbatida, iqtisod va moliya sohasidagi standart va tizimlarning asta-sekin uyg'unlashib borishini taqozo etadi.

Shu fikrlarga asoslangan holda, EI integratsion strategiyasining harakat mexanizmini quyidagicha izohlash mumkin. (2-chizma).



## **2-chizma. EIning integratsiyalashuv strategiyasi bosqichlari, asosiy xususiyatlari hamda harakat mexanizmi.**

Tahlillarga tayangan holda Evropa Ittifoqining qisqacha iqtisodiy tarjimai holini tuzadigan bo'lsak, hozirgi vaqtda u quyidagicha mazmunga ega bo'ladi:

- Yirik savdo bloki (jahon mahsulotlar savdosining uchdan bir qismi EI miqyosida **yuz beradi**)<sup>16</sup>
  - EI tashqi aloqalarining asosiy va muhim elementi bo'lib savdo siyosati hisoblanadi
  - EI a'zo davlatlari o'tish davrini boshdan kechirayotgan iqtisodiyotlarga nisbatan bir-biridan farq qiladigan turli xil munosabatlarga ega bo'lishi mumkin.
  - EI tomonidan imtiyozli kelishuvlar keng foydalilanadi. O'z navbatida EI tomonidan bunday kelishuvlarga quyidagi tartibda qaraladi, ya'ni:

<sup>16</sup> Prof. Michael Kostecki // Regional Integration EU and WTO: Progress and Pending Issues, Regional Workshop, 1999.

=> Uyushma kelishuvlari:

- Ittifoqqa qabul qilishga tayorgarlik sifatidagi kelishuvlar;
  - maxsus aloqalarni tashkil etuvchi boshqa kelishuvlar;
- => Hamkorlik kelishuvlari.

Shu bilan birga Evropa Ittifoqini tadqiq etish jarayonida biz uning o'ziga xos bo'lган belgilardan asosiysi - mamlakatlardagi mavjud iqtisodiy tizimlarning turli xilligidadir degan xulosaga ham keldik. Ana shu turli xillik qaysidir ma'noda, rivojlanishni etaklovchi kuch bo'lib, bir-biridan farqlanuvchi elementlarning mavjudligi sharoitida o'zaro almashuv hisoblanadi. Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlarni oladigan bo'lsak institutlar, strukturalar, boshqaruv tizimlaridagi munosabatlarning har bir davlat uzra turli xilligini kuzatamiz. Aynan mana shu farqlar bizning fikrimizcha, o'ziga xos almashuvlar uchun mavjud salohiyatni, qit'a boyligining asosini tashkil etadi.

Evropada integratsiya jarayoni yuz berishi mobaynida o'ziga xos bir to'qima ko'rinishini oldi. Unda bir-biriga bog'lovchi bo'lib iqtisodiyot hisoblanadi. SHu bilan birga, har bir davlat ma'lum asosiy masalalar bo'yicha, ya'ni tendentsiyalar va ishlab chiqarish omillarini ishlatish yuzasidan shaxsiy kompetentsiyalarini saqlab qoladilar. Masalan, ishlab chiqarish tizimlari asoslanuvchi - mexanizmlar farq qiladi: Frantsiyada ular ma'muriy xarakterga ega, Italiyada oilaviy, Germaniyada esa ular bank-tadbirkor munosabatlariga asoslanadi.

Evropa Ittifoqi, mamlakatlarining turli xil bo'lishi va ularning rivojlanish jihatidan o'zaro farq qilishi bilan birga ularni tenglashtirish tomon harakat qilmaydi, balki chuqur va mustahkam iqtisodiy aloqalarni umumiylashtirish asos sifatida tan olib kengayib borish tamoyillariga tayanadi. Mazkur iqtisodiy aloqalar o'z navbatida faoliyat, yuqori samaradorlik bilan mehnat va innovatsiyalarga intilishning pirovard natijasi sifatida yuzaga kelganki, uni asossiz deb bo'lmaydi.

Agar solishtirish maqsadida AQSh va uning o'ziga xos modelini oladigan bo'lsak, shuni farqlash mumkinki, u iqtisodiyotni boshqarishning yagona va dastlabki ko'rinishiga va ma'nosiga ega, ya'ni kuch yoki qudrat hajm va tarixiy jipslik bilan belgilanadi. Evropada esa bundan farqli o'laroq, iqtisodiyot inson omili ustuvorligini tan olgan holda aholining faoliyat ko'rsatishi uchun makon ta'minlaydi va moslashuvchanlik jihatlarini namoyish etadi. Bunday yondashuv Evropa Ittifoqi bilan iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishga harakat qilayotgan davlatlar uchun har tomonlama qulaydir. Undan tashqari mazkur jihat EI

bilan hamkorlikka kirayotgan mamlakatga, ayniqsa agar u sezilarli farqlarga ega bo'lsa, qo'shimcha ishonch beradi.

Ishning avvalgi boblaridagi tahlillardan kelib chiqqan holda Evropa Ittifoqining bu kabi salohiyatga erishishi va uni yanada rivojlanishi bilan bog'liq quyidagi xususiyatlarga e'tibor berilishi zarur:

- tovar va xizmatlarni tanlashda aholining erkinligiga asoslanuvchi va shu tariqa rivojlanish omili sifatida ishlab chiqaruvchilar orasidagi raqobatni ko'zda tutuvchi iqtisodiy mexanizm mavjud;

- barcha ishtirok etuvchi a'zo davlatlarga teng imkoniyatlarni yaratib berishga yo'naltirilgan, davlatlar o'rtasida barcha sohalardagi ayirboshlashga ochiq bo'lgan ko'pmillatli savdo tuzumi mavjud, ya'ni hech bir a'zo davlat savdo qilishda kamsitilmaydi;

- Ittifoq miqyosida keng ko'.tamli iqtisodiyot xususiyati va afzalliklarini keng va samarali tadbiq etish hamda raqobatning iqtisodiy jihatdan mustahkamlanish maqsadida yo'naltirish tarkibi mavjud;

- turli xil millat va elat qadriyatlarining birgalikda mavjud bo'lishini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-iqtisodiy tizim;

- Insonning rivojlanishga bo'lgan intilishini har tomonlama, uning huquqlarini himoya qilgan holda qo'llab-quvvatlash eng muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Mazkur xususiyatlarning EI iqtisodiy rivojlanishining dinamikasi bilan uyg'unlashib ketishi sezilarli yutuqlardan biridir. Lekin, shu bilan birga erishilgan natijalar EIni dunyodagi qolgan ikki yirik iqtisodiy blok (ya'ni AQSH va Yaponiya) ko'rsatkichlari orasida ko'rish mazkur jarayonning qay darajada rivojlanishi dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi. Buning uchun albatta, birinchi navbatda mavjud statistik ma'lumotlarga tayangan holda EI, AQSH va Yaponiya bo'yicha sanoat ishlab chiqarishda, ishsizlik darjasasi va iste'mol narxlarining 1991-98 yillar mobaynida foiz hisobida o'zgarishini ko'rsatuvchi jadval tuzildi. Mazkur jadval asosida ushbu ko'rsatkichlarning yig'ilgan foizlar (birlik ulushida) jadvali hisoblab chiqildi. Bu jadval ishning ilova qismida keltirilgan.

Asosan, me'yoriy tarzda rivojlanayotgan iqtisodiyotdagi o'zgarishlar uning sanoat ishlab chiqarishidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi. SHu bois biz grafikda ko'rishimiz mumkin bo'lgan sanoat ishlab chiqarishi tendentsiyasi EI dagi boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga, ya'ni narxlar va ishsizlik darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ularning o'zgarishiga olib keladi.

Grafik bo'yicha AQSh va Yaponiyadan farqli o'laroq EI sanoat ishlab chiqarishining pasayishi asosan 1992-93 yillarda va 1996 yilda bir oz pasayishi kuzatiladi. EI miqyosida 1992-93 yillardagi pasayishga olib kelgan sabablarni tahlil qilish tajribani o'rganishda muhim va xal qiluvchi o'rinni tutadi. Shu bilan birga EIning bir necha mamlakatlar yig'indisidan tashkil topganlik xarakteri bir davlat sanoat ishlab chiqarishidagi pasayishga qaraganda farq qiladi va uning oqibatlari turlichadir.

1992 yilda Evropa Monetar Tizimi (EMT) miqyosida yuz bergen moliyaviy inqiroz jahon iqtisodiy hamjamiyatida juda katta pul mablag'larining bir joydan ikkinchi joyga tez suratlarda oqib o'tishiga sabab bo'ldi va tizimga a'zo bir qancha mamlakat valyutalarining spekulyativ o'yinlarning qurboni bo'lishga olib keldi. EMT a'zolarining asosan nemis markasiga biriktirib qo'yilgan al mashuv kursi mexanizmi (AKM) o'sha vaziyatda juda sezilarli zarar ko'rdi va bu o'z oqibatida, har bir mamlakatning pul birligi uning iqtisodiy holatining barometri hisoblanganligi uchun, EIning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida o'z aksini topdi, ya'ni sarmoyalarning kamayishi natijasida sanoat ishlab chiqarish darajasi pasaydi va bu o'z navbatida bandlilik, narxlarning umumiy darajasi va iqtisodiy o'sishga ta'sir etdi.

EMT inqirozga yuz tutishini quyidagi faktlar bilan izohlab berish mumkin. 90-yillarda Garbiy Germaniyaning SHarq Germaniya bilan birikishi natijasida, o'rtadagi iqtisodiy farqni kamaytirish maqsadida Sharq. Germaniyaga yo'naltirilgan investitsiyalar juda katta byudjet kamomadini keltirib chiqardi. Undan tashqari SHarq. Germaniya markasi bilan DM al mashuv kursi o'rtasidagi katta tafovut (6:1), ish xaqi va talabni oshirib yubordi. Lekin bu ko'tarilish tegishli ishlab chiqarish samaradorligining oshmasdan turib yuz bergenligi inflyatsiya ko'rsatkichlarining oshishiga olib keldi va u 1988 yilda 1.3 foiz bo'lган bo'lsa, 1992 yilning martida 4.8 foizga chiqib oldi. Shu holatda Germaniya Bundesbanki o'zining inflyatsiyaga qarshi standart choralari bilan javob berdi va o'z pul birligining qadrini saqlab qolish maqsadida foiz stavkasini 9.75 foizga ko'tardi. Bunday vaziyat EMT miqyosidagi zo'riqishlarga olib keldi, Chunki EMTga a'zo mamlakatlar ham sarmoyadorlar ularning hududlarida valyutalarini ushlab turishlarini ta'minlash uchun o'z foiz stavkalarini oshirishga majbur etdi.

AQSh Federal Rezerv tizimi siyosatiga binoan foiz stavkasining 3%ga tushirilishi va bu siyosatning iqtisodiyotga qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish va uni jonlantirishi ko'zda tutilganligi sababli bir qancha vaqt davom etib turishi kutilardi. Mazkur vaziyat Germaniya va

AQSh foiz stavkalari orasidagi 6.75 foiz farqni keltirib chiqardi va bu o'z navbatida dunyo bo'yicha kapitalni N'yu Yorkdan Frankfurtga oqib kelishiga sabab bo'ldi. Moliyani boshqarish tajribasiga binoan bu holat investorlarning AQSh dollaridan tezroq qutilish kayfiyatini keltirib chiqardi. Shu bilan birga bunday hodisaning yuz berishi Almashuv kursi mexanizmining boshqa valyutalariga nisbatan Nemis DMga bosimning kuchayishiga olib keldi.

EMT ichida bitta valyutaga bo'lgan talabning kuchayishi ushbu valyutaning qadri oshishi, EMT a'zo boshqa mamlakat valyutalarining spekulyativ harakatlarning ostida qolishiga olib keldi. Birgina Germaniya foiz stavkasining oshirilishi EMT qolgan a'zo mamlakatlari pul birliklarining ommaviy devalkvatsiyasini keltirib chiqardi. Bunday vaziyatning yuzaga kelishi EMTning ishonchlilik darajasiga putur etishi va bu o'z navbatida moliyaviy bozorlarga AKMga a'zo valyutalarning yana devalkvatsiyasi kutilishi to'g'risidagi xabarni anglatar edi. Ushbu devalkvatsiyani kutishning ta'siri oqibatida birin-ketin tizimga a'zo valyutalar devalkvatsiyasi kuzatildi va ular AKM doirasida ruxsat etilgan tebranish chegarasiga (markaziy kursning har ikki tomoniga 2.25 foiz tebranish) etgan vaqtida undan vaqtincha chiqish haqida e'lon qila boshladilar.

Voqealarning bunday rivojlanishi EMTga a'zo mamlakatlar valyutalarining iqtisodiy holatga javoban erkin tebranishlari, mamlakatlar o'z monetar siyosatlaridagi instrumentlarni kengroq va erkinroq ishlatishlarini ta'minlash maqsadida vaqtincha markaziy kurs atrofida har ikki tomoniga 2.25 foiz o'rniga 15 foizgacha tebranishga ruxsat berish kelishilib olindi. Umumiy hisobda 30% oralig'ida tebranish imkoniga ega bo'lgan valyutalar, aytganimizdek davlatlar uchun o'z monetar siyosatlarini ichki iqtisodiy holatga javoban ishlatishda kenroq muhitni yaratdi, ya'ni masalan o'z ichki foiz stavkalarini Germanianikiga nisbatan pasaytirish kabi.

Mazkur tahlildan ko'rish mumkinki, almashuv kursi barqarorligini ta'minlash uchun, eng muhimi bu ittifoqqa yoki tizimga a'zolarning iqtisbdiy siyosati va uning amalga oshishidagi yaqinlashuvning darjasini yuqori bo'lishidir. Ya'ni bu erda EHning moliyaviy inqirozga yuz tutishi real va nominal yaqinlashuvning etarli ta'minlanmaganligi bilan tushintiriladi. SHu bois inqirozdan keyingi davrdagi iqtisodiy siyosatlarning asosiy e'tibori davlatlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanishdagi farjni kamaytirishga va umumiy bozor sharoitida tovar va xizmatlarning erkin oqib o'tishini hamda biriktirilgan almashuv kursini yagona valyuta

bilan almashtirishga qaratildi. Hozirgi kundagi Evropa monetar ittifoqi bu tajribalardan kelib chiqqan holdagi Evropa integratsion jarayonining mantiqiy davomidir.

Ishsizlik darajasi o'sib borishining sababi, 1950 yillar mobaynida EHga a'zo mamlakatlarning EKPH siyosati natijasida ko'mir va po'lat bo'yicha umumiy bozorning yuzaga kelishi oqibatida va bu mahsulotlarga talabning oshishi natijasida chekka hududlarda aynan shu tarmoqlarda ixtisoslashuvning kuchayishi kuzatildi. Natijada ish bilan ta'minlanganlarning ko'p qismi shu tarmoqlarda band bo'lib keldilar va malakalari asosan shu tarmoqlar bo'yicha edi. Lekin, yangi texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, raqobatning yuzaga kelganligi va qaysidir ma'noda tabiiy resurslarning kamaygani sababli ommaviy ish joylarining qisqarishi kelib chiqdi. Ko'p yillar mobaynida ish bilan band bo'lмаган va barqaror ish haqiga ega bo'lмаган oilalarning soni ko'paydi. Buning natijasida ushbu oilalarda o'sib kelayotgan yoshlar ham ijtimoiy hayotdan chetda qolish natijasida etarli bilim va malakaga ega bo'lmay potentsial ishsizlar qatoriga kirish xavfi kelib chiqmoqda.

Ikkinchi tomondan EI byudjetining ko'p qismi ajratiladigan umumiy qishloq xo'jaligi siyosati ostidagi keyingi yillardagi tadbirlar ushbu sohada ham ishsizlarning soni oshishini kuzatish belgilarini bermoqda. Chunki Evropa Komissiyasining qishloq xo'jaligi bo'yicha Komissionerlarning taklifiga binoan ushbu sohadagi mahsulotlarga keng ishlatiladigan qullab-quvvatlovchi narxlari 15 foiz qisqartirildi.

Ilmiy ishimizning asosiy mohiyati yana shundan iboratki, biz quyidagi savolga javob berishga harakat qilamiz. Nima uchun ko'pchilik mamlakatlar aynan shu EI dagi iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishga va imkon bo'lsa unga a'zo bo'lish talablariga javob berishga intilmoqdalar? Albatta, bu bir tomondan qaraganda O'zbekiston uchun hozirgi vaqtida uncha ahamiyat kasb etmas va mamlakatimiz hududiy jihatdan EIga yaqin joylashmagan bo'lsa, bizga ushbu hamjamiyatga a'zo bo'lish nima uchun zarur? degan ma'nodagi savollarning tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin. Lekin ikkinchi tomondan, agar bizning mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinnan olishga, ochiq iqtisodiyot va kuchli raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatishga intilar ekan, EIga a'zo davlatlar va yaqin kelajakda a'zo bo'lish uchun barcha talablarga javob berayotgan mamlakatlar erishgan iqtisodiy ko'rsatkichlar, bizga dastlabki bosqichlarda erishishimiz zarur bo'lgan ko'rsatkichlar ustunidir. Ushbu ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish uchun bizda mavjud statistik ma'lumotlarga tayangan holda ish yuritdik. Bizning taxminimizcha, Evropa integratsion jarayonida ishtiroy

etishi va ushbu qo'shilishdan boshqalarga nisbatan ko'proq naf ko'rganligini hisobga olib davlatlarni guruhlarga ajratdik. Birinchi guruh davlatlariga Niderlandiya, Belkgiya, Lyuksemburg va Buyuk Britaniya kiritildi. Ikkinci guruh: Ispaniya va Gretsiya. Muhim e'tiborga uchinchi guruh davlatlari sazovordir, ular Vengriya, Polksha va Sloveniya. Hozirgi davrda iqtisodiy o'sish barqaror suratlarni namoyon qilmoqda va 2004 yilda bu mamlakatlarning birinchilar qatorida EIga a'zo bo'lib kirishi ko'zda tutilmoqda.

Ushbu guruhlar bo'yicha raqamlar va mazkur ko'rsatkichlarning o'zgarish tendentsiyasini va hisob-kitoblar natijasini ko'rsatuvchi jadvallar ishning ilova qismida to'liq keltirilgan. Ishimizda tahlilning bunday yondashuvini qo'llashimizning boisi shuki, bu tahlil O'zbekistonning EIga a'zo bo'lish majburiyatini oldiga qo'ymaydi, aksincha rivojlanish tendentsiyasini solishtirish orqali kelajakda iqtisodiy holatning qanday bo'lishi kerakligi borasida xulosalarni qilish imkonini yaratdi.

## **6.2. Iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarida EIning ahamiyati**

Evropa miqyosida IMI to'liq ishga tushishi jahon iqtisodiy hamjamiyatida ham o'ziga xos bir o'zgarishlarning amalga oshishiga va ma'lum jadallahuvning kuzatilishiga sabab bo'ldi. Bularni ta'kidlashimizdan maqsad shuki, Evropa iqtisodiy integratsiya jarayoni xalqaro vakuum ichida alohida, ajralgan tarzda amalga oshmayotganini va u tomonidan xalqaro savdo hamda iqtisodiy munosabatlarda ko'tarilayotgan va amalga oshirilayotgan masalalarni e'tiborga olish zarurligini ko'rsatishdir. Shu bilan birga EI a'zo mamlakatlar to'laqonli, etuk ochiq iqtisodiyotlardir va shu bois ular dunyoning boshqa mamlakatlari bilan ham o'zaro yaqindan faoliyat ko'rsatish va xo'jalik aloqalarni rivojlanish imkoniyatiga ega. Shunday ekan, EI uzra rivojlanish uning chegarasidan tashqarida qabul qilingan siyosiy qarorlar va iqtisodiy hodisalar tomonidan jiddiy ta'sir qilinishiga ham o'z navbatida moyildir.

Boshqa tomondan esa EI davlatlarining umumiyligi soni, iqtisodiyot xajmi, ularga Dunyo sahnasida asosiy iqtisodiy sub'ekt sifatida harakat qilish imkonini beradi, u tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar xalqaro iqtisodiy tizimda ham sezilarli ta'sir kuchiga egadir. Ittifoq ichidagi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar shu darajada birlashib ketganki, ularni har birini alohida olganda ko'pgina iqtisodiyot bo'yicha adabiyotlarda kichik davlat misolida qo'llaniladigan nazariy mulohazalarni ushbu davlatlarga nisbatan qo'llash juda

murakkabdir. Yillar davomida shakllangan institutsional struktura EI uchun alohida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, ittifoq kapitalining dunyo miqyosida harakatini birgalikda ta'minlash kabi bir necha ustunliklarni yaratilishiga olib keldi. Har bir davlat alohida bu kabi iatijalarga erishish uchun bir necha o'n yilliklar talab qilinishi mumkin. Hozirgi kunda EIning yiriklashish siyosati shunga yo'naltirilganki, birinchidan yaqin kelajakda a'zo bo'lishga tayyorgarlik ko'rayotgan Sharqiy Evropa mamlakatlari ushbu imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash; ikkinchidan bu birlashishlarning oqibatida pirovard natijada jahon bo'yicha tartibga solingan integratsiyalashuv jarayoniga ijobiy poydevorni yaratish.

Yuqoridagi tahlillardan shuni ko'rish mumkinki, Evropa hududiy integratsiyasining dastlabki bosqichlari urushdan keyingi davrda yuzaga kelgan xalqaro globalizatsiya jarayoni bilan bevosita boglangan edi va bu o'z navbatida xalqaro o'zaro bog'liqlikning jadallahuviga xissasini qo'shdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Avvalambor aytish joizki, EIning umuman integratsiyalashuv jarayonlarida tutgan o'mi o'ziga xos va takrorlanmasligi tufayli u tomondan ishlab chiqilgan integratsion strategiya chora-tadbirlari odatda jahon iqtisodiy hamjamiyati davlatlari tomonidan ham ijobiy ham salbiy qarshi olinadi. Ijobiy munosabatda bo'lgan davlatlar EI bilan uyushma kelishuvlarini imzolagan va keyinchalik a'zolikka da'vogarlik qiluvchi mamlakatlardir. Ular EI tomonidan beriladigan preferentsiyalardan (ya'ni savdoda kam rivojlangan mamlakatlarga EI bilan savdo qilishda mahsulotlarni jahon narxlarida emas balki, EI narxlarida sotish imkonini berish) foydalangan holda boshqalarga nisbatan savdoda ustunlikka ega bo'ladilar. Hududiy jihatdan Evropa Ittifoqi integratsion strategiyasining ahamiyati unga a'zo mamlakatlar ichidagi savdoning ko'lagini oshirishda bunday yondashuv juda sezilarlidir va uzoq muddatda perefentsial tariflar yondashuvi qo'llanilayotgan davlatlar ham ushbu afzalliklardan baxramand bo'lishlari kutiladi. Global jihatdan esa bunday holat jahon miqyosidagi savdoni erkinlashtirishga qulay zamin yaratishning yana bir muhim usulidir. EI preferentsial savdo siyosati qo'llanilayotgan mamlakatlar, ushbu afzallikkdan foydalanish yo'lida hududiy jihatdan birlashish xarakteriga egadirlar. EIning savdoda mamlakatlarga preferentsial yondashuv piramidasi ishning ilova qismda keltirilgan. Umuman EIning preferentsial tariflar tizimi uning tashqi siyosat va mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarida xal qiluvchi o'rinni tutib kelgan.

Shubhasiz, dastlabki EI (EH) erkin savdo tamoyillariga asoslangan holda tashkil etilgan; biroq shunday bo'lsada amaliyotda istisno holatlar ko'p va ularni tahlil qilish muhimdir. EIning Rim shartnomasida shunday deb ta'kidlanadi, ya'ni "Hamjamiyat bojaxona ittifoqiga asoslangan bo'ladi", qaysiki o'z navbatida a'zo davlatlar o'rtasidagi savdoni erkinlashtirish va uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiyo bojaxona tarifini qabul qilishga olib keladi. Ushbu maqsad barcha a'zo mamlakatlar tomonidan qabul qilindi va amalga oshirildi.

EIning jahondagi savdo va integratsiyalashuvdag'i o'rni haqida fikr yuritganda uning tarkibiy qismi hisoblangan "Umumiyo tijorat siyosati" mohiyatini tahlil qilish va tushunish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur siyosatning tadbiq etilish zaruriyati hamjamiyatga a'zo davlatlarning bojaxona ittifoqiga o'tish davrining so'nggi pallasida, ya'ni 1968 yilda yuzaga kelgan. Bu vaqtga kelib hamjamiyat shartnomalar natijasida tariflar va savdo yuzasidan uyushma kelishuvlarini imzolash qudrati bilan keng jihatdan ta'minlangan edi. Bu borada EIning tashkil etuvchi shartnomaning 3-Moddasi, "Hamjamiyat oldiga qo'ygan maqsadlari umumiyo tijorat siyosatini ishlab chiqishni, tadbiq etishni talab etadi", deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga uning 110-Moddasi buni quyidagi fikrlar bilan tasdiqlaydi, ya'ni a'zo mamlakatlar umumiyo manfaat doirasida, o'z maqsadlari deb jahon savdosining uyg'unlashgan holda rivojlanishi, xalqaro savdoda mavjud cheklanishlarning progressiv olib tashlanishi va bojaxona to'siqlarini pasaytirishga o'z xissalarini qo'shishni biladilar. Ittifoq mamlakatlari global ko'lamda yuz berayotgan savdo erkinligini ta'minlash yo'lida birinchilardan bo'lib tegishli chora-tadbirlarni ko'rganlar va keyinchalik esa bu borada tajriba va namunaga aylanib borganlar.

EI rivojlanish jaryonida hozirgacha yuz bergen kengayish, bir nechta uyushma va savdo kelishuvlari, uni jahondagi eng muhim savdo bloklardan birta aylantirdi va shu bilan xalqaro savdoning yo'nalishi va xajmiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shunday bo'lsa ham, EI tomonidan davlatlarni "ajratish" orqali qo'llaniladigan tarif preferentsiyalari, erkin iqtisodiy tartib tarafдорлари tomonidan tez-tez tanqidga uchrab turganini e'tirof etish kerak. Bunday fikrning yuzaga kelishiga ma'lum sabablar bor albatta. Masalan, birinchi navbatda bojaxona ittifoqining, keyinchalik yagona ichki bozor dasturining yakunlanishi EIning ichki bozorga yo'naltirilganlik darajasining oshishiga olib kelganligi ta'kidlash mumkin. Chunki, 1970 yildan 1998 yilgacha davr oralig'ida EI ichidagi savdoning umumiyo savdodagi ulushi 49 foizdan 63 foizga o'sganligi bunday

xavotirlarga asos borligidan dalolat beradi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichni o'z-o'zini ta'minlanganlikning tez oshganligini dalili sifatida qarash mumkin va o'z navbatida a'zo mamlakatlarning EI ichidagi savdoga ko'proq tayanish kayfiyatini oshganligini ko'rsatadi. Dunyo iqtisodiy hamjamiyatining qatnashchilarida EIning uchinchi mamlakatlardan keluvchi raqobatni cheklash maqsadida faqatgina o'zidagi sanoatni ahvolining yaxshilanishi va o'sishini ta'minlovchi yagona, himoyalangan yirik bozorni shakllantirish yo'lidadir degan fikrlar yuzaga kelgandi. Shuni aytish joizki bu kabi xavotirlar ko'pincha siyosiy omillar bilan aralashtirib yuborilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, EI erkin va ochiq xalqaro savdodan manfaatdor va uzoq muddatda uning afzalliklariga tayangan. Shu bois integratsiyalashgan bozor JSTning (jahon savdosini to'g'ri tashkil etish bo'yicha qoidalar kodeksi va xalqaro muzokaralar orqali savdoda yuzaga kelgan munozarali savollarni echish va savdo to'siqlarini pasaytirish borasidagi forum) o'zaro ishonch va o'zaro ustivorlik tadbirlari tamoyillariga asoslangan holda xalqaro savdoni yanada kengroq erkinlashtirishga erishishda xal qiluvchi omil desa bo'ladi.

Evropa Ittifoqi tomonidan iqtisodiy farovonlikka erishishda integratsion tadbirlar nechog'lik JST tamoyillariga mos va qolgan a'zo davlatlar tomonidan qanday kutib olinganligi va JST doirasida EI kanday yo'l tutganini tahlil qilishni tadqiqot maqsadiga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shu o'rinda JSTning 2-tamoyili xususida biroz fikr yuritamiz. Ushbu tamoyil, shartnomaga kiruvchi bir tomonning boshqa tomonga ma'lum mahsulot bo'yicha bergen siylovi hech qanday shartlarsiz shartnomaga kirgan boshqa davlatlarning xuddi shunday mahsulotlariga ham taalluqli bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi. Bu o'z navbatida savdoni erkinlashtirishga ko'p tomonlama yondashuvni yuzaga keltiradi. Shunday bo'lsa ham, bu borada uchta istisno hamma tomonidan tan olingan. Birinchi, kam rivojlangan davlatlar, bir guruh sifatida o'zlariga nisbatan qulayroq munosabat qabul qilishlari mumkin. Ikkinchi, GATT tashkil etilishidan oldin mavjud bo'lgan savdo preferentsiyalari (asosan Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Nederlandiyada mavjud) mazkur tamoyilning qo'llanilishidan istisno etilgan edi. Shu tariqa savdoda kamsitish, GATT doirasida ham davom etganini ta'kidlash mumkin. Uchinchi, GATT o'zining 24-Moddasi orqali o'zaro preferentsiyalarni erkin savdo hududlari, bojaxona ittifoqlari va iqtisodiy integratsiyaga olib keluvchi vaqtinchalik kelishuvlarda ruxsat bergen. Biroq bulardan foydalanish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- bojxona ittifoqining umumiy tashqi tariflari ittifoqdan oldingi a'zo mamlakatlarnikidan yuqori bo'lmasligi kerak;
- kelishuvlar tomonlar orasidagi tegishli barcha savdoni qamrab olishi lozim;
- bojxona ittifoqi yoki erkin savdo hududi ma'lum bir mu'tadil yoki belgilangan vaqt ichida yakunlanishi kerak.

EIning Rim shartnomasiga binoan umumiy tashqi tarif darajasi sifatida a'zo mamlakatlar hududida mavjud, (ya'ni to'rtta, Benelyuks, Frantsiya, Germaniya va Italiya hududi) bo'lgan poshlinalarning o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi tadbiq etilgan edi. Buning natijasida vujudga kelgan Umumi Tashqi Tarif (UTT) 11% atrofida edi. Bu o'sha davrdagi EH muhim savdo hamkorlari AQSh va Yaponiyaniidan ancha past edi. Ushbu holat GATT tomonidan Hamjamiyat UTTni hisoblash metodini tegishli qonunga to'g'ri kelmasligi va u xalqaro savdoda disbalansga olib kelishini muhokamaga qo'ygan edi. Biroq aynan shu shartnomaning 24-Moddasida UTTni hisoblash usuli qanday bo'lishi aniq ko'rsatilmagan. SHu bois EH noto'g'ri harakat qilgan deb bo'lmaydi.


Ta'kidlash kerakki, GATT homiyligi ostida savdoni erkinlashtirish borasida tashkil etilgan va yakunlangan ko'p tomonlama muzokaralardan so'ng (ya'ni, 1959-62 "Dillon Raundi", 1963-7 "Kennedi Raundi" va 1973-9 "Tokio Raundi" kabilar), UTT darajasi yanada pasaytirishga erishildi va hozirgi kunda sanoat mahsulotlariga 4% atrofini tashkil etadi. Savdoni erkinlashtirishning "Urugvay Raundi" (sentyabr' 1983-dekabr' 1993) o'z maqsadi sifatida xalqaro savdoda tarif va no-tarif to'siqlarini nafaqat ishlab chiqarish mahsulotlariga balki xizmat, intellektual mulk huquqlari, savdoga aloqador investitsiyalar va qishloq xo'jalik mahsulotlariga ham yanada pasaytirishni qo'ydi. Bular avval GATT faoliyati chegarasiga kirmas edi.

Ushbu faktlardan shuni taxmin qilish mumkin, ya'ni Evropa Ittifoqi miqyosida iqtisodiy yaqinlashuvga erishish jarayonida tarif va notarif to'siqlarini xo'jalikning barcha sohasida ishlab chiqarilgan mahsulotlariga olib tashlanishi tajribasi butun jahonda integratsiya va savdoni erkinlashtirish jarayonlariga ijobiy tajriba va zamin yaratadi.

Tadqiqotlar natijasida shu aniqlandiki, EIning integratsion strategiyasining ahamiyatini belgilab beruvchi muhim tizimlardan biri bu uning Uyushma Tizimidir. U o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra tarif siylovlaridagi o'zaro mafaatlilikka asoslanadi va asosan kam rivojlangan mamlakatlar bilan savdo kelishuvlarida keng ishlatiladi. Xususan, EIning kam rivojlangan davlatlar bilan savdo kelishuvlari huquqiy jihatdan, ya'ni

savdo siyovlarining o'zaro manfaatli tamoyillariga asoslangan tarzda, erkin savdo hududlarini tashkil etish ruxsatini beruvchi GATTning 24-Moddasiga asoslanganligi uchun xalqaro savdoda kamsitish xususiyatiga ega emas va uni tahlil qilish esa ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq.

Uyushma tizimining negizida kam rivojlangan davlatlarga beriladigan tarif preferentsiyalarini yotadi. Uning ta'siri va samarasini quyidagi 3-Grafikda<sup>17</sup> ko'rish mumkin.



A) Ichki bozor

V) Eksport

### 3-Grafik. Tarif preferentsiyaları

Mazkur grafikda kam rivojlangan mamlakatning biron bir X mahsulotni EIga eksport qilishida tarif preferentsiyalarining effekti ko'rsatiladi. Grafikning A qismida, eksporter mamlakatning ichki talabi D va ichki taklifi S tasvirlangan. Ushbu mahsulotning jahon bozori narxi  $R_w$ , va EIdagi narxi esa  $R_{ES} = R_w(1Qt_{ES})$ , bunda,  $t_{ES}$  mazkur turdag'i mahsulotga qo'yilgan EIning umumiyligi tashqi tarif qiymati. V qismida keltirilgan ES egri chizig'i - mazkur mamlakatning ortiqcha taklifi va uning turli xil narxdagi eksportini ko'rsatadi.

EIning tarif preferentsiyalaridan oldin mamlakat ishlab chiqaruvchilari ichki talab OQ1 va eksportlarni Q1-Q2=O'A, ichki va eksport narxi  $R_w$

<sup>17</sup> Ushbu grafik EIga oid adabiqtlardan foydalaniłgan holda keltirilgan.

qondirgan holda, a = v hududdagi foydani ko'rgan holda, EI shu vaziyatda s = d hududlarga teng importdan keladigan tarif daromadlariga ega bo'ladi.

EIning preferentsiyasidan so'ng mazkur mamlakat EI bozorida EI narxida ya'ni,  $R_{ES}$  da o'z mahsulotini sotish imkoniga ega. Shu tariqa ko'rish mumkinki, ishlab chiqaruvchi o'zining ichki bozorida mahsulotni OQ3 miqdorda sotadi va  $Q_3 Q_4 = O'V$  miqdorda EIga eksport qiladi.

Buning natijasida mamlakat ishlab chiqaruvchilari o'z foydasini eksport orqali hududlarga oshiradi, ya'ni EIning tarif daromadining transferi miqdorida, bunga yana qo'shimcha sifatida, eksportning kengayishi evaziga erishiladigan e = fQg hududlardir.

Xulosa qilish mumkinki, agar global miqyosda barcha davlatlarni savdoda teng huquqli bo'lishi va rivojlanishni ta'minlash vazifasi bilan tashkil etilgan GATT/JSTning maqsadi uning kam rivojlangan a'zolariga ko'maklashish deb oladigan bo'lsak, 6u borada EI yondashuvi bilan uyushish afzalroqdir: chunonchi, kam rivojlangan a'zolarning preferentsial savdo kelishuvlari tizimidan ko'radigan foydalari amaliyatda EI ko'radigan foydadan birmuncha ko'proqligini tahlillar ko'rsatmoqda.

### **6.3. O'zbekistonning Evropa Ittifoqi bilan iqtisodiy hamkorlik istiqbollari**

EIning tashqariga yo'naltirilgan salohiyati evroning kiritilishi bilan yanada kuchayishi mumkin va bu o'z navbatida birlashishga qiziqqan boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga undashi muqarrardir. Xususan, so'nggi bir necha yillardan buyon faoliyat ikki asosiy yo'nalishda rivojlanib kelmoqda, ya'ni:

- Sharqiy Evropa mamlakatlari tomon - Evropaning sharqiy qismida joylashgan Polksha, Chexiya Respublikasi, Sloveniya, Vengriya kabi mamlakatlar qatnashishi evaziga ittifoqni kengaytirish borasida muzokaralar davom etmoqda. Hozirgi vaqtda ro'y berayotgan munosabatlar mazkur mamlakatlarni, texnik-iqtisodiy hamkorlik o'rnatish, moliyaviy yordam ko'rsatish orqali Evropa hamjamiyatining haqiqiy hamkorlari qilish tendentsiyasini ko'rsatmoqda.

- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tomon yo'nalishda - MDHga kiruvchi mamlakatlar birgalikda Evropa Ittifoqi qoplaydigan hududga nisbatan 8 marta katta hududni egallaydi. Mazkur mamlakatlar bilan hozirda EI, tarkibiy kelishuvlarni imzolash imkoniyatini o'zida mujassam etuvchi yordam va qo'llash dasturlarini amalga oshirmoqda. Bu yo'nalishlarni ta'kidlashdan maqsad biz ishimizda aynan shu ikkinchi yo'nalishning mavjudligini e'tirof etgan holda uni chuqurroq o'rganish va

bu borada O'zbekiston va EI iqtisodiy hamkorligini samarali kechishi yuzasidan takliflarni berishdir.

Ushbu ma'noda O'zbekistonning hozirgi kunda tutgan o'rni EI bilan yanada yaqinroq munosabatlarni o'rnatishda juda ham manfaatli va rziqarlidir. Bunda eng asosiy instrument bo'lib turli xil ustuvor tarmoqlarini, ya'ni, jamoa korxonalarini restrukturizatsiyasi va xususiy sektorni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, bozor infrastrukturasini yaratish, elektroenegriya resurslari, telekommunikatsiya va transport, atrof-muhitni saqlash, ta'lif kabilarni o'z ichiga oluvchi turli xil dasturlar hisoblanadi.

Agar mavjud savdo siyosatlari maqsadlariga ko'ra klassifikatsiya qilinsa, u quyidagicha ko'rinishga ega:

Himoyalash siyosati, asosan o'tish davrining boshlang'ich bosqichlarini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda ichki ishlab chiqaruvchilar hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini qo'llab quvvatlashda keng ishlataladi.

Savdoni erkinlashtirish. Bu o'z navbatida turli xil yondashuvlarga ega:

-Hududiy yondashuv, masalan EI bilan maxsus aloqalarga ega bo'lish;

-Ko'p tomonlama yondashuv, ya'ni Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish va bundan o'zaro manfaat ko'rish.

Hozirgi vaqtda Evropaning salohiyati yangi iqtisodiy tizimlar, MDHga a'zo mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishni amalga oshirish evaziga oshishi ko'zda tutilmoxda. Shu o'rinda O'zbekiston bilan

Evropa Ittifoqining a'zo davlatlari o'rtasidagi savdo munosabatlarining avvaldan mavjud bo'lishi keyingi yillardagi shamkorlikning samarali kechishini ta'minlash borasida fikr yuritish o'rnlidir. Bu bilan biz EI bilan iqtisodiy munosabatlarning jahon Kgandartlari darajasida bo'lishini ko'zda tutmoqdamiz, ya'ni tayyor mahsulotlarni Evropa bozoriga taklifini ta'minlash. Albatta, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi sanoatlarning yuzaga kelishi o'z-o'zidan ro'y beradigan hodisa emas. O'tish davrini boshidan kechirayotgan, biroz kuchsizlashgan iqtisodiy tizim uchun avvalombor ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish talab qilinadi. Keyingi navbatda esa ularni hozirgi zamонавиy ish uslubida tarbiyalash va chiniqtirish. Undan so'nggi pog'onada ushbu iqtisodiyotni asta-sekinlik bilan ochiqlik va erkinlashtirish tomon yo'naltirish darkor.

Shu o'rinda Evropa Ittifoqining tajribasi bu kabi yondashuv va siyosatning yaqqol namunasi bo'la oladi, Chunki hozirgi vaqtda biz ko'rib turgan vaziyatga kelish uchun 30-40 yillik moslashuv va bosqichma-

bosqich harakat talab qilindi. Har bir mamlakatning tarkibiy qismidagi farqning mavjud bo'lishi o'ta darajada ehtiyyotkorlik bilan, barcha uchun bir xil bo'lmasgan, ya'ni uyg'unlashmagan, biroq keyingi hamkorlik maqsadlariga to'g'ri keladigan yondashuv tamoyillarini kiritdi.

Shu bois aytish mumkinki, Evropa Ittifoqi bilan hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarining mavjud bo'lishi, ya'ni hamkorlik shu ma'nodaki, har bir a'zo davlat o'ziga xos xususiyatlarini (bir davlatning ikkinchisi ustidan ustuvor bo'lmasligi va har bir davlat o'z iqtisodiy, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa tegishli tizimlarini) saqlab qolishi ochiq raqobatga tayyorgarlik uchun yordam va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi.

Biz bularni ta'kidlab o'tishimizdan maqsad shuki, Evropa Ittifoqining tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanayotgan mamlakatlarga ochiq iqtisodiyot yuritish va ochiq raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatishni tashkil etish uchun ko'maklashishga qaratilganligi va qaysidir mamlakatni o'z ta'sir doirasiga tushirishga harakatning yo'qligini tahlillar asosida ko'rsatish.

Bu kabi yondashuv va maqsadlar bilan Evropa qaysi mamlakatlar tomon ijobiy harakat qilishi mumkin? Albatta birinchi navbatda, ko'p yillik tajribadan kelib chiqqan holda, rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlab olgan, o'ziga mos iqtisodiy rivojlanish modelga ega va eng asosiysi qaysidir boshqa bir mamlakatning ta'sir doirasiga tushmagan mamlakatlar tomon.

Xususan, O'rta Osiyo hududida Evropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish harakatlari asosli va ular quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchi, keyingi davrda O'zbekistonning dunyo iqtisodiy xaritasida bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha yangi salohiyat va imkoniyatlar bilan paydo bo'lishi.

Ikkinchi, mamlakat bozori bilan aloqa o'rnatish imkoniyatlari, o'zining hajmi, siyosiy-iqtisodiy barqarorligi, demografik tarkibi, o'sish uchun etarli salohiyatga egaligi. Shu bilan birga so'ngi yillardagi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishning mavjud bo'lishi O'zbekistonning O'rta Osiyoda muhim ahamiyat kasb etishi borasidagi taxminlarni kuchaytirmoqda. O'z navbatida Evropa bunday imkoniyatdan foydalanmasligi mumkin emas. Xuddi shuningdek, O'zbekistonning Evropa bilan yaqindan hamkorlik qilishi iqtisodiy rivojlanish jarayonida qo'shimcha turtki va ijobiy savdo balansini ta'minlashda muhim omil bo'lishi shubhasiz.

Uchinchi, mamlakatdagi kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish borasida erishilayotgan ijobiy yutuqlar. Bu sharoitning mavjud bo'lishi

Evropa uchun o'z ishlab chiqarish strukturalarini xalqaro maydonga shu hudud orqali olib chiqish uchun rivojlanishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Odatda Evropadagi kichik va o'rta tadbirkorlik vakillari o'z faoliyatlarini xalqaro masshtabga olib chiqishda mustahkam o'rnashish va rivojlanish uchun qulay imkoniyatlarni yaratib beruvchi hududlarni tanlab oladi. O'zbekistonda esa bunday sharoitlarning bo'lishi bilan birga tashqi hamkorlarning o'z kapitallarini olib kelishida eng muhim omil siyosiy barqarorlikning mavjud bo'lismidir. Bular shundan dalolat beradiki, Uzbekiston Evropadan kirib keluvchi hamkor uchun qulaylik tug'diruvchi barcha dastlabki ko'rsatkichlarga ega.

To'rtinchi, Evropadagi iqtisodiy jarayon bilan bevosita tarkibiy aloqani keltirib chiqaruvchi, asosan xom-ashyo importiga tayangan sezilarli tovar almashevning mavjud bo'lishi. Mazkur xom-ashyo importi ustivor bo'lgan aloqalar kelajakda Evropa ishlab chiqaruvchilarining sifatni oshirishga qaratilgan tizimining pirovard natijada bizning ishlab chiqaruvchilarimizning tarkibiy qismi bo'lishi va o'zaro aloqalarining kuchayishi va barqaror rivojlanishi bilan uyg'unlashishi kerak.

Beshinchi, O'zbekistonning AQSh dollari ta'siriga to'la tushib qolmaganligi bizning mamlakatimizda o'z salohiyatini rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi.

EIning O'zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga bo'lgan intilishini hisobga olgan holda aytish mumkinki, mamlakatimizning ishlab chiqarish sohasida olib borayotgan siyosati, ya'ni o'z milliy ishlab chiqaruvchilarini jahon miqyosida raqobatbardosh qilish maqsadida qo'llab-quvvatlash, ushbu sohadagi munosabatlarni yanada yangi pog'onaga olib chiqish uchun eng muhim asoslardan hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi hal qiluvchi omillardan biri, imkon boricha iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirishni ta'minlovchi kelishuv va shartnomalarning imzolanishidir. Ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi mamlakatning jahonga nisbatan ochiqligi va uning iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuv ko'lmini ko'rsatadi.

O'z navbatida O'zbekistonning ushbu etakchi blok bilan aloqalarni kuchaytirish jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvida zaruriy hisoblanadi. Bunday argumentni biz quyidagilarni inobatga olgan holda ilgari surmoqdamiz:

1. Evropa Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda birinchi navbatda uning hududida joylashgan turli hajmdagi ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun qo'shimcha qiymat yaratish uchun sharoit yaratilishi ijobjiy natjalarga olib keladi. Shu o'rinda I.A. Karimovning "Salohiyatli

xorijiy sheriklarimiz bilan yana ham faol va izchil ish olib borish, ular bilan hamkorlikda zamonaviy, dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan yangi-yangi qo'shma korxonalar tuzish lozim" degan bir dasturiy mazmunga ega fikrlari bu yo'nalishda yirik o'zgarishlar zarurligidan dalolat beradi.

2. O'rta Osiyo hududida joylashgan davlatlarida biron-bir qudratli davlat yoki blokka ishongan holda harakat qilish kuzatilayotgan bir vaqtda, O'zbekistonning EI o'rtasidagi yaqin iqtisodiy aloqalar, istiqbolda uning yaqin hamkoriga aylanishi uchun asos bo'la oladi.

3. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida ishlab chiqarish va asosiy boyliklarning taqsimlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish bilan bir vaqtda, ma'lum spetsifik mahsulotlarda raqobatbardosh avtonom ishlab chiqaruvchilar tarmog'ini rivojlantirish zarur. Bu kabi rivojlanishda haqiqiy ishlab chiqarishni yaratishga bo'lgan intilish saqlanib qolsada, iqtisodiy inqirozning yuzaga kelish xavfi bor. Chunki bunda yo'nalishda harakat qilish kerakli texnologiya bilan ta'minlashni talab etadi. Bunday texnologiyani esa Evropa mamlakatlari tajribasida asosan kichik va o'rta darajadagi tadbirkorlar ommasi ta'minlaydi. Kichik va o'rta darajadagi tadbirkorlar kuchli texnik xususiyatga ega, ular o'z ishlab chiqarishi, mahsuloti, xizmatlari, tashkiloti ustida va bozorlarda intensiv ravishda ish olib boradilar. Tadbirkor shu narsani aniq biladiki, masalan, fabrika bu uning kapitali hamda asosiy ishi va aynan shu omil uning fabrika va butun sanoatning yuksalishiga erishishdagi har bir harakatida etakchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Ular tabiatan shunday xususiyatga ega va rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qiymat, ishlab chiqarish bilan ta'minlangan, hamda boylik, haqiqiy ravishda aynan shu yo'l bilan yaratiladi, aslo moliyaviy markazlar va spekulyativ xarakterdagi xususiylashtirish yo'li bilan emas. Amaliyotda kichik va o'rta darajadagi tadbirkorlar sinfini shakllantirish murakkab yo'lni bosib o'tadi va ayrim xatoliklar natijasida vaqt talab etadi. Bu jarayon tarkibiy iqtisodiyotga ega hudud bilan hamkorlikni rivojlantirish natijasida ancha engil va muddat jihatdan qisqartirilishi mumkin. Evropa Ittifoqi bilan bu kabi hamkorlik natijasida esa xalqaro kanallarga ochiq hamda real ehtiyoj va imkoniyatlarga tayanuvchi iqtisodiyotning keng va mustahkam tarmog'i shakllanishi ko'zda tutiladi.

4. Mamlakatimiz rivoji va ravnaqida juda muhim ahamiyat kasb etuvchi hamda qadimdan boy salohiyatimizni aks ettiruvchi arxeologik boyliklar, arxitektura yodgorliklar, san'atimiz an'analari va tabiiy xususiyatlarimiz, Evropa tomonidan mazkur boyliklarimizni tushunish va

yuksak baholash tendentsiyasining mavjudligi, o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishda ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi.

5. O'zbekiston o'ziga xos demografik dinamika va xususiyatga ega. Uning eng asosiy xususiyati aholining ko'p qismini yoshlar tashkil etishidir. Ushbu xususiyatning tomomila aksi bo'lib borayotgan Evropadagi ahvol, ya'ni aholining asosiy qatlamining qarib borishi bilan uyg'unlashish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

Bularni aniqlash bilan bir vaqtida Evropa Ittifoqi bilan munosabatlar zaruriy natijalarni berishi uchun biz EI tomonidan ushbu aloqalarda etakchi sohalarni ham aniqlab olishimizni taqozo etadi.

Amaliy jihatdan shu narsa ma'lumki, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, bog'liqlikning qanday ahvolda ekani va uning rivojlanish yoki susayish tendentsiyasini aniqlashda tovar va xizmatlar bilan o'zaro ayrboshlash ko'rsatkichlaridan foydalanish muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning EI bilan eksport va import munosabatlarini miqdoriy ko'rsatkichlarda ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, 1998 yil uchun O'zbekistonning EIga eksporti 821 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, ular qatorida e'tiborga molik ko'rsatkichlar, Buyuk Britaniyaga - 43 foiz, Belkgiya - 18,2, Italiya - 14,3 va Niderlandiya - 7,5 foizi to'g'ri kelishini aytish mumkin.<sup>18</sup>

Import esa umumiyy hisobda 772 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. EI a'zo davlatlaridan O'zbekistonga yirik eksportyorlar sifatida Germaniya - 35,3 foiz, Frantsiya - 22,2, Buyuk Britaniya - 17,3 foizligi e'tiborga molik.

So'nggi yillardagi o'zaro savdo munosabatlari quyidagicha dinamikaga ega. Agar, 1998 yilda O'zbekistonning EIga eksporti 821 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1999 yilda u 668 mln. AQSh dollar va 2000 yilda 583 mln. AQSh dollarigacha tushgan. SHuningdek, importda ham susayish ko'zatilib, 2000 yil bo'yicha 619 mln. dollarga teng bo'lган, vaholanki, ushbu ko'rsatkich 1999 yilda 809 mln. va 1998 yilda esa 772 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Xususan, 2000 yilda O'zbekistonning EI bilan mahsulot ayrboshlash tarkibi ko'rsatkichlarini quyidagi diagrammalarga asoslangan holda tahlil qilish mumkin.

Eksportda paxta tolasi va umuman xom-ashyo mahsulotlari salmog'ining hamon ko'pligi iqtisodiyotimizning tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish jarayoni sust borayotganligini ko'rsatmoqda.

Importda esa mashina va uskunalar 35,4 foizni tashkil etganligi ushbu turkum maxsulotlarining investitsion siyosatning maqbul darajasidan dalolat beradi.

<sup>18</sup> *Uzbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 1999y.*

1-jadval

**Qit'alar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo  
ko'rsatkichlari (ming. AQSh dollarida)**

	Tovarob oroti yanvar-dekabr 2000y.	Eksport	Import	Eksport -import sal'dosi	Tovarob oroti (yanvar-dekabr 2000y, yanvar-dekabr 99y. ga nisbatan %da	Umum iy ko'rsat kichda gi yalpi salmo g'i, %da
JAMI:	6212080 ,2	32646 69, 2	294741 1,0	317258 ,2	97,9	100,0
shu xisobda						
Evropa	3917633 ,4	23112 21,2	160641 2,2	704809 ,0	96,5	63,1
Osiyo	1943470 ,2	88575 6,3	105771 3,9	- 171957 ,6	101,9	31,3
SHim. Amerika	325058, 6	60399, 8	264658 ,8	- 204259 ,0	109,3	5,2
Jan. Amerika	10097,8	2450,8	7647,0	-5196,2	19,7	0,2
Afrika	8681,6	4659,5	4022,1	-637,4	89,5	0,1
Avstraliya va Okeaniya	7138,6	181,6	6957,0	-6775,4	35,1	0,1

**Manba: Uzbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2001y.**

2-jadval

**Qit'alar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo  
ko'rsatkichlari (ming. AQSh dollarida)**

	Tovarob oroti yanvar- dekabr 1998y.	Eksport	Import	Eksport -import sal'dosi	Tovarobo roti (yanvar- dekabr 1998y, yanvar- dekabr 97y. ga nisbatan %da	Umum iy ko'rsat kichda gi yalpi salmo g'i, %da
JAMI:	681684 2	3528177 , 9	328866 4,2	239513 , 7	76,5	100,0
shu xisobda						
Evropa	452142 9,8	2638459 , 8	188297 0,0	755489 , 8	81,8	66,3
Osiyo	190624 9,0	810915, 9	109533 3,1	- 284417 , 2	66,1	28,0
SHim. Amerika	316925, 0	63946,8	252978, 2	- 189031 , 4	81,2	4,6
Jan. Amerika	56204,7	8750,1	47454,6	- 38704, 5	70,4	0,8
Afrika	4383,9	333,7	4050,2	-3716,5	18,6	0,1
Avstraliy a va Okeaniya	11649,7	5771,6	5878,1	-106,5	155,7	0,2

**Manba: Uzbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 1999 y.**

Shunday bo'lsa ham, oziq-ovqatlarning importi 12,2 foizligi bu mahsulotlarning o'zimizning hududda ishlab chiqarilishi xamon past darajada ekanligini anglatadi.

Umuman, qit'alar bo'yicha 1998 yili O'zbekistonning tashqi savdo ko'rsatkichlari bo'yicha EIning salmog'i umumiyligi ko'rsatkichning 23,4 foizni (2-jadval) tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilga kelib Evropa qit'asiga (EI-19,4 foiz) 63,1 foiz to'g'ri keldi (1-jadval). EI va O'zbekiston

orasidagi tovar ayirboshlashning bunday darajada bo'lishi, birinchi navbatda tarif va poshlinalarning moslashmagan holda o'matilishidir. Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda, imzolangan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan bitimning shartlariga rioya qilgan tarzda ish olib borilishi zarur. Shu o'rinda quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiq.

Eksport tariflarini imkon boricha kamaytirish va eksportni amalga oshiruvchi sub'ektdan soliq olish evaziga byudjetni boyitish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning tagida yotuvchi asosiy *g'oya* shuki, eksport tarifining pasayishi chet mamlakatlari bizning mahsulotlarni sotib olishni ko'paytiradi va shu bilan bir vaqtda eksportyorlarimizning ham ishlab chiqarish hajmlarini oshirishda ham qiziqish ham manfaat oshadi. Buning natijasida savdoning ko'lami oshadi, byudjetga daromad asosan eksportyorning foydasiga solinadigan soliqda mujassamlashgan bo'lishi kerak. Eng muhimi ish bilan bandlarning soni oshadi va sotsial himoyaga ajratiladigan mablag'larni kamaytirish va ushbu mablag'larni boshqa, rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi sohalarga yo'naltirish imkoni tug'iladi.

Tovar va xizmatlarning importi bilan ham shunday yondashuv maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni import tarifini pasaytirish va import operatsiyalarini amalga oshiruvchilarning foydasidan olinadigan soliplarda o'z aksini toptirish zarur.

Bojxona poshlinalarini tabaqalashtirish (differentsiya) qilish maqsadga muvofiq. Bojxona poshlinalari eksportga chiqarilayotgan mahsulotning qayta ishlanganlik darajasiga qarab belgilanishi kerak. Ya'ni, agar mahsulot xomashyo ko'rinishda chiqarilayotgan bo'lsa, unga yuqori poshлина qo'yish va aksincha. Buning asosida tayyor mahsulotni eksport qiluvchilarga rag'batlantiruvchi xarakterdagi yondashuv evaziga eksport tarkibidagi xomashyoning kamayishi va tayyor mahsulotlar ulushining oshishiga erishiladi.

Xuddi shuningdek, chetdan kirib kelayotgan mahsulotlarga ham ishlatish mumkin, ya'ni mahsulot qayta ishlanganlik darjasini qancha yuqori bo'lsa bojxona poshlinasi ham shunchalik yuqori bo'lishi kerak. Bu o'z navbatida ichki bozorning rivojlanishiga ko'maklashishi mumkin. Biz, mavjud ob'ektiv reallikni esdan chiqarmasligimiz zarur. U ham bo'lsa, tajriba va tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, sanoati rivojlangan davlatlar odatda kam rivojlangan davlatlardan xom-ashyoning kirib kelishini cheklamaydilar, biroq ular qayta ishlangan mahsulotning kirib kelishiga faol bojxona siyosatini olib boradilar. Ya'ni sanoati rivojlangan

davlatlar o'z mavqelarini mustahkamlovchi bojxona siyosatlarini yuritadilar va shu bilan kam rivojlangan mamlakatlarga faqat xom-ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish imkonini qoldiradilar. Buning natijasida kam rivojlangan davlatlar ustida xalqaro mehnat taqsimoti tizimida faqatgina xom-ashyo etkazib beruvchiga aylanish xavfi turadi.

Barcha ta'kidlab o'tilgan omillarni hisobga olgan holda xususan O'zbekiston Evropa Ittifoqi bilan iqtisodiy munosabatlarning kelajagini ta'minlash borasida hozirgi kunda quyidagi ishlarning amalga oshirilishiga erishishi zarur:

- teng huquqli savdo-iqtisodiy munosabatlarni kelishilgan tarif siyosatini ishlab chiqish, o'zaro savdoda bojxona protseduralarini soddalashtirish orqali rivojlantirish;

- ikki tomonlama loyihalarni shakllantirish va qo'shma ravishda amalga oshirish, qo'shma sanoat ishlab chiqarishlari va moliyaviy-sanoat guruhlarini tashkil etish;

- bank sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish;

- transport va kommunikatsion tizimlarni rivojlantirish yo'nalishida muvofiqlashtirilgan siyosatni o'tkazish;

- ilmiy-texnik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, jumladan yangi texnologiyalarni rivojlantirish va innovatsion sohada;

- Evropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarni asosan yuqori intensivlik bilan integratsiyalashuv darajasiga ega tarmoqlarni belgilab olish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Evropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarni asosan yuqori intensivlik bilan integratsiyalashuv darajasiga ega tarmoqlarni belgilab olish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq. O'zbekiston sharoitida bunday yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlar asosan qishloq xo'jaligi, og'ir sanoat bu yo'nalishda ijobjiy natijalar berishi mumkin.

Tahlillarimizga tayangan holda, EI tomonidan rivojlanayotgan davlatlar bilan hamkorlik munosabatlarida iqtisodiy sohada ko'p xollarda o'xshash yo'nalishlar turkumi taklif etiladi. Bizning holatda ham, agar EI va O'zbekiston o'rtaсидаги sherikchilik va hamkorlik bitimini tahlil qiladigan bo'lsak, uning 5-6o'limi 43-moddasining 2-bandida quyidagilar keltirilgan: "Hamkorlik xususan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, inson resurslarini rivojlantirish, korxonalarini qo'llab-quvvatlash (xususiyashtirish, investitsiya va moliyaviy xizmatlarni kiritgan holda),

qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat, energetika va fuqarolik yadroviy xavfsizlik, transport, pochta xizmatlari va telekommunikatsiyalar, turizm, atrof-muhitni muhofaza qilish va hududiy hamkorlikni o'z ichiga oladi". Bundan shuni ko'rish mumkinki, nazariy va huquqiy jihatdan barcha shart-sharoitlar har tomonlama keng qamrovli hamkorlikni taqozo etadi.

Aytish joizki, rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi farq shundan iboratki, rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va rivojlangan davlatlar darajasiga etish uchun noyob texnologiyalar o'ylab topish zaruriyati yuqori emas. SHu nuqtai nazardan rivojlangan EI mamlakatlari bilan munosabatlarimizda belgilangan tarmoqlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning kirib kelishiga erishishimiz zarur.

EIdan bizning mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning kirib kelishini muhim ahamiyat kasb etadi deb ta'kidlashimizga sabab, bevosita investitsiyalar orqali kompaniyalarning sifat jihatdan oldinga siljishi yuz beradi. Xorijiy bozorlarda tajribaga va yuqori sifatli boshqaruvga ega korxonalarning kelishi natijasida o'tish davrini boshdan kechirayotgan O'zbekiston iqtisodiyotiga biznes-resurslar kiritiladi va shu bilan bir qatorda yangi kompaniyada o'zida mujassam etgan texnologiya, texnik malaka va boshqaruvdagi «nou-xau» tadbiq etilish kuzatiladi.

Biznes-resurslar mazmuniga ko'ra boshqaruv va biznes sohasidagi bilim va tajriba, boshqacha qilib aytganda, texnologiyalar, yangi tovarlar ishlab chiqish, xom-ashyo bilan ta'minlash, ishlab chiqarish, sotish, kadrlarni tayyorlash, axborot yig'ish sohasida keng imkoniyatlar va yuqori darajadagi ishonchni o'zida aks ettiradi. Tajriba va amaliyotdan kelib chiqqan holda bunday tushuncha jahon iqtisodiyotining hozirgi holatiga va tendentsiyasiga mos kelmoqda.

EI to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarining bizning iqtisodiyotimizga kirib kelishi orqali korxonalarni boshqarish darajasining o'sishiga olib kelishini ko'zda tutamiz. Chunki bu sohada bunday natija va maqsadga bizning say-harakatlarimizning o'zi bilan, hozirgi vaqtida o'zgarishlarga boy jahon iqtisodiyoti sharoitida erishishimiz murakkabdir.

Shu bois hozirgi davrda shunday texnologik kuchga ega bo'lismning o'zi aholi yashash darajasi sur'atlarining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Albatta bu ishlarning amalga oshirilishi avvalombor EI bilan O'zbekistonning har biri o'zida mujassam etgan iqtisodiy tizimlari asosini va bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy siyosatning ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillarini tushunishini taqozo etadi. Ayni shu borada, ya'ni iqtisodiy islohotlarni jahondagi o'zgarishlarga, globalizatsiya

jarayonlariga mos ravishda o'tkazib borishda EIning bizning mamlakatga ko'rsatayotgan konsultatsion va texnik ko'magi hamkorlikning tobora chuqur mazmun kasb etib borayotganidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda ayrim belgilovchi tarmoqlarni rivojlantirish bilan birga EI tomonidan ijobiy yondashuv va tezlik bilan qiziqishni uyg'otuvchi soha, yo'nalish bu iqtisodiy rivojlanish evaziga ko'rileyotgan atrof-muhit sifatining yomonlashib borishi omilidir. Shu nuqtai nazardan, bizning hudud bilan EI hududi o'rtasidagi turli xil iqlim, geotopgrafik, ekologik sharoitlar so'nggi yillarda dolzarb bo'lib borayotgan inson hayotining sifati borasida strategik sohadagi bilim va malakani oshirish yo'lidagi umumiyligi qiziqishni rag'batlantirgan bo'lar va har ikki tomon uchun foydali natijalarga olib kelgan bo'lar edi. Aynan shu bilimlarga tayangan holda juda muhim loyihalar taklif qilinishi mumkin (masalan, Orol dengizi hududlarini o'zlashtirish, qayta tashkil etish va rejalashtirish bo'yicha loyiha), qaysiki o'z navbatida jahondagi boshqa salbiy holatlarga murojat etish yo'lida ijobiy va sezilarli turtki sifatida qaralishi mumkin. Ma'lumki, hozirgi yangi asrga mos bo'lgan globalizatsiya jarayoni chekka mamlakat va o'lkalardagi, har bir iqtisodiyotning vazifasi hisoblangan, insonlarning yashash darajalarining sifatini ko'tarish vazifasini o'zining oliy maqsadi sifatida qaramoqda. Shu bois mazkur hududdagi ahvol chegara bilmasligi jahon hamjamiyati tomonidan tegishli choralarни birgalikda ko'rishni taqozo etadi. EI mamlakatlari esa ushbu fakti har tomonlama tan oladilar.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 257 bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» xamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

3. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.

4. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and

Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/

5. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.
6. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. T.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.
7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. T.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.
8. Shodiyev R.X. “Jahon iqtisodiyoti”. – T.: “G’ofur G’ulom”, 2005.- 215 b.

## **VII - BOB. ERKIN IQTISODIY ZONALAR SHAKLLANISHINING USLUBIY ASOSLARI**

### **REJA:**

- 7.1. EIZ mazmuni va ularning shakllanish printsiplari**
- 7.2. EIZlar iqtisodiy muammolarni hal qilish mexanizmi sifatida**
- 7.3. EIZ faoliyati yo'ritishi uchun zarur bo'lган shart – sharoitlar**

#### **7.1. EIZ mazmuni va ularning shakllanish printsiplari**

Hozirgacha na o'zbek va na xorijiy adabiyotda "erkin iqtisodiy zona" (keyingi o'rinnlarda – EIZ) tushunchasini ifodalaydigan yagona termin (yoki ibora) qabul qilingan emas. Ko'p hollarda EIZ – mamlakatning iqtisodiy-geografik manfaatli hududi, yoki davlatning bojsiz, imtiyozli eksport-import tartibi o'rnatilgan, boshqa hududlarga nisbatan savdo valyuta-moliyaviy darajasi yuqori bo'lган alohida qismi deb tushuniladi. Nafaqat mamlakatning ma'lum bir qismi, balki biron bir kichik davlatning o'zi ham EIZ sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

1973 yil 18 mayda Kiotoda qabul qilingan Bojxona tartiblarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish Xalqaro konventsiyasida erkin zona ("fanko zonalari") tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: Erkin zona-milliy bojxona hududidan tashqarida bo'lган tovarlarga ob'ekt sifatida qaraydigan, shu bois ular bojxona nazorati va soliqqa tortilmaydigan mamlakatning ma'lum qismi hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, EIZ "bojxona ekshududiylik" printsiplari asosida faoliyat yuritadigan hududdir. Professor K.A. Semyonov bu ta'rifga quyidagicha izoh keltiradi: "Ushbu ta'rifdan ko'rinish turibdiki, mamlakatning erkin bo'lган hududi to'la emas, aksincha nisbatan erkindir. hududga kiritiladigan tovarlar bojxona bojlari, import soliqlari va Boshqa nazoratlardan ozod bo'lган taqdirdagina ushbu hududni erkin zona deb atash mumkin. Bunda xorijiy davlatlardan EIZ ga olib kiriladigan tovarlar deklaratsiya qilinmaydi. Biroq ayni paytda qonunlar mahsulot egalari va investitsiyadorlarni mavjud iqtisodiy huquqiy tartibdan ozod qilmaydi, faqat ularni engillatadi xolos. Ana shuni hisobga olib, akademik E.Avdokushin erkin iqtisodiy zonalarni maxsus iqtisodiy zonalar deb atash lozimligini uqtiradi"<sup>19</sup>.

Ayni damda professor K.A. Semyonov ushbu iboraga o'z qarashlarini keltiradi. "EIZ bu – ma'lum davlatning umumqabul qilingan tartibiga nisbatan imtiyozliroq xo'jalik faoliyatini taqdim etadigan geografik

<sup>19</sup> Vasil'ev L. SEZ: mify i deystvitelnost'. // Birjevye vedomosti –2003 – № 1-2

hududlardir. Boshqacha aytganda, davlatning milliy iqtisodiy jarayonlariga saralanma aralashuvi ta'minlanadigan, ya'ni ushbu davlatning Boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar tizimiga ega milliy iqtisodiy makon tushuniladi.

Ko'rini turganidek, EIZ tushunchasi hududiylilik, imtiyozlilik, hamda davlat hokimiyati organlarining hududdagi iqtisodiy tuzilmalar xo'jalik faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirining chegaralanganligi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu izoh M. Fridman qarashlari va bozor talablarining uyg'unligini aks ettiradi.

"Erkin iqtisodiy zonalar" o'quv qo'llanmasi mualliflari V.Ignatov va V.Butov bu iboraga shunday ta'rif keltiradilar: "Erkin iqtisodiy zonalar bu – tashqi savdo, umumiqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va ilmiy texnologik vazifalarni hal qilishga ko'maklashadigan milliy va xorijiy tadbirkorlar uchun iqtisodiy imtiyozli sharoitlar yaratilgan ma'lum chegaradagi hududlar, dengiz va havo portlaridir".

Rossiyalik olim va iqtisodchilar T.P. Dan'ko va Z.M.Okrug ham EIZ tushunchasiga keng ma'noli fikrni keltirib o'tadilar. Ularning ta'rif berishicha, "EIZ deganda, mamlakat chegaralarini diffuzion kengaytirishga ko'maklashadigan ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlarni ijtimoiy - iqtisodiy tartibga soluvchi maxsus mexanizmlaridan foydalangan holda aniq umummiliy, integratsion, korporativ maqsadlarga erishishda ijtimoiy tovarni ishlab chiqaradigan va taqsimlaydigan mamlakat (yoki mamlakatlar) xo'jalik majmuasining tarkibiy qismi bo'lgan davlat (yoki davlatlar)ning suveren hududi tushuniladi"<sup>20</sup>.

Mualliflar bu kabi keng tushunchaga aniqlik kiritar ekan, EIZ hamisha davlat yurisdiktsiyasi ostida va mamlakat hududida joylashgan bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar. EIZga berilgan bunday ta'rif hududiy suverenitet, iqtisodiy majmualilik, keng ravishdagi qayta ishlab chiqarishning taqsimlangan munosabatlari hamda maxsus tartibga solish mexanizmini o'z ichiga oladi.

"Katta iqtisodiy lug'at"da EIZ xorijiy va milliy tadbirkorlar uchun alohida imtiyozli iqtisodiy sharoitlar (bojxona, ijara, soliq, viza va mehnat tartibi va b.sh) yaratilgan milliy-davlat hududining chegaralangan qismi bo'lib, sanoatning rivoji va xorijiy investitsiya kirishiga imkon yaratadi, deya izoh beriladi.

<sup>20</sup> Smorodinskaya P., Kapustin A. Svobodnye ekonomicheskie zony: mirovoy opyt i rossiyskie perspektivy. // Voprosy ekonomiki – 2001 – № 12

Ushbu ta’rifda faqat xorijiy va milliy tadbirkorlar uchun yaratiladigan alohida iqtisodiy imtiyozlarga emas, balki, EIZdagi muhim engilliklar ham aniqlashirilmogda. Biroq bu aniqlik EIZ faoliyatini boshqarish mexnanizmining to’la ma’nosini ifodalab berolmaydi.

1990 yilda tashkil etilgan erkin zonalarni rivojlantirish Xalqaro uyushmasi (EZRXU) ning EIZga bergan izohi quyidagicha: “EIZ har qanday davlatning moliyaviy xo’jalik yuritish faoliyati uchun ochiq bo’lgan alohida hududiy xo’jalik tuzilma hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ayon bo’lganidek, EIZ to’g’risida yagona aniq to’xtamga kelinmagan. Biroq turli iqtisodchilarining fikr-mulohazalarini umumlashtirigan holda, quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

- birinchidan, EIZ bu – mamlakatning tarkibiy qismi hisoblanadi;
- ikkinchidan, ushbu hududda qator imtiyozlar tizimi mavjud bo’ladi;
- uchinchidan, import soliqlari va bojlari, import uchun belgilangan turli nazorat turlaridan ozod bo’lgan hudud “erkin”hisoblanadi;
- to’rtinchidan, EIZ rezidenti bo’lish degani mavjud iqtisodiy ququqtartiblaridan mavhumlashish degani emas;
- beshinchidan, EIZ tashqi savdo, umumiqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va ilmiy-texnologik vazifalarni hal qilishga ko’maklashadi<sup>21</sup>.

### Tasniflash

EIZni tasniflash deganda, ularning xususiyatlari qisqa ta’rif keltirishgina emas, ayni paytda, EIZ rivojlanishi, taraqqiy etishi va faoliyat yuritishining tarixi ham tushuniladi. Bunda oddiy iqtisodiy zonalarning o’zgarishi, isloh qilinishi va takomillashuv yo’llari, iqtisodiy zona nomini olguncha bo’lgan tadrijiy taraqqiyot bayon qilinadi.

#### 1. Savdo-ombor zonalari (The Store and trade zones)

Bu turkumdagи zonalarda Kioto konventsiyasida belgilangani kabi xorijiy mahsulotlar saqlanishi, sotilishi va oddiy bojxona to’lovlarisiz ham sotilishi mumkin. Savdo – ombor zonalari 3 ta o’ziga xos xususiyatga ega:

- ular jahon bozoriga xizmat ko’rsatish uchun tashkil qilinadi;
- mamlakatning holgan qismida faoliyat yuritadigan ko’plab soliq me’yorlari, bojxona chegirmalari ushbu hududlarda amal qilmaydi;
- ularda tashqi iqtisodiy alohalar bo’yicha davlat tartiblari faoliyat yuritadi.

Savdo-ombor zonalari mahsulotlarni faqat keyingi oldi-sotdi uchun qabul qilish, saqlash va qayta ishlash uchungina emas, balki shuningdek, ularning iste’mol xususiyatlarini yaxshilash tadbirlarini amalga oshirish uchun ham tashkil etiladi. Bu hududlardagi korxonalar keng miqyosdagi

<sup>21</sup> Smorodinskaya N. Tumanno buduqee svobodnyix zon. // Ekonomika i jiznъ – 2002 – № 12

ko'rgazma faoliyati bilan shug'ullanishi, mahsulotning iste'mol xususiyatlari yaxshilanishi samarasida savdo boji va qo'shilgan qiymat solig'ini olmagan holda, savdo-sotiq tashkil qilishi, bank va sug'urta xizmatlarini ko'rsatishi mumkin. Barcha savdo-ombor zonalari dengiz portlari, temir yo'l uzellari, aeroportlar, ya'ni mahsulot va yo'lovchilar tashiladigan joylarda tashkil qilinadi.

### 2. Erkin bojxona zonalari (The free customs zones)

Erkin bojxona zonalari eng oddiy turdag'i bojsiz savdo va ombor zonalarining zamонавиј ко'rinishlaridir. Ular tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish maqsadida tashkil etiladi.

Bunday turkumdag'i zonalarni yana maxsus, bojsiz bojxona zonalari va hattoki, erkin bojxona hududlari deb ham atashadi. Odatda mazkur hududlar dengiz va ko'l portlari, havo bandargohlari, transport magistral yo'llari hamda eksport qilinadigan sanoat buyumlarini ishlab chiqarishni yakunlash, import mahsulotlarni yuklash, ularni boshqasiga ortish, bojxona ko'rigidan o'tmagan mahsulotlarni taxlash uchun alohida sanoat hududlarida tashkil qilinadi. Erkin bojxona hududlari dengiz, ko'l, havo portlarida kemalar va boshqa turdag'i transport vositalarini yuk bilan ta'minlash bilan shug'ullanadi. Moliyaviy tartib nuqtai nazaridan mazkur bojsiz savdo va ombor zonalari milliy hududning bir qismi bo'la turib ham davlat chegaralaridan tashqarida joylashgan deya qaraladi. Ushbu zonalar bir paytning o'zida mamlakatning savdo aylanmasi hamda Xalqaro tranzit opreatsiyalariga ham xizmat ko'rsatadi. Bunda erkin bojxona zonalarda mahsulotlar cheklanmagan muddatgacha saqlanishi mumkin.

Erkin bojxona zonalarning preferentsial rejimi ushbu hududga olib kiriladigan va qayta eksport qilinadigan mahsulotlar ustidan bojxona bojlari va eksport-import nazoratini bekor qilish (yumshatish)ga asoslanadi. Mazkur zonadan hudud joylashgan mamlakatga mahsulotlarni olib chiqishda import boji to'lanadi. Bu erda moliyaviy xizmat ko'rsatish sektori (tashqi savdo faoliyati uchun kredit berish, sug'urta qilish va b.sh) keng rag'batlantiriladi.

### 3. Erkin savdo zonalari (The zones of the free trade)

Erkin savdo zonalari – bu "tijorat markazlari" bo'lib, ular tovar aylanmasini tezlashtirib, tashqi savdoni rag'batlantiradi. Ular mamlakat milliy bojxona tartiblari rioya qilinmaydigan alohida hududlardir.

Mahsulotlarning bojxona boji, import soliqi va boshqa turdag'i moliyaviy nazorat to'lovlaridan ozod etilgani bunday zonalarning erkinligi uchun kafolatdir. Erkin savdo zonalariga kiritiladigan mahsulotlar deklaratsiya qilinmaydi, biroq bojxona ma'muriyati kontrabanda va man

qilingan tovarlar kirishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida hudud ichkarisida nazorat o'tkazish ququqiga ega. Odatda bunday zonalarda omborxonalar joylashgan bo'lib, u erlarda saqlanadigan mahsulotlarni taxlash, saralash, qadoqlash, belgilab chiqish va sifat nazoratini o'tkazish ishlari amalga oshiriladi. Mazkur zonada tovar va mahsulotlar cheklanmagan muddatgacha saqlanishi mumkin. Mahsulotlarning bu hududdagi saqlanganlik to'lovi ularning bu erda saqlanish muddati, omborxona turi, shuningdek, sug'urta badaliga bog'liq. Erkin savdo zonalarining asosiy faoliyati tranzit erkin portlar, erkin bojxona zonalar, savdo-ishlab chiqarish zonalarida amalga oshiriladi.

#### **4. Eksport-ishlab chiqarish zonaları (The export-production zones)**

Bunday zonalarni yana "eksport qayta ishslash zonaları" yoki "eksportni rag'batlantiradigan maxsus zonalar" deb ham atashadi. Eksport-ishlab chiqarish zonalarida mahalliy xomayoshdan foydalangan va mamlakat ichki bozoriga mahsulot olib kirgan tadbirkorlar mukofotlanadilar. Bu usul investitsiyadorlarga qisqa muddat ichida uskunalarni hisobdan chiqarishga imkonini beradi. Bu hududlarda ishchi kuchi arzonligining raqobatbardosh ustunligini qo'llab-quvvatlash maqsadida mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi alohida rejim o'rnatilgan. Unga ko'ra, kasaba uyushmalari faoliyatiga yo'l qo'ymaslik, tadbirkorlarning ijtimoiy sug'urta jamg'armalariga to'lov to'lashi va boshqa shu kabi qat'iy choralar amalga oshiriladi.

#### **5. Kompleks zonalar (The complex zones)**

Ushbu zonalar yuqorida sanab o'tilgan barcha hududlarga xos xususiyatlarni o'zida jamlaydi. Erkin zonalar rivojlanish evolyutsiyasiga nazar tashlar ekanmiz, kompleks zonalar zamonaviy ko'rinishga ega hududlar ekanligini aytish mumkin. Bu mintahalarda savdo, bojxona, ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib, investorlarning bir necha xil yo'nalishda faoliyat olib borishi yo'lga qo'yilgan. Kompleks zonalarda hamkorlikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

#### **6. Erkin ilmiy-texnik zonalar (The free scientific-technical zones)**

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalarni texnopolislardan yohud texnoparklar deb ham atashadi. Texnologik parklar deganda, tadbirkorlik sub'ektlarini zamonaviy raqobatbardosh mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan, zamonaviy jahon bozorlari talablariga javob bera oladigan ilg'or texnologiyalardan foydalangan sharoitlar bilan ta'minlovchi kompleks-sanoat inshootlari va xizmatlar ob'ektlari tushuniladi. Texnopark bu – ilmiy-texnikaviy sohadagi tadbirkorlarni boshqarishning samarali

mexanizmi, ilmiy va innovatsion faoliyatni birlashtiruvchi muhim vosita, fan, ishlab chiqarish, moliyaviy tuzilma va hukumat organlarini integratsiyalashtiruvchi tuzilmadir. Iqtisodchilar texnoparklarga kichik biznesni tashkil qiladigan va rivojlantiradigan muhim omil deb qaraydilar. Texnoparklar faoliyat turiga ko'ra ilmiy, ilmiy-tadqiqot, ilmiy-texnik va texnologik bo'lishi mumkin. Fundamental tadqiqot natijalari ilmiy yo'nalishdagi texnoparklar mahsuloti bo'lsa, tajriba uchun yaratilgan namunalar, kam turdag'i buyumlar ilmiy-tadqiqotga ixtisoslashgan texnoparklarning mahsulotiga kiradi. Ilmiy-texnik va texnologik texnoparklar yuqori texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy asosda ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulot, ishlanma, tadqiqotlarni buyurtmachilarga etkazib beradi. O'z faoliyatini yaqinda boshlagan paytlar hamda ishlab chiqarishning qaltis davrlarida firmalar faoliyati uchun soliq, bojxona va kredit imtiyozlarini ajratish keng targ'ib etilgan<sup>22</sup>.

Hozirgi kunda texnoparklar faoliyati, maqsadi, talabgor mintaqalar turlariga ko'ra ko'plab tashkiliy tuzilmalarga ajratilgan:

1. Ilmiy park (Science park)-odatda bunday parklar universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlariga yaqin joylarda ta'sis etiladi. U ishlab chiqarish bilan shug'ullanmagan holda, tadqiqot ob'ektlaridan foydalanib, ularni rivojlantiradi;

2. Innovatsion markaz (Innovation centre)ning asosiy vazifasi markaz hududida ishlamaydigan, biroq ishlab chiqarish va yangi texnologiyalarni amaliyotga tadbiq qilish bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash, ya'ni ilmiy izlanishlar, texnologiyalar, moliya va tijorat faoliyatida vujudga keladigan masalalar bo'yicha maslahat berishdan iborat;

3. Tijorat parki (Commercial park) – har xil tudagi tijorat faoliyati bilan shug'ullanib, ma'muriy ishlar, ko'rgazmalar tashkil qilish, tayyor mahsulotni qadoqlash va etkazib berish ishlarini bajaradi. Bu strukturada ilmiy-tadqiqot institutlari yaqinida joylashish talab etilmaydi.

4. Texnologik polyus (Technology polus) – innovatsion jarayonlarning strategik muhim omillari, yuqori malakali ishchi kuchi, fundamental va amaliy tadqiqotlar faoliyati, inkubator xizmatlar bo'yicha bir necha ob'ektlar, banklar yoki shunga o'xshash muassasalar, subsidiya qilinayotgan innovatsiyalar mavjud bo'lgan hududdir.

5. Texnologik okrug (Technology zircum) – ushbu tuzilma yuqoridagi polyus xususiyatlarini o'zida jamlagan holda ilmiy xarakterdagi yagona parkdan iborat sanoat taraqqiy etgan okrugni o'zida mujassam etadi.

<sup>22</sup> Vasil'ev L. SEZ: mify i deystvitel'nost'. // Birjevye vedomosti –2003 – № 1-2

6. Sanoat parki (The industry park) – odatda umumiylıkka mos kelmaydigan ixtisoslashmagan hududiy korxonalar majmuasini sanoat parki deb atashadi. Davlat kuchsiz tuzilmaga ega hududlarda joylashgan ishlab chiqaruvchilarga manfaatli sharoitlar yaratib berish taklifi bilan (transport bog'liqligi, ijara haqi, soliq imtiyozlar va b.sh) ularga yordam ko'rsatadi. Ishlab chiqaruvchilarning sanoat parklaridagi faoliyat muddati chegaralanmaydi.

7. Biznes-inkubator (The business-incubator) – sanoat parkidan farqli o'laroq, yaqinda tashkil etilgan korxonalarni rivojlanishi va faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan. Ya'ni foydali ijara haqi evaziga korxonalarni har xil turdag'i kompleks binolar bilan ta'minlashi, telefaks, komp'yuter, kommunikatsiya va boshqa xizmatlar ko'rsatishi, menejmentni qo'llab-quvvatlashi lozim. Biznes-inkubatorga yangi a'zolarni qabul qilish ko'p hollarda yangi korxonaning ishga tushishi, faoliyat yuritish ehtimoli kabi aniq shart-sharoitlarga bog'liq. Muddat o'tishi bilan yangi talabgorlarga o'rinn berish maqsadida korxonalar biznes-inkubatorlarni tark etishi lozim.

8. Ilmiy-texnik park (Science-technology park) – zamonaviy texnologiyalarga yo'naltirilgan korxonalar majmuasidan iborat bo'lib, ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotlar maskanigina emas, ayni paytda ishchilarning yashash joyi ham hisoblanadi. Ko'p hollarda texnologik parkda joylashib, faoliyat yuritish muddati chegaralanmagan bo'ladi.<sup>23</sup>

EIZning yuqorida tahlil etilgan turlari ushbu iqtisodiy tuzilmalarning barcha xususiyatlarini hamrab olgani yo'q. BMTning bergen ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan imtiyozlarga ega o'nlab iqtisodiy tuzilmalar mavjud. Men ushbu Dissertatsiyada quyida mazkur iqtisodiy tuzilmalarning ayrimlarini sanab o'tishni lozim deb topdim:

1.Erkin iqtisodiy zonalari (The zones of free economic);

2.Investitsiyalarga xizmat ko'satuvchi zonalar (The zones of the assistance to the investments);

3.Umumiyligda tadbirkorlik zonalari (The zones of the consistent employment);

4.Bojsiz ishlab chiqarish zonalari (The zones of the undutyal production);

5.Ilmiy-texnik zonalar (The scientific-technical zones);

6.Bojsiz eksport-sanoat zonalari (The undutyal export-industrial zones);

<sup>23</sup> Smorodinskaya N. Tumanno buduščee svobodnyx zon. // Ekonomika i jizнь – 2002 – № 12 96-str.

7.Iqtisodiy ko'mak berish zonalari (The zones of the economic prosperity);

8.Bojsiz savdo zonalari (The zones of the undutyal trade);

9.Tashqi savdo zonalari (The foreigntrade zones);

10.Bojsiz sanoat ishlab chiqarish zonalari (The zones of the undutyal industrial production);

11.Bojsiz eksport qilish zonalari (The export-undutyal zones);

12.Eksport sanoat zonalari (The export industrial zones);

13.Bank va sug'urta zonalari (The banking and insurance zones);

14.Erkin gavanalar (The free havanes);

15.Ochiq shaharlar (The open towns);

16.Trans chegaraviy rivojlanish zonalari (The transborder zones of development);

17.Importni rivojlantirish zonalari (The zones of the development of the import);

18.Tashqi savdo zonalari (The zones of foreign trade) va boshqalar<sup>24</sup>.

Yuqoridagilar bilan tanishib chiqgach, EIZ o'zining xilma-xilligi bilan eng talabchan investorning talablarini ham qondira oladi degan xulosaga kelish mumkin. Keng imkoniyatlarni yaratib beradigan ushbu zonalar mamlakat hukumati zarur deb topgan sohaga xorijiy kapitalni jalb qilishga qodir. Ilmiy faoliyatni jadallashtirish lozim bo'lgan taqdirda, erkin ilmiy texnikaviy zonalar; bo'sh qolgan imoratdan foydalanishda – savdo-ombor zonalari; xomashyodan foydalanishni rag'batlantirish va mamlakat ichki bozoriga mahsulotlarni etkazib berishda – eksport-ishlab chiqarish zonalari; bir paytning o'zida birinchi, ikkinchi va uchinchi faoliyat zarur bo'lgan taqdirda – kompleks zonalar faoliyati yo'lga qo'yiladi. Umuman olganda, zonalar – mintaqalar bo'lajak rezidentlar uchun yaratib beradigan imkoniyatlari turiga qarab tasnifланади.

EIZ tashkil qilish.

EIZ tashkil qilishning maqsad va vazifalari.

EIZ tashkil qiladigan mamlakatlarning maqsadlari ham turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zi mamlakatlar EIZni integratsiyalashgan iqtisodiy mexanizm sifatida qo'llashsa, ayrimlari xorijiy texnologiyani jalb qilish maqsadida, yana boshqa davlatlar ijtimoiy qizg'inlikni kamaytirishda foydalanishadi. EIZ tashkil qilish maqsad va vazifalarining xilma-xilligiga

---

<sup>24</sup> Smorodinskaya P., Kapustin A. Svobodnye ekonomicheskie zony: mirovoy opyt i rossiyskie perspektivy. // Voprosy ekonomiki – 2001 – № 12 153-str.

qaramasdan ushbu hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy mintaqalarga bo'lish mumkin va ular quyidagicha:

- Iqtisodiy erkin zonalar:

I) milliy bozorning jahon xo'jalik tizimiga yanada chuqurroq aralashuvi;

II).yuqori darajada foydali ishlab chiqarishni rivojlantirishda xorijiy va milliy investitsiyalarni jalg qilish;

III) eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishda xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanish;

IV) mamlakat byudjetiga valyuta kirimini ko'paytirish;

- Ijtimoiy erkin zonalar:

I) qoloq mintahalarni kompleks ravishda rivojlantirish;

II) ish o'rinalarini kengaytirish va aholi bandligini ta'minlash;

III) malakali milliy ishchilar, muhandislik, xo'jalik va boshqaruv yo'nalishidagi kadrlarni o'qitish va tayyorlash;

IV) milliy bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish;

- Ilmiy-texnikaviy erkin zonalar:

I) xorijiy va mahalliy eng ilg'or texnologiyalardan foydalanish;

II) yangi ko'rinishdagi boshqaruv mehnatiga o'tish;

III) muhandislik-texnik markazlar tajribasi va ilmiy-tadqiqot yutuqlarini jalg qilish;

IV) foydalaniladigan ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilmalar va o'zgartirilgan komplekslar samaradorligini oshirish va boshqalar<sup>25</sup>;

## **7.2 EIZlar iqtisodiy muammolarni hal qilish mexanizmi sifatida**

Turli islohotlar samarasini sinovdan o'tkazishda, xususan sanoatning alohida tarmoqlarini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ma'lum chegaradagi hududda investitsiyalar faolligini oshirishda EIZ mexanizmi qo'l keladi.

EIZ mexanizmidan foydalanishda shuningdek, maxsus imtiyozlardan chetlashib, ayrim faoliyat turlarida gorizontal xususiyaga ega bo'lgan boshqa imtiyozlarga o'tish imkoniyati paydo bo'ladi<sup>26</sup>. Bundan tashqari, texnologik uskunalar va butlovchi buyumlarni import qilishda bojaxona to'lovlaridan ozod qiladigan qo'shimcha imtiyozlar o'rniga, bojaxona Kodeksiga muvofiq, erkin ombor va erkin bojaxona zona bojaxona tartibidan foydalanish, shu bilan barcha salohiyatli investorlar uchun imtiyozlarni

<sup>25</sup> Dan'ko T.Okrug. Svobodnye ekonomicheskie zony v mirovom xozyaystve: Uchebnoe posobie // Infra-M, 1998 42-ctr.

<sup>26</sup> Druzik Y.A.S. Svobodnye ekonomicheskie zony v sisteme mirovogo xozyaystva: Uchebnoe posobie. - M.: «FUAinform», 2000. 59-ctr.

standartlashtirish mumkin bo'ladi. Bunday yondoshuv Jahon Savdo Tashkilotining subsidiyalar to'g'risidagi Nizomiga ham mos keladi.

Yuqorida eslatib o'tilgan imtiyozlardan kelib chiqib, EIZ aniq me'yoriy muhit hamda soddalashtirilgan ma'muriy va bojxona tartiblariga ega bo'lgan qulay investitsiyaviy muhit yaratadi. Kiritiladigan investitsiyalar eng avvalo, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi yuqori qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarini ishga tushirishga yo'naltiriladi.

Bugungi kunda ma'lum bir respublikalarda sanoatning ayrim sektorlari jumladan, yosh tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilayotgan chora-tadbirlar, ko'pchilik dunyo mamlakatlari a'zo bo'lish istagida bo'lgan Xalqaro tashkilotlar tartiblariga zid kelishini e'tiborga olish lozim.

Shunga qaramasdan, sanoat siyosatidagi shu kabi choralar yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlar qoidalarini erkin zonalarda buzmagan holda qo'llanilishi mumkin. Negaki, EIZ mamlakatning boshqa hududlaridan farqli ravishda o'ziga xos bojxona tartiblari amal qiladigan alohida avtonom bojxona hududlari deb qaraladi. Bundan tashqari, yuqoridagi xalqaro tashkilotlar, xususan, butunjahon savdo tashkilotida bitimlar sub'ektlari sifatida davlatlar emas, bojxona hudlarigina tan olinadi.

EIZ erkin zona sifatida qo'shimcha byudjet mablag'i va zona ma'muriyatining ichki manbalari hisobidan, bo'lingan alohida hudud infratuzilmasini rivojlantirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Transmilliy kompaniyalar bilan kooperatsion aloqalarning rivojlanishida EIZ – ishlab chiqarish tsikllari tashkil qilinadigan hududda Transmilliy korporatsiya (TMK)ni rag'batlantiruvchi samarali mexanizm bo'lishi mumkin<sup>27</sup>. Transmilliy korporatsiyalar bilan hamkorlikni mustahkamlash jahon bozoriga mahalliy iqtisodiyotni yanada integratsiyalashtirish, kooperatsion aloqalarni kuchaytirish, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda qo'shimcha sharoitlar yaratish, ichki va tashqi bozorda xaridorgir bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqaradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni keng yo'lga qo'yishga yordam beradi. TMKning respublika iqtisodiyotidagi ishtirokini kuchaytirish milliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Bundan tashqari, TMKning mahalliy mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar

<sup>27</sup> Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M. T.: MCHJ "RAM-S", 2007y 127-b.

o'rtasida raqobatbadoshlikni kuchaytirishi mahalliylashtirish dasturini sifatli bajarilishiga ko'mak beradi.

Shuningdek, mamlakat intellektual salohiyatini amaliyotga joriy qilish uchun qator masalalarni hal qilish zarur. Xususan, innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi va ularni sanoatga tadbiq qiluvchi yangi institutlar tashkil qilish shular jumlasidandir. Bunda ilmiy-tadqiqot va tajriba-qurilish ishlanmalari respublika uchun samarali daromad manbai bo'lisi va bozor talablariga javob berishi lozim<sup>28</sup>.

EIZni tashkil qilish quyidagi iqtisodiy masalalarni:

- xorijiy kapital, texnologiyalar, mehnatni tashkil qilish shakllari va usullarini iqtisodiyotga jalb qilishda;
  - hududni jahon iqtisodiyoti, jahon bozori va milliy xo'jalik o'rtasidagi dallol sifatida foydalanish imkonini beradigan xalqaro iqtisodiy alohalar (jumladan, valyuta-kredit, sug'urta, transport, axborot aloqalari)ni kengaytirishda bozor infratuzilmasini shakllantirishda;
  - qoloq hududlarni jadal taraqqiy etgan zonalarga aylantirish maqsadida alohida hudud yoki aniq bir ishlab chiqarish sohasini iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda;
  - yangi xo'jalik tuzilmalarining zona darajasidagi faoliyatini sinovdan o'tkazishda;
  - eksport bazasini rivojlantirish va valyuta kirimini oshirishda;
  - manfaatdor mamlakatlarni ichki bozorini import o'rmini bosuvchi yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda;
  - ishlab chiqarishga mahalliy va xorijiy ilmiy-texnika ishlanmalarini jadal joriy qilishda;
  - malakali ishchilar, muhandislar, xo'jalik va boshqaruv kadrlarini xalqaro biznes usullari bo'yicha o'qitish va tayyorlashda;
  - mamlakatlarni xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi jarayoniga hamda ishlab chiqarish yo'nalishida, qolaversa valyuta kirimining o'sishiga ko'maklashadigan sayyohlik, madaniyat va dam olish sohalari bo'yicha qo'shilishida va boshqalarni hal qilish ko'maklashadi va ahamiyati juda katta.

### **7.3 EIZ faoliyati yo'ritishi uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlar**

EIZni tashkil qilish maqsadlari xorijiy investorlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Men shu

<sup>28</sup> Dmitriy Ogay «Svobodnaya ekonomicheskaya zona – territoriya svobodnoy torgovli» 14 oktyabrь 2009g 142-str.

o'rinda EIZ faoliyat yuritishida muhim sanalgan sharoitlarni sanab o'tishni lozim deb topdim va ular quyidagichadir:

1. Mamlakatda hukm surayotgan siyosiy barqarorlik qulay investitsiyaviy muhitni yaratadi. Amaliyotda tasdiqlanganidek, aynan mazkur omil xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi;

2. Xorijiy va mahalliy investorlarning huquqlarini kafolatlaydigan, ularning faoliyatini rag'batlantiradigan qonunchilik bazasining mavjudligi;

3. Rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi (ishlab chiqarish va tijoriy);

4. Tabiiy-geografik muhit eng muhim shartlardan sanaladi;

5. Qulay iqtisodiy ahvol – har qanday investor uchun jalg qiluvchi kuch hisoblanadi.

EIZ rivojlanishida investorlar uchun imtiyozlar tizimining mavjud bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki har qanday investor o'z mablag'ini sarflashdan oldin ularga taqdim etiladigan imtiyozlar bilan tanishib chiqadi.

EIZ tashkil qiladigan har qanday mamlakat yoki uning ma'lum hududi imtiyozlar to'plamini o'zi belgilaydi. Bugungi kun amaliyotda ko'ringanidek, EIZda o'rnatiladigan imtiyozlar tizimi mamlakatning individual yondoshuvi hamda ushbu hududda joriy qilinadigan dasturlar va loyihalardan kelib chiqib belgilanadi. Biroq iqtisodiy adabiyotdalarda 4 ta asosiy imtiyozlar guruhi mavjud:

– ayrim turdag'i tadbirkorlik faoliyatini rivojlantiradigan fiskal imtiyozlar. Ushbu engilliklar foyda, daromad, mulk soliqlarida tadbiq qilinadi. Bunda tadbirkorlarni doimo yoki vaqtinchalik soliqdan ozod qilish masalalari ko'rib chiqiladi;

moliyaviy imtiyozlar – ishlab chiqarish binolari, er, ob'ektlar, infratuzilmalar, kommunal xizmatlardan foydalanganlik uchun past narxlarda belgilanadigan engillik turidir. Moliyaviy imtiyozlarga shuningdek, byudjet vositalari va davlat preferentsial kreditlari hisobidan turli subsidiyalar taqdim etilishi ham kiradi;

ma'muriy imtiyozlar odatda korxonalarni ro'yxatga olish, xorijiy fuqarolarni EIZga kirib chiqishi, turli xizmatlar ko'rsatish tartibini soddashtirish maqsadida EIZ ma'muriyati tomonidan taqdim etiladi. Ma'muriy tartiblarning oddiyligi hamisha investorlar tomonidan ijobjiy baholanib kelingan, ba'zan esa, bu omil zonaga xorijiy kapitalni jalg qilishda hal qiluvchi hisoblanadi;

tashqi savdo imtiyozlari asosan, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda soddalashtirilgan tartibning joriy qilinishi va eksport-import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish bilan bog'liq engillik turidir;

Yuqorida ko'rsatilgan barcha imtiyozlar, jahon amaliyotida tasdiqlanganidek, xorijiy kapitalni jalb qilishda hal qiluvchi omil bo'lolmasligi ham mumkin<sup>29</sup>.

### **EIZ tashkil qilish bosqichlari.**

Xalqaro amaliyot EIZni tashkil qilish loyihasi 4 bosqichga asoslanishini isbotladi: investitsiya kiritishdan oldingi davr, zona faoliyatida investitsiya kiritish davri, operatsion davr va rivojlanish davri.

Investitsiya kiritishdan oldingi davr (1 yilgacha davom etadi) ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda dastlabki izlanishlar, marketing, iqtisodiy-geografik, iqtisodiy-moliyaviy va boshqa tadqiqotlar olib boriladi. Mazkur bosqichni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – EIZning mintaqadagi tarkibiy imkoniyatlari va hududning joylashuvini aniqlashdan iborat. Bunda zonaning ixtisosligi, ko'rsatadigan xizmat turlari batafsil tahlil qilinadi. Mazkur bosqichda to'plangan axborotga asoslanib, ma'lum bir EIZda ish olib borish to'xtamiga kelish mumkin.

Investitsiya kiritishdan oldingi davrning ikkinchi bosqichida dastlabki bosichdagi ma'lumotlar yanada aniqlashtiriladi. Bunda investitsiya kiritishda samaradorlik masalalari, iqtisodiy va moliyaviy hisob-kitoblarga alohida e'tibor qaratish lozim. Investitsiyalarning umumiyligi miqdorini infratuzilma, ishlab chiqarish qurilishiga ajratgan holda aniqlashtirish zarur. Bu jarayonda mazkur pul vositalarining manbasini belgilash muhim sanaladi: markaziy davlat kapitallari, hududning va EIZda joylashgan korxonalarning shaxsiy mablag'i, banklardan qarzga olingan pullar, qimmatli qog'ozlardan tushgan mablag'. Ushbu bosqichda umumiyligi mablag' hisobida hududni rivojlantirishga yo'naltirilgan valyuta vositalarining ulushini aniqlab olish maqsadga muvofikdir. SHuningdek, mazkur bosqichda hududiy geografik-iqtisodiy tahlil o'tkazish, oqilona xo'jalik tashkil qilish sharoitlarini aniqlash bo'yicha sinchkov muaomalar ishlari amalga oshiriladi.

Investitsiya kiritish davri bir yil muddatgacha davom etishi mumkin. Bir paytning o'zida bundan oldingi bosqich bilan baravar ravishda olib borilishi yoki ikki bosqichda o'tkazilishi ham mumkin. Birinchi bosqichni «muzokaralar» davri deb atasa ham bo'ladi. Bu paytda mahalliy hokimliklar va markazlar bilan faoliyat yo'naliishi, korxonanining joylashuv

<sup>29</sup> E. Saydlovska-Martini. *Funkcionalirovanie svobodnykh ekonomicheskix zon v mire.* – M.: Infra-M, 1999. 189-str.

o'rni, zona tartibi, loyihani amalga oshirishda hokimliklarning aralashuv darajasi kabi masalalar yuzasidan kelishuv olib borishga erishish zarur. Ayni damda zona infratuzilmasida tashkil etiladigan texnik loyiha ishlab chiqilishi kerak.

Investitsiya kiritishning ikkinchi bosqichi ma'lum infratuzilmaga ega ob'ektlar, ya'ni energiya, issiqlik ta'minoti, aeroport, kommunikatsiya tarmoqlari, turli binolar (foydalanish uchun tayyor bo'lgan omborlar, ofislar, ishlab chiqarish binolari)ni tashkil qilishni nazarda tutadi. Mazkur ob'ekt va binolarni qaytadan qurish ham, rekonstruktsiya qilish orqali barpo etsa ham bo'ladi. Bu bosqichda qurilish ishlari bilan bir paytning o'zida salohiyatli investorlarni jalb qilish uchun reklama va marketing ishlari ham amalga oshirilishi lozim. Ushbu amaliy ishlar shunday bajarilishi kerakki, operatsion davrga kelib, zonada o'z ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini yo'lga qo'yadigan qator salohiyatli investorlar bo'lishi lozim.

Operatsion davr – kelgusi ishlarni rejalashtirish uchun bir muncha murakkab davr sanaladi. Bu paytda zonani rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha tadqiq etilgan marketing izlanishlari natijalaridan keng foydalanish zarur. Operatsion davrni ham ikki bosqichga ajratgan holda o'rganish mumkin: ishga kirishish va zonaning rivojlanish bosqichi. Har ikkala bosqichda ham zonaning jismoniy salohiyati to'liq ishlatilmasligini ta'kidlash joiz. Zona salohiyatidan 100 foiz to'liq foydalanilganda, bunday hudud yirik sanoat markaziga aylanishi yoki yangi tarmoq va ishlab chiqarishga o'tishi yohud o'zining institutsional mavqeini o'zgartirishi lozim. Har qanday holatda ham bu to'rtinchi – rivojlanish davrining boshlanganini bildiradi.

Operatsion davrning ishga kirishish bosqichi rivojlanish bosqichidan investorlar motivatsiyasi o'zgarishi bilan farq qiladi. Bu bosqichda investitsiya egalari zonaga bir necha afzallik va xizmatlar (ishchi kuchi, xomashyo bahosi, mamlakatning asosiy bozoridan foydalanish, tayyor binolar va b.sh) tufayligina tashrif buyuradilar. Bu paytda erdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish masalalari ularning sifati, qarashliligi va undagi tartiblarning mamlakat amaldagi qonunchiligidan nechog'li yiroqligini hisobga olgan holda hal qilinishini aniqlash lozim. Keyingi bosqichda investitsiya egalarini zona va uning yaqinidagi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati jalb qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha hulosa qilish mumkin: EIZ ning samarali ishlashi uchun ushbu hududlar erishishi mumkin bo'lgan maqsadlar va EIZ faoliyatida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni boshlang'ich paytda, ya'ni investitsiya kiritish davrida aniqlash

zarur. EIZ faoliyatining asosiy printsiplarini amaliyotga joriy qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi, negaki, ushbu printsiplarning mavjudligi va ularga amal qilinishi bunday hududlarning barqaror va istiqbolli faoliyat yuritishidan dalolat beradi<sup>30</sup>.

EIZ tashkil qilish printsiplari.

Erkin iqtisodiy zonalar, o'ziga xos tuzilma sifatida ularni tashkil qilish va faoliyat yuritishi uchun lozim bo'lgan printsiplarni talab qiladi. Printsip bu – biror narsa bilan doimiy munosabatga kirishadigan va u yoki bu turdag'i foydalanish tartibini aniqlaydigan asosiy nizom, amal qilinishi lozim bo'lgan qoida, qonuniylik aks etgan yo'riqnomadir.

Ayni damda EIZ faoliyatining o'ziga xosliklari, printsiplarini inobatga olib, bu hudud ishslashining bozor mexanizmlari xususiyatlari, bozorning qimmatli imkoniyatlari, shuningdek, ham hududning, ham undagi alohida sub'ektlarning foyda va samaradorlilikka erishishda tovar va xizmatlar munosabatlari jarayonini tezlashtiradigan ma'lum tashkiliy va huquqiy moliyaviy-iqtisodiy texnologiyalarni nazarga tutish lozim.

EIZni tashkil qilish va faoliyat yuritish printsiplarini ko'rib chiqish jarayonida men ularni umumiyl boshqarish tartiblarini alohida ajratib olish lozimligiga e'tibor qaratdim. Bunday tartiblarga: boshqaruv va tadbirkorlik tavakkalchiligi printsipi; raqobatbardosh afzalliklar printsipi; teng huquqli hamkorlilik printsipi; refleksiv xulq va boshqa printsiplar kiradi.

Boshqaruv va tadbirkorlik tavakkalchiligi printsipi – bozor iqtisodiyotini tartibga soluvchi muhim printsiplardan biri sanaladi. Bu noaniqlik va xavf holatlarini yuzagan keltiradigan va ushbu holatlarni kuchaytiradigan biznes, tadbirkorlik faoliyati, raqobatbardoshlikning turli jihatlarida namoyon bo'ladi.

Bunda raqbar tavakkalchilik holatini baholay olishi, tadbirkorlik faoliyatida tashabbus ko'rsatishi, aniq tavakkalchilik qarorlarini qabul qilishda doimo tayyor bo'lishi zarur. Mazkur mexanizmsiz iqtisodiyotda boshqaruv qarorlari kechikadi, tadbirkorlik faoliyatida susayish, o'zgarish holatlari yuz berashi mumkin.

Boshqaruv va tadbirkorlik tavakkalchiligi printsipini amalga oshirish tadbirkorlik sifatlarini EIZning iqtisodiy mexanizmlari yordamida tashabbuslar bilan birlashish hamda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Ushbu printsipa rioya etish tadbirkorlik, boshqaruv tashabbuslari, ma'lum firmanın shaxsiy qiziqishlarining EIZ manfaatlari bilan birligini ta'minlovchi asosiy dasturil amal hisoblanadi. Bu esa, taraqqiyotga erishishda muhim omillardan biridir. Noaniqlik va tavakkalchilik holati

<sup>30</sup> Vasil'ev L. SEZ: mifы i deystvitelъnostъ. // Birjevые vedomosti –2003 – № 1-2. 52-str.

hamisha muvaffaqiyat va omadsizlikka etaklaydigan ma'lum bir usulni tanlash talabini qo'yadi.

Firma tavakkalchilik va noaniqlik holatida EIZdagi bozor muhitida yuz beradigan tashqi o'zgarishlarni, kompaniyaning ma'lum bir bozorda erishgan yutuq va mag'lubiyatlarini kuzatib borishi lozim.

Tayyor mahsulot, xomashyo va energiya qiymati, ularga bo'lган talabning mudom o'zgarib turishi tadbirkorlik tavakkalchiligining darajasi va firmaning bozordagi ish yuritishini belgilaydi.

Aytish joizki, tavakkalchilik va noaniqlik holatini boshqarish ko'pincha rahbariyat malakasi va EIZda faoliyat yuritayotgan firmanın ichki va tashqi ahvolini nechog'lik to'g'ri prognozlashtira oladigan iqtisodiy yo'qotishlar va foydalilik darajasini me'ylorlashtirishga ham bog'liq.

Konkret ustunlik printsipi – boshqa hududlarga qaraganda, tashkiliy, moliyaviy, ma'lum iqtisodiy engilliklarga ega tadbirkorlik faoliyatini jadallashtiradigan afzalliklarni EIZ hududida tashkil qilish printsipidir. Bu yuqorida aytib o'tilganidek, EIZga investor va tadbirkorlarni keng jalb qilish bilan bog'liq.

Odatda ushbu printsip huquqiy me'yorlar va bojxona tartiblarining EIZning imtiyozli bojxona siyosati bilan mos kelishini, zonada joylashish bo'yicha muvaffaqiyatli kelishuvga erishishni va boshqa jihatlarni bildiradi.

Mazkur printsip EIZ ning barcha boshqaruv organlari faoliyatini tashkil qilish, belgilangan vazifalarni ijro etish mexanizmi asosida yotadi va uni qo'llash zonaga kapital va texnologiyalar olib kirishda ta'sir o'tkazish imonini beradi. Bu o'z navbatida, EIZ ning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin zonani xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishga yo'naltirish ushbu printsipning asosiy ko'rinishlaridan biri sanaladi.

Ushbu printsip eng avvalo, ziddiyatlarni bartaraf etishning har xil usullarini izlash, firma o'z o'rni va bozordagi faoliyatida bir xil qoliplardan xoli bo'lishini taqozo qiladi. Ya'ni ushbu printsip tadbirkorlar o'rtasida o'zaro yangi texnologiyalar, bozor ta'minoti, mahsulot sifati, tovarni baholash siyosatida natijalilik, raqobatbardosh fikrni taklif qila olish, raqobat «kurashlarida» g'olib chiqish, yangi yoki ish faoliyatini yuritayotgan ma'lum firmalarning raqobat kurashlariga bemalol kirib chiqishi kabi holatlarni yuzaga keltiradi.

Teng huquqli hamkorlik printsipi eng avvalo, biznesdagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ushbu printsip biznes yuritishda yangi

boshqaruv tartiblarini joriy qilishni talab etadi. Biroq amaliyotda ushbu printsipga rioya qilmaslik hollari ko'p uchraydi. Bunda tadbirkorlik ishi kuchli mojarolar bilan yakunlanadi, ko'pincha biznesdagi hamkorlar o'rtasida o'zaro munosabatlar buzilib ketish darajasigacha etib boradi. Mazkur printsipga amal qilmaslik firma imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ushbu printsip EIZning tadbirkorlari amal qilishi lozim bo'lган eng muhim qoidalardan biri bo'lishi lozim.

Refleksiv ish yuritish printsipi firmaning EIZ bozorida ish yuritishini belgilab, uni kuzatib boradi. Ko'pincha u xo'jalik sub'ektlarining bozordagi foliyatini tartibga soladi. Bunda kapital sarflash, qonunlar va qimmatli qog'ozlar portfelini yaratishdan oldin har bir holatni to'g'ri baholay olish maqsadga muvofiqdir.

Bu printsip – korxona faoliyatida qilingan har bir yurishni tashkil qiladigan va uning to'g'ri ekanligini baholaydigan, har bir holatning rivojlanish elementlarini boshqaruvchi yuqori texnologiyali tizimdir. Biznesdagi katta hajmli ayrim vaziyatlarda muhim lahzalar nazoratdan chetda qolishi va etarli darajada boshqarilmasisligi mumkin. Bu bozor faoliyatida ba'zi xatoliklarni keltirib chiqarishi ham ehtimoldan xoli emas.

Shu bois mazkur printsip vaziyatni o'z vaqtida to'g'irlay olish, shaxsiy tadbirkorlik g'oyalarining darajasini baholay olish imkonini beradi.

Axborot etarlilik printsipi ham EIZ tashkil qilish va faoliyat yuritishida muhim printsiplardan sanaladi. EIZ ning tez o'zgaruvchan bozor muhiti firma va zona qo'ygan maqsadlarga erishishda axboriy oqimlarni tahlil qilish zaruratini vujudga keltiradi.

Ushbu printsip EIZ mavqeい va huquqiy me'yorlarni o'rnatishda, bojxona imtiyozlari, investitsiya mexanizmlarini tartibga solish va boshqa shu kabi holatlarda ayniqla muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot etarlilik printsipi EIZ iqtisodiyotini dunyo xo'jalik faoliyati aloqalariga qo'shilishi, salohiyatini yanada rivojlantirish darajasini tartibga solish, mazkur hududlarga xorijiy kapitalni jalb qilish jadalligini prognozlashtirish, investitsiya muhitini tartibga solish imkonini beradi. Axboriy ta'minlanganlilik, raqobatga dosh beruvchi ustunliklardan foydalanish, muammolarni tizimli va kompleks ravishda tahlil qilish orqali hal qila olish hamda shaxsiy va korporativ yoki hududiy ish yuritishlarni prognozlashtirish – mazkur printsipning xarakterli jihatlaridandir.

Axborot etarlilik printsipidan to'g'ri foydalanish firma uchun uning bozordagi pozitsiyasini aniqlab olishi, firmani yanada mustahkam, boshqariladigan bo'lishi, alohida e'tibor va bilim talab etadigan asosiy strategik yo'naliishlarni belgilab olishiga imkon beradi. Hozirda ko'plab

firmalar bozorda vujudga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun maxsus tahliliy-axborot markazlarini tashkil qilishmoqa.

Maqsad uchun kelishuv printsipi yuqoridagi printsiplar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ham EIZni tashkil qilish jarayonida, ham uning faoliyat yuritish bosqichida muhim sanaladi. EIZni o'rab turgan tashqi bozor muhitini, uning rivojlanishini belgilab beradigan vazifalar va mexanizmlarga asoslanib, ushbu printsip EIZ turli iqtisodiy institutlari nuqtai nazarlari va EIZ tashkiliy-huquqiy me'yorlarini aniqlashtirish imkonini beradi. Ayni damda u zonaning rivojlanishida strategik maqsadlarni, EIZ tarmoqlarini qayta tuzish masalalarini ham belgilab, EIZ bozoridagi institutlar maqsadlarining kelishgan bo'lishini nazarda tutadi.

Firmanın tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida strategik ish ko'rishi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirishi lozimligini talab qiladi.

Foydalilik va samaradorlilik printsipi talab va taklif qonuni tendentsiyalariga asoslanib, EIZ uchun ushbu hududni boshqarishning asosiy maqsadli vazifasini bajaradi.<sup>31</sup>

Bu printsip zonada amal qiladigan huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning ishlab chiqilgan darajasiga bog'liq.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 257 bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» xamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

3. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.

4. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/

<sup>31</sup> Smorodinskaya N. Tumanno budušhee svobodnyx zon. // Ekonomika i jiznъ – 2002 – № 12 46-str.

5. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.
6. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. T.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.
7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. T.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.
8. Shodiyev R.X. “Jahon iqtisodiyoti”. – T.: “G’ofur G’ulom”, 2005.- 215 b.

## **VIII - BOB. XALQARO AMALIYOTDA EIZ TASHKIL QILISH VA UNING FAOLIYAT YURITISHI**

### **REJA:**

- 8.1. Markaziy va SHarqiy Evropa davlatlarida erkin iqtisodiy zonalar**
- 8.2 Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari va Xitoy tajribasi**

### **8.1. Markaziy va SHarqiy Evropa davlatlarida erkin iqtisodiy zonalar**

Markaziy va Sharqiy Evropa davlatlarida EIZ qurilishi 80-yillarning boshida boshlangan<sup>32</sup>. Ushbu mamlakatlarning bunday erkin hududlarni qurishdan ko'zlagan asosiy maqsadi, o'sha paytlarda markaziy rejalashtirilgan milliy iqtisodiyotni jahon bozor iqtisodiyotiga aralashuvini jadallashtirish bo'lgan. Tabiiyki, bu paytda ular qator umumdavlat vazifalarni hal qilishi lozim edi; milliy ishlab chiqarishda raqobatbardoshlikni oshirishi, valyuta oqimini ham tovar va xizmatlar eksporti orqali, ham xorijiy investitsiyalar hisobidan ko'paytirishi, import mahsulotlarning harajatlarini qisqartirishi, yangi turdag'i buyumlar ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatishni tez sur'atda o'zlashtirishi shular jumlasidandir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'pincha EIZga laboratoriya sifatida qaralgan bo'lib, keyinchalik hududlarning ushbu vazifasi keyinga surilib, bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlar teng huquqligi asosida dunyo xo'jalik aloqalariga milliy rivojlanish va integratsiyalashuv masalasi birinchi o'ringa chiqib kolgan.

Sobiq evropa sotsialistik mamlakatlarida EIZ erkin tadbirkorlik zonalari (ETZ) sifatida tashkil qilingan. Bunday hudud dissertatsiyamning birinchi bobda keltirgan tasnifiga ko'ra, eksport-ishlab chiqarish zonalariga to'g'ri keladi. Ularning spetsifik xususiyatlari shundan iboratki, ushbu o'ziga xos korxonalar eksport xizmatlarini amalga oshirib, milliy va xorijiy xo'jalik sub'ektlarini ishlab chiqarish faoliyati bilan ta'minlaydi. Bunday zonalar davlatlar ko'rinishida (Ruminiya, Vengriya, Bolgariya), aktsiyadorlar ko'rinishida (Pol'sha) va aralash ko'rinishda (Vengriya) bo'lishi mumkin. Bu zonalar uchun ajratilgan hududlarda ma'lum infratuzilma yaratilib, uni xo'jalik faoliyatini amalga oshiradigan milliy iqtisodiy sub'ektlarni ijara qilish kerak.

Ushbu zonalarning tashkiliy-boshqaruv o'ziga xosligi ularning hajmi va iqtisodiy vazifalarini belgilaydi. Savdo-ombor zonalari bir necha hektar maydonni egallasa, ko'p funksiyani bajarishi bilan farqlanadigan eksport-

<sup>32</sup> Dmitriy Ogay «Svobodnaya ekonomicheskaya zona – territoriya svobodnoy torgovli» 14 oktyabrь 2009g. 123-str.

ishlab chiqarish zonalari yirik uchastkalarda joylashadigan bo'lgan. Pol'shalik olimlarning fikricha, bunday zonalar kamida 40-hektar maydondan iborat bo'lishi lozim. Bolgariyada bunday zonalar qurilish bosqichida 100ga maydonni egallagan bo'lgan, buniyodkorlik ishlari yakunlangach, ular 800 ga hududda joylashadigan bo'lgan.

Sotsialistik mamlakatlarda EIZ tashkil qilish va faoliyat yuritishi bir-biriga zid bo'lgan ikki xil iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lganligi sababli qonunchilik asosini puxta tayyorlashni talab qiladi. Sotsialistik mamalkatlarda EIZni tashkil qilishning dastlabki bosqichida belgilangan vaqt va ularni boshqarish hamkor tadbirkorlik to'g'risidagi milliy qonunchilikning mantiqiy davomi hisoblangan.

Markaziy SHarqiy Evropa mamlakatlarida mahalliy va markaziy boshqaruvi organlari erkin zonalarni tashkil qilishning asosiy tashabbuskorlari sifatida maydonga chiqishganlar. Bu paytda hududiy tashabbuskorlarning faoliyati sermahsul bo'lgan. Negaki mahalliy organ vakillari korxona tashkil qilishda mavjud mahalliy afzalliklar, resurslar va boshqa shart-sharoitlarni hisobga olish maqsadga muvofiqligini aniqlay olganlar.

Sharqiy Evropa mamlakatlarida EIZning investitsiya qonunchiligi ham o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, Magistrlik dissertatsiyamning quyida ayrim mamlakatlarning EIZ borasidagi tajribasi bilan bog'liq ma'lumotlarni bayon qilaman.

Vengriya Evropa mamlakatlari orasida EIZ faoliyati bo'yicha ko'proq tajribaga ega mamlakat sanaladi. Bu erda 1982 yilda ilk EIZ tashkil etilgan. Ushbu hududda eksport va import ishlari amalga oshirilganligi bois, bojxona zonasi sifatida ish yuritgan. Vengriya qonunchiligiga asosan, ushbu zona hududida faqat aralash turdag'i korxonalar faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan. Barcha turdag'i xorijiy korxonalar, jumladan vengriyalik korxonalar ham bojxona va valyuta-moliya tartiblariga ko'ra, xorijiy korxona deya qaralgan. EIZda qo'shma korxonalar ish boshlashi uchun Vengriya korxonasi savdo Vazirining ruxsatnomasini olishi lozim edi (Hatto mahalliy korxona Vengriyada imzolangan hukumatlararo bitimi korxonalari bilan qo'shma korxona tuzadigan holatda ham).

EIZda tashkil etiladigan qo'shma korxonaning hamkor bo'lmish vengriyalik korxonalar faqat eksport huquqiga ega bo'lgan taqdirdagina, ushbu zonada mahsulot etkazib berishi mumkin edi. Qo'shma korxonaning zonadan ichki bozorga mahsulot etkazib berishi import hisoblanib, bu ish tashqi savdo korxonalari orqali amalga oshirilardi. Bu ham tegishli davlat organlarining ruxsatini talab qiladi, deganidir. Bu erkin bojxona

zonalarining ichki bozordan ajralib qolishiga, bu esa o’z navbatida Vengriya sanoatining texnik va texnologik zaiflashuviga sababchi bo’ldi.

Bugun Vengriyada hamkor tadbirkorlar faoliyatini tartibga solishda xorijiy investorlarning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy rejimida birmuncha erkinliklar yaratilgan<sup>33</sup>. Ana shu hisobidan ham EIZ yanada rivojlandi. Oldingidek, bu zonalar savdo hududlari sifatida qolgan bo’lsada, ularda Vengriya va G’arbiy Evropa mamlakatlari ishtirokida o’nlab qo’shma korxonalar tashkil qilinib, samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Vengriyalik iqtisodchilarning ta’kidlashicha, qo’shma korxonalar faoliyatida erkinliklarni joriy qilish, eksport salohiyatini yanada yuksaltirish maqsadida ilg’or texnologiyalarni ham zonada joylashgan korxonalar, ham mamlakat iqtisodiyotida qo’llash EIZ samaradorligini oshirish imkonini bergen.

Bolgariyada EIZ 1987 yilda tashkil etilgan. Bojxona to’lovleri va mahsulotlarni omborda saqlash uchun imtiyozlar ajratilgani bois, u ham Vengriya singari ma’lum turdagи chegarlangan vazifalarni amalga oshirgan. 1990 yilga kelib, zona iqtisodiy funktsiyalarining kengayishi bilan vaziyat butunlay o’zgardi. Bu hudud uchun milliy va jahon iqtisodiyoti o’rtasida ko’prik vazifasini o’tash imkonini berdi.<sup>34</sup>

Pol’shada EIZ tashkil qilish g’oyasi mamlakatda olib borilgan radikal islohotlar jarayoni bilan bevosita bog’liq. 1989 yilning 1 yanvaridan mamlakatda «Xorijiy sub’ektlar ishtirokidagi xo’jalik faoliyati to’g’risida»gi qonun kuchga kirdi. Ushbu hujjat xorijiy hamkorlar bilan o’zaro alohalar o’rnatish, xususiy sektorda ham qo’shma korxonalar tashkil qilish tartibini soddalashtirdi.

Qonunda Pol’sha tomonidan asosiy aktsiyalar paketining majburiyligi olib tashlanib, buning o’rniga xorijiy hamkor kiritishi lozim bo’lgan ustav kapitaldan 20 % ulush qo’shish belgilangan edi. Korxona rahbariyati sifatida ham pol’shalik, ham xorijiy fuqaro ish olib borishi mumkin edi. Ushbu qonun Pol’shada EIZ tashkil qilishni sezilarli darajada rag’batlantirishga hissa qo’shdi.

EIZ tashkil qilish bo'yicha ko'plab loyihalarda tovarlarni eksport va import qilish bojsiz amalga oshirilishini, mahsulotlarni ichki bozorga kiritishda esa boj to’lanishi taklif etilgan edi.

Pol’shadagi EIZ qator o’ziga xos jihatlarga ega bo’lib, shulardan eng asosiysi – boshidan boshlab, byudjet dasturlari va byurokratik

<sup>33</sup> Druzik Y.A.S. Svobodnye ekonomicheskie zony v sisteme mirovogo xozaystva: Uchebnoe posobie. - M.: «FUAinform», 2000. 111-str.

<sup>34</sup> Smorodinskaya P., Kapustin A. Svobodnye ekonomicheskie zony: mirovoy opyt i rossiyskie perspektivy // Voprosy ekonomiki. – 2001. – № 12.36-str.

aralashuvlarni hisobga olmaganda, markaziy hukumat organlarining bu zonalar tashkil qilinish jarayoniga aralashmaganligidir. Biroq markaziy va mahalliy hokimiyatning EIZ imtiyozlariga oid samarasiz bahs munozaralari tufayli xorijiy investorlar uchun qulay bo'lgaan mamlakatning geografik sharoitidan to'laligicha foydalanilmaydi. Mazkur omillar e'tiborga olinganda, Boltiq dengizi, Oder va Visla ko'llari sohillarida eksport-ishlab chiqarish -porto-franko va boshqa EIZ turlari faol rivojlanishiga imkon yaratilgan bo'lardi. Bunday holatda Pol'sha Rossiya va Evro hudud, Skandinaviya davlatlari va sharqiy evropa mamlakatlarini o'zaro bog'laydigan bo'g'in vazifasini bajargan bo'lar edi.

Markaziy Sharqiy Evropa mamlakatlarida EIZ faoliyatini tahlil qilish rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'layotganidek, ushbu hududlarda bir xildagi soliq va valyuta imtiyozlari amal qilganini ko'rsatadi. Odatda bunday imtiyozlar tarkibiga quyidagilar kiradi: eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishda zarur bo'ladigan import materiallar, mashina va uskunalarga belgilangan boj va boshqa cheklowlarni bekor qilish; ma'lum muddatgacha soliqqa tortishni bekor qilish yoki bevosita va qo'shimcha soliqlarni uzoq muddatgacha kamaytirish; bojxona nazoratidan ozod qilish; sarflangan mablag'ni qaytarish va daromadning chegaralanmagan miqdorda aylanishi; tadbirokorlarning kadrlarni o'qitishga sarflagan mablag'i uchun kompensatsiya to'lashi; korxonalar tashkil qilish va rekonstruktsiya qilishga yo'naltirilgan mablag'dan soliqni kamaytirish; korxonalar tashkil qilish tartibini soddalashtirish; kommunal, transport va boshqa xizmatlardan foydalanishda chegirmalar taqdim etish; turli xil kreditlar berish shular jumlasidandir. Turli davlatlarda bunday imtiyozlar ro'yxati ham biroz o'zgargan holda taqdim etiladi.

Eksport-ishlab chiqarish zonalari atrofidagi erlar ijaraga berilib, ishtirokchilar ob'ekt va binolarni barpo etishi yoki ijaraga olishi mumkin bo'lgan. Hudud va ob'ektlardan foydalanish ijara haqini to'lashda turli imtiyozlar taqdim etilardi.

Magistrlik dissertatsiyaning ushbu bobida Buyuk Britaniya mamlakati EIZini tahil etadigan bo'lsak, ushbu davlatda 18,4 ming ish o'rinaliga ega bo'lgan 25 ta erkin hududlar va texnoparklar mavjudligi ayon bo'ladi.

Mutaxassislar ilmiy-texnologik zonalarning samarali jihatlari haqida so'z yuritar ekan, yangi texnologiyalar, yuqori malakali mutaxassis va tadbirkorlar tomonidan boshqariladigan, turli tadqiqotlar, ilmiy va tijoriy tashkilotlar tarmog'i tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan mahalliy muhit shakllantirish lozimligini bildirishadi.

Bunday zonalar milliy (ehtimol jahon) iqtisodiyotining ilmiy-texnikaviy yadrosini shakllantirishi ham mumkinligini nazaridan qochirmaslik kerak. Bu jarayon ilmiy taraqqiyot, xizmat ko'rsatish sohasi, yuqori texnologiyali sanoatning yanada kengayishi, milliy xo'jalikning ilm va texnika salohiyatini belgilab beruvchi ilm-fan yutuqlarining amaliyot bilan birlashuvi natijasida yuz beradi.

Buyuk Britaniyadagi NASA elektron laboratoriya ushbu fikrlarni yaqqol tasdiqlaydi. Mazkur tuzilmani hech ikkilanmay ilmiy-texnikaviy zonalar turkumiga kiritish mumkin. Laboratoriya Kembridj universitetiga yaqin erda joylashish talabi bilan barpo etilgan edi. Mazkur universitet va laboratoriya o'rtasidagi mustahkam hamkorlik alohalari o'zaro foydali natijalarni qo'lga kiritish imkonini berdi. Universitet muntazam ravishda malaka oshirishga yo'naltirilgan maxsus o'quv kurslarni tashkil qildi. Ayni damda NASA xodimlari ham qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihibalarida ishtirok etib kelishadi. Universitet mutaxassislarini ba'zan laboratoriyalardagi noyob uskunalardan foydalanishsa, laboratoriya xodimlari ham universitet binolarida ishlash imkoniga ega bo'layotgani ikki tomonlama alohalarning samarali natijalariga misol bo'la oladi.<sup>35</sup>

Mazkur universitet Buyuk Britaniyadagi Kembridj ilmiy parkining bunyod etilishida katta rol' o'ynadi. Ushbu park o'z faoliyatini Kembridj universiteti tadqiqotlarini davom ettirish tarzida boshlagan edi. 50-yillarda o'quv muassasa elektron optika bo'yicha izlanishlar olib bordi, o'z navbatida firmalar ham mazkur mahsulotni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. 60-70 yillarda universitet va firmalar komp'yuter texnologiyalariga e'tibor qarata boshladilar. 70-yillarning o'rtalariga kelib, Kembridj ilmiy parkida kichik gabaritli va kam tonnali ilmiy mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 400 firma faoliyat olib borardi. Mazkur firmalarda 30 ga yaqin ishchi mehnat qilib, ko'pchilik firmalarga 1975-1984 yillar oraliq'ida asos solindi.

Parkda yirik ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining faoliyat yuritishi ushbu park rivojlanishiga katta hissa qo'shganini ta'kidlash joiz. Eng yirik va laboratoriya e'tiborini qozongan tashkilotlarga, yangi hududni o'zlashtirishi, uni rivojlantirib, mamlakat iqtisodiyotining barcha xizmat ko'rsatish tarmoqlarini jalb qilishi mumkin bo'lган.<sup>36</sup>

Shu o'rinda EIZ tashkil qilish namunasi sifatida Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari va Xitoy tajribasiga murojaat qilinadi.

<sup>35</sup> Mirovaya ekonomika: prognoz do 2020 goda / pod red. akad. A.A. D'yankina / IMEMO RAN. – M.: Magistr, 2007. – 429 s.

<sup>36</sup> Vneshneekonomiceskaya deyatel'nost': ucheb. dlya stud. sred. prof. ucheb. zavedeniy. K. Pospelova. — 4-e izd., pererab. i dop. — M.: «Akademiya», 2007. — 304 s.

## **8.2 Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari va Xitoy tajribasi**

Hozirgi kunda dunyoning 100 ga yaqin davlatida 400 tadan 200 tagacha bo'lgan iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, mazkur maxsus hududlarda 70 million nafardan ortiq kishi mehnat qiladi. 1960 yilda ushbu zonalarning jahon tovar aylanmasidagi ulushi 8% dan 20% gacha o'sgan bo'lsa, 1985-90 yillarga kelib, ushbu raqam 30% ga etgan. Har xil mamlakatlardagi EIZ faoliyatini o'rganib, bu zonalar davlat sanoat siyosatining asosiy vositalaridan biri sifatida qo'llaniladi degan xulosaga kelish mumkin.

Ta'kidlash joizki, har qaysi davlat EIZ faoliyati orqali o'zining ustuvor vazifalarini hal qiladi, biroq dunyoning ko'plab mamlakatlarida bunday zonalar sanoatning ayrim tarmoqlarini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini yanada kengaytirishga qaratilgan. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, mamlakatlar hukumati salohiyatli investorlarga imkon qadar qulay biznes muhitini yaratishga harakat qiladi. Ya'ni bojxona va soliq imtiyozlari ajratilib, zona hududida soddalashtirilgan ma'muriy tartiblar joriy qilinadi. Bu o'z navbatida eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Indoneziyadagi Batam orolida joylashgan erkin iqtisodiy zonalarni bunga misol qilish mumkin.

EIZ qurilgunga qadar Batam baliqchilik bilan shug'ullanadigan Indoneziyaning qishloq xo'jaligi hududi sifatida tan olinga bo'lsa, maxsus zona barpo etilganidan so'ng, 22 ta sanoat parki va 922 ta transmilliy kompaniyalari joylashgan mamlakatdagi yirik sanoat hududlaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda Batam orollarida aeroport va 4 ta dengiz portlari mavjud. 2007 yilda Batamdagি investitsiyalarning umumiy hajmi 12,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, shundan 4,5 mlrd AQSh dollari xorijiy investitsiyalardir. 2009 yilda orolning eksport hajmi 5,2 mlrd AQSh dollariga etgan.

Batam orolidagi EIZning qulay geografik joylashuvi va Singapurga yaqinligi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishi va eksport faoliyatini yanada kengaytirishida uning afzal jihatlaridan bo'lganini ta'kidlash joiz.

Quyida keltirilgan jadvalda turli mamlakatlardagi EIZ to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Unga ko'ra, Xitoydagi 5 ta EIZda 8 mln nafarga yaqin kishi mehnat qiladi. Ushbu ko'rsatgichlar EIZ sanoatning ayrim tarmoqlarini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishda muhim o'rinn tutibgina qolmay, mamlakatda ishsizlik masalalalarini ham hal qilishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. (1-jadval)

**1- jadval**

**Turli mamlakatlarda EIZ ning asosiy ko'rsatgichlari**

	<b>Eksport (mlrd.AQSh . doll)</b>	<b>Milliy eksport ichidagi %</b>	<b>Umumiy investitsiya-lar (mlrd.doll)</b>	<b>Yangi ish o'rinalarini yaratilishi</b>
Inkik, Chili	1,0	<1	–	20 000
Batam, Indoneziya	7,0	11,5	4,0	173 000
Shenzen', Xitoy	48,0	14,0	28,0	3 mln
Juxay, Xitoy	8,0	1,7	8,0	1,5 mln
Shantou, Xitoy	5,8	1,1	10,0	2,5 mln
Ksiamen', Xitoy	9,0	1,9	18,4	–
Xaynan, Xitoy	2,5	<1	7,0	2 mln
Labuan, Malayziya	0,7	–	7,0	50 000
Subik, Filippin	2,84	7,9	11,0	50 000

**Manba:**

[http://www.photius.com/rankings/gdp\\_2050\\_projection.html](http://www.photius.com/rankings/gdp_2050_projection.html) Goldman Sachs

Bundan tashqari, EIZ mamlakatning alohida hududlarini rivojlantirishga ham sezilarli hissa qo'shami. Bunga misol tariqasida Koreya Respublikasining Incheon tumanidagi EIZni ko'rsatish mumkin. Ushbu hudud malakali kadrlar va yirik xalqaro kompaniyalarni jalb qilish hisobidan tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 2020 yilga kelib, bu erda 4,84 mln ish o'rinalarini yaratish mo'ljallangan. Incheon Koreya Respublikasidagi investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan dastlabki EIZ hisoblanadi. Bugunga qadar bu erga 20,7 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilingan. Incheon EIZ ning muntazam faoliyat yuritishi davlatni o'z biznesini Osiyoning boshqa mamlakatlariga kengaytirayotgan xorijiy kompaniyalar oqib kelayotgan hududiy markazga aylantirdi. Aynan Incheon tufayli hududning mahalliy infratuzilmasi yanada taraqqiy etmoqda. Xalqaro aeroport, xalqaro moliyaviy xizmatlar okrugining qurilishi hamda o'zida ilmiy-tadqiqot markazlari, texnologiya instituti va yangi biotexnologiyalarni ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalar, butunjahon yirik savdo markazi, ofis binolari, mehmonxonalar, xarid qilish

markazlari, gol'f maydonlarini qamrab oladigan Sangdo «tafakkur shahri»ning bunyod etilishi shular jumlasidandir<sup>37</sup>.

Davlatning chuqur o'ylangan fiskal siyosati, soddalashtirilgan ma'muriy tartiblar, erdan foydalanishda ijara haqining arzonligi, kamaytirilgan soliqlar hamda xorijiy tadbirkorlarni o'z ona tillarida ish yuritishiga imkon yaratish singari engilliklar tufayli Incheon EIZni qurish va rivojlantirish loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshmoqda.

Quyida esa, tashkil qilish namunasi sifatida Xitoy tajribasiga batafsil yoritib beriladi.

### **EIZni qurish va ulardan foydalanishda Xitoy tajribasi.**

1979 yilning o'rtalariga kelib Xitoyda EIZ yaratish tashabbusi paydo bo'ldi. O'sha paytda ularga ilmiy-texnik hamkorlik va ishlab chiqarish kooperatsiyasini yanada kengaytirishni, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni nazarda tutadigan ochiq tashqi iqtisodiy siyosat yurituvchi rasmiy nufuz berilgan edi.

Mazmuniga ko'ra, ushbu zonalar «tashqi olamga ochiq derazalar» bo'lishi nazarda tutilgan edi. Aynan mazkur hududlar tufayli mamlakatga kapital, yuqori texnologiyalar, bilim, boshqaruv tajribasi kirib keladi. Avvaliga sinovdan o'tkazilgan ushbu muhim iqtisodiy vositalari keyinchalik mamlakat bo'y lab qo'llaniladi.

Bundan tashqari, ushbu maxsus zonalar barcha mulk shakllari ishtirok etadigan bozor mexanizmlarini qayta ishlash uchun poligon vazifasini bajarishlari ham lozim edi. Xitoyda erkin zonalar dastlab mamlakatda xorijiy investitsiyalarni qo'llash ko'rinishilari va yo'nalishlari sinovdan o'tkazish hamda chet el firmalari bilan ishlab chiqarishga oid aloqalarni samarali yo'lga qo'yish ob'ektlariga aylangan edi.

Magistrlik dissertatsiyada Xitoy EIZda davlat siyosati tarixini tahlil qilar ekanman, chet-el kaptalini mamlakatga joriy qilish siyosatiga mos kelishini guvohi bo'ldi. Ushbu tadrijiy davrni 3 bosqichga ajratish mumkin:

**Birinchi bosqich (1978-1982 yillar.)** – chet el kapitalini jalb qilishda kelishuv-huquqiy va tashkiliy asos shakllandi: soliqqa tortish, texnologiyalar uzatish, mehnat munosabatlari, vayuta va bojxona tartibi, kredit-moliya ta'minoti masalalarini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinadi; chet-el kapitalini jalb qilish, 1982 yilda belgilangan xorijiy investitsiyalar uchun ustuvor tarmoqlar ruyxatiga asoslanib, xorijiy tadbirkorlar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishda mas'ul bo'lgan organlar tashkil qilindi. Ushbu bosqich qisqa, biroq mamlakat

<sup>37</sup> Dmitriy Ogay «Svobodnaya ekonomicheskaya zona – territoriya svobodnoy torgovli» 14 oktyabrь 2009g. 99-str.

iqtisodiyotining «ochilishi» da muhim bosqich bo’ldi. Bu Xitoyga mamlakat bo’ylab kiradigan va muomalada bo’ladigan xorijiy kaptalni tartibga solish ishi bo’yicha tegishli tashkiliy va qonunchilik asoslarini yaratish imkonini berdi. Aynan mazkur bosqichda uzoq muddatli iqtisodiy siyosatning Xitoy taktikasi – mamlakat iqtisodiyotini tashqi olamga barcha imkoniyatlari bilan ochish sinovdan o’tdi. Ushbu amaliyat bugun ham samarali qo’llanmoqda. Umuman olganda, Xitoy davlatining xorijiy kapitalni, jumladan maxsus iqtisodiy zonalar orqali jalb qilish siyosati milliy yo’naltirilgan bo’lib, iqtisodiyot rivojida davlatning kuchli ta’sirida namoyon bo’lgandi (1-ilova).

Xitoy xalq respublikasi erkin zonalarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo’yicha o’ziga xos siyosatni olib bormoqda: rag’batlantirish chora-tadbirlarini ma’lum chegaralar bilan muvofiqlaydigan, iqtisodiy dastak va omillardan jadal foydalanish orqali ma’muriy nazoratni yanada to’ldiradi va shu orqali ularning hududiy joylashuvi, xorijiy investitsiyalarning ixtisosligi, ularning muddati va material-texnik va boshqa jihatlarga zarur ta’sir o’tkazadi.

Umuman olganda, Xalqaro amaliyotda Xitoy investitsiya muhitining milliy o’ziga xosligini o’rta darajada deb qaraydi. Butunjahon banki XXR dagi soliqqa tortish talablari boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarnikiga nisbatan qator hollarda imtiyozliroq deb baholaydi.

Dastlabki bosqichda Guanduan provintsiyasida Shen’chjen, Chjuxay, Futszyan’, Syamin’ va Shan’tou nomli ilk iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Ushbu hududlarning kengligi 15 km<sup>2</sup> dan 52,4 ming km<sup>2</sup> gacha cho’zilgan. EIZ uchun tanlangan hududda qishloq xo’jaligi ustuvor soha sanalgani uchun, bu erlarda qayta ishlash korxonalari bilan birga shaharlar ham barpo etilmoqda. SHuning uchun tumanning ichki aholisi fuqaroligini tasdiqlovchi maxsus hujjatlarsiz EIZ chegaralaridan o’tish ququqiga ega emaslar. (2-ilova).

**Ikkinchи bosqich (1983-1989 yillar)** – xorijiy investitsiyadorlar bilan hamkorlik qilishda kelishuv-huquqiy asosning izchil takomillashuvi, chet el kapitalini jalb qilish va foydalanishda davlat siyosatini liberallashtirish jihatlari bilan farqlanadi.

Masalan, 131 km<sup>2</sup> maydonni egallagan 350 ming aholi istiqomat qiladigan «Syamin’» EIZda 1981-1989 yillarda 1,5 mlrd AQSh dollari miqdorida umumiylar kapital sarflangan. SHundan 500 mln AQSh dollari xorijiy investitslardir. Shu vaqt oralig’ida 315 ta sanoat korxonalarini qurish bo’yicha shartnomalar tuzilgan bo’lib, 1989 yilning boshlarida 194 ta ob’ekt foydalanishga topshirilgan. Ushbu majmua ishlab chiqarish,

savdo va sayyohlik faoliyatini amalga oshiradi. Asoosiy kapital (54%) elektr, engil va kimyo sanoati, mashinasozlik, qurilish sanoati tarmoqlariga yo'naltirilgan.<sup>38</sup> Ushbu hududda ish olib boradigan qo'shma korxonalar, xomashyo va butlovchi qismlarni qaerdan sotib olishlari kerakligini mustaqil ravishda belgilaydilar. Xorijiy hamkorning ishtiroki uchun 20 yil muddatgacha ishlashi mumkin bo'lgan kelishuv shartnomalari tuziladi.

Shen'chjen' erkin hududi 1989 yilda 5 mln aholi istiqomat qiladigan zamonaviy maskanga aylangan edi. Ushbu zonaning rivojlanishi uchun 9 mlrd yuan miqdorida, jumladan Xitoy tomonidan 80%, xorijiy investorlarning 10% mablag'i sarflangan edi.

Bu erda infratuzilma va 8 ta sanoat zonalari tashkil etilib, 12 mln km<sup>2</sup> maydonni egallagan ishlab chiqarish va yashash joylari, universitet qurilgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 1000dan ortiq bo'lsa, to'la xorijiy kompaniyalar 100 ga yaqinni tashkil qilagan. Bundan tashqari, zonada yuzlab kooperativ korxonalar, 24 ta chet el banklarining vakolatxonalari va bo'limlari ham faoliyat yuritmoqda.

Zona sanoat ishlab chiqarishiga ixtisoslashgan bo'lib, 1980-1987 yillarda ishlab chiqarish hajmi 90 barobarga oshgan, milliy daromad esa aholi jon boshiga 1000 AQSh dollarini tashkil qilgan. Aytish joizki, mamlakat bo'ylab bunday daromadga faqat 2000 yildagina erishildi. Mazkur hududga ishchilar tanlov asosida qabul qilinadi. Bitta ish o'rniga 10-15 nafar talabgorlar bo'lagan. Har qanday tuman aholisi zonada ishga joylashish ququqiga ega edi.

O'sha paytda amal qilgan qonunchilikka asosan, EIZ bo'y lab xorijiy kapital ishtirokida har qanday ko'rinishdagi korxona tashkil qilish ruxsat etilgan edi. Xorijliklar va investorlarning sarflagan pul mablag'lari, qonuniy yo'l orqali olgan daromadi qonun bilan muhofaza qilinar edi. Chet el vakillari zonadagi o'z korxonalarini mustaqil boshqarar edilar. Ular ishchi kuchini qabul qilishda imtihonlar o'tkazishi mumkin bo'lgan. Barcha mehnat shartlari shartnomada belgilanar edi. Erkin hududdagi korxonalarda daromad soliqiga imtiyozlar (zonada 15%, mamlakatda 55%) taqdim etilishi, zonaga ma'lum miqdorda mahsulot olib kirilganda, bojxona bojidan ozod qilinishi, keng turdag'i import mahsulotlari sotiladigan maxsus bojsiz do'konlar qurish shular jumlasidandir. Shuningdek, eksport qilish ham ma'lum miqdorda soliqdan ozod etilgan edi. Ijara haqi imtiyozli bo'lib, barcha turdag'i soliq kirimlari zona

<sup>38</sup> Druzik Y.A.S. Svobodnye ekonomicheskie zony v sisteme mirovogo xozyaystva: Uchebnoe posobie. - M.: «FUAinform», 2000. 442-str.

ma'muriyati ixtiyorida saqlangan. SHen'chjen' erkin hududi yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishgan zona sifatida bunga misol bo'la oladi. 1979 – 1985 yillar mobaynida import va zonada o'rnatilgan 30 ming bo'linmadan ortiq sanoat uskunalarini tufayli ushbu hududda 770 ta yangi sanoat korxonalarini ishga tushgan. Bu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yillik hajmi 87,7 %ga etishini ta'minladi. Zonada rangli televizor, videomagnitofon, mini EHM, nusxa ko'chirish texnikasi ishlab chiqarilar edi. Bu xudud sanoat ishlab chiqarish hajmining 50%ni tashkil etgan. SHen'chjen' erkin hududida 800 yaqin nomda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

1983-1989 yillar oralig'ida erkin iqtisodiy zonalarning yangi turi – dengiz atrofidagi zonalar tashkil etildi. Ushbu yangi hududlar Futszyan' provintsiyasining janubidagi Yantszi va Chjunzyan' del'talari (1985) va Lyaudun' hamda Shan'dun (1988) yarim orollarida joylashdi. Ushbu zonalarning iqtisodiy va huquqiy tartibi xitoyda 70-yillarda tashkil etilgan EIZnikidan farqlanar edi. Integratsiyalashgan bo'lgani sababli, ular ko'pincha dengiz atrofidagi ochiq shaharlar (keyingi o'rinnlarda AOSh)ga o'xshardi. Bunday shaharlar 1984 yildan yaratila boshlandi. Biroq bir paytning o'zida Xitoyda eski ko'rinishdagi EIZ tarmog'i ham tobora kengayib borardi. Ana shunday hududlardan eng yirigi 1988 yilda Xaynan' orolida tashkil etilgan erkin hududdir.

**Ikkinchchi bosqichning** oxirlariga kelib, barcha turdag'i maxsus zonalar o'z iqtisodiy rivojiga ko'ra Xitoyning qolgan barcha tumanlaridan ilgarilab ketdi. Hatto xitoy mutaxassislari muammo jiddiy tus olishi mumkinligidan xavotirga tusha boshlagan edi. Shuning uchun muammoni bartaraf etish choralari ko'ra boshlandi. Aynan mana shu hodisa imtiyozli investitsiya tartibi amal qiladigan hududlarning kengayishiga sabab bo'ldi.

1984 yilga kelib Xitoyda dengiz atrofidagi ochiq shaharlar shakllana boshladidi. Ushbu nufuz ostida 14 ta dengiz atrofi shaharlari paydo bo'ldi. Ularda mamlakatning 8% aholisi istiqomat qilardi va bu erda Xitoy YaIMning 20% ishlab chiqarilardi.<sup>39</sup>

Ularning sanoat rivoji va mamlakat iqtisodiyotida bajarayotgan funktsiyasiga ko'ra, ushbu shaharlarni 4 guruhga ajratish mumkin:

1.Kompleks tarmoqdagi sanoat tuzilma shaharlari (Shanxay, Tyan'tszin', Guanchjou). Xitoy Xalq Respublikasida (keyingi o'rinda XXR) mavjud bo'lgan 164 ta sanoat tarmog'idan Tyan'tszinda 154 ta, Guanchjouda 147 ta va Shanxayda barcha sanoat tarmoqlari ish yuritadi. Keng diversifikatsiyalangan sanoatga ega shaharlar bundan tashqari

<sup>39</sup> Smorodinskaya N. Tumanno budušhee svobodnyx zon // Ekonomika i jiznъ. – 2002. – № 12. 142-str.

mamlakatning yirik portlari hamdir. Shanxay – Yantszi ko'lida, Tyan'tszin' – sariq dengizda (Pekinning dengiz darvozalari deb ataladi), Guanchjou – Janubiy Xitoy dengizidagi portlardir.

2.Yirik portlar (Dalyan' va Tsindao). Ular rivojlangan, biroq balanslanmagan sanoat bazasiga egadir. Dalyan og'ir sanoat bo'yicha mashhur bo'lsa, TSindao engil sanoat bilan tanilgan. (**3-ilova**).

3.O'rtacha hajmli (Yan'iay, Nan'tun, Chjan'tszyan) va kichik hajmli (Fuchjou, Ven'chjou, Bexay) sanoat portlari.

4.Rivojlanmagan sanoat bazasiga ega bo'lgan yirik (Tszyan'xuendao) va o'rtacha (Lyan'yun'gan) portlari. Ular yuklarni tashishga ixtisoslashgan. (**4-ilova**)

Zonada mamlakatga nisbatan yuqori sur'atda iqtisodiy rivojlanish kuzatilganini e'tiborga olib, ushbu hududlarning ikkinchi bosqich faoliyatida vujudga kelgan ba'zi muammolarni ham sanab o'tish lozim.

Birinchidin, xuddi kutilganidek, erkin hududlarda ilg'or texnologiyalarning kirib kelish oqimi ro'y bermadi. Bu jiddiy ishlab chiqarish talab etilmagan hududga qisqa muddatli loyihalarni joriy qilgan Gonkong va Tayvan tadbirkorlari bilan bog'liq edi. Ular asosan oborot mablag'larga yo'naltirilgan edi. Asosiy kaptal Xitoy tomonidan ta'minlangandi. Ba'zan xorijiy investorlar Xitoy bozoriga kirib olishga intilganlar xolos. Texnologiyalar kirib kelish darajasining sustligi shuningdek, KOKOM<sup>40</sup> talablari bo'yicha ular qilayotgan eksportning sanoati taraqqiy topgan mamlakatlarnikiga nisbatan chegaralanganligi bilan ham bog'liq edi. Xitoyga asosan o'rta darajadagi texnolgiyalar kirib kelar edi.

Ikkinchidan, EIZ milliy sanoat va xorijiy texnologiyalarni bog'lovchi bo'g'inga aylana olmadi. Zonalarning sanoat rivojlanishi asosan, uskunalardan tortib, ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha turdag'i ishlab chiqarish komponentlarini import qilishga tayanar edi. Natijada «an'anaviy» tarmoqlar bilan rivojlanayotgan EIZ o'rtasida uзilish kuchaydi. Erkin hududlarning rivojlanishi bilan Xitoy yirik tumanlarni tezkor sur'atda sanoatlashtirish muammosiga duch keldi. Bu yaqin atrofdagi qishloq aholisining oqib kelishi, ishchi kuchi narxining o'sishiga olib kelar edi. Bu har xil tumanlardan ishchi kuchini olish masalasini ko'ndalang qo'yardi. Bunday mehnatkashlar barcha quvvatli tarmoqlarning 30%ini, ayrim korxonalarning 70%ini tashkil qilar edi. Biroq bu ishchilar past malakali xodimlar bo'lib, zona talabalariga to'la

<sup>40</sup>KOKOM – Koordinatsionnyy komitet po kontrolyu torgovli Vostok-Zapad – sozdan v 1949 g. po initsiative SSHA sovmestno s Velikobritaniyey i Frantsiey. V 1991 g. KOKOM stal nazývat'sya koordinatsionnym komitetom po mnogostoronnemu eksportnomu kontrolyu, v 1994 g. –prekrrotil svoe sushhestvovanie.

javob bera olmasdi. Masalan, SHen'chjen erkin hududidagi ishchi va xizmatchilarning 5%i oliy va o'rta ma'lumotli xodimlar bo'lgan. Bu xorijiy texnologiyani o'zlashtirishni qiyinlashtirar va zonalar faoliyati samaradorligini ham pasaytirar edi. Ushbu muammo mehnatni rag'batlantirishning takomillashmaganligi bilan yanada murakkablashdi. Barcha mehnat siyosatini xitoylik hamkorlar tashkillashtirar, ishchilarga oylik maosh yuanda berilar, mablag'ning asosiy va katta qismi markaz va mahalliy hukumatga yuborilar edi.

Uchinchidan, iqtisodiy o'sishga qarab, zonada xomashyo, elektr energiya taqchilligi, yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash tarmoqlarida quvvatlar etishmovchiligi yuz bera boshladi. Bu esa, eng asosiy markazlashgan resurslar

bilan ta'minlashning chegarlanganligi bilan bog'liq bo'lib, tadbirkorlar oldida hududdan mahalliy resurslarni qidirish, yoki import qilish, yohud Xitoyning ichki tumanlaridan qimmatli mahsulotni sotib olish majburiyatini qo'yari edi.

Xorijiy uskunani butlovchi va qo'shimcha detallar bilan ta'minlash, o'z navbatida bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Mahalliy matbuotda Xitoy ishlab chiqarish liniyalarida Yaponiya detal va texnik qurilmalarining etishmasligi XXR iqtisodiyotini Yaponiya mamlakatiga kuchli tobe'ligi ostiga qo'yayotgani ta'kidlanardi. Bu uskunalarni xarid qilishda valyuta taqchilliga borib taqalardi. Ayni damda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishda iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlari bo'lmish texnikaviy emas, mehnat talab etiladigan qurilish, savdo-sotiqlari sohalarga alohida e'tibor qaratildi.

Ikkinci bosqichning nihoyasiga kelib, zonaga xorijiy investitsiyalar oqimi susaydi. Bu Xitoyning ochiq siyosat yuritishiga bo'lgan ishonchszilik bilan bog'liq edi. Jahon tajribasi esa xorijiy investorlar ularni qabul qiladigan mamlakatlarning siyosiy barqarorligi, iqtisodiyotining umumiyligi, ahvoli, hukumat va aholining xususiy mulkka bo'lgan munosabati, Xalqaro kelishuv va bitimlarga amal qilishiga katta e'tibor berardilar, bir so'z bilan aytganda, investitsiya egalarini taqdim etiladigan iqtisodiy imtiyozlarning hajmiga nisbatan, ularni qabul qilish majburiyatlar ko'proq qiziqtiradi.

To'rtinchidan, zonadagi aholi daromadining tezkor ravishda o'sishi bilan, iste'mol talabi ham kengaydi. Biroq shu bilan birga hududda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sarf-harajatlari va tovarlar bahosi ham o'sdi. Bu ularning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini pasaytirdi.

Beshinchidan, hech bir EIZ to'laligicha eksportga yo'naltirilgan hududga aylanmadi. Zonada ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eksport qilishning solishtirma og'irligi shuni ko'rtdiki, biron bir erkin hudud o'z tovarlari eksportini me'yoriy ko'rsatkichi bo'lgan 60%ga ham etkazishga erishmagan edi.

Oltinchidan, erkin hududlarni tashkil qilish, yirik, ba'zan esa o'zini oqlamaydigan sarf-harajatlar bilan bog'liq edi. Bu Xitoy oldida xorijiy kapitalni qo'lga kiritish uchun imtiyozlarni kengaytirish majburiyatini qo'ydi. Bunda infratuzilmani shakllantirish, boshlang'ich ishchi kuchini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan asosiy sarf harajatlar qabul qiluvchi mamlakat bo'ynda edi. Natijada Xitoy EIZda hudud va xodimlarni tayyorlash, binolarni qurish, xalqaro reklamalarni tashkil qilish va boshqa shu kabi masalar bilan bog'liq ulkan harajatlar yuzagan keldi. Modomiki ushbu mamlakat zaruriy pul mablag'larini kredit ko'rinishida olar ekan (bu esa, ma'lum protsent to'lashni talab etardi), infratuzilmani tashkil qilish uchun talab etiladigan asosiy harajatlar yiliga 8-10%ga o'sdi.

Vujudga kelgan shu va boshqa muammolar Xitoy hukumatining EIZni tashkil qilish va faoliyat yuritishida o'z taktikasini o'zgartirishi, ma'lum chora-tadbirlar ishlab chiqishiga majbur etdi. Ana shu bilan Xitoy EIZning uchinchi – zamonaviy bosqichi boshlandi. Bu 1990 yillarga to'g'ri keladi.

1990 yilda SHanxay shahri yaqinida Pudun yangi ochiq markazi takshid etildi. Bu erdag'i mavjud iqtisodiy va huquqiy tartiblarga ko'ra mazkur markaz erkin iqtisodiy zona ta'rifiga mos keladi. Pudun ochiq markazini barpo etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – Shanxay shahrini modernizatsiya qilish va YAantszi rayonlarini yanada rivojlantirishdan iborat edi. Ushbu hududda eksport-ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan «Vaygatsyao» ilk savdo zonasiga asos solindi. Bu hududda horijiy kapital asosida faoliyat yuritadigan 202 ta korxonadan 140 tasi to'la xorijiy korxonalar edi. Ushbu hudud tashkil qilinishini mamlakatning jahon iqtisodiyotiga ochadigan yangi bosqichga o'tish davri deb baholash mumkin. 1994 yilda 56 ta Transmilliy korporatsiyalar hududagi 106 ta ob'ektlarga investitsiya sarflashdi. Yil nihoyasiga qadar Pudunga G'ariyb 6 mlrd AQSh dollari miqdorida mablag' sarflangan. hozirda ushbu hududda sanoat tarmoqlari, moliyaviy, savdo va texnik xizmat ko'rsatish tobora rivojlangan bo'lsada, infratuzilmani yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ko'lami va texnik darajasiga ko'ra, Pudun mamlakatda birinchi o'rinni egallaydi. 1991-94 yillarda uning YaIM hajmi 4 baravarga o'sib, 29,1 mlrd yuanni tashkil qildi. Bu erdag'i loyihalarni muvaffaqiyatli joriy qilish Shanxayning tarmoqli tuzilmasini jadal

rekonstruktsiya qilish, bu bilan shahar va mamlakatni jahon ahamiyatiga molik bo'lgan iqtisodiy, savdo, moliyaviy va transport markaziga aylantirish imkonini beradi.

Uchinchi bosqichda Xitoy hukumati eksport ishlab chiqarishi uchun yuritiladigan investitsion siyosatni barqaror ushlab turadi va ayni damda yuqori va yangi texnolgiyalı loyihalarna ko'proq preferentsiyalar taqdim etadi. Aynan mana shu loyihalar asosiy soliq imtiyozlari va boshqa engilliklarga ega bo'lgan. Bir paytning o'zida past malakali ishchi kuchidan foydalaniladigan qayta ishlash sanoati bilan bog'liq loyihalarni qisqartirish choralarini ham ko'rilib.

Ushbu bosqichda dengiz bo'yidagi sharqiy hududlarni, xususan, Lyazon, Xebey, Shan'dun, Tszyansu, Chjetszyan, Futszyan, Guandun, Pekin, Shanxay, va Tyan'tszin' va boshqa hudalarni hamrab olgan «**Ochiq sharqiy mintaqa**» shakllandi. 320 ming km<sup>2</sup> hududni egallangan ushbu yirik mintaqa aholisi 200 mln kishi tashkil etdi. «**Ochiq sharqiy mintaqa**» EIZning har xil ko'rinishlarini o'zida jamlaydi. Bu esa xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratadi.

1992 yildan boshlab Xitoyda «**Ochiq shimol mintaqa**»ni tashkil qilish ishlari boshlanadi. Bu Rossiya va Mo'g'uliston bilan chegaradosh shimoli-sharqiy hududlarda ham EIZ tashkil qilinishi orqali ifodalanadi. Ayni paytda Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaradosh -Inin, Tachen, Guanchjou, Sichuan, SHan'si, Guansi, TSinxay va boshqa hududlarda «Ochiq mintaqalar» shakllana boshlaydi.

Shu tarzda Xitoy va uning alohida hududlarining barcha yo'naliishdagi qiziqishlarini ichki va tashqi olamga bog'laydigan, ularning talablariga javob beradigan uyg'un, ko'p qavatli tizim shakllandi. Bu tizida har bir bo'g'in aniq vazifani bajaradi. Jamlanganda esa, ular muntazam ravishda xorijiy kapital, ilg'or texnika va texnologiya, dunyo ilmiy texnik taraqqiyotiga yuqori darajada taraqqiy etmagan mamlakat eshiklarini ochib beradi va bu bilan Xitoyning ayrim hududlarini rivojlanish sur'atlari va darajasini tenglashtirishga intiladi.<sup>41</sup>

Maxsus iqtisodiy zonalar mazkur tizimning asosiy bo'g'inlari hisoblanadi. Ularni hech ikkilanmay, eksport-ishlab chiqarish, savdo, ilmiy-ishlab chiqarishda bir-biriga o'xshash, biroq o'ziga xosligi bilan alohida farqlanadigan kompleks erkin iqtisodiy zonalar deb atash mumkin. Ushbu farqlanishlar soliq, bojxona, xorijiy investitsiyalar, ularning kaptalini zonaga kiritish tartibiga ko'ra turlichay ifodalanadi. Mazkur

<sup>41</sup> Mirovaya ekonomika: prognoz do 2020 goda / pod red. akad. A.A. D'yankina / IMEMO RAN. – M.: Magistr, 2007. – 429 s

zonalar faoliyati tufayli xorijiy investitsiyalar salomog'i tobora o'sib, Xitoy ishlab chiqarish tarmog'larini rivojlantirish imkoniga ega bo'layotir.

Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalarning o'ziga xos jihatlaridan yana biri, korxona mahsulotlarining nihoyat darajada tashqi bozorga yo'naltiriganligidir. Faqat EIZ boshqaruv qumitasi ruxsati bilangina ichki bozorda mahsulot sotish huquqi berilgan. SHunda ham ichki bozorga kiritiladigan tovar va mahsulotlarga oddiy tartibdagi bojxona soliqlari solinadi.

EIZda xalq xo'jaligi majmuasi – sanoat, qishloq xo'jaligi, sayyoqlik, ilm-fan, texnika va barcha tegishli infratuzilmalarning izchil rivojlanishi inobatga olingan.

Shu tariqa maxsus iqtisodiy zonalar Xitoyda har-xil sohalardagi xo'jalik aloqalarini o'rnatuvchi qo'shimcha kanallar hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishda ham bir qancha o'ziga xos jihatlar mavjud. Boshqaruvga oid barcha masalalar markaziy organlar vakolatiga kirib, provintsiyalar qo'liga topshirilgan. EIZning mahalliy organlari xo'jalik siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha keng vakolatlarga ega. Masalan, Guandun va Funchjen'on' provintsiyalarida ularga qaram bo'lган maxsus iqtisodiy zonalar masalalari bo'yicha har-xil Nizomlar ishlab chiqilishi mumkin.

Hozirgi kunda XXR asrda EIZ soliqqa tortish tartibi bo'yicha faoliyat yuritadigan 4 ta erkin zona mavjud. Bular Shen'chjen', Chju-xay, Shan'tou (Guan provintsiyasida) va Syamin' (Futszyan' provintsiyasida) hamda Xaynan' oroli bo'lib, ularning barchasi, yirik xalqaro transport tarmoqlari, mamlakat dengiz porti bilan bevosita bog'liq. Barcha zonalar rivojlangan infratuzilma, sanoat bazasi va boshqa hududlarga qaraganda ancha tarqqiy etgan tashqi iqtisodiy alohalarga ega.

Xitoy erkin zonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotning 70%dan ortig'ini eksport qiladigan korxonalar, 10% dan kam bo'lмаган daromad solig'i joriy qilingan. Import xomashyosi, uskunalar bo'yicha ish yuritadigan qo'shma korxonalar esa bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi. EIZga tashrif buyuruvchi xorijiy investorlar uchun kirish-chiqish tartiblari soddalashtirilgan. Investorlar er uchastkalaridan foydanganlari uchun arzonlarshtirilgan ijara haqi va boshqa imtiyozlarga ega. Mazkur belilangan engilliklar ko'plab EIZ ixtisosligini o'zgartirish imkonini berdi. Rivojlanishning dastlabki bosqichida tashkilotchilarining asosiy e'tibori qishloq xo'jaligi, baliqchilik, katta texnologik quvvatli sanoat buyumlarini ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bu hududlarda yangi texnologiyalardan foydalangan holda qishloq xo'jaligi va dengiz

mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash bo'yicha ko'plab korxonalar tashkil etilmoqda. Bunday mahsulotlarga jahon bozorida muntazam talab yuqori. SHu bois EIZning tashqi savdo aylanmasi ham o'smoqda.

Xitoylik va xorijiy mutaxassislar EIZ yuz yillikning oxirlariga kelib jahon bozorlariga chiqadi deya bashorat qilishgandi. Biroq erkin hududlar bu vazifani muddatidan oldin bajarishga erishdi. 1994 yilda EIZ tashqi savdo aylanmasi 53 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, bu ko'rsatgich mamlakat eksport va importida 22,3%ni egalladi. Shen'chejn' erkin hududlari tashqi savdo aylanmasini 35,8 mlrd AQSh dollarga etkazib, mamlakatning katta va o'rta hajmli shaharlari orasida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ushbu zona korxonalarida 10 dan ortiq turdag'i raqobatbardosh maishiy elektr texnika buyumlari ishlab chiqarilib, ularning 85% tashqi bozorga eksport qilinadi. Bundan tashqari ular mamlakatga xorijiy investitsiyalar kirimini tezlashtirib, davlatda yuzaga kelgan moliya resurslari taqchilligi muammosini qisman hal qildilar. Faqatgina 1994 yilda EIZga 5,8 mlrd AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiya kiritilgan. 1990-1994 yillar mobaynida Xitoydagi barcha EIZda qariyb 46 mlrd AQSh dollari hajmida xorijiy kaptal ro'yxatdan o'tkazilgan. 1994 yilda esa, ushbu zonalarda 17,9 mlrd AQSh dollari hajmida YAIM ishlab chiqarilgan bo'lib, bu mamlakat YAIMning 3,36%ini tashkil qiladi. **(5 - 6 – ilovalar).**

EIZ eksportga yo'naltirilgan sanoatining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi mamlakat sanoatining taraqqiy etishiga ko'maklashdi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan materiallar va mehnat resurslari EIZga mamlakat ichki hududlaridan kirib kelishi lozim edi. Aynan mazkur tizim mamlakat iqtisodiyotining ba'zi tarmoqlarini texnologik qayta qurish ishlarini tezlashtirdi.

Ilg'or texnologiya va texnikani jalb qilish mamlakatdagi sanoat korxonalarini texnik rekonstruktsiya qilish, ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qildi. Bu esa YAIM va daromad o'sishini o'z ifodasini topdi. Xitoy statistika qumitasi ma'lumotlariga ko'ra, 1988-1992 yillar mobaynida EIZda YAIM va daromadning o'rtacha yillik hajmi: Shen'chjenda – 39,8 va 36,3%; Syaminda – 17,4 va 16,9%; Xaynan'da 12,0 va 11%ni tashkil etgan.

Xorijiy kapital EIZ va Xitoy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ishlardi. EIZda 1993 yilda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining YAIM ishlab chiqarishidagi ulushi: Shen'chjenda – 74,6%, Syaminda – 56,5%, Chjuxayda – 48,4%, SHan'touda – 27,1%ni tashkil etgan. Ushbu korxonalar 50-80%gacha mahsulotni eksport qilgan. EIZ korxonalarini

yuqori darajali rentabillikka ega. Ulardagi o'rtacha daromad 14% ni tashkil etganligi sababli bu hudular davlat va mahalliy byudjet moliya daromadining asosiy manbai sanaladi.<sup>42</sup>

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda Xitoy iqtisodiy salohiyatiga ko'ra, dunyoda AQSh va Yaponiyadan keyin 3 - o'rinni egallaydi. 1978-1995 yillar mobaynida Xitoy 181,4 mlrd AQSh dollari miqdordagi xorijiy investitsiyalardan foydalangan. Mazkur kapital ishtirokida 273 mingdan ortiq korxonalar tashkil etilgan. YaIM o'sishining o'rtacha yillik hajmi shu yillar mobaynida 9,8%ni tashkil etib, iste'mol bozorining hajmi 12,7%ga, chakana savdo aylanmasi -17,2%ga o'sgan. Xitoy dunyodagi eng ochiq mamlakatlar sirasiga kira boshladi. 1995 yilda mamlakat tashqi savdo kvotasida (YaIMda tashqi savdo aylanmasining ulushi) – 45%ga etdi. Bu ko'rsatgich Frantsiyadan 2 baravar, Germaniyadan qariyb – 1,5 baravar, Yaponiyadan qariyb – 3 baravar ko'proq deganidir. Shu yildagi eksport va import hajmi 1979 yil bilan taqqoslaganda, 280,8 mlrd AQSh dollarga etib, 11,7 baravarga ko'paygan.

## 2-jadval

### 2000-2050 yillarda Dunyoning eng katta YaIMni ishlab chiqaruvchi 10 mamlakatlari (mlrd.AQSH doll)

Mamlakat nomi	YaIM					
	2000	2010	2020	2030	2040	2050
CHN	Xitoy	1078	2998	7070	14312	26439
Evro.z	Evropa itifoqi	9395	12965	16861	21075	28323
AQSh	AQSh	9825	13271	16415	20833	27229
IND	Xindiston	469	929	2104	4935	12367
JPN	Yaponiya	4176	4601	5221	5810	6039
BRA	Braziliya	762	668	1333	2189	3740
RUS	Rossiya	391	847	1741	2980	4467
Buyuk.	Angliya	1437	1876	2285	2649	3201
GER	Germaniya	1875	2212	2524	2697	3147
FR	Frantsiya	1311	1622	1930	2267	2668
ITA	Italiya	1078	1337	1553	1671	1788
						2061

Manba: [www.photius.com](http://www.photius.com)

Bu kabi iqtisodiy yuqori ko'rsatkichlar Xitoy EIZ faoliyatini muammolardan xoli ekanligini bildirmaydi. Biroq fikrimcha, Xitoy hukumati EIZni yanada rivojlantirish bo'yicha ular faoliyatida muhim

<sup>42</sup> [www.China//statorg.com](http://www.China//statorg.com)

siyosiy ko'rsatmalarini saqlab holgan holda, mamlakatning modernizatsiya qilishdagi «ochiqlik islohotlari»ni amalga oshirishda ularning o'rni va ahamsiyatini inobatga olib, o'z qat'iyligini namoyish etmoqda.

Shu bilan bir qatorda takidlash lozimki, Jahon banki etakchi iqtisodchilarining hisob-kitoblariga ko'ra 2050 yilga borib Xitoy dunyodagi eng katta YAIM ishlab chiqaruvchi gigimon dovlatga aylanadi. Bunga erishish uchun esa, Xitoydagi EIZning xissasi benihoyadir.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 257 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» xamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.
3. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.
4. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/
5. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.
6. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. T.: MChJ "RAM-S", 2007 yil.
7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. T.: MChJ "RAM-S", 2007 yil.
8. Shodiyev R.X. "Jahon iqtisodiyoti". – T.: "G'ofur G'ulom", 2005.- 215 b.

## **IX - BOB. O'ZBEKISTONDAGI ERKIN IQTISODIY ZONANING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHIDA AMALIY CHORALAR.**

**REJA:**

## **9.1 O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishida ustuvor yo’nalishlar va EIZ ni tashkil qilish omillari**

**9.2. O’zbekistonda EIZ tashkil qilishning iqtisodiy geografik sharoitlari (Navoiy Erkin industrial iqtisodiy zona misolida)**

**9.3 EIZga tegishli iqtisodiy siyosat mexanizmlar**

### **9.1 O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishida ustuvor yo’nalishlar va EIZ ni tashkil qilish omillari**

1996-2001 yillarda O’zbekistonda o’rta darajadagi iqtisodiy o’sish sur’atlari (4-5%)ga erishdi. 2002-2006 yillar mobaynida bu ko’rsatkich 7-7,5 %ni, keyinchalik esa, 8-9% iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlab qoldi. 1999 yildan buyon YaIMda xususiy sektor, ayniqsa kichik biznes korxonalarining ulushini oshirish tarkibiy islohotlarning ustuvor vazifasi deb belgilandi. Xususiy sektorni qo’llab-quvvatlash bo'yicha maxsus dasturlar qabul qilinib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiyotimizning tayanch tarmoqlaridagi yirik korxonalar xususiylashtirish ishlari boshlandi. 1999-2001 yillar mobaynida kichik va o’rta korxonalar son jihatdan oshdi va ularning yangi ish o’rinlarini yaratish bo'yicha YaIM dagi ulushi ham tobora ortdi. Ushbu korxonalarning YaIM dagi ulushi 29% dan 34% gacha, bandlik darajasi 39% dan 53 %gacha o’sdi.

2004-2009 yillarda tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish tarkibiy va institutsional o’zgarishlarning muhim yo’nalishlaridan biriga aylandi. Davlat siyosatida bu yo’nalishda quyidgi usutuvorliklarga alohida e’tibor qaratildi:

- Inflyatsiya darajasini 7,8-,4 % gacha, mamlakat iqtisodiyotida soliq yuki ko’rsatkichini 21,6-22,5%, davlat byudjetida YaIMga nisbatan 1%dan oshmagan defitsitiga yo’l qo’ymaslik orqali makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish; (2003 yilda Q0,7,2009 yilda Q0,2 %).

- Moliya-bank tizimida islohotlarni davom ettirish, tijorat banklar resurs bazasini kengaytirishga qaratilgan institutlar bozor infratuzilmasi faoliyatini qo’llab-quvvatlash va sub’ektlarning kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaxshilash.

- Iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarish infratuzilmasi va ijtimoiy sohani rivojlantirishga qrtilan maqsdl kompleks dasturlarni amalgaoshirish, biznesni qo’llab-quvvatlash va aholi bandilgini oshirishni yanada rag’batlantirish.


- Avtomobil' yo'llarini qurish va rekonsturktsiya qilish, temir yo'l uchastkalari, suv va gaz ta'minotini elektrifikatsiyalash choralarini faol amalga oshirish orqali biznes uchun ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlarni tashkil etish.

- Xususiy va korporativ mulk egalari huquqlari belgilangan qonunchilikni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy qilish hamda davlat qoshidagi past rentabilli, zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor korxona va ob'ektlarni boshlang'ich narxni bosqichma-bosqich tushirish usuli orqali sotish mexanizmlarini joriy qilish.

- Soliq qonunchiligini takomillashtirish hamda davlatning ruxsat berish va nazorat qilish funktsiyalarini quyidagi vazifalarni bajarish orqali yanada soddallashtirish:

- Kichik biznesda soliq yukini kamaytirish bilan bir paytning o'zida soliq kodeksining yangi nashrini joriy qilish, soliq organlari hukmidan norozilik bo'yicha tartiblarni o'rnatish chora-tadbirlarini qabul qilish, soliq to'lovi tartiblari va hisob-kitobini soddallashtirish;

- Yagona soliq to'lovi stavkalarini kichik korxonalarda 15% dan 8% gacha, sanoat sohasida ishlaydiganlar uchun 8% dan 7% gacha kamaytirish, mikrofirmalar, moliyaviy, maishiy va boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi kichik korxonalarni 3 yil muddatgacha yagona soliq to'lovidan ozod qilish (2009-2011 yillar);



Manba: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti  
**1-rasm. YaIM dinamikasi o'tgan yilga nisbatan %**

- Biznesni ro'yxatga olish va tugatish bilan bog'liq tartiblar, soliq va statistik hisobotlarni taqdim etish bo'yicha litsenziya va ruxsatnomalar olishni soddalashtirish, shuningdek xo'jalik sub'ektlarini tekshirishni qat'iy chegaralash va turli nazorat organlarining ularning faoliyatiga asossiz aralashuviga yo'l qo'ymaslik;


- Bo'sh binolar bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlariga taqdim etilayotgan ruxsatnomalar qiymatini pasaytirish va ularning xomashyo va materiallari bozoridan foydalanishini yanada kengaytirish;

- Amalga oshirilgan islohotlar mamlakatimiz iqtisodiyoti tarkibi va uning samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sur'atlari yiliga o'rtacha 8,1% ni tashkil etdi. Bu YaIM hajmining 2003 yilga nisbatan 1,6 barobar, aholi jon boshiga 1,5 baravar o'sishini ta'minladi (1-rasm).

YaIM ishlab chiqarish tuzilmasida sanoatning ulushi 15,8% dan 23,6% ga, xizmat ko'rsatish sohasi 37,4% dan 44,1%ga, boshqa tarmoqlarda ko'rsatilgan xizmatlar 47,2%gacha oshgan. 2009 yilda 82% dan ortiq YaIM sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatish sohasi tomonidan ta'minlangan. Iqtisodiyotda mehnat sunumдорлиги 41,3% ga o'sib, YaIM energiya ta'minoti 30% ga pasaygan.

2009 yilda iqtisodiyotning nodavlat sektori 86,4% aholi bandligini amalga oshirib, 81% dan ortiq YaIM ishlab chiqardi. 2003 yilda esa bu ko'rsatkich 73% ni tashkil etgan edi. bunda yirik kichik biznes sub'ektlari 50,1%, kichik korxonalar va mikrofirlmalar 29,6% va yuridik ma'lumotga ega bo'lмаган uy xo'jaligi faoliyatiini amalga oshiradigan xususiy tadbirkorlar 20,5% YaIM ishlab chiqardi. 2003-2009 yillar davomida 3,5 mingdan ortiq davlat korxona va ob'ektlari o'z mulk shaklini nodavlat turga o'zgartirgan.



Manba: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti.

## 2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar

Investitsiyalar o'sish sur'ati yiliga o'rtacha 16,2%ni tashkil etib, ularning YaIMdagi ulushi 19,3% dan 26,1%ga o'sdi. Asosan nodavlat investitsiyalar hajmining oshishi hisobidan investitsiyalar o'sishi ta'minlandi. 2003 yilda umumiylar nodavlat investitsiyalarning ulushi 82,6% dan 91,9% ga o'sdi (2-rasm).

Tovar va xizmatlar eksporti yiliga o'rtacha 3,2 baravr yoki 21,8% o'sdi. Bu mamlakatimiz tashqi savdo balansini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

2004-2009 yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar samarasida 18,1% yoki 11 mln nafardan dan ziyod aholi ish bilan ta'minlandi. Sanoat, transport, aloqa, savdo-sotiq va umumiylar ovqatlanish joylarini qurish, kommunal, maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat qiluvchilar soni oshgani kuzatiladi.

Natijada, real pul daromadi 3 baravar, oylik maosh 3,8 baravar oshdi. Bunda real pul daromad aholi jon boshiga 2,9 baravar o'sganini ko'rish mumkin.

Islohotlar davrida iqtisodiyotning ishlab chiqarish va bandlik tuzilmasida ijobjiy o'zgarishlar kuzatilsada, hal qilishi lozim bo'lgan qator muammolar ham mavjud.

Iqtisodiyotning real sektorida quyidagi muammolar bilan bog'liq bo'lган dolzarb masalalar mavjud:

- Elektr energiya, rangli metallarning alohida turini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, ayrim turdag'i elektr texnika iste'mol tovarlari, to'qimachilik sanoati va boshqa tarmoqlarda past darajali ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish;

- Paxta, teri, yung, sabzavotlar, mevalar, uzum, go'sht, sut va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini past darajada qayta ishlash;

- Daromadning hududiy jihatdan yuqori darajada differentsiyalashuvi. Respublika YaIM da Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo, Andijon viloyatlari va Toshkent shahrining ulushi 48,6% ni tashkil etadi. Mamlakatimiz YaIM ni shakllantirishda ba'zi hududlarning hissasi nisbatan kamroq. Masalan, Sirdaryo viloyati 1,7%, Jizzax viloyati 2,6%, Xorazm viloyati 3,3% va Qoraqalpog'iston Respublikasi 2,7% ni tashkil etadi. Xomashyo-resurs bazasining mavjudligiga qaramay ba'zi viloyatlarda sanoat solishtirma og'irligi pastligicha qolmoqda. Sirdaryo viloyati 1,5%, Surxondaryo viloyati 1,9%. Xorazm viloyati 2,0%, Jizzax viloyati 2,1%, Navoiy viloyati 2,1% va Qoraqalpog'iston Respublikasi 1,4%;

- Respublika jami eksportida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik eksporti ulushining nisbatan past darajada saqlanib turishi. 2008 yilda umumiyl eksportda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik eksportining ulushi 11% ni tashkil etdi.

- Respublika iqtisodiyotida ishlab chiqarish bandligini ta'minlash maqsadida mehnat talab etadigan yangi sohalarda mehnat resurslarining yuqori darajada o'sishi;

EIZni tashkil qilish orqali faol tarzda sanoat siyosatini amalga oshirish mazkur muammolarni hal qilishning muhim yo'naliшlaridan biridir. EIZni tashkil etish bilan bog'liq bunday siyosatni amalga oshirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish maqsadga muvofiqdir:

1. O'zbekistonda EIZni tashkil etishda iqtisodiy-geografik shart-sharoitlarni chuqr o'rganish:

- (i) maqbul davr mobaynida samarali hisoblangan iqtisodiyot sektorlarini aniqlash. Bunda tegishli afzalliliklar, xususan, kerakli sifat va maqbul narxlardagi vosita va mahalliy resurslar, hamda ushbu mahsulotlarni etkazib berish uchun bozor ta'minotining mavjudligini e'tiborga olish lozim. Masalan, O'zbekistonda yuqori darajali ma'lumotga ega bo'lган mehnat resurslari va texnik jihatdan yaxshi ta'lim olgan

mutaxassislar ko'pchilikni tashkil etadi. Mamlakatimizda diversifikatsiyalangan xomashyo materiallari sektori faoliyat yuritadi, shuningdek, respublikamizda keng turdag'i sanoat iste'moli mollarini ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud.

(ii) ishlab chiqarish va transport harajatlarini kamaytirish, xomashyo yaqinligi va mehnat resurslarining ko'pligini inobatga olgan holda, ishlab chiqarish infratuzilmasi tizimi yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari joylashishi bilan bog'liq hududlarni aniqlash;

2. EIZga tegishli bo'lган iqtisodiy siyosat mexanizmlarini aniqlash. Mazkur mexanizmni ishlab chiqish jarayonida EIZ hududlarida o'z faoliyatini amalga oshiradigan xo'jalik sub'ektlari uchun qulay moliyaviy-iqtisodiy sharoitlar yaratish masalalari hal qilinishi lozim. Bunda ularga ma'lum imtiyoz va preferentsiyalar ajratilishi nazarga tutiladi.

3. EIZda ishlab chiqarish va investitsiyaviy faoliyatni amalga oshiradigan xo'jalik sub'ektlari huquqlari himoyasi, EIZ amaldagi tartiblarining ijro va nazorat etilishi bilan bog'liq bo'lган EIZ me'yoriy huquqiy asosini yanada takomillashtirish va mustahkamlash.

## **9.2. O'zbekistonda EIZ tashkil qilishning iqtisodiy geografik sharoitlari (Navoiy Erkin industrial iqtisodiy zona misolida)**

EIZ aniq hududni tashkil qilishda ularning samarali yuritishi uchun zarur bo'lган sharoitlar (ish salohiyati, iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, hududda joylashgan o'quv muassasalarining soni, ularning yo'nalishi) ni chuqur o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shu bois mazkur dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi hududlari to'g'risidagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda EIZ joylashuvi batafsil yoritiladi.

Bu o'rinda joylashuv ikki turdag'i EIZ – eksport-ishlab chiqarish zonalari va texnoparklar uchun aniqlanmoqda.

EIZ tashkil qilish bo'yicha jahon tajribasining ko'rsatishicha, ko'plab mamlakatlar joy tanlashda birinchi navbatda, ularning geografik ahvoliga asosiy e'tiborni qaratgan. E'tiborli jihat shundaki, deyarli barcha EIZ mamlakatning boshqa qismlaridan alohida bo'lган, tog'li, orollar yoki yarimorollarda joylashadi (XXR, Hindiston, va boshqalar). Ayni damda yirik transpot uzellari, zonani mamlakatning boshqa qismlaridan ajratib turuvchi tabiiy yoki sun'iy chegaralarining mavjudligi, ishlab chiqarish omillarining ko'pligi ma'lum hududda EIZ ni tashkil qilishda xususiyatli jihatlardandir. Aynan shu jihatdan EIZ zamонавиy xalqaro mehnat, kapital, tabiiy resurslar taqsimoti amalga oshiriladigan iqtisodiy tutash joylarga o'xshatiladi.

Biroq Respublikamizda mavjud bo’lgan o’ziga xosliklarni inobatga olgan holda boshqa muhim omillarni ham e’tiobrdan chetda qoldirmaslik lozim. Transport chorrahaalrining rivojlangani, tayanch infratuzilma va mehnat salohiyatining mavjudligi hamda mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligi shular jumlasidandir. Bundan tashqari hududlarning ijtimoiy rivojlanish aspektlar ham hisobga olinadi.

Yuqoridagi mezonlar bo'yicha respublikamiz hududlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, EIZ tashkil qilish bo'yicha Chirchiq, Navoiy va Termiz shaharlari mavjud talablarga javob bera oladi (3-rasm).



### 3-rasm. O’zbekiston Respublikasida tashkil qilsa bo’ladigan EIZlar

Quyida mamlakatimizda tashkil qilinishi lozim bo’lgan hududlar to’g’risida ma'lumot beriladi:

**Chirchiq shahri** – O’zbekistonning shimoliy qismida joylashgan bo’lib, mamlakatimiz poytaxtining hamkor shahri hisoblanadi. Shahar 1935 yilda Chirchiq GES tizmasi (Chirchiq-Bo’zsuv GES tizimi) va elektr

kimyo kombinati (“Elektrkimyosanoat” Chirchiq ishlab chiqarish birlashmasi)ning qurilishi bilan bir necha ishchi posyolkalaridan iborat hududda tashkil topgan. Ikkinchi jahon urushi davrida Chirchiq mashinasozlik markziga aylangan. Evakuatsiya qilingan korxonalar negizida “Chirchiqqishloqmash”, “O’zbekkimiymash” va transformator zavodlari barpo etilgan. Bu erda Mi-8 va Mi-9 rusumli harbiy vertolyotlarni ta’mirlash va restavratsiya qilish bilan shug’ullanadigan Chirchiq aviatsiya mexanik ta’mir zavodi, bir necha qurilish sanoati korxonalari, poyabzal, tikuv fabrikasi, go’sht kombinati va boshqa engil va oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyat yuritadi.

Chirchiqda Toshkent texnika universitetining kechki bo’limi, sanoat, tibbiyot va boshqa kollejlar mavjud. Chirchiq yaqinida O’zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi Yader fizika institutining tajriba atom reaktori joylashgan.

Temir yo’l harbiy aeroport va rivojlangan avtomobil chorrahalarini mavjud. Respubilkamizning tog’li qismida joylashgan shahar Chimyon-Chorvoq sog’lomlashtirish sihatgohi hududida yo’lak vazifasini o’taydi. Bundan tashqari Chirchiqda etarli darajada kadrlar salohiyati mavjud bo’lib, ularning aksariyati Toshkent shahrida oliy ma’lumot olgan.

Mazkur sharoitlardan kelib chiqib, ushbu hududa quyidagi sabablar bo’yicha EIZ tashkil qilish maqsadga muvofiqdir:

- Shaharning poytaxtga yaqinligi poytaxt oliy o’quv yurtlari bilan mustahkam olqalarni yo’lga qo’yish imkonini beradi. Bundan tashqari, transport chorraalari va biznes jamlanmaning taraqqiy etgani geopolitik jihatdan muhim ahmiyatga ega;
- Xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlarini tashkil qilishda hudud ekologiyasi rag’batlantiruvchi va jalb qiluvchi omil hisoblanadi.
- Respublikamizning boshqa hudulari bilan taqqoslaganda, Chirchiqda yaxshi rivojlangan kommunal soha mavjud. Elektr ta’minoti bo’yicha shahar – Chirchiq GES tizimi, gaz ta’minotida- asosiy magistral gaz quvurlari, issiqlik ta’minotida mahalliy bug’ qozonlar, suv ta’minoti bo’yicha markazi va er osti suvlardan foydalanadi.

Bundan tashqari, EIZ tashkil etish ushbu hududda ilm-fanni jadal rivojlantirishga hissa qo’shibgina qolmay, ayni damda strategik ishlab chiqarish majmuasi joylashgan Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, yangi texnologiyalarni joriy qilishga ham ko’maklashadi.

Respublikamiz boshqa viloyatlarining manfaatdor shaxslari Toshkent shahriga xizmat safari jarayonida ortiqcha sarf-harajatlarsiz bu erga tashrif buyurib, ushbu zonaning faoliyat yuritish tajribasi bilan yaqindan tanishishlari mumkin.

**Termiz shahri** – Surxondaryo viloyatining ma'muriy markazi hisoblanadi. Shaharga eramizdan avvalgi 1-mingichi yillarning o'rtalarida asos solingan. Termiz Buyuk ipak yo'lining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan qadimiy shaharlardan biri bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini yuksaltirishda muhim rol' o'ynaydi. Bu erda yirik paxta tozalash korxonasi, go'sht-sut kombinati, g'isht zavodi, temir-betonli buyumlar va konstruktsiyalar kombinati joylashgan.

Shahar Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, Afg'oniston respublikasining janubiy chegarsasi hisoblanadi. Termizda temir yo'l stantsiya, xalqaro daryo porti va aeroport mavjud. Sobiq Sovet davrida Termiz ma'lum tartib amal qilgn yopiq shahar bo'lgan.

Shaharda 1992 yilda asos solingan Termiz davlat universiteti, musiqa, tibbiyot va qishloq xo'jaligi kollejlari faoliyat yuritadi.

Termizda rivojlangan infratuzilma va qat'iy chegaralarning mavjudligi hamda uzoq vaqt davomida yopiq shahar bo'lganini hisobga olinsa, shahar O'zbekistonning boshqa shaarlari orasida qator afzallikkarga ega ekanini ko'rish mumkin. Dissertantning fikricha, bu erda maxsus zonaning tashkil etilishi davlatning byudjet vositalarini tejabgina qolmay, zona boshqaruvini engillatishga ko'maklashadi.

Bundan tashqari, afg'on bozorining mavjudligi faqat Termiz shahri orqaligina olib o'tilishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarni talab etadi. Biroq ozirgi kunda shaharning kommunal ta'minoti qator kamchiliklarga ega. Gaz, elektr ta'minotidagi muntazam uzilishlar, past darajadagi xizmat ko'rsatish sohasi, shular jumlasidandir. Biroq ushbu hududda EIZ tashkil etilishi, sanoat va kommunal sohaning rivojlanishi uchun imkon yaratishini ta'kidlash joiz.

Umuman olganda, Termizda aholi salmog'ining ko'pligi, shaharning yopiq tartibda faoliyat yuritgani, janubiy chegaradan o'zlashtirilmagan bozor ta'minotiga yaqinligi- EIZ tashkil etish uchun asosiy omillar bo'la oladi.

**Navoiy shahri** – viloyat markazi bo'lib, 55,1 ming kv km maydonnni egallaydi. Ushbu sanoat shahrida turli xildagi ko'plab mahsulotlar ishlab chiqariladi. Navoiy tog'-metallurgiya kombinati, mashinasozlik va tsement zavodi, "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi, elektr kimyo zavodi, issiqlik elektr stantsiyasi, qator qurilish industriyasini bo'linmalari, paxta

tozalash zavodi, non mahsulotlari kombinati, parrandachilik fabrikasi, oziq-ovqat va mahalliy sanoat korxonalari - bu erdag'i yirik korxonalar sirasiga kiradi. Shahar aholisi 155 ming nafar kishi bo'lib, ulardan 88,7 ming nafari mehnat resurslarini tashkil etadi.

Shaharda avtomobildan tortib, havo transportigacha bo'lgan barcha turadgi transport vositalari mavjud. 2007 yilda keyinchalik yirik hududiy EIZ ga aylantiriladigan Navoiy aeroportining rekonstruktsiya qilish ishlari yakunlandi.

Navoiyda tog'-kon va pedagogika institutlari har yili talabalarni qabul qiladi. 1995 yilda bu erda tog'-kon institutining ochilishi tog'-kon metallurgiya sanoatida malakali kadrlarni tayyorlashda muhim qadam bo'ldi. Institut qoshida texnika kolleji, litsey-internat va ksb hunarga tayyorlash kurslari mavjud. Bugungi kunda shaharda 4 ta akademik litsey va 9 ta kasb hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda.

Navoiyning yuqori darajali ishlab chiqarish kontsentratsiyasi va rivojlangan transport tizimiga ega ekanligini e'tiborga olib, shaharning aeroport hududida quyidagi sabablar bo'yicha EIZ tuzish mumkin:

- Navoiy shahridagi xalqaro aeroportni mintaqaviy logistika markaziga aylantirish bo'yicha hukumat dasturi qabul qilingan. Aeroportni rekonstruktsiya qilish barcha turdag'i samolyotlarga avia uchishlar ko'lамини yanada kengaytirish imkonini berdi.
- Shahar o'ziga xos zahiralari va strategik ahamiyatga ega bo'lgan turli tabiiy-xomashyo salohiyatiga ega.
- Navoiy shahri zarur energiya va issiqlik bilan ta'minlash kafolatini olgan issiqlik elektr stantsiyasiga ega. Bundan tashqari, g'arbiy energiya tizimda Tolimarjon IES ning ikkinchi energoblokini ishga tushirish bilan bog'liq qo'shimcha quvvat zahiralari mavjud bo'lib, bu energiya ta'minotida uzilishlar bo'lish holatini kamaytiradi.
- Hududning tarixiy jihatdan sanoatlashgan shahar ekanligini inobatga olinganda, (Navoiy shahri 20 asrning 70 yillarida tog'-ruda ishlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgandi) bu erda yuqori malakali kadrlar salohiyati mavjud ekanligi ayon bo'ladi. Bundan tashqari hududning jozibadorligi respublikamizning boshqa tumanlaridan muntazam ravishda arzon ishchi kuchi oqib kelishini ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Navoiy shahrida EIZ ni tashkil qilish investitsiyalarni jalb qilish orqali hududni qo'shimcha ishchi o'rnlari bilan ta'minlash, eksport hajmini oshirish, sanoatning texnik darajasini yanada yuksaltirish va tashqi bozorda uning raqobatbardoshligini oshirish,

infratuzilmani rivojlantirish imkonini berayotgani va alalxusus bular viloyat aholisi farovonligini oshirayotganligidan darak beradi.

Ana shulardan kelib chiqib, Navoiy shahrida yangi sanoat inshootlarini barpo etish va mavjudlarini yanada rivojlantirishga turtki beradigan iqtisodiy sanoat zonalarni tashkil qilish taklif etiladi.

Yuqorida keltirilgan hududlardan boshqalariga qaraganda nisbatan ustunroq bo’lgan hudud deb Navoiy viloyati hududi tanlab olinadi va bugun mazkur mintaqada erkin industrial iqtisodiy zona tashkil etilayotir. Navoiy hududining afzalliklari esa quyidagilarda namoyon bo’ladi:

“Navoiy” EIZ Navoiy mul’timodal transport-logistika uzelining markazida, xalqaro aeroport, xalqaro darajadagi avtomagistral va temir yo’lga bevosita yaqin hududda joylashgan. “Navoiy” EIZ 2000 km uzoqlikda 11 ta davlat, Markaziy Osiyo, YAqin Sharq, Hindiston va Hitoy mamlakatlarining 40 dan ziyod yirik shaharlari joylashgan.

Navoiy orqali Eron, Turkiya kabi janubiy portlar hamda Qora va Boltiq dengizi g’arbiy va shimoliy portlariga chiqadigan hududning barcha asosiy temir yo’l trassalari o’tadi. Xitoy va Evropani bog’lovchi eng qisqa temir yo’l marshrut ham aynan Navoiy orqali o’tadi. “G’uzor-Boysun-Qumqo’rg’on” temir yo’lining ishga tushirilishi bilan Afg’iston, Pokiston va Hindistonga nisbatan qisqa tranzit yo’llari yaratildi.

#### 1-jadval

#### **YALPI ICHKI MAHSULOTNI JON BOSHIGA ISHLAB CHIQARISH BO’YICHA HUDUDLARNING REYTINGI**

Hudu d rangi	Iqtisodiy rivojlanish darajasi	Differentsiatsiyalash darajasi
YuQORI DARAJA		
1.	Navoiy viloyati	1.969
2.	Toshkent shahri	1.625
3.	Toshkent viloyati	1.053
O’RTA DARAJA		
4.	Qashqadaryo viloyati	0.858
5.	Dijjax viloyati	0.754
6.	Andijon viloyati	0.749

7.	Sirdaryo viloyati	0.703
8.	Farg'ona viloyati	0.700
9.	Xorazm viloyati	0.652
10.	Surxandaryo viloyati	0.602
11.	Samarqand viloyati	0.601
<b>QO'YI DARAJA</b>		
12.	Namangan viloyati	0.477
13.	Qoraqolpog'iston Respublikasi	0.449

**Manba: «Ekonomika Uzbekistana. Informatsionno-analiticheskiy obzor**

**za 2007 god», TSentr ekonomicheskix issledovaniy. Toshkent.:2008g.**

Shaharning bozor ta'minotiga yaqinligi, markazda 5 ta yirik va MDH, Markaziy va Sharqiy Evropa, Janubiy va Janubiy sharqiy Osiyo, yaqin Sharq mamlakatlarining nisbatan jadal o'sib borayotgan bozorlarining joylashgani "Navoiy" EIZ tashkil qilishda jozibador va muvaffaqiyatli omillardan sanaladi.

"Navoiy" EIZ da sanoatning barcha tarmoqlari bo'yicha xomashyodan tortib, tayyor mahsmulotgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlarini o'z ichiga olgan eksportga yo'naltirilgan sanoat komplekslarini barpo etish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud.

Shu bilan birga Navoiy viloyati hududini tanlab olinishiga yana quyida keltirilgan jadval ma'lumoti ham asos bo'ldi (1-jadval):

Umuman, respublikamiz, EIZ tashkil qilish bo'yicha ulkan hududiy salohiyatga ega. Faqat buning uchun mamlakatimiz hududlarining o'zigaxosligi bo'yicha batafsil tahlil o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

### **9.3 EIZga tegishli iqtisodiy siyosat mexanizmlar**

"Zonalashtirish" siyosatiga bevosita (tarifli: soliq to'lovlarini bahosi, hajmi va b.sh; tarifli bo'limgan: kvotalar, litsenziyalar va b.sh) va

bilvosita (soliq imtiyozlari, bojxona va valyuta boshqaruvi tartiblari va b.sh) fiskal siyosat uslublarini kiritish mumkin. O'zbekiston misolida 4 ta asosiy ta'sir o'tkazish uslublarini ajratib olish maqsadga muvofiqdir. Bular: soliq va bojxona imtiyozlari, valyuta boshqaruvi va litsenziyalashtirish usullaridir<sup>43</sup>.

### **Soliq tartibi**

Bugungi kunda O'zbekistonda horijiy investitsiya korxonalarini va eksport faoliyatini amalga oshiradigan koxonalar uchun keng ko'lamli soliq imtiyozlari yaratilgan. Respublikamizda amal qilayotgan soliq imtiyozlari (mulk, daormad va boshqa soliqlar) va o'z faoliyatini samarali tashkil qilgan EIZ dagi soliq siyosatining taqqoslama tahlili, ularning o'xshashligini ko'rsatdi. SHu jihatdan qaralganda, O'zbekiston hukumatining horijiy investitsiyali korxona va investorlarga taqdim etayotgan soliq va boshqa imtiyozlarining EIZ hududida qo'llanishi ushbu maxsus zonalarning soliq jozibadorligini yaratishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, biznesni yuritishda teng huquqli shart-sharoit yaratish uchun EIZ hududida shunga o'xshash soliq imtiyozlar ham xorijiy, ham mahalliy rezidentlar o'rtasida amal qilinishi darkor.

Jahon tajribasida mulk solig'i ko'chmas mulkka nisbatan qo'llaniladi. O'z navbatida texnologik uskunalar avvaldan mulk solig'iga tortilmaydi va bu korxonalarining ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bilan bog'liq sarf-harajatlarini kamaytiradi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishda zamonaviy texnologiya va uskunalarini joriy qilishni rag'batlantirish muhimligini e'tiborga olib, faqat ko'chmas mulkgina (er, bino va inshootlar) mulk solig'iga tortilish ob'ekti bo'la oladigan preferentsiyalarini qo'llash EIZ rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. SHu bilan birga O'zbekiston Respublikasining boshqa hududlariga erkin zonalar tomonidan etkazib beriladigan tovarlar, maxsus zonalarda qayta ishlanish darjasini, mahsulot hajmi va xaridoridan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan aktsiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Mazkur soliq tartibi respublikamiz hududida tashkil etiladigan barcha turdag'i EIZ ga taaluqli.

### **Bojxona tartibi**

Maxsus iqtisodiy zona hududi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqarida joylashgan, erkin bojxona yoki erkin ombor tartibi amal qiladigan zona sifatida qaraladi.

<sup>43</sup> Spiridonov I.A. Mirovaya ekonomika: Ucheb. Posobie. – M.: RIOR, 2007. – 128 s.

Maxsus iqtisodiy zona rezidentlari tovar va uskunalarini erkin bojxona zona va erkin omborning bojxona tartiblari asosida olib kiradi. Tovar va usknalarni bojxona zona va erkin ombor bojxona tartiblari asosida ushbu maxsus hududga olib kirish tartib va sharoitlari O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona hudududiga erkin iqtisodiy zonalar rezidentlari tomonidan ushbu zonalarda ishlab chiqarilmagan tovarlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga asosan, bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz soliqlariga tortiladi.

Bojxona zona va erkin ombor bojxona rejimi bojxona tartiblari jarayonini soddalashtiradi, xo'jalik sub'ektlarining aylanma vositalari harajatlarini kamaytiradi, zamонавиу тарзда xomashyo va butlovchi qismlarni etkazib berishda ijobjiy rol' o'ynaydi va korxonalarining eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, bojxona zona va erkin ombor bojxona tartiblari asosan eksport-sanoat va erkin savdo zonalarda qo'llaniladi. Biroq jahon tajribasi eksportga yo'naltirilgan yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqaradigan texnoparklar ishlab chiqarishda xomashyoni xorijdo'an import qiladigan texnoparklar ham mavjudligini ko'rsatadi. Ana shunda aynan mazkur tartiblar boshqa turdag'i EIZ va texnoparklarda qo'llanilishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

### ***EIZga keltiriladigan va ushbu hududdan olib chiqiladigan tovarlarni hisob-kitob qilishning soddalashtirilgan tartibi.***

EIZ ga keltiriladigan va ushbu hududdan olib chiqiladigan tovarlarni hisob-kitob qilishda erkin ombor doirasida amal qilinadigan elektron hujjat aylanma va tashqi savdo operatsiyalarning bojxona ma'muriy boshqaruv mexanizmi joriy qilinadi. Bu "YAgona oyna" tartibi asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi eksport va import faoliyatini amalga oshirishda bojxona tartiblarini amalga oshirish bosiqichlari borasida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi savdo shartnomalar va boshqa idoralardan ro'yxatdan o'tkanlik talablarining mavjudligi, bojxona tartiblaridan o'tishda hujjatlar taqdim etishning soddalashtirilgan mexanizmini joriy qilish zarurligini talab etadi.

Mazkur mexanizm barcha turdag'i kerakli hujjat va ma'lumotlar, jumladan tashqi savdo operatsiyalari shartnomasini bir idoraga va faqat bir martagina topshirishni nazarda tutishi lozim. O'z navbatida hujjatlarni qabul qilgan idora barcha ma'lumotlarni bojxona va chegara oldi tartiblarida qatnashadigan barcha idoralar foydalanishi mumkin bo'lган

yagona bazaga joylashtiradi. Idoralar mazkur bazaga o'z xulosalarini kirlitsa, muvofiqlashtiruvchi idora esa o'zining va idoralarning xulosalariga tayanib, bojxona tartibi asosida mahsulotni olib chiqish to'g'risidagi yakuniy qarorni qabul qiladi.

Mazkur tartib dunyoning ko'plab mamlakatlari, jumladan, Evropa va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida muvaffaqiyatli amal qilib kelayotganini ta'kidlash joiz. Bojxona ma'muriyatiga mazkur mexanizmni joriy qilish eksport qiluvchi korxonalarning bilvosita va bevosita harajatlarini kamaytirish, turli idoralarga bir xil turdag'i hujjatlarni taqdim etishdek rasmiyatçiliklar va ma'lum bojxona tartiblarini rasmiylashtirish jarayonidagi sun'iy ushlanib qolishlarga sarflanadigan vaqt ni qisqartirish imkonini beradi. Bunda tashqi savdo operatsiyalarini rasmiylashtirish bojxona tartiblarida ishtirok etadigan idoralarning hujjatlari ko'rib chiqish tartibi va muddati qonunchilik tomonidan boshqarilishi lozim.

Mazkur yo'nalishda olib borilgan empirik tadqiqotlarga ko'ra (Xammels 2001) bojxona va chegara oldi tartiblaridan o'tishda tejalgan har bir kun tranzaktsion harajatlarning eksport qilinadigan mahsulot hajmidan 0,5% ga qisqartiradi. Ana shundan kelib chiqib, bojxona ma'muriyatiga "Yagona oyna" mexanizmi va elektr hujjat aylanmaning joriy qilinishi tashqi faoliyatni amalga oshiradigan ishtirokchilarning tranzaktsion harajatlarini kamaytirishga hissa qo'shadi, deb bemalol aytish mumkin<sup>44</sup>.

Mazkur mexanizmni joriy qilish, ushbu infratuzilmani rivojlantirishga ko'maklashadigan investitsiyalar hajmini oshirishni ham talab etishini ta'kidlash joiz.

### **Valyuta boshqaruvi**

Xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratish - eng avvalo mazkur davlat hududida amalga oshirilgan faoliyatdan qonuniy yo'l bilan olingan daromad va milliy va xorijiy valyutaning erkin konvertatsiyalash imkonini beradigan ikki tomonlama foyda olishni nazarda tutadi.

EIZ rezidentlari orasida chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar va hujjatlarning milliy valyuta bilan teng ravishda konvertatsiyalanganidan foydalanishga ruxsat berilishi zona ishtirokchilarining hisob-kitob ishlarini amalga oshirish jarayonidagi o'ziga xos jihatlaridan biridir. Ushbu ruxsat konvertatsiya bilan bog'liq muammolardan xalos bo'lish va rezidentlarga ular uchun qulay bo'lган to'lov vositasidan foydalanishda erkinliklar yaratish imkonini beradi.

---

<sup>44</sup> *Ekonomicheskoe obozrenie. Jurnal. 2009 y. 8-soni.*

Bunda barcha oldi-sotdi va chet el valyutasini konvertatsiyalash ishlari EIZ rezidentlari tomonidan vakolatli banklar vositachiligidagi amalaga oshirilishi lozim. Mazkur holatda ishtirokchilar (EIZ rezidentlari) chet el valyutasini oldidan deklaratsiya qilish holatisiz sotib olish huquqiga ega.

O'zbekiston ichki valyuta bozorida chet el valyutasini majburiy sotish tartibi tarqalmasligiga e'tibor qaratish lozim.

### **Litsenziya berish**

EIZ da ma'lum turdagiga tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi asosan zona ma'muriyati tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Bunda EIZ hududida taqiqlangan alohida faoliyat turlarini aniqlash lozim. Ular:

- Quroq' va harbiy texnika ishlab chiqarish va savdo qilish<sup>45</sup>;
- Tiladigan materiallar, zaharovchi, zararli, portlovchi, narkotik vositalar, biologik va genetik faol materiallarni ishlab chiqarish va savdo qilish;
- Qimmatbaho metallar, rudali va uglevodorodli foydali qazilmalarni qayta ishlash va ularni sotish;
- O'zbekiston hududida amalga oshirilishi taqiqlangan boshqa faoliyat turlari;

Bundan tashqari texnoparklar hududida ishlab chiqariladigan innovatsion texnologiyalar va yuqori texnologiyali mahsulotlar nafaqat litsenziyalashtirishili, zarur taqdirda intellektual mulkni himoyalash maqsadida patentlashtirilishi ham lozim.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'rzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 257 bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» xamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli

<sup>45</sup> Shevchuk V.A., Shevchuk D.A. Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya: Ucheb. posobie.- M.: Izdatel'stvo RIOR, 2006.-192 s

ma’ruzalarini o’rganish bo'yicha O’quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

3. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.

4. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/

5. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.

6. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. Т.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.

7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. Т.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.

8. Shodiyev R.X. “Jahon iqtisodiyoti”. – Т.: “G’ofur G’ulom”, 2005.- 215 b.

# **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI**

## **O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003.
2. "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 25/04/1996.
3. "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida 25/04/2003
4. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 14/12/1998.
5. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 30/04/1998.
6. Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish kiritish to'g'risida O'zR 20.08.1999 y. 832-I-son Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi etib qayta tashkil qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida 12/14/2005

## **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari**

8. "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrdagi PF-4059-sonli Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami", 2008 yil, 49-son, 478-modda.
9. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoni.
10. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'naliishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iuondagi PF—3618-son Farmoni.
11. «Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 martdag'i PQ—26-son Qarori.

12. Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 10/05/2005

13. Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalg etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 07/21/2005

14. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 06/14/2005

15. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalg etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 04/11/2005

### **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari**

16. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasini faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 27.01.2009 y. 21- son Qarori.

17. "Navoiy" erkin-industrial iqtisodiy zonasini faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida 09.04.2009 y. 105-son Qarori.

18. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasini hududida alohida bojxona rejimi hamda alohida soliq rejimini ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida 23.04.2009 y. 120-son Qarori.

19. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (O'zR VM 02.05.2003 y. 205-son Qarori)

20. Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida (O'zR Prezidentining 22.12.2003 y. PF-3366-son Farmoni)

21. Reeksport bojxona rejimi to'g'risidagi Nizomga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida (O'zR AV 17.11.2003 y. 1134-1-son bilan ro'yxatga olingan O'zR DBQ 10.11.2003 y. 01-02/20-47-son Qarori)

22. Eksport-import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (O'zR VM 30.09.2003 y. 416-son Qarori)

23. Import kontraktlarini hisobga qo'yish va tashqi savdo operatsiyalarining bojxona monitoringini amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 30.09.2003 y. 416-son Qaroriga 1-ilova)

24. Import shartnomalarini hisobga qo'yish va ular to'lovini xo'jalik sub'ektlarining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida (O'zR AV 04.10.2005 y. 1514-son

bilan ro'yxatga olingan O'zR MBB 24.09.2005 y. 268-V-son, O'zR IV 64-son, O'zR MV 94-son va O'zR DBQ 01-02/19-22-son Qarori)

25. Import shartnomalarini hisobga qo'yish va ular to'lovini xo'jalik sub'ektlarining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR AV 04.10.2005 y. 1514-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MBB 24.09.2005 y. 268-V-son, O'zR IV 64-son, O'zR MV 94-son va O'zR DBQ 01-02/19-22-son Qarori bilan tasdiqlangan).

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

26. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, halqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi. /Halq so'zi gazetasi 22.01.2011y.

27. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

28. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik isloxtotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruba), "Halq so'zi", 2010 yil 13 noyabr' (№ 220)

29. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muxim omilidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi// Halq so'zi, 2010 yil 8 dekabr.

30. I. Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi ma'ruzasi). // Halq so'zi, 22 yanvar 2011 y.

31. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muxim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Halq so'zi, 2010 yil 30 yanvar'.

32. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruzasi // Halq so’zi, 2010 yil 28 yanvar’.

33. O’zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo’lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustaxkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdag‘i ma’ruzasi // Halq so’zi, 2009 yil 6 dekabr’.

### **O’zbekiston Respublikasi Vazirliklarining me’yoriy hujjatlari**

34. Постановление Агентства по внешним экономическим связям, Министерства финансов, Государственного таможенного комитета Республики Узбекистан от 11 ноября 2004 года №№ ЭГ-01/10-4238, СР/13-01/3-46/128, 01-02/20-35 «О внесении дополнений в Перечень стран, с которыми подписаны Соглашения о торгово-экономическом сотрудничестве с предоставлением режима наибол’шего благоприятствования». Зарегистрировано Министерством юстиции Республики Узбекистан 14 января 2005г. Регистрационный № 426-4.

### **Darsliklar O’zbekistonda chop etilgan**

35. O’zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan eng muxim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha O’quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 257 bet.

36. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag’ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o’rganish bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2010. – 146 bet.

37. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo’shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik isloxitlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha

o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2010. – 280 bet.

38. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. O'zbekistonning 19 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida jamiyatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning dadil odimlari va muvaffaqiyatlari: talaba yoshlar va keng jamoatchilik bilan uchrashuvlarda foydalanish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy mavzuda ilmiy-ommabop risola. – T.: "Iqtisodiyot", 2010. - 148 bet.

39. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» xamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

40. B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

41. Алимов А. Внешнеэкономическая деятел'ност' Республики Узбекистан. Т.: Узбекистан, 2002. – 245 с.

42. Xamedov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. Т.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashr., 2001.- 328b.

43. Внешнеэкономическая деятел'ност' предприятия: Учебник для вузов. – М.: Междунар. Отношения, 2005. – 234 с.

44. Гвозденко А.А. Страхование: Учебник. М-ТК Велки, Проспект, 2005. – 189 с.

45. Рубанская Э.Т. Управление внешнеэкономической деятел'ност'ю. М.: ЮНИТИ, 2005. – 221 с.

46. Предприятие на внешних рынках: внешнеэкономическое дело. Учебник. Под ред. С.И.Долгова, проф. И.И. Кретова. М.: БЕК, 2004. – 186 с.

47. Герчикова И. Н. Международное коммерческое дело. Учебник. 2-е изд. Перераб. И дополн. – М.: Юнити-Дана, 2004. -254 с.

48. Основы внешнеэкономических знаний: Учебник для вузов /Под ред. И.П.Фоминского. – М.:МО, 2004. – 259 с.

49. Korah V. An Introductory Guide to EES Competition Law and Practice. – Oxford, 2005. – 225 p/

50. Singleton R. Industrial Organization and Antitrust. Columbus. – (Ohio), 2002. – 156 p.
51. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. T.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.
52. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. T.: MChJ “RAM-S”, 2007 yil.
53. Shodiyev R.X. “Jahon iqtisodiyoti”. – T.: “G’ofur G’ulom”, 2005.- 215 b.

### **Xorijda chop etilgan**

54. Васильев Л. СЭЗ: мифы и действительность// Биржевые ведомости. – 2003. – № 1-2
55. Смородинская П., Капустин А. Свободные экономические зоны: мировой опыт и российские перспективы // Вопросы экономики. – 2001. – № 12
56. Данько Т.Округ. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Учебное пособие // Инфра-М, 1998.
57. Друзик Я.С. Свободные экономические зоны в системе мирового хозяйства: Учебное пособие. - М.: «ФУАинформ», 2000.
58. Смородинская Н. Туманно будущее свободных зон // Экономика и жизн'. – 2002. – № 12.
59. Т.Данько, З.Округ. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Учеб.пособие //Российская экономическая академия им. Г.В.Плеханова. М.: Инфра-М, 1998. – 168 с.
60. Я.С.Друзик. Свободные экономические зоны в системе мирового хозяйства: Учеб.пособие. - М., 2000, - 298 с.
61. Э.Сайдловска-Мартини. Функционирование свободных экономических зон в мире. – М.: Инфра-М, 1999. – 78 с.
62. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. - М., 2005. - С. 5-12.
63. Мировая экономика: прогноз до 2020 года / под ред. акад. А.А. Дынкина / ИМЭМО РАН. – М.: Магистр, 2007. – 429 с.
64. Внешнеэкономическая деятел'ност': учеб. для студ. сред. проф. учеб. заведений /[Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелов, С. В. Карпова и др.]; под ред. Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелова. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: «Академия», 2007. — 304 с.
65. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики

управления / Под ред. В.В. Попкова. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. — 295 с.

66. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации: Учебник. — М.: ЗАО «Экономика», 2007. — 359 с.

67. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник для вузов. - М.: Норма, 2006. - 528с.

68. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004-196 б.

69. Ломакин В.К.. Мировая экономика.–М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.-735б.

70. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран.–СПб., 2003.-492 б.

### **O'quv qo'llanmalar O'zbekistonda chop etilgan**

71. Тенденции развития международной торговли. Назарова Г.Г., Адилова З.Д., Сафаров Н.Ч. Т.:ТГЭУ, 2007 г.

72. Jahon iqtisodiyoti. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Xanova I.M., Xakimov N.Z., Bobojonov B.R. T.: MCHJ “RAM-S”, 2007 yil.

73. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti. Nazarova G.G., Xakimov N.Z., Bobojonov B.R., Ergashov D.R., Sultanova N.A. T.:TDIU, 2007 yil.

### **Xorijda chop etilgan**

74.Спиридов И.А. Мировая экономика: Учеб. Пособие. – М.: РИОР, 2007. – 128 с.

75.Ломакин В.К. Мировая экономика. Практикум: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям и направлениям / В.К. Ломакин. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 223 с.

76.Шевчук В.А., Шевчук Д.А. Международные экономические отношения: Учеб. пособие.- М.: Издательство РИОР, 2006.-192 с.

77.Фигурнова, Н. П. Международная экономика: учеб. пособие / Н.П. Фигурнова. — Москва: Издател'ство «Омега-Л», 2007. — 304 с.

78.Глобализация мирового хозяйства: Учеб. пособие / Под ред. д-ра экон. наук, проф. М.Н. Ос'mовои, канд. экон. наук, доц. А.В. Бойченко. - М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.

### **Ilmiy monografiyalar va maqolalar**

79. Дмитрий Огай «Свободная экономическая зона – территория

свободной торговли» 14 октябр' 2009г

80. Искандаров О. «Для привлечения иностранных инвесторов». Газета «Правда Востока» 9 феврал' 2006й.

### **Gazeta va jurnallar**

81. Xalq so'zi. Gazeta. 2004-2009 уу.

82. Экономическое обозрение. Журнал. 2004-2009 г.г.

### **Statistik ma'lumotlar to'plamlari**

83. Узбекистан в цифрах 2009. Статистический сборник. – Т.: Статистика, 2009.

### **Internet saytlar**

84. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz).

85. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)


86. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

87. [www.photius.com](http://www.photius.com)

88. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

**1-ilova**



**Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilmasidan oldingi  
hududlarning umumiy ko'rinishi**





**2-ilova**

**“GUANDUAN PROVINTSIYASI SHENHCJEN, CHJUXAY,  
FUTSZYAN, SYAMIN VA SHANTOU” NOMLI ILK IQTISODIY  
ZONALAR**




<http://blog.naver.com/sgh3924>

3-ilova

## YIRIK PORTLAR DALYAN VA SINDAO



## PORTNING REJASI



4-ilova

## RIVOJLANMAGAN SANOAT BAZASIGA EGA BO'LGAN YIRIK TSYANXUENDAO PORTI



### PORTNING YUQORIDAN KO'RINISHI



## SHENCHEJN ERKIN HUDUDLAR YUQORIDAN KO'RINISHI



## UMUMIY KO'RINISHI



6-ilova

## MAXSUS TEXNOPARKLAR



www.IMG-BOX.ru



**MAXSUS ILMIY TADQIQOT ISHLARI UCHUN YARATILGAN  
EIZ**





## ERKIN ZONALAR QURILISHI ISHLARI





**XITOYDAGI ERKIN ZONALAR UCHUN MAXSUS HUDUD**



**EIZlarni ENERGIYA BILAN TA'MINLASH UCHUN BARPO  
ETILGAN YIRIK GES**





